

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

Toshkent Moliya instituti

Z. Davronov

Ilmiy ijod metodologiyasi

O'quv qo'llanma

**Toshkent,
“IQTISOD- MOLIYA”
2007**

Z. Davronov. Ilmiy ijod metodologiyasi. -T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007, 216 bet.

Mazkur o’quv qo’llanma O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Ilmiy ijod metodologiyasi” kursi bo'yicha, iqtisodiy mutaxassisliklar magistraturasi uchun mo’ljallangan namunaviy dasturga amal qilingan holda tayyorlandi. Qo’llanmaning maqsadi magistrantlarga ilmiy ijod metodologiyasining mazmun va mohiyatini singdirishdan iborat. Ma'lumki, ijodiy fikr malaka va ko’nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli unda fan va ijodning o’zaro munosabati, ijod jarayonini ifoda etish shakllari, uslublari, ilmiy ijodda bashorat, faraz, dalil, tajriba, nazariya, dialektika, sinergetika kabi mavzular yoritilgan. Iqtisod, moliya, soliq, bank tizimi mutaxassisliklari uchun ilmiy ijod metodologiyasining o’rni haqida fikrlar yuritilgan. Ayniqsa, falsafa va iqtisodiy fanlar o’rtasidagi o’zaro ijodiy munosabatlar Sharq va G’arb mutafakkirlari ta’limotlari asosida bat afsil yoritilgan.

Qo’llanma Toshkent Moliya instituti magistraturasida ta’lim olayotgan barcha yo’nalishlardagi magistrantlarga hamda ilmiy ijod metodologiyasi bilan qiziquvchi o’quvchilarga mo’ljallangan.

Ilmiy muharrir: B. Karimov – tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar: I.Saifnazarov - falsafa fanlari doktori, professor;
A. Qodirov - falsafa fanlari doktori, professor;
S. Rahimov - falsafa fanlari doktori, professor.

Mazkur o’quv qo’llanma O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o’quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy Kengashda muhokama qilingan hamda moliya mutaxassisliklari magistrantlari uchun o’quv qo’llanma sifatida tavsiya etilgan (22 iyul 2006 yil 8-sonli bayonnoma).

© “IQTISOD- MOLIYA”, 2007

Kirish

Tabiat va insoniyat tarixi voqealarga nihoyatda boy. Zaruriyat natijasida paydo bo’lgan fanlar inson faoliyatini o’zgartirishga ta’sir etdi va etib kelmoqda. Fan insonning tabiat va jamiyatga bo’lgan ta’sirini kuchaytirdi. Bu ta’sir gohida salbiy, gohida esa ijobiy natijalar berdi. Ayniqsa, XX asrda fan va texnika sohasida erishilgan natijalar fikrimizning dalilidir. Bularga: oqsillarning sintez qilinishi, yadro, atom quollarining paydo bo’lishi, kosmik fazoga insonning tashrif buyurishi, planetalarni tadqiq qilinishiga kirishilishi, kibernetika sohasining taraqqiy etishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va boshqalar kiradi. Bularning barchasi inson ongining ham o’zgarishiga sabab bo’ldi va bo’layotir. Bu erishilgan yutuqlar oxirgi yutuqlar emas, albatta. Borliq cheksiz bo’lgani singari tabiat va jamiyat hodisalarini bilish va ularni rivojlantirishga turtki berish ham cheksizdir. XX asrda paydo bo’lgan kashfiyotlar XXI asrda yanada yuqori bosqichga ko’tariladi, albatta. Yangi asrda yangi-yangi fanlarning paydo bo’lishiga shubha yo’q. Demak, fanlarni paydo bo’lishi inson ijodining mahsuli hamdir. Aniqroq aytadigan bo’lsak, ijod to’xtagan joyda fan rivoji to’xtaydi, fan rivoji to’xtagan joyda ijod ham to’xtaydi. Bu esa taraqqiyotga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Binobarin, har bir avlod o’zi yashagan davr muammolarini echishga intiladi. Ijod qiladi, yangiliklar yaratadi. Bu esa o’zo’zidan bo’lmaydi. Taraqqiyotning turli tarmoqlari bilan shug’ullanuvchilardan sabr-toqat, izlanish, yangiliklar yaratish, o’z munosobatlarni bildirishni taqozo etadi.

Respublikamizda nisbatan yangi paydo bo’lgan kurs - “ilmiy ijod metodologiyasi”ning mohiyati mazkur sohalarni magistrantlar, bo’lajak olimlar tomonidan tahlil qilishga, ma’lum bir ko’nikmalarni hosil qilishga qaratilgan. Har qanday tadqiqotchi ma’lum bir malakaga, bilimga ega bo’lmas ekan, uning kashfiyoti, ijodi to’laqonli bo’la olmaydi. Magistrant va bo’lajak olimlar aniq bir metodologiya asosida faoliyat ko’rsatsalar mehnatlari zoya ketmasdan samarali bo’ladi. Ilmiy ijod metodologiyasining paydo bo’lishi davr talabidir. U falsafa fanining tarmog’idir. Falsafa bilan uzviy aloqadadir. Falsafa fani ilmiy ijod kursining muammolarini boyitadi,

to'ldiradi. Falsafa, fan xususiyatlarini eng umumiy tomonlarini yoritib bersa, ilmiy ijod metodologiyasi esa ijod jarayonlarining aniq talablarini, ilmiy ijodga qanday yondashish yo'l yo'riqlarini va xususiy usullarini yoritib beradi. Ma'lumki, ijod o'ta murakkab, lekin qiziqarli jarayon. Inson faoliyatidagi nozik jihat – aql va farosat, ong va tafakkur bilan bog'langan. Zero, ijod inson hayoti, turmush tarzidir. O'z navbatida aytish lozimki, ijodning o'zi falsafiy muammodir. U falsafa tomonidan o'tgan asrning ikkinchi yarmida Evropa mamlakatlarida tahlil etilgan va fikrlar umumlashmasi sifatida paydo bo'lgan. Tevarak – atrof turli tumandir. Undagi voqeа hodisalar, narsalar ham turli tumandir. Qisqa qilib aytganda, son sanoqsiz yo'nalishlar borki ularning barchasi ilmiy ijodni talab qiladi. Xo'sh, bu qanday talab? Bu ijodda mukammal metodologiyaga bo'lgan talabdir. Shu sababli ushbu qo'llanmaning asosiy maqsadi magistrantlarni mutaxasislik namunalari bo'yicha metodologiyani tanlashga va uni o'z ijodlarida qanday qilib qo'llashni o'rghanishga qaratilgandir. Ularda fan va ijodning dialektik munosobati haqidagi tasavvurni shakllantirishdir. Hayotdagi fan va texnika rivoji ta'sirini oydinlashtirishdir. Bo'lajak ziyolilar, olimlar etikasi, estetikasini ijoddagi o'rnini ko'rsatishdir.

Izoh: Respublikada ushbu kursdan (Moliya sohasidagi magistrantlar uchun) darslik yoki biror qo'llanma yo'qligini hisobga olinib Iqtisodiyot universitetida tayyorlangan yagona o'quv qo'llanmadan hamda falsafa fanlari doktori, professor O. Fayzullaevning "Falsafa va fanlar metodologiyasi" monografiyasidan foydalanildi va asos qilib olindi. Muallif ushbu qo'llanmaning va monografiyaning mualliflariga, ayniqsa, o'zining beg'araz taqriz va maslahatlarini bergan I. Soifnazarovga minnatdorchilik izhor qiladi.

I bob. “Ilmiy ijod metodologiyasi” kursining predmeti, vazifalari va maqsadlari

Kursning predmeti

Fan yoki kurs borliqdagi ob'ektlarni o'rganish uchun harakat qiladi. O'z ob'ektini, predmetini, muammosini tanlaydi. O'qitiladigan barcha fan va kurslar ushbu jarayonsiz o'z mavqeiga ega bo'laolmaydi. Ilmiy ijod metodologiyasi ham bundan istisno emas. Boz ustiga shiddat bilan o'tayotgan zamon falsafiy fanlarni qayta-qayta o'rganishga majbur qilayotir. Ayniqsa, uning metodologik va nazariy jihatlariga zamon talablari asosida yondashishga undamoqda. Shu munosobat bilan magistratura ta'limi jarayoniga kiritilgan ilmiy ijodni falsafiy tushunishga, uning mohiyatini, mazmunini chuqur anglashga jalb etadi. Ijod turlari, ayniqsa ilmiy ijod turlari serqirradir.

Ma'lumki, falsafa va fanda, ularning tarixida ijod muhim o'rinni tutgan. Tadqiqotchi o'z faoliyatida o'zi **tanlagan mavzu, muammoning tarixini** bilmay turib, yangi fikrni berolmasligi tabiiy yoki ijodda **nazariy va amaliy muammolarni** tushunmasdan turib izlanishga kirishish, kelajakda tadqiqotchini boshi berk ko'chaga olib kirishi ehtimoldan uzoq emas. Jumladan, buyuk mutaffakirlar tomonidan **ijodning nazariy** jihatlarini ishlab chiqilganligini o'rganish va zamonaviy ijodlar bilan taqqoslash, albatta zarur. Bu o'z navbatida turli kamchiliklardan xoli qiladi.

Ilmiy ijodda **usullar muammosi** mavjud. Ilmiy tadqiqotda **prognozlashtirish, ilmiy bashorat qilish, dalil va dalillash, ijodda dialektika va sinergetika, tilning o'rni, tilni formallashtirish, mantiq, axborot tizimlarining globallashishi va ijod, O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishda ilmiy ijod metodologiyasining o'rni, ilmiy ijodning xususiy uslubdagi texnologik usullar va boshqa shu kabi mavzulari** borki, bular ilmiy ijod metodologiyasining predmetini tashkil qiladi.

Predmetga kiritilgan mazkur muammolar tabiiy – mexanik, ijtimoiy-gumanitar sohalarning barchasiga taalluqli bo'lsa-da, ushbu kurs uchun

tayyorlangan qo'llanma ko'proq moliyaviy, iqtisodiy jarayonlarga diqqatni jalg etadi. Mazkur sohadagi mutaxassisliklar uchun tayyorlanadigan xodimlarni ilmiy ijodning mohiyati va mazmuni bilan tanishtiradi. Shulardan kelib chiqib, o'z maqsadini amalga oshiradi. Bu maqsadlar asosan quyidagilar bo'lib, ularga magistrantlar asosiy e'tiborni qaratishlari kerak: kursning predmeti, tuzilmasi, vazifalarini, ilmiy bilish va ilmiy ijodning dunyoni tushunishga doir umumfalsafiy, umumilmiy va xususiy ilmiy uslublarni hamda vositalarni bilish; ilmiy ijoddagi empirik, nazariy va intuitiv bosqichlarni, fanning rivojlanishida falsafa fanining umummetodologik o'rnini mavhumlashtirish, tasavvurlar va o'zgarishlarni ishlab chiqishda umumilmiy shakl va uslublarni tahlil qilish; dialektika, sinergetika qonun va kategoriyalaridan, tamoyillaridan o'z ilmiy tadqiqotlari ijodida foydalanishni bilish; o'z fikrlarini dalillay olish va metodologik tartibni ijodiy tortishuvlarida himoya qila olish; iqtisodiy tadqiqotlarda tizimli tartibiy yondashuvni ham ularda modellashtirishning ilmiy jihatlarini o'zlashtirish; I.A.Karimovning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonidagi metodologik ko'rsatmalaridan ijodiy foydalanish, milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining ijod qilishdagi o'rnini tushunib olish va boshqa shu kabi muammolardir.

Demak, ilmiy ijod metodologiyasi kursining vazifalari yuqorida xulosalardan kelib chiqishi tabiiydir. Bu vazifalar avvalo, magistrantlar oldin olgan bilimlarini ilmiy ijod va tadqiqotlarda foydalanish malakalarini singdirish, ilmiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish; falsafiy va iqtisodiy nazariyalarning dialektik munosobatlarini aniqlay bilish va chuqurroq o'zlashtirish; ijoddagi yangi zamonaviy usullardan xabardor bo'lish va ularni hayotga tatbiq etish; ilmiy materiallar to'plashni o'rgatish; taniqli olimlarning ilmiy ijod haqidagi ta'limotlari bilan tanishtirish kabilalaridir. Ayniqsa, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda respublikamizdag'i o'zgarishlarni hisobga olib, I. A. Karimov asarlarini metodologik asos qilib olinishi muhim ahamiyatga ega. Bu asarlar ilmiy tadqiqotchining milliylik va umuminsoniylik jihatlarini kuchaytirishga yordam beradi. Mazkur kurs I. A. Karimovning mamlakatimizda fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish

sohasidagi ishlarni muntazam takomillashtirish haqidagi farmonini¹ amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Metodologiya – uslublar haqidagi ta’limot

Metodologiya so’zining ma’nosи: metod-uslub, logos-ta’limotdir, ya’ni uslublar haqidagi ta’limotdir. Demak, **Metodologiya barcha bilim uslublari va o’zlashtirishlar haqidagi ta’limotdir**. Ma’lumki, barcha aniq fanlar o’zlarining bilish usullariga ega bo’lib, bu usullar o’z predmeti, ya’ni o’z fanining ob’ektlarini tahlil qilish va xulosalar qilishga yordam beradi. Ayni paytda barcha fanlar uchun universal bo’lgan metodlar bor bo’lib, bular falsafiy fanlar metodlaridir. Ana shu falsafiy metodlar aniq fanlar usullarining metodologiyasi hisoblanadi. Metodologiya boshqa metodlarni boyitadi, ularga ob’ektlarni bilish uchun ko’maklashadi. O’z navbatida, aniq fanlar metodlari metodologiyani mazmun va mohiyatini kengayishiga yordam beradi.

Metodologiya har bir sohada yangi bilimlarni olishga ko’maklashadi. Metodologiyaga zaruriyat taraqqiyotning boshlang’ich bosqichlaridyoq ko’zga tashlangan edi. Olamning sir-asrorlarini bilish xulosalar chiqarish va ulardan insonlar o’z faoliyatida foydalanishining o’zi ushbu xususiyatlarni talab etar edi. Masalan, qadimgi Misrda geometriyaning paydo bo’lishi erlarni o’lchash, daryolar o’zanlarini aniqlash bilan bog’liq edi. Ammo uning falsafiy jihatdan asoslanishi yana bir umumiy-universal uslubni talab qilar edi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish, texnika, san’at, madaniyat, fanning elementlarini paydo bo’lishi metodologiyaga bo’lgan talabni yanada kuchaytirdi. Metodologiyani ishlab chiqishda antik dunyo faylasuflari - Geraklit, Suqrot, Aflatun, Arastuning xizmatlari kattadir. Jumladan, Suqrot o’z ta’limotini yaratar ekan, narsa va hodisalarni dialektik tafakkur qilish usuli bilan bilish mumkinligini o’rtaga tashlagan edi. Aflatun esa olamni bilishga mantiqiy yondashish kerakligini uqtirgan edi. Arastu ta’limotida esa haqiqatga erishishning usuli bu – induktsiya va deduktsiya jarayonlaridir. Ushbu sohadagi Arastu ta’limotini yangi zamon faylasuflaridan biri Frencsis

¹ “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish haqida”. Xalq so’zi, 2002 yil. 15 mart

Bekon davom ettirgan edi. Bekon qarashlari esa o'z navbatida, Rene Dekart kabi buyuk faylasufning metodologiyaga bo'lган ijobiy munosobatlarini shakllantirdi.

Metodologiyaning hodisalarga bir - butun, sistemali yondashishni talab etadi. Bu esa voqelik haqida to'la tasavvur olishga ko'maklashadi. Aniq metodlarga nisbatan keng ko'lamli bo'lganligi uchun metodologiyaga asoslangan bilimlarni inkor qilish osonlikcha kechmaydi. Metodologiya orqali bilimlar xazinasi ko'payadi, kengayadi. Ob'ektlar haqida turli tamoyillar ishlab chiqiladi. Kategoriylar, ya'ni yangi tushunchalar paydo bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlarning yangi ko'lami, turlari namoyon bo'ladi. Narsa va hodisalar taraqqiyotining yangi qonuniyatlari, rivojlanish tendentsiyalari aniqlanadi. Aniqrog'i, shu jarayonlar uchun metodologiya xizmat qiladi. Demak, metodologiyani metod to'ldiradi. Metod so'zi grek tilidan olingan bo'lib, bilish, tad'qiqot yo'li, usuli degan ma'nolarni anglatadi. Binobarin, **metod insonning ob'ekt sir-asrorlarini anglashga qaratilgan nazariy amaliy-faoliyati usulidir.**

Metod ishlab chiqarish sohasida biror narsani yasash, yaratish bo'lsa, dehqonchilikda esa o'simliklarni parvarish qilishdir. Metodlar orqali olingan bilimlar nazariya va amaliyotda samarali yutuqlarga olib keladi. Shu sababli metodning boshlang'ich faoliyati bu ilmiy nazariyadir.

Metodlar maxsuslik xarakteriga ega. Bilish jarayoni ana shu maxsus metodlarga suyanadi. Maxsus metodlar bilish jarayonining barcha sohalariga taalluqlidir. Masalan, analiz va sintez, tajriba, modellashtirish, formalashtirish, statistik metodlar ana shunday xususiyatlarga egadirlar. Ushbu metodlar qanchalik qimmatli ahamiyatga ega bo'lmasin ularni metodologiyaga aylantirib bo'lmaydi. Metod va metodologiyaning o'ziga xos xususiyatlari bor. Metodologiya sifatida fanlar tarixida fanlar uchun metafizika, dialektika, sofistika, eklektika, endilikda esa sinergetika foydalanilgan va foydalanilmogda.

Metodologiyaning turlari:

- 1) falsafiy; 2) umum ilmiy; 3) maxsus ilmiy.

Falsafa fanning kategoriya va qonunlaring ilmiy bilish jarayonlarining barcha sohalarini o'zida mujassamlashtiradi. Chunki ular barcha sohalarga tegishlidir.

Umumilmiy metodologiya deyilganda, **bir necha fanlarga taalluqli bo'lgan metodlar hisobga olinadi**. Ulardan bir necha fonda foydalaniladi va ob'ekt haqidagi haqiqatga erishiladi. Masalan, analiz va sintez, tajriba metodlari umum ilmiy metodologiya turlaridir. Bu metodlardan fanlararo tadqiqotlarda foydalaniladi.

Maxsus ilmiy metodologiya bu alohida fanlar ob'ektlarini bilishda foydalaniladigan metodlardir. Ya'ni bir fan doirasida xizmat qiladigan metodlardir.

Ilmiy ijod metodologiyasi va uning boshqa fanlar bilan aloqasi

Ilmiy ijod metodologiyasi kursi boshqa fanlar bilan ham aloqadadir. Bu kurs ham boshqa fanlarga o’xshab o’z predmetini boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o’zini to’la namoyon qila oladi. Demak, ilmiy ijod metodologiyasi falsafa, matematika, fizika, biologiya, iqtisodiyot, sotsiologiya, pedagogika, psixologoya, adabiyot, san’at, mantiq fanlari bilan o’zaro munosobatdadir. Chunki, bu fanlar ham ijod jarayonlari bilan bog’liqdir. Ular ham metodologiyaga, metodologiya esa ularga muhtojdir. Bu jarayonlarning barchasi bilish bilan bog’liqdir.

Bilish – inson faoliyatining ajralmas qismi bo’lib, narsa va hodisa, olam to’g’risida tasavvurga ega bo’lishdir. Bilish orqali u yoki bu voqelik inson ongida aks etadi. Shu sababli, fanlarning barchasi bilish jarayonidan foydalanib o’z funktsiyasini bajaradi. Fanning ma’lum turi erishgan kashfiyot, ikkinchi fan turiga ta’sir qiladi. Fan va ilmiy ijod bilan shug’ulanayotgan kishi tafakkuri ob’ektga doimiy yaqinlasha boraveradi. Chunki bilim jarayoni murakkab holda kechadi. Turli bosqichlarni bosib o’tadi. Bu bosqichlar sezgilar, idrok, tasavvurni o’z ichiga oladi. Barcha fanlardagi ob’ektlarni bilish uchun ulardagi jarayonlarni bilish zarurdir. Bilish dialektik xarakterdadir. U ziddiyatlar orqali amalga oshadi. Bilimda aks etish jarayoni muhim rol o’ynaydi. Aks etishsiz bilish amalga oshmaydi. Shu jihatdan aytish mumkinki, barcha fanlar ob’ektlarini o’rganish ham aks etish (in’ikos)ga bog’liq.

Bilish yordamida barcha fanlardagi qonun va qonuniyatlar ochiladi. Tabiat narsalarining xilma-xilligi o’rganiladi. Bularning barchasida metod va metodologiya qo’llaniladi. Tashqi olam narsalari va hodisalar bilish ob’ektlaridir. Bu ob’ektlar fanlarda aks etadi. Ta’kidlash lozimki, amaliy faoliyat ehtiyojlari bilish jarayonining yo’nalishini belgilab beradi. Echish zarur bo’lgan muhim muammolarni o’rtaga qo’yadi. Fanlar rivojlanish sur’atlarining shart-sharoitlarini aniqlab beradi. Moddiy noz-ne’matlar ishlab chiqarish bilish muammolarini hal qilish uchun turli asbob-uskunalar, texnik

vositalar, jihozlar etkazib beradi. O’z navbatida bilish faoliyati ham ishlab chiqarishda mujassamlashadi, bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanadi.

Ilmiy ijod metodologiyasi singari boshqa fanlar ham bilish bilan bog’langan. Bilish orqali boshqa fanlar ham rivoj topadi. Bilish insonning faoliyatida empirik va nazariy jihatdan namoyon bo’ladi. **Empirik bilish – narsa va hodisalarni inson bilan bevosita yoki asbob-uskunalar orqali o’zaro ta’sir ko’rsatish jarayonidir.** Bu bilishning o’ziga xos metodlari kuzatish, tasvirlash kabilardir. Bilishning empirik darajasida narsa va hodisalarning tashqi ko’rinishlari qayd etiladi, dalillar to’planadi. **Bilishning nazariy bosqichi – insonning narsa va hodisalar mohiyatiga tafakkur orqali kirib borishidir.** Bunda metodologiya fani (iqtisodiy, siyosiy, texnikaviy) orqali tafakkur yordamida u yoki bu sohalarni modellashtiradi, gipoteza, intuitsiya, faraz, dalillar orqali fikran shakllantiradi. Demak, ilmiy ijod metodologiyasi bilish nazariyasi bilan mustahkam aloqadadir. Bilish nazariyasi barcha fanlarda mavjuddir. Bilish jarayonisiz ilmiy ijod kursi o’z predmetini namoyon qila olmaydi. O’z navbatida, barcha fanlar, jumladan: iqtisodiy fanlar bilan shug’ullanayotganlar ham ilmiy ijod mohiyatini tushunmasalar kashfiyotlarga erishishlari amri maholdir.

Iqtisodiy tadqiqotlar ham, ta’kidlaganimizdek, metodologiyaga suyanganida ularning ilmiyligi yanada kuchayadi, chunki ular ham bilish jarayoni bilan bog’liq. Iqtisodiy, moliyaviy, bank tizimi, soliq sohalari bilan shug’ullangan olimlar ham o’z faoliyatida metodlardan, turli xil yondashuvlardan, yo’nalishlardan foydalanishga majbur, ularsiz o’z tadqiqotini amalga oshirolmaydi. Aytish lozimki, O’zbekistonning hozirgi taraqqiyotini belgilab berishda O’zbekiston Prezidenti I.A.Karimov iqtisodiyotni davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi qilib belgilashi bejiz emas. Prezident iqtisodiyotchi sifatida istiqbol iqtisodiyotga bog’liqligini ilmiy asoslab berdi. Shu sababli ham iqtisodchilar ilmiy ijodida I.A.Karimov asarlari metodologiya sifatida xizmat qiladi. Demak, iqtisodiy tadqiqotchilar ilmiy ijod metodologiyasini iqtisodiy jarayonlarning bilish metodlari haqidagi ta’limot sifatida qabul qilishi lozim. U ilmiy jarayon va ijodiy usul, vosita, tamoyil hamda qoidalar yig’indisidir. Shu munosobat bilan aytish

mumkinki, bo'lajak mutaxasislar ilmiy tadqiqot va ilmiy ijod metodologiyasini mukammal o'rgansalar, kundalik faoliyatlaridagi qiyinchiliklarni engilroq echadilar, ularni bartaraf etishlari osonlashadi. Ilmiy ijodda usul va tamoyillarni o'zlashtirish birinchi galdagi vazifadir. Bu o'rinda har bir bo'lajak mutaxassis falsafiy metodologiyaga jiddiy e'tiborini qaratishi lozim. Chunki iqtisodiy sohani bilish usullari ham falsafiy metodologiya bilan aloqada, munosobatdadir.

Iqtisodiy sohadagi ta'limotlarni to'plash axborot tizimiga ham bog'liqdir. Ilmiy izlanish axborotlarsiz amalga oshmaydi. Ayniqsa, hozirgi davr kashfiyotlari turli axborotlarning to'planishiga ham bog'liqdir. Ma'lumki, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy taraqqiyotiga ega. Ana shu iqtisodiy taraqqiyotlarni o'rganish va xulosalar chiqarish ilmiy izlanuvchining bilim saviyasini yanada oshiradi. Amaliy faoliyatida qo'llashiga imkon yaratadi. Bu esa yosh tadqiqotchining kelajagini, ayniqsa, ilmiy faoliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Metod, metodologiya, falsafiy, umumilmiy, maxsus ilmiy, empirik, nazariy bosqich, bilish, iqtisodiy metod, iqtisodiy metodologiya.

Mavzuga oid savollar:

1. Ilmiy ijod metodologiyasi predmeti nima?
2. Ilmiy ijod metodologiyasi kursining boshqa fanlar bilan aloqasini qanday tushundingiz?
3. Ilmiy ijod metodologiyasining vazifalari nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy fanlar metodologiyasi deganda nimalar tushuniladi?

II bob. Fan va ijod

Ijod tushunchasi

Insonlar olamda yashar ekanlar o’z faoliyatlarini turmush tarziga moslashtirib boradilar. Moslashtirish esa insonni ijod qilishga chorlaydi. Ma’lumki, insonlar faoliyati ko’p qirralidir. Bu faoliyat olam sirlarini bilishga, uning ba’zi sohalarini bo’ysundirishga qaratilgan. Sohalarga esa quyidagilar kiradi: tabiatda yashovchi bir yarim milliondan ortiq hayvonot, besh yuzmingdan ortiq o’simlik dunyosi, jamiyatlar faoliyati, oila, jamoa, insonning muammolari, o’ziga xos fazo sirlari va boshqalar mavjud. Inson ana shu sohalarni bilishga intiladi, ulardan xulosalar chiqarishga shoshiladi. Yuqoridagi sohalarning o’zi esa ming-minglab jarayonlarni o’zida qamrab olgani, ularni bilish uchun minglab avlodlarning ham faoliyati etarli emas. Shunday bo’lsa-da, har bir avlod o’z zamoni talablaridan kelib chiqib, yangiliklar yaratishga intiladi. Ijod yordamida bu yutuqlarga erishadi ham. Yutuqlar esa moddiy va ma’naviy qadriyatlardan tashkil topadi.

«Ilmiy ijod metodologiyasi» o’quv qo’llanmasining mualliflari I. Saifnazarov va boshqalar ijodga quyidagicha ta’rif beradilar: **“Ijod - deganda keng ma’noda shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy va ma’naviy olamni insonning maqsad va vazifalariga, uning ehtiyojlari, istaklari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda o’zgartirish borasidagi bunyodkor faolligi tushuniladi”**.

Berilgan ta’rif ancha uzoq bo’lsada, unda ijod tushunchasini izohlashga jiddiy e’tibor berilgan. Ta’rif ijod mohiyatini kengroq qamrab olgan. Unda keng qamrovli: tabiiy, ijtimoiy, va ma’naviy olam haqida so’z boradi. Mualliflar ta’rifda davom etib: **«Ijod bu shakllangan stereotiplar, odatlar, an’analar va shartliliklar doirasidan ongli ravishda chiqish demakdir»** deydilar.

Bu ta’rifda ijod muammosi ancha konkretlashtirilgan va ixchamlashtirilgan. Ijod bu sub’ekt va ob’ekt o’rtasidagi munosabat sifatida gavdalanadi. Ijod ikki holatda ko’rinadi, psixologik va falsafiy. Ijodning psixologik ko’rinishida faoliyatning mexanik tarzdagi jarayoni namoyon

bo'lsa, falsafiy jihatda esa ijodning mohiyati va mazmuni haqida fikr yuritiladi.

Insonning faoliyati keng qamrovli bo'lganligi sababli ijodning turlari ham ko'pdir. **Ijod turlari qatoriga:** badiiy, texnikaviy, ilmiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, iqtisodiy, arxitektura, haykaltaroshlik va boshqa sohalardagi ijodlarni olish mumkin. Bu nomlari tilga olingan ijod turlari ob'ektiv olamning turli sohalarini qamrab oladi. Insonlar turmush tarzi uchun zarur bo'lgan ushbu sohalar ijod ob'ektlaridir.

Ijodning tarixi antik dunyoga borib taqaladi. Antik dunyoda birinchilar qatorida ijod jarayonining mohiyati ustida to'xtalganlardan biri Aflatundir. Uning fikricha, ijod bu insonning aqliy faoliyati borliqni oliy darajada his etish nuqtasidir. Keyinroq faoliyat ko'rsatgan faylasuflardan biri Avgustinning fikricha, ijod Ollohgagina taalluqli bo'lgan jarayondir. Ijod masalasiga ko'proq e'tibor O'rta Osiyo mutafakkirlari (IX-XII asrlarda) tomonidan berilgan. Ular ijod qilgan sohalarning har birida ijod orqali, misli ko'rinas kashfiyotlar yaratilgan. Al-Xorazmiy, al-Forobiy, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom ta'limotlari, ijodlari bunga misol bo'la oladi. Ammo ijod muammosini hal etishda ba'zi faylasuflar notirik tabiatda ham ijod elementlari bor, deb tushuntiradilar. Bularga misol qilib gilozoizm, vulgar (sodda) materialistlar ta'limotlarini olish mumkin. Ularning fikricha, jonsiz tabiatdagi o'zgarishlar taraqqiyot yoki rivojlanishning natijasi ekanligini tushunmaslikdandir.

Umuman, ijodni tor va keng ma'noda tushunmoq lozim. Ijodni tor ma'noda tushunganda, uni nafaqat olimlar faoliyatida, balki har bir inson faoliyatida ham mavjud bo'lishini unutmaslik kerak. Masalan, dalada faoliyat ko'rsatadigan dehqon yoki cho'pon o'z sohasini mukammal bilish uchun izlanadi. O'z sohasiga taalluqli yangiliklar yaratishga harakat qiladi, bunga erishadi ham. Demak, ijod oddiy, kundalik, ilmiy, murakkab, ziddiyatli bo'lishi mumkin.

Ilmiy ijod sistemali bo'lib, unda inson faoliyatining ko'p qirralari: bilimi, malakasi, tajribasi, asbob-uskunalar bilan qurollanganligi,

adabiyotlarga boyligi, ish-joy sharoitlarining maxsusligi va boshqalar bilan ajralib turadi.

Xulosa qilish mumkinki, ilmiy ijod bu - izlanuvchining tafakkuri va qobiliyatini ob'ektga nisbatan chuqur va mohiyatan yaqinlashib borishining yuksak darajasidir.

Ilmiy ijod izlanuvchining mashaqqati va og'ir mehnatini talab qiladi. Qiyinchiliklarga bardosh berishini kutadi. Albatta, ilmiy ijod bilan barcha insonlar ham shug'ullanavermaydi. Ilmiy ijod qilish uchun inson qobiliyatli bo'lishi va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. O'z navbatida, ilmiy ijoddha intilish, faoliyat ko'rsatish katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, ilmiy ijod ma'lum bir sohani tanlab uni o'rtaga qo'yishdan boshlanadi. Demak, ilmiy ijod yoki tadqiqot o'z maqsadiga ega. Maqsadga erishish esa, masalani tushunish, yangilik yaratish bilan bog'liq. Fan tarixida minglab olimlar borki, ular ana shu maqsadlarni tushunganlar va ularga erishganlar. Bular qatoriga al-Xorazmiy, al-Beruniy, Galilei, N. Kopernik, Mirzo Ulug'bek, D. I. Mendeleev, V. I. Vernadskiy, N. I. Vavilov, N. Bor, A. Eynshteyn va boshqa olimlar shular qatoridandir. Bularning ilmiy faoliyati davrlar talabi bilan bog'liq. Shu bilan birga ularning maqsadi va ilmiy izlanishdagi ilmiy faolligi bilan ham. Ijod natijasi narsa va hodisalarni ma'lum bo'limgan tashqi va ichki xususiyatlarini ochib berishnigina emas, balki axborot to'plash, insonning bilim doirasini kengaytirish, yangicha hissiy qabul qilish, tajribalar o'tkazish kabilarga yordam beradi. Eng asosiysi yangi muammolarni keltirib chiqishga asos bo'ladi. Demak, ijod ham bilish kabi cheksizdir. Mazkur savolni yakunlar ekanmiz, bizningcha **ijod bu - izlanuvchining ma'lum yangilik yaratish uchun ob'ektga qaratilgan shaxsiy qobiliyatidan kelib chiquvchi hissiy bilim va tuyg'ularni amalgalashiruvchi jarayondir.**

Fan va ijod, ularning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri

Tabiat xilma-xil moddalardan tuzilgan bo'lsa-da, ular materiyadir. U elementar zarralar, antizarralar, qum, tuproq, suv, havo, jonli va jonsiz mavjudot, planetalar, yulduzlar, galaktikalar va boshqa fazoviy jismlar, fizik

maydonlar yig'indisidan iborat. Hozirgi zamon fan ma'lumotlariga qaraganda materiya bundan 20 million yillar avval boshqa ko'rinishlarda bo'lган. Keyingi million yillar davomida esa o'zgarib boradi. Inson hayoti tabiatning tozaligi va biosferaning normal sharoitiga bog'liq. Mazkur sharoitlar nomuvofiq bo'lsa, insonning yashash sharoiti buziladi. Yashashga putur etkazadi. Ekologik muammolar kelib chiqadi. Ilmiy-texnika afzalliklaridan noto'g'ri foydalanish biosfera va neosferaning buzilishiga olib keladi. Demak, tabiat sirlarini mukammal bilish fan taraqqiyoti va ijodning rivojlanishiga bog'liq.

Jamiyat tabiatning bir qirrasidir. Unda oila, mahalla, jamoa, jamiyat a'zolari harakat qiladi. Bu harakat jarayonida turli voqealar sodir bo'ladi. Voqealar esa inson faoliyati bilan bog'langan. Bular: iqtisodiy o'zgarishlar, diniy jarayonlar, demokratik qurilish, siyosiy-huquqiy faoliyatlar, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar, urf-odatlar kabilardir. Mazkur jarayonlar ba'zida salbiy, ba'zida ijobiy yo'naliishlarni tashkil qiladi. Binobarin, mana shu yo'naliishlarni tartibga solishda ham fanlarga murojat qilinadi. Tabiat, jamiyatdagi hodisalarni o'zaro munosabatini tushunish va xulosalar qilish fan rivoji bilan belgilanadi. Fanlar turlichadir. U o'zining klassifikatsiya shajarasiga ega. Fan tarixida fanlar shajarasini birinchilardan bo'lib Arastu ishlab chiqqan. Hozirgi zamon olimlari fanlarni ko'proq uchta katta guruhga bo'ladilar: **tabiat haqidagi, texnika haqidagi va ijtimoiy-gumanitar fanlar.**

Bu guruhlarning har biri o'zlarining shajarasiga egadir. Ammo shu fanlar ichida falsafa, aniqrog'i dialektika barcha fanlarning metodologiyasidir. U barcha fanlarda mavjud, barcha fanlar esa unda mavjuddir. Har bir jismning, hodisaning o'zagi bo'lganidek, fanlarning ham o'zagi bo'lib, bu o'zakini dialektika tashkil qiladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir fan o'zining shajarasiga ega. Masalan, falsafaga - falsafa tarixi, global va regional falsafa (sharq, g'arb va b), siyosat falsafasi – milliy g'oya va mafkura falsafasi, huquq falsafasi, din falsafasi, mantiq falsafasi, madaniyatshunoslik falsafasi, estetika falsafasi, texnologiya falsafasi, texnika falsafasi, tabiat falsafasi, ijtimoiy falsafa, antologiya,

genoseologiya, inson falsafasi, jamiyat falsafasi, fan falsafasi, qadriyatlar falsafasi, ma'naviyat, iqtisodiyot falsafasi va boshqalar kiradi.

Hozirgi zamonda dunyoda 2000 dan ortiq fanlar o'qitiladi, bu fanlarning barchasi ijod bilan bog'langan. Demak, inson faoliyatini fan taraqqiyotisiz tasavvur qilish qiyin. Odamlar fan yordamida maqsadlariga erishadilar.

Bilim fan orqali olinadi. Bilim kuch va ma'rifikatdir. Fan bor ekan nodonlik va bid'at, toqatsizlik va tartibsizlik va turli to'siqlar rivojlanish yo'lidan olib tashlanadi. Ularga barham berish fan va ijodning vazifasidir. Inson qancha ma'rifikatli bo'lsa, u jiddiy lashib boradi, axloqliroq, madaniyatliroq bo'ladi. Zero insonlarning ma'rifikatli bo'lishi, olg'a qarab harakat qilishi demakdir. Ma'rifikatli kishi o'z manfaatiga axloqiy jihatdan yondashadi. Ijod qilishda turli uslub va nazariyalardan foydalanadi. Shu jarayonning o'zida yangi fanlar ham paydo bo'ladi. Fanlarni ham uquvli, talantli, buyuk shaxslar yaratadi. Fanning yana bir xususiyati shundaki, u tabiatning rivojlanishi va jamiyatning moslashishi, yashab turmush tarzini o'tkazishning himoya vositasi hamdir. Himoya esa turli metodlardan foydalanish asosida boradi. Bunday metodlarga abstraktlashtirish, tajriba o'tkazish, kuzatish, shakllantirish, (modellashtirish) matematiklashtirish, tahlil va sintez qilish, tarixiylik-mantiqiylikdan foydalanish, induktsiyalash-deduktsiyalash va boshqalar kiradi.

Fan inson va jamiyat faoliyatining muhim mahsuli bo'lib, narsa va hodisalarining xossalari, munosabatlari hamda qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan tizimlar yig'indisidir. Shu bilan bir qatorda fan ijtimoiy ong shakllarining biridir. Aytish lozimki, fan so'zining aynan ma'nosи – bilim demakdir. Lekin har qanday bilim ilmiy bo'la olmaydi. Odatdagи yoki turmush tajribasi deb atalgan har qanday soha, aniqrog'i, oddiy kuzatish va amaliy faoliyat asosida olingan dalillar va jarayonlarni oddiygina tavsiflanishdan, ularning oddiy tomonlarini aniqlashdan nariga o'tmaydigan bilim fanni ifodalamaydi. Shu sababli fanning vazifalarini ham to'g'ri tushunish talab etiladi. Bu vazifalar quyidagilar:

1. Fan inson faolligini oshirishga xizmat qiladi. Tevarak-atrofnı mukammalroq bilishga yordam beradi.
2. Insonlar faoliyati bilan ob'ektlarning o'zaro aloqasini ifodalaydi va moslashtiradi.
3. Narsa va hodisalarining rivojlanish qonuniyatlarini ochishga ko'maklashadi.
4. Fan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy - axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi va avloddan-avlodga etkazishga xizmat qiladi.
5. Fan monitoring vazifani bajaradi. Tabiat va jamiyat hodisalarining global holatlarini nazorat qilishga hamda turli yangi sohalarni barpo qilishga o'z hissasini qo'shadi.
6. Axborotlar to'playdi va axborotlar bilan insonlarni ta'minlaydi.

Fan oddiy dalillar va turli qonunlar haqidagi bilimlarning oddiy yig'indisidan iborat emas, balki tizimlarga solingan ilmiy bilimlar yig'indisidan iboratdir. Har bir fanda aks ettiriladigan muammolar o'zaro bog'langandir. Ularni ajratish mumkin emas. Ammo har bir fan ma'lum bir me'yorga etib borganda o'zidan ma'lum bir sohalarini ajratib mustaqil fan bo'lishga asos bo'ladi. Buni biz yuqorida fan shajarasida ko'rdik. Fanning rivojlanishi dalillarni oddiy to'plashdan, dalillar orqali maxsus qonuniyatlarni o'rganish va ochib berishgacha bo'lgan qiyin, lekin sharaflı vazifani ham zimmasiga oladiki, bu jamiyat vakillarini har biriga taalluqli bo'ladi. Shu yo'sinda nazariyalar yaratildi. Fan nazariyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ham ko'rsatib beradi. Fan insonga tabiat va jamiyatning haqiqiy manzarasini yorqin ifodalab beradi. Ushbu manzara esa fan taraqqiy qilgan sari tobora to'laroq inson ongida aks etaveradi. Fan san'atdan tubdan farq qiladi. San'atda fantaziya, badiiy siymolar, biror hodisani o'ylab chiqish kabilalar mavjud. Fanda esa bunday holatlarga o'rın yo'q. Chunki fan borliqni qonuniyatlar asosida aniq tizimlarga asoslangan holda ifodalaydi.

Fan ishlab chiqarishni rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida ishlab chiqarishning rivojlanishi fan taraqqiyotiga turtki

beradi. Ishlab chiqarishda va jamiyat hayotida fanning rolini oshib borishi tabiiy hol bo'lib, u to'xtovsiz rivojlanish xususiyatiga ega.

Demak fan bo'lmasa, dehqonchilik va chorvachilik, sanoat, transport va energetika, informatsion jarayonlar va madaniy vositalar bo'lmas edi. Bundan tashqari fanning rivojlanishi analiz sohalarini boyitadi, kengaytiradi.

Falsafaning ilmiy ijoddagi vazifalari

Falsafa fani fanlar ichida eng qadimiydir. Qolgan fanlar nisbatan yangidir. Ana shu fanlarning ham o'zlarining metodologiyasi bor. Masalan, biologiya fani hozirgi paytda juda ko'p tarmoqlarga ega. Shu tarmoqlar uchun darvinizm fani metodologiya deb hisoblansa, geometriya fanlari uchun Evklid, fizika fanlari uchun Eynshteyn ta'limoti, mexanika fanlari uchun Nyuton ta'limoti, algebra uchun al - Xorazmiy ta'limotlari metodologiyadir. Bu metodologiyalar ma'lum davrlarda paydo bo'lib, rivojlanib o'zgarib borgan. Fanlar tarixida shunday bir metodologiya borki, u o'zgarmasdir. Bu falsafadir. Falsafa barcha fanlar uchun umumiyl metodologiyadir. Demak, ilmiy ijod ham falsafaga suyanadi. Zero, falsafa, ijod uchun metodologiyadir. Falsafaning gnoseologik vazifasi bu – ilmiy bilish jarayonini asoslab berishdir.

Gnoseologiya ijod jarayonini sub'ektning faol, mutlaq maqsadga yo'naltirilgan faoliyati, deb e'tirof etadi. Ana shu faoliyat orqali sub'ekt ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi yutuqlarni keltirib chiqaradi. Shaxsni talant va qobiliyatini, ilmiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. **Demak, ijodni falsafa bilan bog'lab tushuntirsak, ijod deganda, avvalo, ilmiy falsafiy yondashilgan jiddiy va muhim, inson faoliyati uchun zarur bo'lgan ob'ekt sirlarini ochish tushuniladi.**

Ijodni to'g'ri yo'lga boshqaruvchi metodologiyaning o'zi ilmiy bo'lishi kerak. Bu falsafaga oid. Masalan, markscha-lenincha falsafaning ba'zi tomonlari noto'g'ri bo'lib chiqdi. Sababi, bu falsafa fanni dinga qarshi qo'ydi. Fanni sinfiylashtirib uni sotsialistik va kapitalistik yo'nalishlarga bo'lib tashladi. Fanni bir yoqlamalikka olib bordi, ya'ni fan faqat ishchilar va dehonlar foydasiga aniqrog'i kommunizm g'oyasiga bo'ysundirmoqchi bo'ldi. Haqiqatda esa falsafa tabiat, jamiyat, inson tafakkuri uchun nazariy va amaliy jihatdan xizmat qilishi lozim. Demak, falsafani ijod uchun eng umumiyl, maxsus tomonlarini hisobga olgan holda, uni hayotga tatbiq eta bilish kerak.

Falsafa barcha ijod turlari uchun, asosan to'rtta vazifani bajaradi:

1. Ijod turlarini nazariya bilan qurollantiradi, ya’ni ijod turi qaratilgan ob’ekt haqida oldindan ma’lum mazmun va mohiyatga ega bo’lgan fikrni o’rtaga tashlaydi. Ijodkorni izlanishga chorlaydi.

2. Eng umumiyligi metodologiya sifatida ijod turlariga xizmat qiladi. Ijodning xususiy metodlarini boyitib boradi. Xulosalarni yanada ilmiy bo’lishini ta’minlashga harakat qiladi.

3. Ijod jarayonida izlanuvchini u yoki bu dunyoqarash bilan shakllantiradi. Ijod qiluvchining tafakkur darajasini kengaytirishga yordam beradi.

4. Ijodning milliy va umum insoniy qadriyatlargacha e’tiborini kuchaytirishga yo’naltiradi va boshqalar.

Bu sohalarning barchasi falsafiy bilish jarayoni bilan bog’langan. Falsafaning bilish sohasidagi vazifasi ham diqqat e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Sababi, bilish jarayonisiz ijod amalga oshmasligi bizga ma’lum. Bilish orqali inson haqiqatga erishadi. Demak, falsafa, falsafa predmetining o’zini ham to’g’ri yo’lga boshlay olish lozim. Tekshirilayotgan yoki mulohaza yuritilayotgan ob’ektning turli tomonlari xususiyatlarini, mazmun mohiyatini to’liq, ongli, har tomonlama bilish ijodning hayotiyligini ta’minlaydi. Falsafa ijodkorni ijod orqali tubdan, yangi bilimga ega bo’lishga chorlaydi. Mutlaqo noan’naviy tafakkur usuli bilan qurollanishga, ob’ektga nisbatan o’ta ongli sub’ekt sifatida e’tiborni qaratishga majbur qiladi. Bu esa ijodkorning faoliyatini yangi bosqichga ko’taradi.

Xulosa qilib aytganda, falsafa ijod jarayonida o’zining qonun va kategoriyalari orqali ilmiy tadqiqotlarning tuzilishi, uslublari vositalari va barcha jarayonlarini anglashda yordam berish bilan birga ijodkorning faolligini oshiradi. Ob’ekt mazmuniga qarab fikrlashni maqsad qilib qo’yadi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Ijod turlari, ijod, gilozoizm, ilmiy ijod, inson faoliyati, fanlar klassifikatsiyasi.

Mavzuga oid savollar:

1. Ijod tushunchasiga ta'rif bering.
2. Ijod qilish qaysi davrlarga borib taqaladi?
3. Ilmiy ijod tushunchasi nima?
4. Fan va ijodning aloqasi va o'zaro ta'sirini tushuntiring?

III bob. Falsafa va fan tarixida ijod muammolarining ishlab chiqilishi

Misr, Kichik Osiyo, Qadimgi Gretsiyada ilmiy-falsaffiy ijod tizimlarining paydo bo'lishi

Qadimgi Misrda quldorlik davlati barpo etilgan edi. Qullar mehnatidan foydalanib suv chiqarish inshootlari, piramidalar, saroy va koshonalar qurilgan. Bizning eramizgacha IV-ming yillikning oxiri – III-ming yillikning boshlarida quldorchilik bu mamlakatda o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Ana shu davrlarda Misrda astronomiya, kosmologiya, matematika fanlarining paydo bo'lishiga birinchi qadamlar qo'yilgan edi, bu birinchidan, ikkinchidan shu davrlarda afsonaviy qarashlar shakllana boshlangan edi. Shu sababli bu davrda, ushbu mamlakatda falsafa fani ijtimoiy ongning shakli sifatida ham shakllangan edi.

Qadimgi dunyo xo'jaligini yuritish uchun bilim va amaliyot talab qilinardi. Nil daryosining suvini pasayib-ko'tarilib turishi astronomiya fanini rivojlantirishga olib kelgan bo'lsa, dehqonchilik sohalarini boshqarish esa amaldorlar faoliyatiga borib taqalar edi. Xo'jalik yuritish ishlari faoliyatini olib borish aniqroq calendarni talab qilar edi. Bu esa Quyosh va Oy, yulduzlar sistemasi bilan bog'langandi. Bularning barchasi ilmiylikni, bilishni taqozo etar edi. Ijodni zaruriyatga aylantirgandi. Natijada matematika, algebra va geometriya paydo bo'ldi. Jumladan, Vaviloniyaliklar 60 daqiqalik yozma vaqtini ijod qildilar. Bu yozma vaqt orqali hisob-kitob qilish hozir ham (bir soat – 60 daqiqa, 1 daqiqa – 60 sekund) ahamiyatini yo'qtgani yo'q.

Fazodagi yorug'lik tarqatuvchi jismlar faqat yorug'lik tarqatib qolmasdan balki olamning ijod manbai sifatida ham e'tirof etildi. Bu esa afsonaviy xudolarni ijod qilishga asos bo'la boshladi. Vavilonliklarning fikricha «Oy xudolarning otasi» hisoblangan.

Qadimgi Misrdagi madaniyat insoniyat tarixida eng qadimgi madaniyat hisoblanadi. Gerodotning yozib qoldirishicha, yilning davomiyligi, ya'ni uning $365 \frac{1}{4}$ kunligi ham Misrda ijod qilingan. Ayniqsa, geometriya

sohasida ijod qilingan kashfiyotlar insonlarni hozir ham lol qoldirib kelmoqda. Jumladan, piramidalar o'lchamlarining haqiqiy ilmiyligi, ya'ni kvadratlar, uchburchaklar, to'g'riburchaklar, trapetsiyalar, doiralarning o'lchamlari fikrimizni asoslaydi. Demak, o'sha paytlardayoq ijod qilishda maxsus uslublar ishlab chiqilishi natijasida ijod uchun sharoit yaratilgan. Ma'lum ma'noda nazariy bilimlar talab qilingan.

Diniy sohalarni va afsonalarni falsafiy tahlil qilish zarurati paydo bo'lgan va falsafa fani ham taraqqiy qila boshlagan. So'ngra afsonalarni diniy jihatdan emas, falsafiy tahlil qilish kuchliroq o'rinni ola boshlagan. Bu esa o'sha paytda yashagan insonlardan bilim va ijodni talab qilardi. Masalan, "Arfist qo'shig'i" adabiy manbasida, diniy afsonaviy sohalar tanqid qilinib, vafot etgan inson u dunyodan xabar bera olmasligi, qaytib kelmasligi, shu sababli er ustidagi hayotning qadriga etish kerakligi haqida mulohazalar yuritilgan. Bu ijodning oddiy ko'rinishlari edi.

Eramizgacha bo'lgan, ya'ni Antik dunyo deb ataluvchi davrlarda Gretsイヤada ham izlanish, ijod yuqori cho'qqiga ko'tarilgan. Falsafa fan sifatida eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Gretsイヤada shakllandi. Ayniqsa, Aleksandr Makendonskiy imperatorlik qilgan davrlarda falsafa ravnaq topa boshlagan.

Milet maktabi. Gretsイヤa mutafakkirlari ta'limotida ijod

Eramizdan oldingi VI asrda Yunonistonda quldorlik tuzumi ancha rivojlangan edi. Yunonistonning Milet, Efes, Fokiya kabi shaharlarida hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Natijada, Osiyo, Afrika, Misr bilan bo'lgan madaniy va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi greklar madaniyatiga ta'sir etdi.

Milet materialistik maktabining asoschisi **Fales** (eramizdan oldin 624-547 yilda yashagan)dir. Fales geometriya, astronomiya, matematika fanlarini rivojlantirdi. Bu davrda falsafa fani inson bilimlarining yig'indisini ifoda qilardi. Gretsイヤa falsafasi tarixida Fales birinchi bo'lib, tabiatdagi hodisalarning rivojlanish manbaini qidirdi.

Falesning fikricha, tabiat hodisalari asosida suv yotadi. Undan tashqari, Falesning shogirdi **Anaksimandr** (eramizgacha 610-546 yillarda yashagan) dunyoning asosida suv emas, cheksiz shaklga ega bo'lgan apeyron yotadi, deb tushuntirdi. Uning fikricha, hamma narsa shu apeyrondan kelib chiqqan va yana apeyronga qaytadi. Apeyron harakati esa qarama-qarshilikning kelib chiqishi asosida bo'ladi.

Mavjudot Anaksimandrning fikricha, rivojlanish, taraqqiyot xudolariga bog'liq emas. Anaksimandr birinchi bo'lib odamning paydo bo'lish masalasiga qiziqadi va uni balchiqlardan paydo bo'lgan, deydi. U birinchi bo'lib, geografik karta tuzgan, quyosh soatini yasagan.

Milet matabining keyingi vakili **Anaksimen** (eramizdan avval 585-525 y. da yashagan)dir. Anaksimennenning fikricha, dunyo havodan tashkil topgandir. Anaksimen ijodida ateistik qarashlar bor edi. Kosmik o'zgarish xudosiz, borliqning doimiy o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi. Milet maktabi vakillarining ta'limoti materialistik xarakterga egadir. Ularning ta'limoticha, dunyoning asosida moddiy bir narsa - modda yotadi. Ular tabiatning qonuniy rivojlanishini modda va uning xarakteriga bog'laydilar.

Grek dialektikasini Pifagor maktabi rad etdi. Milet faylasuflari dunyoning asosiga materiyani qo'ysalar, Pifagor maktabi esa sezish mumkin bo'lмаган abstract raqamni - sonni qo'yadi. Bu idealistik falsafa stixiyali materializmga qarshi chiqdi. Bunga sabab, bilish jarayonining qiyinchiliklari natijasi edi.

Pifagor, eramizdan oldin (580-550) yashagan. Pifagor maktabi matematika bilan qiziqqani uchun tabiat qonuniyatining miqdoriy xususiyatlarini anglashga qaratdi. Bu maktab g'oyalarida idealistik diniy falsafiy qarash bilan ilmiy tafakkur elementlari uchraydi. Pifagorchilar o'zlarining ta'limotlarida dunyoqarash sohasi bilan miqdor kategoriyasini kiritdilar.

Afina faylasuflari materiyaning ichki tuzilishi, moddiy elementlar xarakterini, uning rivojlanish sabablarini tushuntirishga uringanlar. Bu faylasuflar Levkip va Demokritlardir.

Levkip (500-440) birinchi bo'lib ateistik qarashni olg'a surdi. Dunyo uning fikricha, bo'linmaydigan moddiy element-atomlardan tuzilgan. Atamos - bo'linmaydigan, grekcha so'z. U dunyodagi narsalarning paydo bo'lishi va yo'qolishini zaruriyat va sababiyat bilan bog'laydi. Bu ta'limot Demokrit falsafasining ham negizini tashkil qiladi.

Efess shahrida **Geraklit** (475-374) yashab o'tgan. Geraklit dunyoning asosida olov yotadi, dunyo mana shu olovning qonuniy alanganib va so'nib turishidan iborat deydi. Geraklit hech qanday xudo ham, odam ham dunyoni yaratmagan, dunyo o'z-o'zidan qonuniyat bilan so'nuvchi, tirik olovdan iboratdir, deydi. Geraklitning materialistik ta'limoti ham stixiyali xarakterga ega, farazlardan iborat edi. Chunki o'sha davrda dialektika va materializmni fan darajasiga ko'tarishga imkoniyat yo'q edi.

Qadimgi Yunonistonda turli oqimlar paydo bo'lib, ulardan biri sofistlardir.

Sofistlar (donishmandlar) qadimgi grek falsafasida muhim o'rinni egallaganlar. Avvalgi grek faylasuflari barcha o'zgaruvchan rang-baranglikdagi birlik haqidagi masala bilan mashg'ul bo'lganlar. Ular urfatlarning turlichaligini, axloqiy, siyosiy, huquqiy jarayonlarning falsafiy jihatlarini asoslashga urindilar. Ammo, muhim bir fikrga kela olmaganlar. Grek faylasuflarining ba'zilari bitta universal umumiyligi axloq va bitta siyosiy ideallik mavjud, deb tushuntirsalar, ba'zilari bu holatlarni jamiyat yoki yagona bir odam dunyoga keltirgan, deb fikr bildirganlar. Qisqasi, har bir faylasuf o'zicha olamdagagi narsa va hodisalarni tahlil qilganlar va ijod qilganlar. Keyinchalik, jamiyatdagi axloqiy - huquqiy sohalar bilan bog'liq jihatlarning hal etilishi alohida kishi faoliyati bilan bog'liq, degan to'xtamga kelganlar. Aslida axloq, huquq, did, huzur-halovat, siyosat, boshqaruv kabi jarayonlar haqidagi fikrlar xilma-xil. Tahlili ham turlicha. Shunday bo'lishidan qat'i nazar, faylasuflar bu savollarga javob topish uchun ijod qilgan. Bunday faylasuflarni sofistlar deb yuritganlar.

Sofistlar o'z ijodlarida ko'proq axloqiy, siyosiy, huquqiy sohalar bilan shug'ullanishgan. Sofistlarga zamonaviy jihatdan yondashadigan bo'lsak, ular bir vaqtning o'zida muallif, jurnalist, yozuvchi, shoir umuman ziyoli

kishilar bo'lganlar. Ular ko'proq bahslashishni olg'a surib, haqiqatga erishmoqchi bo'lganlar. Sofistlar narsa va hodisalarni aqliy (ratsional) dalillash san'atidan foydalanib asoslashga harakat qilganlar. Sofistlar munozara va muzokarada foydalanish mumkin bo'lgan ayyorlik va mug'ombirlik, makkorlik usullaridan foydalanib borliqni tushuntirganlar. Shu holatga boshqalarni ham etaklaganlar. Ularning yirik vakillari Gorgiy, Frasimax va Protogorlardir.

Gorgiy taxminan miloddan avvalgi 483-374 yillarda yashagan. U mashhur notiq edi. Uning "Tabiat to'g'risidagi yoki mavjud bo'lmanan narsa to'g'risida" nomli asari bo'lgan.

Qadimiy falsafa sohasidagi ijodkorlardan yana biri **Frasimax** Suqrot zamondoshidir. Miloddan oldingi 470 yillar atrofida tug'ilgan, deb taxmin qilinadi. Frasimax o'zining huquq va adolat to'g'risidagi qarashlari bilan barchani lol qoldirgan. Frasimaxning fikricha, huquq zo'r larga xizmat qiladigan narsadir. Huquq bu kuch qudratdir. Bunday tushunchaga zid keladigan fikr axmoqona go'lllikning o'zi xolos, deya ta'kidlagan u. **Protogor** miloddan avvalgi 481-411 yillarda yashab ijod qilgan. Uning fikricha, "Inson qanday bo'lsa, shu holida mavjud bo'lgan. Inson jamiki narsalarning borlig'i va yo'qligi bilan ma'lum darajada mavjud narsalarning mezoni hisoblanadi". Yana quyidagi fikrni bildiradi: "Xudolar to'g'risida men ularning na mavjudligi, na mavjud emasligi yoki ularning qanday tusda ekanligi haqidagi bilimga ega bo'la olmayman, chunki idrok etilmaslik va inson hayotining qisqaligi bilishga to'sqinlik qiladi".

Sofistlar etika, ijtimoiy fanlar va epistemologiya bilan aloqador bo'lgan sohalarni baholashda ilg'or bo'lganlar. Bunday fikrlar hozirgi davrda ham dolzarb. Chunki bular muammoli sohalardir. Ularning fikrlarida nisbiylik va mutlaqlik, huquq va hokimiyat, altruizm; individ va jamiyat; aql-idrok va his-tuyg'ular kabi atamalar mavjud bo'lganki, bular haqida hozirgi faylasuflar ham fikr yuritadilar.

Qadimgi grek falsafasini rivojlantirishda **Suqrot** ijodi alohida o'rinn tutadi. U miloddan avvalgi 469 yilda tug'ilib, 399 yilda vafot etgan. Uning ta'limotida ham epistemologik (epistemologiya-bilim, uning tuzilishi,

tuzilmasi va rivojlanishini o'rganadigan falsafiy-metodologik ta'limot) va etnik - siyosiy muammolar markaziy o'rinni olgan. U sofistlarning ko'p qarashlarini rad qilgan. Uning ijodida umumiy ne'mat (oliy ezgulik) vaadolat hisoblanadigan qadriyatlar va me'yorlar mavjud. Suqrot falsafaning bilish muammosini hal etishga intildi. Uning talqinida **bilim - bu bizning o'zimiz va o'zimiz o'zimizning mavjudligimizni ko'radigan vaziyatlar haqidagi bilimdir**. Suqrot ijodida shu narsa xarakterlik, u bilimni tajribaga murojaat etish yo'li bilan izlamagan. U bilimni tushunchalarni tahlil etish yo'li bilan o'zlashtirishga harakat qilgan va boshqalarni ham shunga chaqirgan. Suqrot ijodidaadolatlilik, mardlik, saxovatlilik, yaxshi hayot kabi tushunchalar markaziy o'rin egallagan.

Falsafa tarixidagi yana bir yirik grek faylasufi **Aflatundir**. Qaramaqarshi falsafiy fikrlar asosida Aflatun falsafasi paydo bo'ldi (Aflatun eramizdan avvalgi 427-349 yillarda yashagan). Afina aristokratiyasining vakillari platonchilar idealistik qarashini oldinga surdilar. Aflatun ijodi asosida g'oyalar yotadi. Uning fikricha, narsalar asosida g'oya yotadi, sezgi qabul qiladigan narsa, ideya dunyosining ko'lankasidir.

Aflatunning fikricha, hayotda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan g'oyalar mavjud bo'lib, bu g'oyalar o'zgarmaydi. Sezgi organlarimizda ifodalangan narsalar paydo bo'lishi va yo'qolishi doimiy o'zgaruvchan emaslikdandir. Eng oliy g'oya bu xudo to'g'risidagi g'oyadir. Bu narsa idealizm bilan dinning birligini ko'rsatadi.

Aflatun bilish nazariyasini ham idealistlarcha tushuntirdi. Uning fikricha, bilim g'oyalar orqali paydo bo'ladi, tasavvur narsalar orqali hosil bo'ladi. Abstrakt tafakkurni sezgilarga bog'liq bo'limgan g'oyalar dunyosida yashovchi, rujni "eslash" jarayoni natijasi, deb tushuntirdi. Aflatun bilish bu – eslashdir, degan g'oyasini o'rtaga tashladi. U dialektikani ilohiy bilimning mantiqiy nazariyasi, deb hisoblaydi. Umumiy tushunchaning ahamiyatini ta'kidlashi, kishi tafakkurining faol rolini (idealistik bo'lsa ham) ishlab chiqishi Aflatun ijodining ratsional mag'zini tashkil etadi.

Aflatun “ideal davlat” ta’limotini ma’qullab, bu davlat fuqarolarini uch tabaqaga:

1) davlatni idora qiluvchi faylasuflar - dono; 2) davlatni ichki va tashqi dushmanlardan asrovchi qo’riqchi askarlar - jasoratli; 3) jismoniy mehnat bilan shug’ullanuvchi dehqonlar, hunarmandlar, itoatkorlarga bo’ladi.

Qadimiy Grek faylasuflaridan yana biri bu **Arastudir**. Arastu (eramizgacha 384-322 yillar) fanlar klassifikatsiyasini birinchi bo’lib tuzib berdi (falsafa, matematika, fizika). Uning fikricha, falsafa borliq to’g’risidagi fan, matematika va fizika borliqning ba’zi xususiyatlari to’g’risidagi fandir.

Arastu Aflatunning davlat nazariyasini tanqid qildi va quldorlik tuzumini tan oldi. U o’z ijodida falsafa fanini amaliy faoliyatdan ajratib oldi, ya’ni bilim moddiy manfaatdan yiroq bo’lsa, ilmiyroq bo’ladi, deydi. Arastu ob’ektiv tabiatni bilishni, bilimning asosiy sharti deydi, lekin u izchil materializm pozitsiyasiga o’ta olmadi. Materiya Arastuning fikricha, passiv imkoniyat, shakl faol o’zgarish manbaidir. Materiya bilan harakat o’rtasidagi bog’lanishni ko’rsatib, harakat, o’zgarishning manbai ekanligini aytsa-da, lekin harakat, buyumlarning ichki ziddiyatlarida ekanligini ko’ra olmadi.

U bilish jarayonini materialistik asosda tushuntiradi. Bilish manbai tabiatning o’zidir, deb ob’ektiv borliqni qo’yadi. Sezgilar orqali olingan hissiyot narsa va hodisalar siymosidir, deydi. Lekin sezgini chegaralab qo’yadi. Sezgilar umumiyligi shaklni, ya’ni shakllar shaklini - xudoni bilishga imkon bera olmaydi.

Arastu o’z ijodida sezgilar asosida topilgan bilimni tafakkur orqali hosil qilingan bilimdan ajratib qo’yadi. Arastu kategoriyalar klassifikatsiyasini ishlab chiqdi. U imkoniyat va vogelik, materiya va shakl, mohiyat va hodisa kategoriyalarini dialektika asosida tushuntirishga urindi, lekin to’la dialektik asosda hal qila olmadi. Din arboblari uning sodda dialektikasini uloqtirib, metafizikasini olib qoldilar.

Qadimgi Gretsiyada eramizdan oldingi II asr oxiri I asrning boshida Demokrit tarafdarlari ko’proq materialistik fikrlarni olg’a surdilar.

Demokrit (eramizdan oldin 460-370 yillarda yashagan) entsiklopedik olim edi. Demokrit atom ko’zga ko’rinmaydi, deb harakat bilan materiyaning

bir-biriga bog’liqligini ko’rsatadi. Demokrit olam cheksiz dunyo, er bir sayyora, deydi. Olam uning fikricha, bo’shliq bo’lib, fazoda atomlarning to’qnashishi natijasida turli dunyolar kelib chiqqan. Bu dunyolar paydo bo’ladi, yo’qoladi, deydi. Olam haqidagi fikrida ateistik qarashlar bor, u erda zaruriyat mavjuddir, deydi. Demokrit diniy ta’limotlarga qarshi tan bilan ruhning o’lishini ko’rsatadi. Undan tashqari, bilish jarayonining dialektik bosqichini materialistik asosda tushuntirdi. Bilish jarayonida birinchi bosqich sezgi, deb biladi. Sezgi organlarimizga ta’sir etib, ongimizda tasavvur paydo qiladi. Bilim uchun tafakkur kerak, deb o’rgatadi.

Demokrit ijodi ateizm tarixida ham katta rol o’ynadi. Uning fikricha, xudoga ishonish kishilarning tabiat kuchlari oldidagi ojizligidir. Demokritning siyosiy, iqtisodiy sohadagi ijodi ham demokratik edi. Falsafada ikki yo’l “Demokrit yo’li” bilan “Aflatun yo’li” orasida kurash ketgan. Demokrit yo’lini tutganlardan biri **Epikurdir** (341-270). U, kishi baxtiyor bo’lishi uchun tabiat va uning qonuniyatlarini bilishi kerak, deydi. Falsafani uch qismga fizika, logika (kanonika) va etikaga bo’ladi. Epikur fizikasida atomizm himoya qilinadi va rivojlantiriladi. Atomlarning birlashuvini o’ziga xos erkin irodaning oqibati, deb ko’rsatadi. Garchi bu fikr idealistik xarakterga ega bo’lsa-da, stixiyali ravishda materiyaning o’z ichidagi harakatini e’tirof etadi. Epikur ham o’z ijodida bilishning birdan-bir manbai sezgilarda, deb biladi. Uning bilish nazariyasi oddiy, lekin materialistik xarakterga egadir. U ham xudoni inkor etmaydi, balki tabiat mahsuli, deb biladi.

Gretsiya falsafasining yana bir vakili Rimlik **Piy Lukretsiy Kar** (99-55)dir. U Epikur ta’limotini davom ettirdi. Qadimgi materialistlar singari Lukretsiy ham materiyaning ob’ektivligini ilmiy ravishda tushunish darajasiga etmadi. Lukretsiy narsalarning sifatini ob’ektiv xarakterga egaligini, fazo va vaqt masalasini ham materialistlarcha tushuntirdi. Sezgi masalasini ham to’g’ri hal qilgan. Uning ijodi, falsafasi feodalizm jamiyatining tarixiy kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyotning oldinga surilishidan darak berar edi. Feodalizm jamiyatida sinf, ijtimoiy tabaqalar o’rtasidagi to’qnashuvlar mafkura kurashida o’z ifodasini topdi.

Feodalizm davrining mafkurasi din edi. Shuning uchun bu davrdagi qarashlar ham diniy tusda bo'lgan. Rimda feodalizm davrida, idealizmning turli oqimlari, materializm va ateizmga qarshi kurashdilar. Ular – skeptitsizm, agnostitsizm, neoplatonizmlardir. Ob'ektiv idealizm, Arastu idealizmi va metafizik ta'limotining davomi edi.

Evropa Uyg'onish davrida ijod

Ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi feodal tuzumni surib chiqadi. Bu jarayon burjuaziya (boylar) inqilobi bilan tugallandi. Lekin bu davrdagi falsafiy dunyoqarash shunday keskin kurashlarga duch keldiki, Kopernikning nazariyasini xudosizlikda ayplash, Jordano Bruno(1548-1600)ning o'tda kuydirilishi, Galiley asarlarining olovda kuydirilishi ham fan va umuman materialistik falsafaning progressiv taraqqiyotiga to'sqinlik qila olmadi. Tabiat hodisalarini o'rganuvchi tabiiy fanlar shakllana boshladи. Endi tabiat fani bilan falsafa orasidagi munosabat o'zgara boshladи, ya'ni tabiiy fanlarning o'sishi materialistik falsafaning o'sishiga olib keldi.

N. Kopernik (1473-1543) gelotsentrik tizimni ishlab chiqdi. Ya'ni, er shari o'z o'qi atrofida aylanishi bilan kun va tunning bo'lishi, Quyosh atrofida aylanishi bilan yil fasllarining o'zgarib turishini isbotlab berdi. Ptolomeyning Quyosh sistemasining markazi er degan fikri noto'g'ri ekanligini ko'rsatib, gelotsentrik tizimini yaratdi. Ptolomey ta'limoticha, Quyosh er atrofida aylangandek ko'rindi, aslida mohiyati unday emas. Kopernikning progressiv g'oyalari va ijodi falsafa tarixida katta rol o'ynadi.

Undan keyingi o'tgan olim Jordano Bruno Kopernik nazariyasidan materialistik xulosa chiqardi. Bruno dinga qarshi kurashuvchi progressiv olim edi. Bruno ijodida, olam hisobsiz erlar, quyoshlar sistemasidan iboratdir. Lekin, Bruno yashagan davr uning progressiv fikrlarini rivojlantirishga yo'l qo'ymadи. Uning faoliyati inkivizatsiya katolik cherkovi sudi davridagi sudda qoralanib o'zi esa o'ldirildi.

Yangi davr falsafasi XVI-XVII asrda Angliyada kelib chiqdi. Angliya materializmining asoschisi **F. Bekon** (1561-1626) edi. Bekon falsafasi Angliya boylarining intilishini ifodalaydi. Bekon tajribaga asoslangan bilim - haqiqiy bilim, deydi. Undan tashqari, inson tabiatni o'rganishi va o'ziga

bo'ysundirishi kerakligini uqtirdi. Dunyoda bilimning asosiy quroli tajribadir, deydi o'z ijodida. Bilim jarayonidagi tafakkurning, nazariyaning rolini inkor etmaydi. Narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishini aniqlash haqiqiy bilim garovidir, deydi. Elementlarning sifat muayyanligini ta'kidlaydi. Materiya bilan harakat o'rtasidagi uzluksiz bog'lanishni e'tirof etadi.

Bekon falsafasida dialektika elementi bo'lishiga qaramay, uning materializmi asosan mexanistik edi.

Angliya materializmining ikkinchi vakili **Tomas Gobbs** (1588-1679) bo'lib, uning falsafiy ijodi Bekonnikiga o'xshardi. Bekonning dinga yondashgan tomonlarini tuzatib, uni rivojlantirdi. Gobbs ijodi mexanistik, metafizik tusda edi. Gobbs moddiy dunyoni bir-biridan real bilib, falsafaning predmeti shu olamni o'rganishdir, deydi. Gobbs taraqqiyotni faqat miqdor o'zgarishlaridir, harakat esa mexanistik tashqi turki natijasidir, deydi. U moddalarning xossalari, sifati yorug'lik, hid, rang, issiqlika xos bo'lmasdan balki tasavvurlarimizdan iborat, deb tushuntiradi. Gobbsning ijodi uning tafakkur bilan materiya haqidagi fikrida ko'rinish turadi. Tafakkur materiyadan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, degan edi u.

Gobbs bilish nazariyasida moddiy dunyoning kishiga ta'sir qilishi natijasida hosil bo'lgan hissiyotlar to'g'risida to'g'ri fikr bergan. Lekin, uning xatosi, tafakkur mexanistik funktsiyani bajaradi, deb izchil bo'limgan materializmga yo'l qo'yadi.

XVII asrda Frantsiya Angliyaga nisbatan rivojlanishi jihatidan ancha orqada qolgan mamlakat edi. Demak, Frantsiya falsafa sohasida ham Angliyaga nisbatan orqada edi. Lekin, Frantsiya o'ziga xos yo'llar bilan rivojlandi.

Frantsiyada rivojlangan ijod dualistik tasnifga ega edi. Frantsiyadagi dualistik oqim vakili **Rene Dekart** (1596-1650)dir, o'zining "Metod to'g'risida mulohazalar" asarida bilish uslubini yaratishga uringan.

Dekart o'zining falsafasida matematika aksiomalariga va hatto «xudoning qudratiga» ham gumonsirash kerak, deydi. Tafakkur Dekart ijodida birdan-bir voqelik hisoblanadi. U shuning uchun ham «Men tafakkur

qilaman, demak men yashayman» degan qoidasini keltirib chiqardi. Tafakkurni materiyaga qarshi qo'yadi. Bu narsa falsafaning bosh masalasini idealistlarcha hal qilishga olib keldi. Bilish nazariyasida asosiy uslub qilib deduktsiyani oladi. Ya'ni, tafakkur umumiyyidan xususiyga qarab harakat qiladi va mantiqiy yo'llar bilan haqiqatni ochishga imkon beradi.

Dekart ijodidagi dualizm ong bilan materiyaning, tan bilan ruhning mustaqil yashashini isbotlashda o'z ifodasini topadi. Dunyoning moddiyligini inkor etadi va dunyo ikki: ruhiy va moddiy substantsiyalardan iborat, deydi Dekart.

Dekart shunday kamchiligi bo'lishiga qaramay falsafa tizimini yaratdi. U fan sohasida yangi kashfiyotlar ochdi. Masalan, Quyosh tizimining paydo bo'lishi to'g'risidagi fikrlari, cheksiz olam, havo-olov-erga o'xshash uch element haqidagi fikrlari shunga misol bo'la oladi.

Dekartning dualizmini tanqid qilish asosida **Benedikt Spinoza** (1632-1677) falsafasining tizimi vujudga keldi. Spinoza Gollandiya boylarining manfaatini ifodalaydi. Spinoza falsafasi tizimini Dekart rad etib, dunyoning asosida moddiy substantsiya (birinchi asos, materiya) yotadi, deya e'tirof etadi.

Spinozaning fikricha, tabiatda ikki substantsianing bo'lishi mumkin emas. Undan tashqari, substantsiya o'zidan tashqaridagi sababga, xudoga bog'liq emas, balki u o'zining sababidir. Substantsiya zamonda abadiy, makonda cheksizdir. Spinozaning substantsiya to'g'risidagi fikri, cheksiz materiya haqidagi materialistik ta'limotdir. Lekin shunga qaramay Spinoza substantsiya niqobiga o'rabi diniy fikrni yurgizadi. Uning xudosi dindorlar xudosiga o'xshamaydi.

Spinoza ijodida, zaruriyat ta'sirida harakat qiluvchi xudo erkin irodaga ega emas va o'z oldiga hech qanday maqsad qo'ya olmaydi, bu narsa tabiatning o'zginasidir. Shu davrda vujudga kelgan sub'ektiv idealistlar (J. Berkli (1685-1753), D. Yum (1711-1776)) dinga yangi yo'l ochib, materializmga qarshi fikrlarni ilgari surishga harakat qilishgan edi.

J. Berkli o'zining "Inson bilishining asoslari to'g'risida traktat" (1710) degan asarida inson bilishining ob'ektlarini ko'zdan kechiruvchi har bir

kimsaga bu ob'ektlar yo haqiqatan sezgilar vositasi bilan idrok qilinadigan g'oyalardan yoki emotsiyalardan his va aql faoliyatini kuzatish natijasida olgan ideyalarimizdan... nihoyat xotira yoki xayolot yordami bilan hosil qilingan ideyalardan iborat ekanligi ravshandir. Ko'rish, eshitish, hidlash va boshqa sezgilar qo'shilib bir narsaning ifodasini beradi, – deydi.

Demak, Berkli ijodida, narsa “ideyalar yig’indisi”dan iborat ekan. Uning fikricha, bularni idrok qiluvchi narsa aql, ruh, jon umuman “men” mavjud bo’lib, undan tashqarida mavjud bo’lishi mumkin emasdir. Berkli tabiatdagi hamma hodisa va narsa sezgilar yig’indisi (ideyalar kollektivi)dan iboratdir, deydi.

Berkli ijodida sub’ektiv idealizmining gnoseologik ildizi ob’ektiv, moddiy dunyoni absolyutlashtirish bilan uni sezgilar taassuroti orqali birlashishidadir. Lekin, Berkli g’oya, sezgilar mavjud ob’ektlarning nusxasi, in’ikosi ekanligini inkor qildi. O’zini sub’ektiv idealizm va solipsizmda ayblanishidan himoya ham qiladi.

Berkli, Yumlar o’z ijodlarida sezgilardan nariga o’ta olmadilar. Berkli va Yum solipsizmi idealistik ta’limotning eng ratsional ko’rinishidir.

Bu davr frantsuz materialistlari o’z ijodlarida dialektikani materialistik nuqtai nazaridan asoslashda juda katta hissa qo’shdilar, ayniqsa frantsuz mutafakkirlari Lametri: Golbax, Gelvetsiylar shular jumlasidandir. Ijtimoiy davrning o’zi frantsuz materialistlari oldiga shunday vazifani qo’ydi. Ular idealizmga, dinga qarshi chiqishda tabiatni materialistik asosda tushunish kerakligini birinchi masala qilib qo’ydilar.

Navbatdagi ijodkor **Mari Fransua Arue** (1694-1778)dir. Frantsuz yozuvchisi, psixologi, faylasufi, tanqidchisi, publitsisti, tarixchisi. Mari Fransua Aruening taxallusi Volterdir. Parij teatrining sahnalarida “Edip” tragediyasi shon-shuhrat keltirgandan so’ng, ya’ni 1718 yildan boshlab shu taxallusni olgan. Volter notarius oilasida tug’ildi. Oilasi o’sha davrdagi aristokratlar davrasida yaxshi mavqega ega edi. “Kryostniy”- o’gay otasi uni yoshligidan boshlab erkin fikrlashga o’rgatdi. Kollejda ta’lim oldirdi, lekin u otasi orzu qilgan yo’ldan bormadi. Natijada moddiy tomonidan o’g’ilni otasi qo’llab-quvvatlamadi. Turmush tarzini yaxshilash maqsadida moliyaviy

ishlarda qatnashdi. Bu bilan o'zining ijtimoiy va ijodiy faoliyatini ham yo'lga qo'ydi. Shaxsiy faoliyat natijasida, kundalik hayotda boylar sinfining feodal tuzumi bilan kelisha olmasligini sezalaydi. Shu bilan birga, diniy faoliyat sir-asrorlari bilan yaqindan tanishadi. Kelajakda o'z davridagi feodal tuzum va diniy fanatizmga qarshi kurash boshlab yuboradi. Siyosiy erkinlik g'oyasini xalq ommasi o'rtasida tinmay targ'ib qiladi. Bu faoliyat hukmron doiralarida qoralanib, ikki marta (1717,1725) qamaladi. Angliyada surgunda (1726) bo'ladi. Umrining talaygina qismini surgunlikda o'tkazadi. Angliyada surgun bo'lgan davrida, u mamlakatning madaniyati, ijtimoiy hayoti bilan yaqindan tanishadi. Frantsiya hayoti bilan Angliya hayotini solishtirib ko'radi. Bu esa Volter faoliyatini revolyutsionlashtiradi. Yirik asarlar yoza boshlaydi: "Faylasufning maktublari" (1733), "Metafizika to'g'risidagi traktat" (1734), "Nyuton falsafasining asoslari" (1738), "Falsafa lug'ati" (1764-690), "Johil faylasuf" (1760), lirika, she'r, poema, drammalaridan: "Genriada", "Brut", "Orlean qizi", "Tsezarning o'limi" va boshqalar. Bu asarlarning barchasida Volter o'z davrining buyuk ma'rifatparvari-ijodkori sifatida gavdalandi. Uning bu faoliyati, ayniqsa, Rossiyada ijobiy baholandi. Uning ta'limoti Rossiyada volterchilik oqimining kelib chiqishiga uning asos bo'ldi. Volter faoliyatining ta'sirida rus ma'rifatparvarlari: P. P. Popovskiy, S. E. Dosnitskiy, D. S. Anichkov, I. Ya. Tretyakov, A. Ya. Polenov, Ya. P. Kozelskiy, N. I. Novikov, D. I. Fonvizinlar ijtimoiy-siyosiy maydonga chiqqanlar. Bu mutafakkirlar Rossiyadagi feodal krepostnoy tuzumga qarshi faoliyat ko'rsatganlar.

1778 yil 30 may kuni davolab bo'lmaydigan kasal Volter hayotini to'xtatdi. Politsiya uning o'limini oshkor qilmaslik choralarini ko'radi. Pe'salarini teatrarda qo'ydirmaydi. Baribir, Volterni xalq esdan chiqarmaydi. Cherkov va hokimiyat ruxsatisiz Parij yaqinidagi qabristonda dafn marosimi uyushtiriladi. Uning tirikligida 19 ta asarlar to'plami nashr qilingan bo'lsa, vafotidan so'ng 70 tomlik to'la asarlar to'plami nashr etildi. 1791 yilda ta'sis majlisining qarori bilan uning jasadi solingan tobuti Parijning ulug' insonlar qabri Panteonda joylashtiriladi. U qo'yilgan joyda

insoniyatning aqlini rivojlantirishga qo'shgan ijodiy xizmatlari e'tirof etilib, mavqeい haqida fikrlar yozilib qoldirilgan.

Volter materializmning deizm shaklini qabul qilgan faylasufdir. Ma'lumki, deizm so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, xudo degan ma'noni anglatadi. Ya'ni, bu so'zning falsafiy ma'nosi borliqning qiyofasi va mavhum ilk sababchisi xudodir, lekin u tabiiy va ijtimoiy hayot taraqqiyotiga ta'sir etmaydi, deb hisoblaydigan diniy-falsafiy ta'limot sifatida shakllangan. Uning asoschisi ingliz faylasufi Cherberidir. Volter uning izdoshlaridan biri. Volter ko'pgina diniy aqidalar, vahiy, xudoning irodasi tasavvurlarini, marosimlarni inkor etib, vijdon erkinligini targ'ib qilgan ijodkor. U fan va falsafani cherkov zo'ravonligidan, aqlni din tazyiqidan uzoqlashtirishga harakat qildi. Bu o'rinda Volter, J. Lokk, I. Nyuton, G. V. Leybnitsning faylasuflik ijodlarini himoya qildi. Sub'ektiv idealizmga qarshi chiqib, uning barcha tomonlarini tanqid qildi. Agnostitsizmni qo'llab-quvvatlamadi. Metafizik qarashlarning falsafadagi zararini anglab bu uslubni ham tanqid qildi. Metafizikani tanqid qilishda u **Jon Lokk** (1632-1704)ning sensualizmidan foydalandi. Uning "Tug'ma g'oyalar" nazariyasini yuqori baholadi. Chunki, Jon Lokk ham metafizik ta'limotning kamchiliklarini ko'rsatib bergen edi. Lokkning ta'limotida harakat xudo faoliyati bilan bog'lab tushuntirilsa ham, ijobiy fikrlar bayon qilingan edi. U tabiiy din tarafdori bo'lib, cherkovni davlatdan ajratish zarurligini, din erkinligini qo'llardi.

Demak, Volter inson faoliyatidagi aql va farosat jarayonlariga diqqatni tortdi. Inson sezgilarini orqali tasavvurga ega bo'lishi va ruh esa har vaqt tabiatning asosini aks ettira olmaydi, deb tushuntirdi. Inson uni faqat psixik jihatdan qabul qiladi. Ruhning boshlanishi yoki oxiri bor deb bo'lmaydi. Taraqqiyotning biror bosqichi, hatto embrional rivojlanishga, taraqqiyotga aloqasi yo'q. Hamma mavjudot o'z-o'zicha paydo bo'ladi, harakat qiladi. Bu o'rinda Volter atomistik ta'limot tarafdori bo'lib chiqdi. Uning fikricha, Nyuton va Boyl ijodlari qadimgi Demokritning atomistik ijodini tasdiqlaydi. Atom bo'linmas substantsiyadir. O'z vaqtida bu g'oyani Epikur, Lukretseylar ham targ'ib qilgan edilar, ya'ni olamning elementlari moddiy

bo'lib, abadiy bo'linmas, degan xulosani chiqargan edilar. Shu bilan birga Volter Berkli va **G. V.Leybnits** (1646-1716)ning borliq haqidagi ta'limotlarini rad qildi. Bunda u tabiatshunoslikning yutuqlariga suyandi. Ulardan foydalanib o'zining materialistik qarashlarini o'rta ga qo'ydi. Materiyani bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lmasligini ifodaladi.

Volter ijodi olamni bilishga qaratilgan bo'lib, bilishni cheksiz, deb hisoblaydi. Bilish insonning sezgilariga bog'liq. Materiya ong sezgilari orqali idrok qilinadi. Bu idrok esa tajribaga bog'liq. Tajriba esa insonlar faoliyatidan kelib chiqadi. Tabiatni o'rganish, bilish, tajribaga bog'liq. Ayniqsa, tabiatni bilishda matematik tajriba faoliyati muhimdir. Bu o'rinda u Rene Dekart ta'limotining ijobiy tomonlariga e'tiborni qaratadi va yuqori baholaydi.

Nyutonning butun olamni tortilish qonuni bilan Dekart ta'limotini bog'lashga harakat qiladi. Materiya to'g'risidagi fikrlarni boyib borayotganidan quvonadi. Lekin, Nyuton ta'limotidagi mexanistik jarayonni o'ta ilmiy darajada baholay olmadi, balki unda tabiat "prujina" sini ko'radi, xolos. Bu prujina orqali deydi, Volter materiyaning bitmas-tuganmas xususiyatlarini ochish mumkin. Bu - natijada olam taraqqiyotini to'g'ri baholash va undan to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi. Materiya xususiyatlarini ochishda tabiiy-ilmiy kashfiyotlarning rolini ijobiy baholagan Volter fanni ardoqladi, fan imkoniyatlarini beqiyos ekanligini ko'ra bildi va doimiy ravishda barcha asarlarida uni targ'ib qildi. Shu ma'noda Volter aytadiki: "ko'rish va yangilik yaratish tensiz xudochilikdir". Uningcha, fanni rivojlantirish inson tafakkuriga bog'liq. Tafakkur esa maorif, ma'rifat orqali takomillashadi.

Tafakkur qilish bilishning manbaidir. Bilim esa olamni o'zgartirishga olib keladi. Bilish aqliy jihatlarga bog'liq. Aql, ayniqsa, ilmiy falsafiy bilimlarning kelib chiqishi va rivojlanishida benihoya muhim rol o'ynaydi. Faqat aqlning yordamida inson o'ziga zarur bo'lgan haqiqatga erishishi mumkin. Haqiqat esa bu aql nuqtai nazaridan aniq, ravshan va shubhasiz bo'lgan nazariy xulosalardir.

Volter materiyaning ongga munosabatini ham materialist sifatida hal etdi. Ilohiyotning ba’zi bir tomonlaridan foydalanib, materializmni targ’ib qildi. Olamda materiyadan boshqa manba borligiga shubha bilan qaradi. Materiya tuzilishi jihatdan har xil bo’lib, mohiyatan moddiyidir. Materiya xususiyatlari ham cheksiz holda universaldir. O’tmishdagi ko’pgina materialistlar singari, Volter ham ongi materiyaga nisbatan ijodiy xususiyatini e’tirof etsada, bu materiyaning barcha turlariga mosdir, degan xulosadan uzoqlasha olmaydi. Uning ta’limotida ham jonli tabiat bilan jonsiz tabiat, hayvonlar ruhiyati bilan inson tafakkuri o’rtasidagi chegara aralashib ketdi. Lekin, ong tashqi, moddiy olamning miyada aks etishining natijasi ekanligini inkor etmadni. Jonsiz tabiatdagi aks etish, jismning boshqa jismlar ta’siri ostida o’zgarishida namoyon bo’ladi. Materiya tuzilishining murakkablashuvi in’ikos ko’rinishlarini ham murakkablashtiradi. Eng oddiy jonivorlardagi ta’sirlanuvchanlik oddiy shakldagi in’ikosdir. Ta’sirlanuvchanlik, o’z-o’zini saqlash va nasl qoldirishda muhim rol o’ynaydi. Nerv tizimiga va miyaga ega bo’lgan jonli, ko’p hujayrali organizmlar tadrijoti jarayonida in’ikosning ruhiy shakli vujudga keladi. U organizmning tevarak-atrofdagi muhit bilan signal (xabar) tariqasidagi o’zaro ta’sir etishini ta’minlaydi. Mazkur sohalar Volterning materiya haqidagi ta’limotidan xulosalar sifatida keltirildiki, bu okeandan bir tomchidir, xolos.

Volter ijodiyotining markaziy o’rinlaridan birida insonning turmush tarzi turadi. Bunda ham insonni diniy soxtaliklardan uzoqlashtirish lozim, degan fikrni o’rtaga tashlaydi. Diniy johillikdan qutulishning birdan-biri yo’li, uning fikricha, tabiat qonunlarini bilishdir. Insonning erkin yashashi uchun uni barcha tazyiqlardan qutultirish lozim. Buning uchun har bir inson o’zini-o’zi “sevishi” kerak. O’zi uchun harakat qilishi lozim. Boshqa frantsuz materialistlari singari Volter ham inson ijtimoiy muhitning mahsulidir, degan fikrda edi.

Agar ijtimoiy muhit inson talabiga javob bermasa, bunday ijtimoiy muhitdan voz kechish lozim. Chunki, insonning o’zi shu muhitga moslashib qoladi, o’zgarish ham bo’lmaydi. Bu jaholatdir. Sababi, jamiyat olg’a qarab

rivojlanmaydi. Inson va jamiyat o'zaro dialektik munosabatdadidir. Bu munosabat mavjud bo'lmasa rivojlanish ham bo'lmaydi. Jamiyat inson talabiga javob bermasa, u jamiyatda axloqsiz kishilar, buzuq niyatlilar, johillar ko'payadi. Shu sababli bunday yaramas jamiyatni, albatta, yangi, takomillashgan jamiyat bilan almashtirish zarur. Bu vazifa faqat ma'rifatning rivoji orqali amalga oshadi.

Volter ijodi, ijtimoiy muhit bu – davlat, siyosiy idoralar va ularning chiqargan qonunlaridir. Tafakkur jamiyatni boshqaradi. Tafakkur rivoji qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday rivojlanadi. Binobarin, inson irodasi barcha narsaga qodir. Inson erkin, chunki, o'z ongiga ega. Hayotda o'zi to'g'risida o'ylaydigan inson irodalidir. Borliqning xudosi ham zaruriyatdan kelib chiqqan. Shu bilan birga u xudolar borasida "ijobi" xudolarning tasdiqlanmaganligini ta'kidlaydi.

Volter jamiyatning doimiy harakatda ekanligini e'tirof etadi. U jamiyat taraqqiyotini diniy qarashlardan izlamadi. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarni murosaga keltirishning asosiy yo'li axloqiy va huquqiy jarayonlarni tartibga solishdadir, deb ko'rsatdi. Axloqsiz sohalar turli jamiyatlarda turlicha xarakterda bo'lган, lekin uni davr talabidan kelib chiqib tartibga tushurish kerak. Diniy axloq o'zining kechirib bo'lmaydigan kamchiliklariga ega. Undan qutulish lozim. Diniy axloqqa ega bo'lган insonlar xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Uning fikricha, hamma vaqt, hamma joyda ateistlar va erkin fikrlovchi faylasuflar ardoqlanib kelingan va shunday bo'lib qoladi. Aytish lozimki, Volter ijodida din qattiq tanqid ostiga olingan bo'lsa ham, xalq ommasini itoatda saqlash uchun uning zarurligi ta'kidlanadi.

Volter yashagan davr o'ta ziddiyatli bo'lган bo'lsa kerak, shu bois uning ijodi ham ziddiyatlardan xoli emas. Uning ijodidagi falsafa muammolarining qo'yilishi va ularning echilishi ham shu fikrni tasdiqlaydi. Materiya, jamiyat, insonni bilish sohalaridagi munozaralar shular jumlasidandir. Ba'zi asarlarida xudo mutlaqo inkor etilgan bo'lsa, ba'zilarida esa, u mubolag' alashtiriladi. Masalan, planetalarning harakatga kelishi xudo faoliyatining natijasidir. Xudoning karomati bilan planeta G'arbdan Sharqqa

qarab harakat qiladi, quyosh esa o’z o’qi atrofida aylanadi, barcha planetalar tortilishi ham xudoning ta’siridadir va boshqalar. Demak, uning deizmi ham ziddiyatlidir. **Agar**, - deydi u, “**xudo bo’limganda edi, uni o’ylab chiqish mumkin bo’lar edi**”. Volter falsafasi qanchalik ziddiyatli bo’lishidan qat’i nazar, insonlarni ma’rifatga chorlaydi. Ma’rifatning keng qirrali tomonlarini ochib beradi. Shu o’rinda aytish lozimki, Volter o’zi yashagan jamiyatdagi xususiy mulkchilikni tanqid ostiga oladi. Bu sohada ham tengsizlik borligini ta’kidlaydi. U boylar va kambag’allar o’rtasidagi kelishmovchiliklarni qonunlarning mukammal ishlab chiqilmaganligida, deb topdi. Jamiyatdagi barcha kelishmovchiliklar jamiyatni ilmiy boshqarmaslikdan kelib chiqadi. Jamiyatni yaxshi boshqarmaganlar esa butun umr vijdon azobida qiynalib o’tishlari kerak. Aslida hukmdorlar o’zlari odat qilib olgan boshqaruvning kamchiliklarini sezmas ekanlar, xalq bunday boshqaruvdan norozi bo’lib qolaveradi. Bu norozilikni inqiloblar hal etadi. Inqilobarning bo’lishi to’ntarishlar bilan bog’liq, deydi. U o’z mamlakati va vatanini yo inqirozga yo ko’klarga ko’taradi. Ta’kidlash lozimki, Volter o’z vatanini ko’proq e’zozlagan. Vatanga bo’lgan muhabbatim, deydi u, meni xorijliklar yutug’idan ko’z yumushga majbur qilmaydi. Aksincha, vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo’lsa, vatanimni jahondagi g’aznalar bilan yanada boyitgim keladi. Ko’rinib turibdiki, Volter o’z umrining ko’pchilik qismini xorijda o’tkazgan bo’lsa ham, vatan ishqini bilan yashagan.

Volter o’z qarashlarini bir tizimga solar ekan, u hamisha tarixni jiddiy tahlil qilar edi. O’tmishni o’rgangan holda xulosalar chiqarardi. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyotini baholashda turli davrlarni o’z davri bilan solishtirgan holda yondashar edi. Xalqlar axloqi va ruhi bilan tanishardi. Shu ma’noda u XVIII asrning yirik tarixchisi sifatida ham e’tirof etildi. Istorografiya (tarix haqida yozuv) ma’rifatparvarlari maktabini ham yaratadiki, bu maktab, nafaqat Frantsiyada, balki chet ellarda ham hurmat qozondi. «Entsiklopediya» va «Buyuk Pyotr davridagi Rossiya tarixi» kabi asarlarida ilmiy manbalarga asoslanib, tarixiy xulosalar chiqaradiki, bu xulosalar hozirgi davrimizda ham o’z mavqeini yo’qotgan emas.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Volterning ijtimoiy-siyosiy qarashlari feodal krepostnoylik tuzumiga qarshi qaratilgan bo'lib, ko'proq Frantsiya hayotini aks ettirgan edi. U o'z g'oyalarida Frantsiya ijtimoiy-siyosiy hamda davlat tuzumini islohotlar bilan o'zgartirish masalasini qo'ydi. Qonunlar ishlab chiqarishni talab qildi. Barcha fuqarolar tengligini ta'minlash yo'lida tinmay xizmat qildi. So'z erkinligi, soliqlarning barchaga barobar bo'lishini istadi. Lekin, bu sohalarda yutuqlarga erishishning amri maholligini ham bilardi. Shunday bo'lsa-da, u mamlakatni boshqarish konstitutsiyaviy monarxiya tomonidan amalga oshirilishini orzu qildi. Uning fikricha, konstitutsion boshqarish eng adolatli oqilona boshqarish bo'lishi mumkin edi.

Volter o'z ijodini faqat, Evropa tarixini o'rganish bilan bog'lab qo'ymadidi. Keyinchalik dunyo mamlakatlari tarixini ham o'rganishga kirishdi. Jumladan, Hindiston tarixi to'g'risida ham asar yozdi. «Tarix falsafasi»da tarixni o'rganish metodologiyasini ishlab chiqdi. A. S. Pushkin iborasi bilan aytganda, Volter tarixni o'rganishning «yangi yo'lini topib, uning yoritgichini aniqlab berdi». Tarix fanini ilmiy manba darajasiga ko'tardi. Tarixni afsonaviy siymolardan tozalashga, badiiy tasvirlashlariga chek qo'yishga intildi. O'tmishtagi voqealarni tanqidiy o'rganishni tavsiya etdi va kelajak uchun turki berdi. Shu sababli ham, rus mutafakkiri Plexanov fikricha, Volterning «Tarix falsafasi» tarixni ilmiy talqin qilish namunasidir. Shu narsa muhimki, tarixini yoritishda ko'proq xalq faoliyatini o'rganish lozim. U tarixchilardan xalqlarning ma'naviy, axloqiy, falsafiy, huquqiy, siyosiy, ilmiy bilish, san'at va adabiyot sohalarini kengroq yoritishni talab qildi. Moddiy hayot ravnaqi haqida yozishlarini zarur, deb topdi. Volter fikricha, tarixni yozishda milliy boyliklar, savdo-sotiq, moliya ishlari hisobga olinmog'i darkor. U butun dunyo tarixini yozishda qadimiy mamlakatlar faoliyatiga e'tiborni qaratdi. Jumladan, Evropa faylasuflari o'rtasida birinchi bo'lib, Hindiston, Xitoy, arab xalqlari, aborigenlar faoliyatini to'la yoritishga harakat qildi. U tarixni xalq yaratadi, deb xulosa qiladi. Jamiyatni harakatga keltirishda inson fikrlari muhimdir. Tarix

falsafasini yaratish bilan birga Volter, ijtimoiy falsafani asoslashda birinchilardan bo'lib maydonga chiqdi.

Deni Didro (1713-1784) Frantsiyaning Langr shaharida o'ziga to'q hunarmand oilasida tug'ildi. Denining otasi ikki o'g'lini ham etuk ma'lumotli qilib tarbiyalash maqsadida o'sha vaqtdagi yagona o'quv markazlaridan hisoblangan iezuitlar kollejida o'qitadi. Bu kollejda asosan qadimgi tillar, tarix, notiqlik mahorati, adabiyot o'qitilar edi. Deni 15 yoshga etganda Parijga yo'l oladi. Sababi, u erda o'zini to'la ma'lumotga, bilimga ega qilish edi. Uning maqsadi ham zamonaviy bilim olib, hayot bilan yaqindan tanishish edi. Parijdagi D. Arkur kollejida joylashib grek, lotin tilini o'rganishda davom etadi. Avvalida, matematika fani bilan qiziqmasa ham, so'ng matematika va boshqa fanlar bilan jiddiy shug'ullanadi. O'qishni tugatgandan so'ng otasining maslahati bilan ikki yil davomida Langrlik prokurorga yordamchi bo'lib xizmat qiladi. Lekin uni huquqiy sohalar unchalik qiziqtirmaydi. Bo'sh vaqtlarida ingliz tilini o'rganishga kirishadi. Keyinroq, umuman, xizmat qilishdan bosh tortib, o'z faoliyatini ijodga bag'ishlashga qaror qiladi. Bu qaror Denining otasiga yoqmasa ham, unga ushbu masalani o'ylab ko'rishga muhlat beradi. Aslida otasining asosiy maqsadi o'g'lini ruhoniy qilib tarbiyalash edi.

Denining fikricha, inson kam ta'minlangan bo'lsa ham, u erkin turmush tarziga ega bo'lishi kerak, shu bilan birga tashqi ta'sirga bo'ysunish emas, balki, har bir kishi ichki qiziqishi, holatiga qarab yashashi lozim. 1733 yildan 1744 yillargacha, Deni o'z yo'lini topish maqsadida jiddiy shug'ullanadi. Shu yillar davomida turmush tarzini ta'minlash maqsadida turli o'quv yurtlarida onda-sonda berilgan soatlardan foydalanib dars berib yuradi. Chunki bu paytlarda uning otasi moddiy mablag' berishdan bosh tortgan edi. Deni mustaqil ish tutardi. Natijada shu yillarda unda entsiklopedik aql-fan tashkilotchiligi xususiyatlari shakllandi. Uning falsafiy qarashlarining dastlabki davrlari 1740-45 yillarga to'g'ri keladi. 1745 yilda ingliz axloqshunosi A. E. Sheftsberining asari («Issledovanie o dostoinstve i dobrodeteli»)ni tarjima qiladi. Bu asar unga jiddiy ta'sir etgan edi. Asar

izohlarida aytilgan fikrlar bo'lajak mutafakkirning fikrlari edi. Unda Deni katolitsizmdan uzoqlashib, diniy mutaassiblikni jiddiy tanqid ostiga oladi.

Shundan so'ng, 1746 yilda anonim holda nashr etilgan «Falsafa fikrlari» (Filosofskie misli)da xristianlik bilan to'la aloqani uzib materialistik g'oya bilan sug'orilgan deizm (xudochilik) falsafasiga o'tadi. Shu yillarda Deni J. J. Russo, Kondilyak kabi yozuvchi va faylasuflar bilan tanishadi, munozara hamda suhbatlarda qatnashadi, o'zini, qiyinchilik, quvg'in va tanqidlarga tayyorlaydi.

«Falsafiy fikrlar» hayot yuzini ko'rishi bilan parlament tomonidan yoqib yuborishga qaror qilinadi. Uni oldindan sezgan Deni shu asarning o'zidayoq «muqaddas qutlug'lar»ning fikriga qarata aytilgan fikr va mulohazalardan yuz o'girsalar, ularga nisbatan yana yangi g'oyalar paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Ular, deydi u, Dekart, Monten, Lokk va Beylyasarlarni doimiy tanqid ostiga olgan ekanlar, meni ham shunday qiladilar. Meni ayblasalar, osongina qutuldik deyishlari mumkin, ammo unday bo'lmaydi, bilaman, kelajakda menga o'xshaganlarni muhokama qilish davom etaveradi. Didroning bu fikrlarni aytishdan maqsadi iezuitlarni diniy sohada noto'g'ri yo'l tutganlarini isbotlab hamma dinlarning tengligini, shu bilan birga insonning borliq xudosining borligiga shubha qilishiga huquqi borligini talab etish edi. Hamma joyda aql, fahm, idrok (razum), faoliyatga suyanish, jumladan dinda ham shunday qilish zarurdir. Ta'kidlash lozimki, Deni xristianlikni tanqid qilish davomida xudochilikning kamchiliklarini, salbiy tomonlarini ham ocha boradi. Natijada dahriylik tomoniga o'tadi. Dahriy materialist sifatida shakllana boshlaydi. Bu uning «Ojizlar to'g'risida xat» (Pismo o slepix)ida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu paytlarda Frantsiyada siyosiy vaziyat ancha keskinlashgan bo'lib, Didroning faoliyati politsiyachilarga yoqmayotgandi. Dinga qarshi yozilgan asarlari ro'kach qilinib, Didro 1749 yilda qamoqqa tashlanadi. Lekin u nufuzli tanishbilishlari orqali uch oydan so'ng qamoqdan ozod qilinadi. Shundan so'ng Deni Didro yigirma yildan ko'proq umrini «Entsiklopediya yoki fan, san'at va kasb-hunar izohli lug'ati»ga bag'ishladi. U lug'atning asoschisi va muharriri bo'ldi. Didroda entsiklopediya haqidagi g'oya XVIII asrning 40

yillarida paydo bo'lgan edi. Chunki, entsiklopediya ma'rifatparvarlikni targ'ib qilishda xizmat qilishini birinchi bo'lib sezgan edi. O'z g'oyasini amalga oshirish uchun tashkiliy ishlarda tinmay mehnat qilar ekan, yirik-yirik falsafiy asarlar yozishdan ham to'xtamadi. Didroning mustaqil falsafiy fikrlarining shakllanishi daxriylik sohasiga o'tish bilan bog'liqdir. Chunki, bu yillarda u Arastu, Platon, F. Bekon, R. J.Lokk, R. Dekart, B. Spinoza asarlarini chuqur o'rganadi. «Ojizlar to'g'risidagi xat»dan boshlab «Fiziologiya elementlari» (1773 yildan 1780 yillargacha davom etgan) gacha ko'plab falsafiy muammolarni ishlab chiqdi. Bu o'rinda «Tabiatni tushuntirishga oid fikrlar» (1754), «Jiyan ramo» (1762), «Dalamber bilan Didro suhbat» (1769), «Jak-Fatalist» (1773), «Materiya va harakatning falsafiy printsiplari» (1770), «Entsiklopediya»da yozilgan maqolalar va asarlarini misol qilib olish mumkin. Bu asarlarda va maqolalarda tahlil qilingan muammolar Didroning buyuk mutafakkir bo'lib etishganligidan dalolat beradi. Umrining oxirigacha o'z ijodi orqali Didro insonparvarlik va ma'rifatparvarlikni targ'ib qilar ekan, barcha joylardagi hokimiyat, tiranlar haq-huquqlarini va beadablikni (nevejestvo) tanqid qildi, ularga qarshi kurash e'lon qildi. Didro falsafada materialist va dahriydir. Shu o'rinda Didroning turli asarlaridan tarjima qilingan fikrlariga o'quvchi diqqatini tortamiz. «Odamlar boshqa hech narsadan qo'rmasliklariga ishonganlarida, - deydi u, - bu dunyoda ancha tinch yashagan bo'lardilar: xudo yo'q, degan fikr hali hech kimni dahshatga solmagan, lekin menga tasvirlab berishganlari xudoning mavjudligi haqidagi fikr qancha-qanchalarni vahimaga solmagan, axir!» (Vorontsov V.L. «Tafakkur gulshani», Toshkent, 1981)- «Qaerdaki xudo tan olinsa, u erda shaxsga sig'inish mavjud, qaerda shaxsga sig'inish mavjud ekan, u erda axloqiy burch tartibotlari buziladi va axloq yuz tuban ketadi» (O'sha kitob, 265-bet). «Dunyoning hech bir eri yo'qli, u joyda diniy qarashlar o'rtasidagi tafovut tuproqni qonga bulg'amayotgan bo'lsa» (O'sha kitob, 267-bet). «Agar aqlni samoviy tuhfa deb qarab, shu gapni din xususida aytsak, u holda samo bizga o'zaro kelisha olmaydigan va bir-biriga zid ikkita tuhfa yuborgan bo'lib chiqadi. Bu anglashilmovchilikni to'g'rilash

uchun din tabiatda mavjud bo'limgan xom-xayol bir printsip ekanligini tan olish darkor» (O'sha kitob, 272-bet).

Biz ushbu fikrlarni Didroning materialist va dahriy bo'lganligini isbotlash uchun keltirdik, xolos. Didro XVIII asr mutafakkiridir. Uning fikrlarining barchasi ham abadiy emas, albatta. Davr o'tishi, zamonning o'zgarishi u yoki bu fikrni tasdiqlashi yoki tasdiqlamasligi mumkin. Ammo bu bilan Didroning eng murakkab siyosiy bo'htonlar bo'layotgan o'sha davrlarda o'zining mustaqil ijodi bilan insonlarni lol qoldirishi haqiqiy tafakkur sohibining ishidir, degan xulosaga kelinadi. Didroning asarlarida tabiat va jamiyat, inson faoliyatida uchraydigan dialektik jarayonlar o'z aksini topgan. Ayniqsa, jamiyatni boshqarishda «ma'rifatli» boshqarishni joriy etib, unda faylasuflarning burchi va vazifalari mustabid boshqarishlarning mohiyatini boshqaruvchiga eslatib turishga, murabbiylik qilishga chorlaydi. Bu kamchiliklar D. Didroni demokratik tamoyillarni tahlil qilish va shaxsiy fikrlarni aytishga majbur qildi va uni chiniqtirdi. Ta'kidlash lozimki, frantsuz ma'rifatparvarlari jumladan, Didroning harakatlari Rossiya madaniy hayotiga ham ta'sir qildi.

Ma'lumki, 1762 yilda Ekaterina II imperator kursisiga o'tirgandan so'ng, o'zini ma'rifatparvar podshoh sifatida ko'rsatish uchun ma'rifatparvarlar bilan xatlar orqali aloqa bog'lagan. U D. Didroni hurmat qilar edi. O'sha davrda yashab ijod etayotgan Volterni aloqasi esa Didronikidan yaxshiroq bo'lgan. Frantsiyada ma'rifatparvarlar quvg'inlikka uchraganlaridan so'ng Ekaterina II Didroni Rossiyaga taklif etadi. Entsiklopediyani chop etishga va'da beradi. Ammo, Didro Rossiyada o'tkir ma'lumotli harf teruvchilarning yo'qligini pesh qilgan holda taklifni inkor qiladi. Aslida uning asosiy sababi, Frantsiyada yaqin yor-birodar va o'rtoqlarini, ma'naviy va ilmiy muhitni tashlab keta olmaslik edi. Volter Didrodan Rossiyaga borishini ko'p marotaba o'tinib so'raydi. Natijada Didro taklifni qabul qilib, 1773 yilda Rossiyaga tashrif buyuradi. Rossiyada Ekaterina tomonidan Didro yaxshi kutib olinadi. Deyarli har kuni Didro imperator xonim bilan ikki-uch soatlab bahslar va suhbatlar qiladi. Suhbatlarda Rossiya va dunyodagi mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy,

huquqiy, falsafiy muammolari ko'tariladi. Didro suhbatlarda monarxiya boshqaruvining ko'pgina sohalari bo'yicha takliflar beradi. Jumladan, konstitutsiyaviy – monarxiya boshqaruvini, uni esa xalq tomonidan saylanishini, krepostnoylik huquqi, erga feodal xo'jayinlikdan voz kechish, ijtimoiy qatlamlar huquqini tenglashtirish, burjuaziya asosida iqtisodiyotni boshqarish kabilardir. Ekaterina ushbu takliflarni so'zda tasdiqlab, xayrixohlik bildirsa ham, hayotga tatbiq etish tarafdori emas edi. Xalqni ma'rifikatli qilishdek dolzarb taklif ham, oxiriga etkazilib bajarilmagan edi. Hatto, Didro Rossiyada xalqni ma'rifikatli qilishning rejalarini tuzib, uni bepul amalga oshirish kerakligini uqtirgan. Uning takliflari negizini ma'rifatparvarlik tashkil etgan bo'lib, bu Rossiyada o'sha paytda xayoliy gap edi. Hokimiyat boshqaruvini chegaralash uchun uni xalqqa berish lozim. Xalq ichidan saylangan deputatlar yoki fuqarolar yig'ini davlat rahbari irodasini qabul qilish kerakmi yoki yo'qmi, uni shu organ echishi kerak. Lekin Didro fikrlari qabul qilinmadni. Bunga Didroning Ekaterinani 1767 yilda yozilgan rus davlatining kodeksi haqidagi "nakazi" (buyrug'i)ga qilgan salbiy mulohazalari ta'sir etgan bo'lishi lozim. Ekaterina II Didroni so'ngra aqliy yondashmaslikda, sharoitni bilmaslikda, ehtiyoitsizlikda ayblab uning do'sti M.Grimmga xat ham yozdi. Didro Rossiyadan xafa bo'lib qaytdi. Chunki, Entziklopediyani Rossiyada qanchalik harakat qilinmasin chop etish muvaffaqiyatsiz tugadi. Rossiyadan qaytgan Didro umrining so'nggi yillarini Frantsiyada o'tkazdi. Umrining oxirgi yillarida deyarli hech qanday asarni ham nashr ettirmadi. 1784 yilning 31 iyulida buyuk mutafakkir hayotdan ko'z yumdi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Didroning ijodiy-falsafiy qarashlari tarixiy sharoitdan kelib chiqdi. Shu bilan birga uning falsafiy qarashlari o'ta ziddiyatli tavsifga ham egadir. Bunday bo'lishi o'sha davr uchun tabiiy edi. XVI asrning oxirida Gollandiyada, XVII asrda Angliyada, XVIII asrda Frantsiyada inqiloblar bo'ldi. Natijada davlat boshqaruvida iqtisodiy, siyosiy jarayonlargina o'zgarmadi, balki inson fikrlari ham shiddat bilan o'zgardi.

Didroni falsafaning azaliy muammolaridan bo'lган materiya va uning harakati to'g'risidagi ijodiga to'xtaladigan bo'lsak, materiya – mavhum hajm

va geometrik jism emas, balki alohida, bizni o'rab turgan aniq jismlardir. Materiya kichik molekula va atom zarrachalaridan iboratdir. Atomlar esa bo'linmasdir. Bu qarashlar Didro yashagan davrdagi materialist faylasuflar ta'limotiga ham taalluqlidir. Didroning fikricha, tabiat mangu va cheksizdir. U yaratilgan emas. G'ayri-tabiiy kuchlar to'g'risidagi uydirmalarga ishonish kerak emas. Bizni o'rab turgan tabiatdan boshqa olamda hech narsa yo'q. Shu tabiatdan tashqarida biror kuchning o'zi yo'q. Faylasufning ta'kidlashicha, materiya kabi harakat ham abadiydir. Sukunat esa nisbiydir, vaqtinchadir. Olamda paydo bo'lish va yo'q bo'lishdan boshqa narsa yo'q. Olam ham, dunyo ham sekinlik bilan davom etadigan evolyutsion jarayondan iborat. Hayvonot olamining qator bosqichlarini boshidan o'tkazib, hozirgi holatiga ega bo'lган odamlarda tabiiy rivojlanishning oliy stixiyali ko'rinishi seziladi. Olamdagи barcha narsalar va hodisalar sababiy (deterministik) bog'lanish hamda aloqadadadir. Sababiy bog'lanish va aloqadorsizliklarsiz biror narsa va hodisa paydo bo'lmaydi. Didroning ijodiy fikricha, sababiy bog'lanishlarsiz taraqqiyot ham yo'q. Taraqqiyot ushbu bog'lanish va aloqadorliklarga bog'liq. Tabiat va jamiyat, inson tafakkuridagi sababiy bog'lanishlar umumiy rivojlanishning asosini tashkil etadi.

Materiya va uning xususiyatlari haqida to'xtalganda Didro notirik materiyadan, ya'ni sezmaydigan materiyadan sezadigan, tirik materiyaga o'tishni asoslashga harakat qilib o'z fikrlarini baralla bayon qilgan. His tuyg'u, sezish jonli organizmlarga xos xususiyat ekanligini e'tirof etgan. Shu bilan birga materiyada umumiy sezishga o'xshagan holat borligini ham eslatib o'tadi. Mutafakkir olamda zaruriyat hukmronligini targ'ib qiladi. Sababiy bog'lanishlarning barchasi ham zaruriyatdan iboratdir.

Binobarin, sovet davridagi adabiyotlarning ba'zilarida Didro va boshqa materialistlar to'g'risida fikr yuritilganda, ularning ta'limotida kishilar ongi va faoliyati, harakati inkor qilingan, deb ta'kidlaydilar. Fikrimizcha, bunday holatlar Didro va boshqa o'sha davr mutafakkirlariga bildirilgan sub'ektiv yondashishlarning oqibatidir.

Didro ijodida olamni bilish muammosi ham markaziy o'rirlarni olgan. Didro olamdagи narsa va hodisalarni insonlar bila olishiga shubha qilmadi. U idealistik ta'limotlardagi agnostitsizm va skeptitsizmlarning qonun-qoidalarini qabul qilmadi. Faylasufning ta'kidlashicha, dunyoviy ilmlardan barcha insonlar bahramand bo'lishi lozim. Bu sohadagi barcha harakat birlashtirilsa, u holda, tabiatdagi barcha jarayonlarni bilish tezlashgan bo'lur edi. Insoniyat tabiatni bilmasligi tufayli ko'pgina qiyinchiliklarga duchor bo'lib kelayapti. Tabiatning oliy mavjudoti inson bo'lib, undagi sezgilar bilish uchun quroldir. Bu o'rinda idealistlardan J. Berkli ta'limotiga qarshi chiqib, sezgilar faoliyatini noto'g'ri baholanganligini isbotlaydi. Mazkur sohada fikr yurituvchi idealistlar tizimini e'tirof etmaydi. Jumladan, u shunday fikr aytadi: "Faqat o'zlarining mavjudligini va ichimizda almashinib turuvchi sezgilarning mavjudligini ma'lum deb bilib, bulardan boshqa hech bir narsaning mavjudligini e'tirof qilmaydigan faylasuflarni idealist deb, ataydilar. Mening fikrimcha, bunday ajoyib va g'aroyib sistemani, garchi eng bema'ni sistema bo'lsa ham, uni rad qilish hammadan ko'ra qiyinroqdirki, bu hol inson aqli uchun, faylasuf uchun isnoddir¹".

Bunday qarashlar frantsuz materialistlari ijodiga tegishlidir. Ular qat'i fikrda turib bilish muammosini himoya qilib chiqdilar. Sensualistik materializm nuqtai – nazaridan turib idealizmni tanqid qildilar. Bilishning manbai sezgilardir. Sezilishning manbai esa ob'ektiv reallik bilan bog'liqdir. G'oyalarning barchasi sezgilarning natijasidir. Sezgilar orqali moddiy olamning ta'sirini sinab turamiz, ana shu jarayon tufayli narsa va hodisalar miyamizda o'z aksini topadi. Natijada bilish paydo bo'ladi. Bilish bu narsaning siymosini aniqlashdir. Didroning fikricha, jon bu – sezgilar yig'indisidir. Sezgi tana faoliyatini boshqaradi. Ob'ektiv olamda bilish insonni aql-farosatiga ham bog'liqdir. Aql-farosat ham sezgiga bog'liq bo'lib, u tashqi olam ta'sirida miyada tafakkur, xotiralash, mulohaza yuritishlarni keltirib chiqaradi. Sezgilar -tafakkur manbai. U bilishning pastki bosqichi bo'lsa, tafakkur oliy bosqichidir.

¹ Didro asarlarining mukammal tiplami, Parij: J. Aseez nashri, 1875, 1-tom, 304-bet.

Ma'lumki, inson faoliyatida haqiqat muammosi ham dolzarbdir. Didro o'z ijodida haqiqatga erishishning birdan-bir yo'li bilish nazariyasidir, deydi. Uning fikricha, haqiqat fikr va g'oyalarning bilish ob'ektlariga mos kelishiga bog'liqligidadir. Haqiqatga erishish turli tabiat fanlari orqali amalga oshadi. Haqiqatni bilish bu tabiatni bilish demakdir. Didro haqiqatga erishishda kuzatish jarayonini e'tiborga oladi. «Bilish uchun deydi u, bizning ixtiyorimizda uchta asosiy usul bor: tabiatni kuzatish, fikr yuritish va tajriba qilish. Kuzatishda fikrlar to'planadi. Fikr yuritishda ular tartibga solinadi. Tajribada tartibga solingan fikrlar natijasi tekshirib ko'rildi¹». Demak, haqiqatga erishishning asosiy yo'li tajriba hamdir. Haqiqat o'lchovi tajribadir.

Didro ijodining falsafasi jamiyat taraqqiyotiga ham qaratilgan. Ammo, sobiq sovet ittifoqi davridagi darslik va monografiyalarda bu jarayon hisobga olinmaydi. Didroni ham boshqa frantsuz materialistlari singari jamiyatni tushunishda metafizik, idealist, deb bo'rttirib ko'rsatadilar. Aslida esa Deni Didro jamiyat taraqqiyotini o'z davridan kelib chiqib baholagan.

Didro tomonidan jamiyatda yashagan kishilarni ma'rifatli bo'lishini talab qilinishi jamiyatdagi barcha hodisalarning to'g'ri tahlil qilinganligidan dalolatdir. U jamiyatdagi yaxshilik va go'zallikni targ'ib qilish uchun estetika to'g'risida fikr yuritadi. Bu sohalar uning «Entsiklopediya»dagi «Go'zallik» (1751), «Tasviriy oyna san'at tajribalari» (1765), «Aktyor to'g'risida paradoks» (1773) va boshqa asarlarida o'z aksini topgan. Boshqa frantsuz materialistlari singari Didro ham shaxs ijtimoiy shart-sharoitning mahsulidir, deydi. Uningcha, shu ijtimoiy hayot qanday bo'lsa, insonlar ham shunday bo'ladilar. U o'z mamlakatidagi tartibsizliklarni o'sha paytdagi din ta'siridan, deb bildi. Din faoliyatini ayovsiz tanqid qilib, cherkovni hukumatdan ajratishni talab qiladi. Maorif tizimidan ruhoniy nazoratini uzoqlashtirish tarafdori bo'lib chiqdi. Jamiyatni olg'a qarab borishi diniy e'tiqodlarni uzoqlashtirishga bog'liq. Jamiyatni boshqarish ma'rifatli hukumatga bog'liqdir. U shu davrdagi sharoitdan kelib chiqib, ikki-uch asrdan so'ng dinga bo'lgan munosabat, qiziqish yo'qoladi va natijada din ham inqirozga yuz tutadi, deydi. Jamiyat esa dahriylar jamiyatiga aylanadi.

Jamiyat taraqqiyotida axloq muhim rol o'ynaydi. Feodalizm esa axloqsizlikni keltirib chiqaradi, shu sababli feodalizm insonlar talabini qondirmaydi. Feodalizmda tarbiyalangan kishilar tabiat talabiga javob bermaydi. Buning muhim sababi ommaning savodsizligi, boylar va din peshvolarining xiyonatkorligi, aldamchiligidir. Feodalizm jamiyatni tasodifiy jamiyatdir, o'tmishning xatosidir. Shu sababli feodalizmni yangi jamiyat bilan almashtirish lozim. Yangi jamiyat feodalizmga nisbatan takomillashgan yuqori axloqiy jamiyat bo'lishi kerak. Bunday jamiyatga insonlar ma'rifat orqali erishadi. Didro o'zining bunday qarashlari bilan Frantsiyada etishib kelayotgan inqilobiy harakatlarga o'z hissasini qo'shayotgan edi.

Didroning ijodi XVIII - XIX asrdagi jamiyatshunoslar fikrini yanada mukammalashtirdi, aniqlashtirdi. Jamiyatning taraqqiyotini tushunishda uning inson haqidagi qarashlari muhimdir. Inson aql-farosati, shaxslarning fikri jamiyat tuzilishiga ta'sir etadi. Xalq va jamiyat axloqi inson axloqiga bog'liq. Shu sababli, jamiyat tarixi xalq tarixi emas, balki buyuk shaxslar tarixidir, degan fikrlarni o'rtaqa tashladiki, bu fikrlar jamiyat taraqqiyotini tushunishda haqiqiy manbadir. Didro ta'limotida, marksistlar ta'kidlagan mavhum inson yo'q. Balki aniq inson bor. Marksizm bu sohada ham Didro ta'limotiga bir yoqlama yondashadi. To'g'ri, uning ta'limotida jamiyat tabiat qonunlariga bo'ysunadi, degan fikrlar mavjud. Bu aslida xolisona tahlilda haqiqatdir. Ba'zi tabiat qonunlari oldida insonlar kuchsizligi maxfiy emas. Albatta, bu bilan u, inson imkoniyatiga bepisand bo'lgan, deyishdan yiroqmiz. Ma'rifatli jamiyatning boshqaruvchisi insondir, deb targ'ib qilish insonlarga bo'lgan hurmatning amaliy ifodasidir.

Didro ijodida ham boshqa frantsuz materialistlari kabi «ijtimoiy shartnoma nazariyasi» o'rtaqa qo'yilgan desak, xato bo'lmaydi. Ushbu nazariya monarhistik boshqarishga qarshi ishlab chiqilgan, nisbatan yangi progressiv nazariya edi. Bu nazariyada ko'rsatilishicha, avvallari jamiyatda yashovchi kishilar o'zaro teng bo'lib, o'zлari hamda boyliklari hamma vaqt xavf-xatarda yashar edilar. Keyinchalik, o'zaro kelishgan holda shartnoma tuzib, shu asosda o'z mol-mulkini, erkinliklarini qo'riqlovchi jamiyat, davlat tashkil qiladilar. Bunda barcha xalq manfaati uchun ana shu davlat xizmat

qiladi. «Ijtimoiy shartnoma nazariyasi»ning mohiyati davlat va kishilik jamiyatining paydo bo'lishi sababini xudo yoki dindan emas, balki, borliqdan, tabiatdan, deb ko'rsatish edi. Ta'kidlash lozimki, Didro o'zining barcha asarlarida jamiyat muammosining turli tomonlarini tahlil qilib, o'zining ilg'or fikrlarini o'rtaqa tashladi. Insonlarni yaxshilikka chorladi. Ularning aqliy qobiliyati erkinligi, tengligini, tajribaga ega ekanligini, tarbiyadagi e'tiborini yuqori baholadi.

Jamiyatning iqtisodiy manfatlarini to'g'ri tushungan holda sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishni targ'ib qildi. Kishilarning ma'naviy erkinliklarini qo'llab-quvvatladi.

XVIII asr frantsuz materialistlarining markaziy, eng yirik ma'rifatparvari sifatida shakllangan Didro ta'limotining ko'pgina tomonlari hozir ham eskirgan emas. U o'z falsafiy fikrlari bilan insoniyatni lol qoldirgan buyuk alloma sifatida tarixda qolgan. Uning ijodi va merosini o'rganish foydadan xoli emas.

Frantsuz materialistlarining fikrlaridan xulosa qiladigan bo'lsak, materiya cheksiz, benihoya ko'p narsalar yig'indisidir, moddiy dunyo asosidir. Ular o'z ta'limotlarida harakat materianing mavjudlik formasi ekanligini yana bir bor tasdiqladilar. Materiya harakati fazo va vaqtda mavjudligini ko'rsatdilar. Ilmiy bilishga asos soldilar. Lekin bu materializm mexanistik va metafizik qarashlardan xoli emas.

Umuman, xulosa qilib aytganda, frantsuz falsafasi, ijodi moddiy dunyoni materialistik tushunishdagi asosiy manba hisoblanadi.

Materialistik falsafaning namoyondalari qatoriga rus olimlaridan **M. V. Lomonosov** (1711- 1765), **A. N. Radishchev** (1749- 1802)larni ham kiritish mumkin.

M. V. Lomonosov tabiat hodisalarining asosida zarra harakati yotadi, deb o'zining atom-molekulyar (korpuskulyar) nazariyasini yaratdi. Materiya atomlardan tashkil topgan, doim harakatda, fan buni o'rganishi va bu sohadagi nazariyani kengaytirishi kerakligini ko'rsatadi.

Fazo va vaqt V. M. Lomonosovning fikricha, materianing ajralmagan holda haqiqiy mavjudligini ko'rsatuvchi dalildir. V. M. Lomonosov

moddalarning saqlanish qonunini kashf qilish bilan moddiy dunyoning, ya’ni tabiat taraqqiyotidagi rivojlanish dialektikasiga asos soldi.

Olimning fizika, ximiya, biologiya, geologiya va boshqa fan sohasidagi erishgan yutuqlari uning materialistik dunyoqarashiga dalil hamda asos bo’ldi.

Shunday qilib, XVIII asr materialistlari, o’sha davrdagi tibbiyot fani erishgan yutuqlar asosida din va idealizmga qarshi chiqqanlar. Bu tarixiy haqiqat.

Yangi davr falsafasi va nemis klassik falsafasida ijod muammolari

Frantsuz falsafasi bilan nemis klassik falsafasi ijodi XVIII asr oxiri XIX asr boshida vujudga keldi. Bu davrda Germaniyada kapitalizm endi vujudga kelayotgan, feodal munosabatlar emirilayotgan edi. Nemis klassik falsafasi shu davrdagi burjua demokratik jarayonlar va inqilobiy qo’zg’olonlar ta’siri ostida vujudga keldi va rivojlandi. Nemis klassik falsafasining ijodkor namoyondalari nemis boylarining mafkurachilari sifatida maydonga chiqdilar. Germaniya boshqa G’arbiy Evropa mamlakatlariga qaraganda bir muncha siyosiy va iqtisodiy jihatdan qoloq edi. Nemis boylar sinfi qo’rkoq va kuchsiz edi. Ana shunday davrda oddiy til bilan aytganda, ko’proq “Mayda ishlar va katta xayollar bilan shug’ullanar edi”.

Shu davrda Germaniyada Gyote, Shiller, Lessing kabi adiblar, Kant, Fixte, Gegel singari faylasuflar etishib chiqqan edi. Bular ijodida nemis boylarining o’zaro kelishuvchanligi, qarama-qarshi tabiat o’z ifodasini topdi. Nemis idealizmining vakillari marksizmgacha bo’lgan metafizik materializm kamchiliklaridan foydalanib, uni idealistik dialektika asosida tanqid qildilar va bir qancha dohiyona ijodiy fikrlarni berdilar, chunki bu falsafiy – ijodiy tizimni vujudga keltirgan olimlar tarixiy, tabiiy va ilmiy ma’lumotlarga suyanar edilar. Nemis klassik falsafasi boylar tafakkurining eng yuqori bosqichi bo’lsa-da, lekin uning ijodkorlari o’zlarining dialektik qarashlaridan kelib chiqadigan inqilobiy xulosalari oldida ojiz edilar.

Nemis klassik falsafasining asoschisi **I. Kant** (1724-1804) publisistika, falsafa va huquq singari fanlar bilan shug’ullangan. U nemis boylarining

mafkurachisi bo'lgani uchun uning ijodida nemis boylariga xos ikkilanish o'z ifodasini topgan. Olim o'z ijodida idealizm bilan materializmni, din bilan fanni kelishtirishga urinadi, ikkinchi tomondan, u narsa va hodisani bilishni inkor etadi (agnostitsizm). Kant ijodi asarlarining yaratilishiga qarab ikki davrga bo'linadi: "Taqidgacha" va "taqidiy davr". Har ikki davrda ham materializm va idealizmni kelishtirishga urinadi. Birinchi davrda unda tabiat fanlarini o'rganishi ta'sirida materialistik tomonlar kuchli edi. Ikkinchi davrda esa, idealistik g'oyalar ustun keldi. Kant o'z faoliyatini Nyutonning kosmogoniyasini tanqid qilishdan boshlaydi. Nyuton olam tortishish qonunini o'z davri holatidan kelib chiqib ifodalagan bo'lsa, Kant uning paydo bo'lish va rivojlanishidan boshlaydi. Nyuton ijodidagi xudoga bog'lanishni fojea deb, bu masalani Demokrit, Epikurlar davomchisi sifatida tekshiradi. Quyosh tizimining paydo bo'lishini tumanlik kelib chiqishi bilan tushuntiradi va hech qanday turtki yo'q deya, materiyani doimiy paydo bo'lishi va yo'qolib turish muammosini isbotlashga harakat qiladi. Kant o'z oldiga ilmiy bilishning imkoniyati haqidagi muammoni vazifa qilib qo'yadi. Uning fikricha, avval insonning bilish imkoniyatini tekshirishi kerak. Bu esa bilish jarayonini bilish lozim bo'lgan narsalar bilan bir qatorda qo'yishga olib keladi. Ammo, I. Kant tafakkurni chegaralab qo'yadi. Uning ijodida, narsalarning voqeligi o'z mohiyatidan farq qiladi. Ob'ektiv dunyo bor, lekin ular (narsa) o'zida bo'lib, uni bilish mumkin emas, deydi. Kantning bu fikri agnostitsizmga olib keladi. Kantning fikricha, voqelik tartibsiz bo'lib, bizning ongimizgina tajriba bilan bog'lanmagan holda u voqelikka umumiylar zaruriy qonuniyatlar kirgizadi. Demak, Kantning fikricha narsa ong bilan muvofiqlashuvi kerak.

Kantning xizmati metafizik uslubni tanqid qilish va dialektik uslubga yaqinlashuvida, kishi tafakkuridagi qarama-qarshiliklarni e'tirof qilishidadir. Kant falsafasidagi idealizm va materializm sohalari nemis falsafasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Uning falsafasi G. Gegel idealizmi va Feyerbax materializmida namoyon bo'ldi. **Gegel** (1770-1831) falsafasida nemis idealizmi eng yuqori cho'qqiga chiqqan bo'lib, falsafadagi etakchi masala ob'ektiv idealizm asosida hal qilindi. U tabiat, jamiyat hodisalarining asosida dunyoviy ruh yotadi, deb tasdiqladi. Dunyoviy ruh birinchi, tabiat esa hosila, deydi. Gegel ijodining asosini mutlaq g'oya tashkil qiladi. Gegel falsafiy tizimi bilan uning uslubi orasida ziddiyat bor edi. Bu ziddiyat nemis boylarining tabiatini, ya'ni bir tomonidan, eskicha feodal munosabatlarga qarshi kurashi bo'lsa, ikkinchi tomonidan, o'sib kelayotgan

ishchilar sinfining harakatidan cho'chishni ifodalar edi. Gegel falsafiy ijodida rivojlanish g'oyasini ilgari surilishi bilan dialektik uslubga olib keldi.

Dialektik uslub Gegel ijodining ratsional mag'zini tashkil qiladi. Gegel dialektik harakatning umumiy shakllarini birinchi bo'lib to'la-to'kis va ongli ravishda tasvirlab bergen.

Gegelning boy mazmunga ega bo'lган keng va chuqur rivojlanish haqidagi ta'limotiga ko'pgina faylasuflar ijobiy baho bergen. Gegelning pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab boruvchi dialektik rivojlanish haqidagi ta'limoti metafizik ta'limotga berilgan zarbadir. Gegel dialektikaning qonunlarini, garchand idealistik asosda bo'lsa ham, birinchi bo'lib ta'riflagan.

Ziddiyatlarning realligini e'tirof etib, metafizikaga qarama-qarshi bo'lган fikrni bergen Gegel, ziddiyat harakat va rivojlanishning ichki manbaini tashkil etishini, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi dialektikaning asosiy qonuni ekanligini isbotlaydi.

Gegel rivojlanishning asta-sekin miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishiga sakrashlar orqali o'tishini tasniflab, dialektikaning miqdor o'zgarishidan sifat o'zgarishiga o'tish qonunini asosladi. Rivojlanishda eski bilan yangi o'rtasidagi bog'lanish mavjudligini va rivojlanishning yuqori bosqichida inkor etilayotgan quyi bosqich ijobiy mazmunining saqlanishini isbotlab, inkorni inkor qonunini ochdi. Gegel dialektikaning asosiy qonunlaridan tashqari, sabab va oqibat, ziddiyat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik, mazmun va shakl, mohiyat va hodisa kabi dialektika kategoriyalarini ham tavsiflab berdi. Bular Gegel ijodining ilg'or tomonlari va uning asosiy xizmatlaridir.

Gegelning xizmati yana shundaki, u birinchi bo'lib, butun tabiiy, tarixiy va ma'naviy dunyoni bir jarayon shaklida, ya'ni uzlusiz harakat qilib, o'zgarib, qaytadan tuzilib, taraqqiy qilib turadigan holda ko'rsatadi va bu harakat bilan taraqqiyotning ichki bog'lanishini nazariy jihatdan ochib berishga urinadi. Gegelning vazifani amaliy jihatdan hal qilmaganligining bu erda ahamiyati yo'q. Uning tarixiy xizmati bu vazifani o'rtaga qo'yganligida edi.

Gegel ijodining asosiy yutug'i falsafiy tizimidir. U ob'ektiv idealist bo'lганligi uchun materializmga qarshi edi. U moddiy dunyoni mavhum g'oyaning mujassami, uzlusiz rivojlanish jarayoni real dunyoga emas, mutlaq ruhga xos deb, dunyoning asosi ham shu ruh, deb bildi.

Gegelning fikricha, voqelikni yaratuvchi ham mutlaq g'oyadir. Gegel tizimida mutlaq g'oya o'z rivojlanishida uch davrni boshidan kechiradi: 1) g'oya:

tabiatdan oldin paydo bo'lgan tafakkur holatida yashaydi. U insondan oldin paydo bo'lgan. Uning fikricha, kishi ongidan tashqarida yashovchi mavhum tafakkur-mutlaq g'oya yotadi. U buni «Logika» kitobida ifodalagan.

Mutlaq g'oya o'z rivojlanishining muayyan ikkinchi bosqichida o'zining qarama-qarshisiga - tabiatga aylanadi. Ya'ni o'zini begonalashtiradi.

Uchinchi davrda kishi tafakkuri ijtimoiy ongning turli shakllarida o'z ifodasini topadi va mutlaq haqiqatga erishadi. Shu bilan mutlaq g'oyaning rivojlanish davri tugaydi, natijada rivojlanish bekik doiraga aylanadi.

Gegel o'z ijodida davlat va huquq, estetika, din falsafasi masalalariga to'xtalib, bu sohada ham o'zining idealistik fikrlarini beradi.

Nemis falsafasining yirik vakillaridan biri **Lyudvig Feyerbax** (1804-1872) edi. U Gegel va Kant idealizmini tanqid qilib, XVII asr materializmining ilg'or urf-odatlarini tikladi va rivojlantirdi. Bu davrda - XIX asrning ikkinchi choragida Germaniyada sanoat kapitalizmi kuchaygan, jamiyat tarixida ikki sinf – boydar va ishchilar sinfining o'sish davri edi. Boydar bilan boydar bilan ishchilar o'rtasida sinfiy ziddiyatlar kuchaygan edi. Bularning hammasi Germaniyadagi g'oyaviy kurashning kuchayishiga olib kelgan edi. Bu kurash Gegel ijodini tushkunlikka tushishida o'z ifodasini topdi. Bu davrdagi yosh gegelchilar orasida Feyerbax ham bor edi. U birinchi bo'lib Gegel idealizmiga qarshi chiqib, materializm bayrog'ini ko'tardi. U idealizm va diniy sohalarni tanqid qildi. Ijobiy g'oyalarni esa targ'ib qildi. 1839 yili «Gegel falsafasining tanqidi», 1841 yilda «Xristianlikning mohiyati» degan asarlarini yozdi. Feyerbaxning bu asarlari dahriylik g'oyalarni o'rtaqa qo'yilishida katta rol o'ynaydi. Feyerbax materiyaning doimiy uzlusiz harakatdaligini, tabiat, materiya birlamchi, ong, ruh ikkilamchi ekanligini ta'kidlaydi. U falsafaning asosiy masalasini materialistlarcha hal qiladi. Materializmni yangi pog'onaga ko'taradi, unga tabiiy ilmiy asos beradi. U mexanistik materializm tabiatan qotib qolgan, harakatsiz, degan qarash o'rniga tabiat rang-barang, deb qaradi. U o'zining ilmiy ijodi orqali bilish nazariyasini materializm asosida rivojlantirdi. Feyerbax Kant agnostitsizmini tanqid qilib, dunyonи bilish mumkinligini isbotladi. Uning fikricha, bilish jarayoni sezgilarga, keyin esa tafakkurga o'tish yo'li bilan ob'ektiv haqiqatni bilishdan iboratdir.

Feyerbax Gegel dialektikasining ratsional mag'ziga to'g'ri baho bermadi, uning idealizmi bilan dialektikasini qo'shib uloqtirdi. Feyerbaxning kamchiligi shuki: u tabiatga va bilish jarayoniga tarixan yondashmadi, bilish jarayonida jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga o'tish dialektikasini va amaliyotning rolini

metafiziklarcha tushuntirdi. Ya’ni bilishning sub’ekti qilib tarixiy-ijtimoiy munosabatdan tashqaridagi mavhum insonni oladi, kishilarni biologik tarzda tushunadi, lekin ular orasidagi sinfiy munosabatni ko’rmaydi. Inson harakati faoliyatini ko’rolmadi. Feyerbax materialistik tizimni kishi fiziologiyasi va ruhiyati asosida ko’rishga intildi.

U dinni jaholat va qorong’ulik, deb tushundi, lekin uning ijtimoiy mohiyatini tushuntira olmadi. U ijtimoiy hodisalarga materializmni tatbiq eta olmadi.

Shunday qilib, Feyerbax Gegel falsafasining asl mag’zini uloqtirdi. Dinga qarshi chiqdi. Shunday bo’lsa-da, ba’zi faylasuflar uning ijobiy tomonlarini ko’rsatdilar.

Falsafani yanada yuqori pog’onaga XIX asr oxiridagi rus faylasuf-demokratlari **V. G. Belinskiy (1811-1848)**, **A. I. Gertsen (1828-1889)**, **N. A. Dobrolyubov (1836-1861)**, **N. G. Chernishevskiy (1828-1880)**, **D. I. Pisarev (1840-1868)**lar ko’tardilar.

Bu faylasuflar o’z ijodlari bilan o’tmish faylasuflaridan shu bilan farqlanadilarki, ular ezilgan omma mafkurachilari sifatida maydonga chiqqanlar. Rus revolyutsion demokratlarining xizmati shundaki, ular materialistik mazmunga ega bo’lgan inqilobiy nazariyalarni olg’a surdilar. Ular Gegel dialektikasidan foydalanishda uni tanqid qilish bilan birga «falsafaning algebrasi» Gertsen, deb bildilar. Ular dinga qarshi kurashdilar.

Ular ommaning ozodlikka erishishining yagona yo’li inqilob, degan g’oyani ilgari surdilar. Ularning falsafiy asarlari chuqur ilmiy asosdagi dohiyona asarlardir. Falsafaning asosiy masalasi - tashqi dunyoning moddiyiliği va ongning ikkilamchiligini hal qilishda Gegelni tanqid qilib, ruh va tafakkur materiya mahsulidir, materiya birlamchi, ong esa uning mahsulidir, deya tushuntirdilar. Ularning fikricha, materiya bu mavjud haqiqatdir, uni hech vaqt yo’q qilib bo’lmaydi. Masalan, A. I. Gertsen shunday deydi: «Xohlaganingcha moddani abstraktlashtirishing mumkin, lekin uni hech vaqt yo’qota olmaysan¹».

Gertsen ijodi va falsafasi dialektikani materialistik asosladi, falsafani tabiat qonunlarigagina bog’lab qo’ymay, jamiyat qonuniga ham mosladi.

Gertsen dialektik uslub va amaliy faoliyatlarning birligini ham ko’rsatdi.

¹ Filosof. izbr. proizv. T. 1. str 151, 280.

Insonning amaliy faoliyat tarixiy ijodiy kuchlardan iboratdir, deydi u. Shuningdek, amaliyot bilan nazariya birga borishi kerakligini ta'kidladi, dunyonи qayta qurishda falsafa ilmiy quroq ekanligini ko'rsatdi, lekin bu fikrni oxiriga etkaza olmadi. Bunga sabab Rossiyaning ijtimoiy qoloqligi edi.

Falsafa tarixida Gertsen dialektikani ilmiy ravishda asosladi, u metafizik qarashga qarshi chiqdi, tabiat va jamiyat hodisalarini bir-biriga bog'liq ravishda, o'zaro ta'sirda ekanligini ko'rsatdi.

Gertsen, umumiy jamiyatda ham har bir hodisa boshqa hodisalar bilan bog'langan bo'lib, falsafaning vazifasi ana shu bog'liqlikni ochishdir, tabiat va jamiyat taraqqiyoti jarayoni eskinining o'lishi bilan yangining paydo bo'lishidagi kurashdadir, degan edi.

Ko'rrib turibdiki, uning uslubi inqilobiy tavsifda edi. Shunday bo'lishiga qaramay, u jamiyatning taraqqiyotida hal qiluvchi kuch, ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabati ekanligini ko'rsata olmadi.

Xuddi shuningdek, Gertsen kabi Belinskiy, Dobrolyubov, Chernishevskiylar ham materiya birlamchi, ong ikkilamchi, tabiat va jamiyat hodisalari, o'sib, o'zgarib turadi, ular o'zaro bog'liq, deb idealistik qarashga qarshi chiqdilar. Jamiyat bir-biriga qarama-qarshi ikki sinfdan tashkil topgan, kishilik jamiyatni tarixi mana shu sinflarning o'rtasidagi kurashni o'z ichiga oladi, deb ko'rsatdilar. Ular jamiyat taraqqiyotini dialektik asoslardilar, lekin shu bilan birga, progressiv hal qiluvchi kuch dehqon sinfidir, deyishdilar.

O'rta asr va yangi davr Evropa ijodi va falsafasini o'rganish hozirgi davr uchun muhim ahamiyatga egadir. Chunki, falsafa o'tmishda o'zining shakllanishi uchun tarixiy davrlarni boshidan o'tkazgan. Uning ba'zi muammolari hayot chig'iriqlaridan o'ta olmagan. Natijada, yangi muammolarni keltirib chiqargan va o'rtaga qo'ygan. Har bir davr o'zining yutuqlariga ega bo'lishi bilan birga kamchiliklariga ham egadir. Falsafa tarixini va o'sha davr ijodini o'rganish hozirgi zamon kishilarining falsafiy tafakkurining rivojlanishiga asos bo'ladi.

Ma'lumki, falsafa tarixida tizim va oqimlarni yaratgan allomalar oz emas. Ularning ko'pchiligi falsafa tarixida o'chmas iz qoldirganlar. Ular qoldirgan falsafiy merosning, ijodning jiddiy ahamiyati shundaki, bu falsafiy merosni, ijodni hozirgi kun falsafasi va ijodi bilan solishtirgan holda yangi falsafiy nazariyalarni, yangi ijod namunalarini yaratish mumkin. Shuningdek, mazkur manbalar ma'lum ma'noda qadriyatlar hisoblanadi. Bu qadriyatlarning aksariyat qismi inson faoliyati bilan bog'liq. Uning tarbiyasi, dunyoqarashiga aloqador. Shu sababli ham

Evropa falsafasi durdonalaridan foydalanish insonlarning, ayniqsa, yoshlarning falsafiy va ijodiy saviyasini oshirishga yordam beradi. Nazariy va amaliy faoliyatini mustahkamlaydi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Ijtimoiy ong, “Oy xudoning otasi”, “Arfist qo’shig’i”, Fales ta’limoti, Anaksimen, Milet maktabi, Pifagor, Sofist, Levkipp, Geraklit, Protagor, Platon, Arastu, ideal davlat, Demokrit, Lukretsiy Kar, Kopernik, Bekon, Gobbs, Dekart, Spinoza, Berkli, Volter, Didro, Lomonosov, Kant, Gegel, Feyerbax, Gertsen, dialektik uslub.

Mavzuga oid savollar:

1. Ilmiy falsafiy ijod tizimlari qaysi davrlarda, qaerlarda paydo bo’ldi?
2. Milet maktabining mohiyati nimada?
3. Evropa uyg’onish davri ijodini tushuntiring?
4. Yangi davr falsafasining mohiyati nima?

IV bob. Ijodning nazariy muammolarini ishlab chiqishda Sharq mutafakkirlari qo'shgan hissalar

O'rta Osiyoda falsafiy-diniy dunyoqarashning shakllanishi. Qadimgi xalqlar ijodiy faoliyati og'zaki va yozma manbalarning ifodasi sifatida

O'rta Osiyodagi qadimgi falsafiy qarashlarni bilish, o'rganishda yozuv va tarixiy yodgorliklarning katta ahamiyati bor. Qadimiy yozuvlardagi mazmun ham o'z davri falsafiy jarayonlarini namoyon qilganki, ularda ham yaxshilik va yomonlik, boylik va kambag'allik o'rtasida kurashlar tasvirlangan. Qadimiy yozma yodgorliklarga «Avesto», «Bundaxshin», «Denxard» va «O'rxun-Enisey» yozuvlari kiradi. Enisey bo'yalaridagi qadimgi yozuvlarni aniqlash XVIII asrning boshlarida rus olimlari tomonidan boshlangan. Topilgan yodgorliklardi yozuvlarni aniqlash qiyin kechgan. Faqat XIX asrning birinchi choragidagi Grigoriy Spasskiyning Enisey yodgorliklari haqidagi maqolasi «Sibirskiy vestnik» (Sibir xabarlari) jurnalida e'lon qilingandan so'ng yodgorliklar haqidagi ma'lumotlar olimlarga ma'lum bo'ladi. Ammo, yozuvni o'rganishga o'sha paytda katta e'tibor berilgan bo'lsa ham, tezlikda natija bermagan. 1889 yili rus sayyohi va yozuvchisi **N.M.Yadrintsev** Mo'g'ulistondagi Kosho-haydam vodiysida O'rxun daryosi bo'yalaridagi ko'pgina yodgorliklarni topib, ulardagi Xitoy yozuviga o'xhash matnlarni aniqlagan. Matnlarni o'qish Daniya olimi **Vilgelm Tomsenga** nasib qildi. U dastlab «tangri», «turk» degan so'zlarni o'qigandan so'ng (1893 yil 25 noyabrdan) masala oydinlashdi. Ko'p harflar mazmuniga kalit topildi. Bu orada rus olimi **V. V. Radlov** ham 15 ta harfni o'qigan edi, u Tomsen va o'zining kashfiyoti asosida yodgorliklardi matnlarning tarjimasini birinchi bo'lib amalga oshirdi.

N. M. Yadrintsev topgan yodgorliklar turk xoqoni Bilqa-Qoon-Mog'ilyon (734-yilda vafot etgan) va uning ukasi Kul-Tegin (732-yilda vafot etgan) qabr toshlariga o'yib yozilgan yodgorliklar edi. Shu vaqt dan boshlab Enisey va O'rxun daryolari atrofidagi yodgorliklar «O'rxun-Enisey yodgorliklari» deb atala boshlagan. Shuningdek, O'rxun yozushi, deb ham

atalgan. Keyinchalik yana ko'plab yodgorliklar topildi. V-VI asrlarga oid 5 ta toshdagi hamda qog'oz, charm, yog'och, va turli idish-tovoqlardagi yozuvlar ham qimmatli manbalar hisoblanadi. Bu yozuvlarda turk xoqonligining davlat tuzumi va dinlar haqidagi ma'lumotlar berilgan. Xitoy yilnomalarida ko'rsatilishicha, turklar o'lganlaridan so'ng ko'mish marosimi shunday ta'riflangan: o'lgan kishining boyliklari, jangda mingan oti bilan birga olib kuydiriladi. Xoki dafn etilib, marhum qancha dushmani o'ldirgan bo'lsa, shuncha tosh uning qabriga qo'yiladi, uning surati ishlanadi va qilgan ishlari o'yib yoziladi. O'sha davr uchun bu holatlar ham xalq ijodi edi.

Bunday ma'lumotlar haqiqatdan ham u davrdagi qabr toshlarining ko'plarida uchraydi. Xususan, Mog'ilyon va Kul-Tegin qabr toshlarida ham, shunday fikrlar mavjuddir. Mog'ilyon so'nggi turk "ulug' xoqon"laridan bo'lib, o'z davlatining chegarasini kengaytirgan va mustahkamlagan. Unga ukasi mardlik ko'rsatib yordam bergen. Qo'shni davlatlar bilan yaxshi munosabat o'rnatgan. «Yo'qsil xalqni boyitgan», «Oz sonli xalqni ko'paytirgan», «Adolatli hukmdor» bo'lgan. Hududlarda ko'proq ma'lum kishilarning qahramonliklari aks ettirilgan. O'sha paytlardagi matnlaridayoq qirg'iz, uyg'ur, o'g'uz va yana boshqa xalqlarning, qabilalarning nomlari tilga olingan. Umuman, ushbu yozuvlarning ahamiyati shundaki, endilikda ular bizga o'sha davrning falsafasi, turmush tarzi, ijodiyoti haqida ma'lumotlar beradi. Urf-odatlar, e'tiqod va boshqalar bilan tanishtiradi. Masalan, Enisey havzasidan topilgan bir toshdagi yozuvda shunday deyilgan: «Mening davlatim va mening xonim, men sizlardan lazzat ko'rmadim, hayhot, men quyoshni va oyni sezmaydigan bo'lib qoldim.

Mening do'stlarim va qarindoshlarim, hayhot men (sizlardan) uzoqlashib, o'z kumush xalqimdan yiroqlashdim.

O'z qahramonlik shijoatimdan lazzatlana olmadim. Qirq yoshimda o'ldim, men O'chin-Qulug-Tirig o'g'li, men Qulug-Tug'an» va hokazolar.

Ushbu yozuvlardan ko'rinish turibdiki, VII- VIII asrlarda xalq va podshohlar o'rtasidagi munosabatlar o'z xususiyatiga ega. Qaramaqarshiliklar, kelishmovchiliklar, turmush tarzidagi voqealar asta-sekinlik

bilan rivojlanan borgan. Ana shunday bir davrda O'rta Osiyo hayotida islam dinining kirib kelishi bilan ahvol o'zgargan. Mahalliy diniy qarashlar zarbaga uchragan. Arab bosqinchilari Islom dinini xalqqa singdirish uchun katta kuch bilan harakat qilganlar. O'sha davrning vatanparvarlari (Rafi ibn Leyl, Hamza as Xorij, Abu Muslim, Muqanna va boshqalar) arablarga qarshi chiqib jiddiy zarba bergenlar. Shunday bo'lishiga qaramay, arab madaniyati mahalliy joylarda o'z o'rnini topa boshlagan. Talaygina bosqinchilik urushlaridan so'ng IX asrning oxiriga kelib O'rta Osiyo mustaqillikka erishdi. Somoniylardan so'ng Xorazmshohlar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar davlatlari paydo bo'ldi. Buxoro, Samarqand, Marv, Ko'hna Urganch, Xiva kabi markazlar vujudga keldi. Bu shaharlar O'rta Osyoning madaniy markazlariga aylandilar. Natijada Movarounnahr hududida madaniy-ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, diniy-falsafiy ta'lilotlarning rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi. Xalq orasidan aql-idroki, tafakkuri bilan dunyoni lol qoldiradigan qomusiy olimlar etishib chiqdi. Natijada matematika, astronomiya, ximiya, minerologiya, tibbiyat, san'atshunoslik, naqqoshlik kabi sohalar tez rivojlandi. Tarixchilar, faylasuflar, g'azal mulkining sultonlari, «muallimi soniy», «shayxur rais»lar etishib chiqdiki, bu ajdodlarimizdan qancha faxrlansak kamlik qiladi. Ana shu ajdodlarimiz sharq uyg'onish davrini boshlab berishgan. Ular yaratgan ilmiy-falsafiy ijod va ta'lilotlar umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ta'lilotga aylandi. O'zlarining ijodlarida vatan ravnaqi, ilm-fan, madaniyat, erkinlik, farovonlik g'oyalarini aks ettirdilar.

Buddachilikning Maxayana shakli Kushonshohlarning rasmiy davlat dini, deb e'lon qilinganidan so'ng (aytish lozimki, kushonlarning dastlabki poytaxtlaridan biri hozirgi Kattaqo'rg'on yoki Shahrисabz atroflarida, Xitoyda «To-si», ruhi, deb ataluvchi) diniy tavof markazi bo'lgan. Mahalliy shaharlar Balx, Marv, Termiz, Samarqand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Sayram, Koson, O'sh va boshqa shaharlarda ko'plab diniy ibodatxonalar qurbanlar. Buddachilikka oid kitoblar tarqatilgan. Kushonlar davlatining asoschisi Kanishka Kadfiz tomonidan Panjobning Jalandxar shahrida buddachilikning umumjahon jome' yig'ilishida «Maxayana – hamma uchun

birdek ulug' yo'l» davlat dini va mafkurasi, deya e'lon qilingan. Aslida u paytlarda Turondagi turkiy xalqlar tangriga e'tiqod qilgan. Maxayana ta'limotining falsafiy asosi xalqlarni birlashtirishga qaratilgan e'tiqod-mafkura bo'lган.

Taniqli qadimshunoslardan biri B. Ya. Stavavisskiy buddachilikni Uzoq sharqda va Turonda keng tarqalishida yurtimizdagi avliyolar (rohiblar)ning xizmati katta bo'lganligini qayd qiladi. Ana shu paytdagi rohiblar an'analarga asoslanganlar. Muqaddas suralarni shaxsan ko'chirib, mahalliy tillarga tarjima qilganlar. Sharhlar yozganlar. Ana shunday rohiblar qatoriga Termizlik (oldingi nomi Tramita) Dxarmamitra, Toshkenti-iloq vohasidan Bo Shlipotola, Shrimitra, Laqay turklaridan Dxarmanandin, Samarqandlik Kan Sen – Xueylar kiradilar. Ular eramizning III-V asrlarida yashab ijod etganlar. Buddaning asosiy g'oyalari bo'lgan qiyinchilikdan qutulish yo'llari, o'z istaklaridan voz kechishlari, to'la xotirjamlikka, osoyishtalikka, mutlaq ma'sudlik holatiga erishishlarini targ'ib qilgan (buddada 4 ta qoida yotadi: dunyoda qiyonalish, azob-uqubat mavjud, qiyonalishning sabablari, qiyonalishdan qutulish mumkin, qiyonalishdan qutulishga olib chiquvchi yo'l bor). Ko'rib turibmizki, mamlakatimiz hududidagi xalqlarning o'zaro aloqalari tufayli ilk o'rta asrlarda falsafiy ijod rivojlangan. O'z madaniyati, falsafasini yaratgan. Xalqlarning falsafasini yaratishda qadimiy dinlar muhim ahamiyat kasb etgan. Ana shunday dinlardan biri zardushtiylik dinidir.

Zardushtiylik. “Avesto”

Zardushtiylik dini eramizgacha VII-VI asrlarda shakllangan. Unga Zardusht ismli alloma asos solgan. Ba'zi bir mualliflar esa Zardushtni Xorazmda, ba'zilari esa Ozarbayjonda tug'ilgan, deb fikr yuritishadi. Zardusht qaerda tug'ilishidan qat'i nazar, uning ta'limoti ibtidoiy jamoa davrining oxiri, quldorlik jamiyatining boshlanishida din sifatida shakllangan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da keltirilgan fikrlar mulohazamizni tasdiqlaydi. Bu din O'rta Osiyoda islom dini

tarqalishidan so'ng ham ba'zi joylarda birmuncha vaqtga qadar saqlanib qolgan.

Muqaddas kitob eramizgacha VII asr oxiri VI asr boshlarida yaratilgan. Undagi asosiy g'oyalar «Tavrot» va «Qur'on»da keltirilgan fikrlarga yaqindir. Zardushtiylikni qadim davrdagi diniy aqidalar, deb tushunish unchalik to'g'ri bo'lmay, balki uni o'sha davrning hukmron mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy qarashlari, deb tushunish kerak. Uning nazariy asosi - "Avesto" xulosalari shundan dalolat beradiki, zardushtiylik fikrlari kitob yozilishidan oldingi ko'p ming yillik tajriba va hayot, turmush tarzlarini umumlashtirish sifatida yuzaga kelgan. "Avesto"da afsonaviy fikrlar bilan birga insonlarning hayotiy tajribalari ham o'z aksini topgan. Bu muqaddas kitob qadim asrlarning tarixi va rivojlanishini, iqtisodiy-ijtimoiy holatini, falsafasi, tili, yozuvi, xalq og'zaki ijodining manbasi sifatida ham qadrlidir. Ayniqsa, undagi falsafiy jihatlar kishini hayratga soladi. U 21 ta kitobdan iborat, ammo ularning ko'pchiligi yo'qolib ketgan. Uning eng qadimgi nusxasi 1324 yilda ko'chirilgan bo'lib, Kopengagenda saqlanadi. "Avesto" qadimgi Eron tillari guruhidagi tillarning qadimgi yodgorliklaridandir. Undagi insonlarning orzu-umidlari, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi munosabatlar diqqatga sazovordir.

Kitobning asosiy mazmuni insonlarning xudoga murojaat etib, iltijo qilishlariga bag'ishlangan. Xudodan tinchlik, chorva mollari, yaylovlar, sug'orish maydonlarini tilaganlar. Kitobda Axuramazda xudolik qiyofasidan chiqib, adolatli shoh qiyofasiga o'tishi tasvirlangan. U adabiy yodgorlik sifatida insonlarning ma'naviy qiyofasini juda jiddiy tasvirlagan.

Avestoda mehnatsevarlik, insonparvarlik, botirlik, jasurlik, va tozalik, moddiy to'kin-sochinlik uchun kurash kabilar tilga olinganki, ular inson ma'naviyatini ko'tarishga qaratilgan edi. Oqilona turmush tarzini, uning ma'naviy hayotini, insonning dunyoqarashi va axloqiy fazilatlarini o'zida jiddiy ifoda etgan. Axloqiy qarashlarda insonning burchi, ma'naviy pokligi targ'ib qilingan. Ayollarga hurmat ko'rsatish alohida ta'kidlangan, tozalikka rioya qilish, suvlar, tabiat mahsulotlarining toza tutilishi kabi jihatlar borki, ular insonlarni ma'naviy yuksalishga da'vat qilgan.

Kitobning diqqatga sazovor yana bir tomoni borki, unda jismoniy va ma’naviy jarayonlar uch davrga bo’linib berilgan. Birinchi davr: bu eng qadimgi davr hayotini ifodalaydi. Unda yaxshilik tantana qilgan. Yorug’lik va insoniy xislat, saodat hukmron bo’lgan. Ikkinchi davr: bu hozirgi davr bo’lib, unda kurash davom etadi. Uchinchi davr: kelajakdagi hayot. Bu davrda insonlar aql-idroki bilan badavlat bo’lib yashaydilar. Yaxshilik engadi, jaholat chekinadi.

Kitobdagagi Axriman xudosi yomonlik xislatlarini tarqatadigan xudodir.

Ta’kidlash lozimki, kitobda dehqonchilik va chorvachilik sohalariga katta e’tibor berilgan. Jumladan, kitobda “dehqonchilikning foydasi haqida”gi bo’limda shunday fikr bor: “Moddiy olamni, haqiqatni yaratuvchi zamindagi eng muhtaram manzil, qaysi?, nimadir?”, - degan savolga yaxshilik xudosi Axuramazda shunday javob beradi: -“Inson uy tiklab, olovga va oilasiga, xotini va farzandlariga o’rin ajratib bersa, em-xashagi ko’p bo’lib, chorva va itlari to’q yashasa, uyida noz-ne’matlar muhayyo bo’lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e’tiqodi sobit, olovi alangali, boshqa narsalari ham mo’l-ko’l bo’lsa, u manzil muhtaramdir. Kimki o’ng qo’li va so’l qo’li bilan erga ishlov bersa, mehnat qilsa zamin rahmatiga musharraf bo’lajakdir”.

Yoki «kimki g’alla eksa olijanobdir. G’alla ekkan kishi ezgulik urug’ini sochadi. Axuramazda e’tiqodni kuchaytiradi, e’tiqodni mustahkamlaydi”.

Demak, bu ishlarning bajarilishi bilan insonlar yovuz kuchlardan xalos bo’ladi. Devlarni mag’lub etadi.

Yuksak ma’naviylik zardushtiylik falsafasi bo’yicha jaholatning, yomonlikning oldini olishdir. Undagi qadimgi meditsina, fazo to’g’risidagi, astronomiya va falsafaga oid nodir fikrlar inson qalbini yorug’likka chorlaydiki, bu yorug’lik albatta, yaxshilikka olib boradi.

Bular O’rtta Osiyo xalqlarining falsafiy – ijodiy tafakkurini qadim-qadimlarga borib taqalganidan dalolatdir. O’rtta Osiyodagi Xorazm, So’g’diyona, Afrosiyob, Shosh hududlarida dehqonchilik, hunarmandchilikning rivojlanishi olam, dunyo to’g’risidagi fikrlarning

takomillashishiga turtki bo'lgan. Bu erlarda turmush va til jihatidan ham bir-biridan farq qilmagan turli qabilalar va elatlar: massagetlar, xorazmiylar, so'g'dlar, parfiyaliklar va boshqa xalqlar yashagan. Bular ko'chmanchi chorvadorlar hamda allaqachonlar o'troq dehqonchilikka o'tgan aholi edi. So'ngra birlashib, hozirgi zamon O'rta Osiyo xalqlarini vujudga keltirganlar. Tarixga qanchalik kirib borilsa, bir manbadan kelib chiqqan xalqlarning bir-biridan farq qiladigan belgilar shunchalik kamayib boradi. Xorazm, So'g'diyona, Afrosiyob aholisi o'rtasidagi nisbat ham shunday. Grek tarixchisi Strabon Baqtriya, So'g'diyona, Eron, Midiya aholisining tili ham birligini ta'kidlaydi. Uzoq tarixiy jarayon davomida qadimgi Eron tillari guruhidagi tillar zaminida keyinchalik tojik, fors va boshqa tillar shakllanganligi kabi qadimgi turkiy tillar guruhidagi tillar zaminida o'zbek, uyg'ur, turkman, qirg'iz va boshqa turkiy tillar vujudga kelgan. Eron tillari guruhidagi til asosan, Tojikiston hududidagi aholining tili bo'lib qolgan. Bu til asrlar mobaynida Farg'ona, So'g'd va Xorazmda ham saqlanib qolgan. Xorazm yozushi oramiy yozuvlarning eng qadimgi xususiyatlarini saqlab qolgan yozuvlardandir. Demak, yozuvga ega bo'lgan Xorazm, So'g'diyona, Afrosiyob xalqlari ijodi va falsafasi qadimgidir. Bu tillarda so'zlashgan xalqlar diniy va materialistik qarashlarni o'rtaga qo'yganlar. Yaxshilik va yomonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, yaratuvchilik falsafasiga e'tiborni qaratganlar. So'g'd, Xorazm va boshqa joylarda etishgan olimlar sayyoralarni, yulduzlarning turkumlarini o'rganganlar. Ularga nomlar bergenlar. Burjlarni aniqlaganlar. Goroskoplar tuzganlar. Fizika, matematika, falsafa va tibbiyot sohasida ijod bilan shug'ullanganlar.

2001 yil oktyabr oyining oxirida muqaddas kitob «Avesto» yaratilganligining 2700 yilligi butun dunyoda keng nishonlandi. Bu tadbir ajdodlarimizga bo'lgan hurmat va e'tiborning amaliy ifodasıdir.

Sharq Renessansi (IX – XIV asrlar) O'rta Osiyoda yangi fanlarning vujudga kelishi va rivojlanishining namunasi sifatida

Fan taraqqiyotida IX-XII asrda yashab ijod etgan mutafakkirlarning ijodi muhim o'rinni tutadi. Ularning ba'zilari haqida fikr yuritamiz.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (787- 847) ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Astronomiya, matematika sohalariga oid ko'plab asarlar yozgan. Xorazmiy xalifa Ma'mun rahbarligida "Donishmandlar uyi"da ishlagan. Uning "Al-jabr val muqobala" asari, ayniqsa mashhurdir. Bu asar G'arb va Sharq olimlariga algebra fanidan dasturamal bo'lib xizmat qilmoqda. Xorazmiyning "Astronomik jadvallar", "Quyosh soati to'g'risida risola ", "Hind hisobi haqida risola", "Tarix bo'yicha risola", "Musiqa bo'yicha risola", "Zij " kabi asarlari ilmiy-falsafiy ahamiyatga ega. Bu asarlar Xorazmiyning buyuk matematik, umuman qomusiy alloma ekanligidan dalolatdir. To'g'ri, Xorazmiy aynan falsafaga oid maxsus asar yozmagan bo'lsa-da, ammo uning matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix va musiqa ilmiga oid asarlarida ilmiy isbotlangan falsafiy fikrlar, g'oyalar, nazariy ta'limotlar son-sanoqsiz. Hamyurtimiz o'zining bu asarlari bilan dunyo ilmining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan edi.

O'rta Osiyo xalqi boy moddiy, ma'naviy, falsafiy tarixga ega. Bu o'lka eramizning boshlaridayoq qishloq xo'jaligi, shaharlari rivojlangan zamin edi. Evropa va sharq mamlakatlari bilan savdo, madaniy aloqalar o'rnatilib, hunarmandchilik taraqqiy etgan edi.

Forobiy Abu Nasr Muhammad (870-950) Sirdaryo bo'yidagi Forobda keyin Damashqda bilim oldi. U yirik tilshunos, mantiqshunos, matematik, ximik, medik, psixolog, etnik, musiqashunos edi. Grek madaniyatini yaxshi bilgan. Tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarda ijod qilib ilg'or fikrlarni ilgari surgan. Forobiy Arastidan keyingi, ikkinchi ustoz bo'lib tanildi. U Arastu asarlarini to'g'ri tarjima qilgan yirik faylasuf. Arastuning "Kategoriylar", "Analitika", "Poetika" kabi asarlarini tarjima qildi. O'zi esa bir yuz ellikdan ortiq asar yozgan. Asarlari yo'qolgan bo'lishiga qaramay, ulardan bir qanchasi bizgacha etib kelgan. Ularda metafizikani sharhlash, "Ehsonul-

ulum” falsafa, tibbiyot, matematika, mantiqshunoslik, tilshunoslik, siyosatshunosliklarga oid fikrlar berilgan. Aynan “Musiqaning ulug’ kitobi” “Assiyosat al madaniyat”, “Fanlarning kelib chiqish risolasi” kabi asarlari bizgacha etib kelgan.

U moddiy dunyoni moddiy ob’ektlar sifatida anglaydi va Arastuning progressiv qarashini mistikadan ozod qilishga urindi, progressiv fikrlarni targ’ib qildi. Olim tabiatdan tashqaridagi kuchga ishonadi va uni massa, sifat, xususiyatga ega emas, deb tushunadi.

Forobiy ijodida materialistik tendentsiya kuchli. U materiyani inkor etmaydi, uni birinchi asos, deb biladi. Uning fikricha suv, havo, olov, osmon, erdagi narsalar qo’shilib boshqa predmetlar paydo bo’ladi. Osmon jismi ham shundan paydo bo’lgan, deydi.

Demak, Forobiyning ijodida, olamda materiya va shakl bor, lekin ular teng. Bu erda uni fanda, falsafada Arastudan ilgarilab ketgan, deya olamiz. Arastu shakl birlamchi, materiya ikkilamchi, degan bo’lsa, Forobiy esa materiyaning harakati ob’ektiv, zero materiya ob’ektivdir degan xulosaga kelgan. U moddiylik olamning harakat manbai, olamdagи narsalar o’zgarishda, harakatning sababi turli moddalarning birikishida, - deb ko’rsatadi.

Uning fikricha, moddiy elementdan tashkil topgan narsalar o’zgarmaydi, yangisi vujudga kelmaydi, yo’qolmaydi.

U moddiy olamni, harakat va o’zgarishda bo’lgan narsalarni quyidagi qismlarga bo’ladi: 1) osmon jismlari; 2) minerallar; 3) o’simliklar; 4) hayvonlar; 5) insonlar. Bular sifat jihatidan farq qiluvchi cheksiz hodisalardir. Sifat o’zgarishining sababi, materiya deb biladi. Bu stixiyali dialektika va sodda materializmdir. Forobiy bilish nazariyasida ham progressiv fikrlarni ilgari surgan. Odam, uning sezgisi aqldan ilgari paydo bo’lgan, aql esa moddiy olam mahsulidir. Inson hayvondan aqli bilan farq qiladi, deydi. Inson bilishi sezishdan aqliy bilish tafakkurigacha ko’tariladi, deydi. Bu - bilish nazariyasidagi materializmdir. Forobiy inson bilimi moddiy dunyo sirini yorita olmaydi, deb fikr yuritdi. Forobiy jon va tana haqidagi masalada to’xtalib jon chiqishi bilan tan o’ladi, deydi.

Shunday qilib, Forobiyning ijodida o’z zamonasining ilg’or fikrlari mujassamdir.

O’rta Osiyo mutafakkirlaridan yana biri **Abu Rayhon Beruniy** (973-1048)dir. U katta qomusiy olim hisoblanadi. O’zining tabiiy bilimlar sohasidagi yutuqlari bilan fan tarixida chuqur iz qoldirgan. Olim yil hisobini, kalendarni ishlab chiqqan. Uning “Hindiston” asari esa falsafa, geografiya, astronomiya, mineralogiyaga oid. Mutafakkirning fikricha, materiya bor narsalarni o’zgartiradi, shaklni yaratadi. Materiya tafakkurning ham asosi hisoblanadi. Kishining bilish imkoniyatiga ishonadi, diniy xurofotga ehtiyyotkorlik bilan yondashadi. Materiya barcha narsaning asosi, uningcha, hamma narsa o’zgaradi, o’sadi, vujudga keladi, halok bo’ladi. Bu tabiiy jarayon. Materiya yaratuvchi xususiyatga ega, deydi.

O’sha davrning buyuk mutafakkiri, **Abu Ali ibn Sino** (980-1037) Buxoro yonidagi Afshona qishlog’ida, Somoni Nuh ibn Mansur saroyining amaldori oilasida tug’ilgan. Bu davrda O’rta Osiyoda arablar hukmronlik qilgan davr edi. Lekin undan keyin bu er markazga aylandi. Fan, madaniyat rivojlandi. Ibn Sino tabib, farmakolog, adabiyotchi, ximik, astronom, faylasuf, etnolog sifatida boshqa fanlarning ham rivojiga salmoqli hissa qo’shgan olim. 500 dan ortiq asar yozgan. Ulardan 60 tasi bizgacha etib kelgan. Asarlari O’zbekiston Fanlar Akademiyasi sharqshunoslik institutida saqlanadi. Abu Ali ibn Sinoni qadim davrdagi Gippokrat, Galen, Arastu bilan yonma-yon qo’yadilar. Uning “Kitob al-qonun fit tib” asari tabiblarga qo’llanma bo’lib keldi va kelmoqda. Undan XVIII asrgacha anatomiya, fiziologiya, terapiya, diagnostika, profilaktika, farmakologiyadan entsiklopediya sifatida foydalanildi. Bu asar, lotin tilida Lion, Rim, Neapol, Venetsiyada 30 martadan ortiq nashr qilingan.

U tabiiy fanlar bilan din orasidagi munosabatda xolislik bo’lishini talab qiladi. Ibn Sino anatomiya bilan yashirin shug’ullanadi, bemorlarni davolaydi. U kishidagi ruhiy holat organizmga, uning ahvoliga bog’liqligini, ruhiy faoliyatni bilish uchun biologik jarayonni va asab tuzilishini yaxshi o’rganish kerakligini, shuningdek, dam olish, sayohat, jismoniy tarbiya, ob-havo va profilaktika jarayonlari inson salomatligiga zarur ekanligini

ko'rsatdi. Hali mikroblarni aniqlashdan oldin, suv orqali kasallik tarqalishini aniqladi. U nazariya va amaliyot birligi masalasiga e'tiborni qaratdi. Tabiatni o'rganish sohasida vulqonlar, tog'lar borasida, ularning harakatlanishi haqidagi ilmiy falsafiy fikrlarni bildirdi.

Ibn Sinoning falsafiy, ilmiy ijodi tabiiy qarashlari bilan bog'liq asarlari «Kitob ash shifo», «Donishnoma», «Najot» kabilardir. U fizika (tabiat to'g'risidagi fan), logika (tabiat va insonni bilish yo'llari), metafizika (borliqni bilish to'g'risidagi), falsafa borliq xususidagi fanlardir, deb e'tirof etdi. Ibn Sino bu sohada Arastu izdoshidir. U Arastuning noto'g'ri qarashlarini qabul qilmasdan o'z fikrlarini rivojlantirdi. Olam mangu yaratilgan, deb tushuntirdi. Mangu materiya mavjud, buyumlar materiyadan paydo bo'ladi. Materiya borliq manbaidir. Shakl materiya bilan aloqadadir, deydi.

Arastuning mavhumlik shaklini rad etdi. Ibn Sino bilish nazariyasida materialistik qarashlarni ilgari surgan. Uning fikricha, aql faol kuch, bilish quroolidir. Inson tajribasini birinchi o'ringa qo'yadi, tushuncha keyin keladi. Moddiy dunyo birlamchi, tushuncha ikkilamchi. Inson aqli uzoq davr davomida mehnat orqali, hissiy qabul qilishi orqali yuzaga keladi. U Arastuning mantiq fanini asosladi.

Ibn Sino falsafasida ichki qarama-qarshiliklar ham uchraydi. Ilohiyot moddiy olam ishiga aralashmaydi, u ob'ektiv qonun asosida rivojlanadi. Fazoda bo'shliq yo'q, fazo materiya xususiyati, moddiy olam harakatda, materiya bilan harakat bog'langan, vaqt ham narsaga bog'langan, ularni ajratish mumkin emas, deydi.

Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga to'xtalsak, u adolatsizlikka qarshi kurashgan. Uning-cha, ruhoniylar ham, davlat arboblari, adabiyotchilar, harbiylar ham aniqrog'i, har kim o'z o'rnida bo'lishi zarur. Bu fikr o'sha davr ijtimoiy ziddiyatlaridan kelib chiqqan fikrlar bo'lsa, ajab emas.

Ibn Sinoning jahon madaniyati va fani rivojidagi o'rnini nazarda tutib tavallud topganligining 1000 yilligi (1982 yilda) o'tkazildi. Shunday qilib, falsafa tarixida O'rta Osiyolik mutafakkirlar alohida o'ringa ega.

Temuriylar avlodiga mansub bo'lgan Shohruh Mirzoning o'g'li – Muhammad Tarag'ay - **Mirzo Ulug'bek** (1394-1449) falsafa, ilm-fan taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shdi. U yoshligidanoq o'z davridagi ilm-fanga qiziqqan. Olimlar, shoirlar, san'atkorlar, diniy ulamolar, allomalar davrasida bo'lib, ilmiy bahslarda qatnashgan va ilhomlangan.

Qiyin va murakkab, ziddiyatli sharoitda yashagan Ulug'bek mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan bir qatorda ilmiy ijod bilan shug'ullangan. Olimlarga rahbarlik qilgan. O'z ustida tinmay ishlagan, ijod qilgan. Ilmiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirgan. U o'z faoliyatida falsafa, tarix, mantiq, astronomiya, matematika, tabiatshunoslik va huquq bilimlari bilan shug'ullanib asarlar yozgan. Yunon olimlaridan Aflatun, Arastu, Ptolomey asarlari bilan tanishgan. Ulug'bek o'tmish ajdodlardan, xususan, O'rta Osiyo olimlaridan qolgan madaniy meros, falsafiy qarashlardan o'z ijodida unumli foydalangan. Uning falsafasida aql-zakovatni jangu-jadallarga, yurt olish, boylik orttirishga emas,adolat bilan hukm surish, mamlakatni obod qilish, adabiyot, ilm-fanni rivojlantirish markaziy o'rinni egallaydi. Ulug'bek o'z atrofiga o'z davrining «Aflatuni» deb nom qozongan mashhur matematik, astronom Qozizoda Rumi va taniqli olimlar Ali Qushchi, Mansur Koshiy, Ali ibn Muhammad Birjandiy, Miram Chalabiy, G'iyosiddin Jamshid, Muhammad ibn Umar Chag'niniy kabilarni to'plagan. Ulug'bek shu olimlar ishtirokida kengashlar o'tkazib matematika, astronomiya, geometriya fanlari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Obi rahmat soyi yoqasida rasadxona qurdirgan. Ko'rinish turibdiki, u tabiat muammolarini echish bilan birga diniy e'tiqoddan voz kechmagan. Uning falsafasida moddiylik va ma'naviylik mujassam edi. Ulug'bek 1437 yilda «Ziji Ko'ragoniy» risolasini yozib tugatgan. Uning asari hozirgacha olimlar qo'lidan tushmaydi. O'z rasadxonasida ijod qilib, 1018 ta yulduzning muvozanatini aniqlagan.

Mirzo Ulug'bek ilmiy kuzatishlar olib borish va madrasada falakkiyot ilmidan va'z aytish bilan birga madaniy-maishiy ishlarga ham jiddiy e'tibor bergen. O'nlab madrasa, xonaqoh, masjid, karvonsaroylar qurdirgan. Oldinroq boshlangan Bibixonim masjidi, Go'ri amir maqbarasi, Shohi zinda

ansamblining qurilishini nihoyasiga etkazgan. Ulug’bek haqida yuzlab asarlar mavjudki, ularda u donishmand faylasuf, adolatli sulton, ijodkor ustoz sifatida madh etiladi. Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida «Ulug’bek madhiyasi» degan maxsus bob mavjud. Unda Ulug’bek zaminda osmon yaratgan olim, deb ta’riflanadi:

Rasadkim bog’lamish zebi jahondir,
Jahon ichra yana bir osmondir.
Bilib bu nav’ ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi «Ziji Ko’ragoniy».
Qiyomatga degancha ahli ayyom,
Yozarlar aning ahkomidin ahkom.

«Ziji Ko’ragoniy» asari nazariy-kirish qism va to’rtta katta bobdan iborat. Birinchi bobida muallif xitoylar, hindlar, greklar, eroniylar va boshqa xalqlarning kalendorlari bilan tanishib, o’z fikrlarini bildiradi. Ikkinci bobda esa amaliy astronomiya, uchinchi bobda sayyoralar nazariyasi va to’rtinchchi bobda astrologiya haqida o’z fikrlarini bildiradi. Uzoq yillar kuzatish va ilmiy tekshirishlar natijasida Ulug’bek fazodagi sir-asrорlarni ijod qilishda, yil, hafta va kecha-kunduzlarni belgilashda ulkan yutuqlarga erishadi. O’zidan oldin o’tgan Eotosfen, Gipparx, Ptolomey, al - Batonniy, ibn Yunus, Nosiriddin Tusiy va boshqa astronomlarning bu sohadagi yutuqlarini orqada qoldirgan edi.

«Ziji Ko’ragoniy» asaridan tashqari, Ulug’bek, «Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola», «Risola-dar ilmu musiqa» asarlarini ham yozib qoldirgan. Ulug’bek ijodi dunyoviy falsafa bo’lib, jahon tabiatshunosligi, ijtimoiy fanlarini rivojlantirishda muhim hissadir.

Islom. Diniy aqidalarni hayotiy muammolarga ijodiy tatbiq etish masalalari

Islom dini dunyoda e’tiqod qiluvchilar miqdori jihatidan ikkinchi o’rinda turadi. Islom so’zi arabcha «Xudoga o’zini topshirish», «itoat», «bo’ysunish» ma’nosini beradi. Bu dinga ishonuvchilar arabcha «Muslim» deb ataladi. Uning ko’pchilik shakli bo’lgan «muslimun» so’zining boshida xalqlar orasida turlicha: forslarda – musulmon, o’zbeklarda - musulmon,

qirg'iz-qozoqlarda - musulmon, Ukraina-Rossiyada - bosurman, deb ataladi. Muhammad ismini Magomed, deb aytadilar. Islom dinining kelib chiqishi masalasini turlicha talqin qiladilar. Xudo tomonidan yuborilgan oxirigi ta'limot, deydilar. Bu birinchi nuqtai nazar, ikkinchi nuqtai nazar: VI asr oxiri – VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu davrda qabilalar tugatila boshlagan. Sinfiy jamiyat yuzaga kelgan. Hukmron sinflar jamiyatga egalik qilgan, ya'ni ezuvchi sinflar ravnaq topgan. Avval mushrikiylik, ya'ni ko'p xudolik bo'lib, endi unga barham berish payti kelgan. Qadimiy ma'naviyat va madaniyat yanada rivojlanib, quldorlik tuzumini paydo qilgan. Yaman yarim oroli orqali karvonlar Habashiston, Hindiston, Suriya, Misr, Vizantiya va Eronni bog'lagan. Makkada karvonlar to'plangan. Savdo, chorvachilik, hunarmandchilik, savdogarlik taraqqiy etgan. Madina ham, Makka ham o'sha paytda diniy markaz bo'lган. Undagi Ka'ba ibodatxonasi, u erdag'i qoratosh va uch yuzdan ortiq qabila xudolarining sanamlari tufayli bu joylar e'tiqod markaziga aylangan. Qur'onning 108 – «Al- Kavsar» (Chashma buloq) surasida Arablarning Ka'ba ziyyaratiga kelib, qurbanlik so'yish odatlari o'z ifodasini topgan.

V-VI asrlarda Makkada arablarning Qurayishlar qabilasi hukmron bo'lib, savdo qilish natijasida boyib ketgan. Pul muomalasi, sudxo'rlik keng rivojlangan. Qul savdosi bo'lган. Sinfiy qarama-qarshiliklar kuchaygan. Bu joylarda yahudiylar va xristianlar ham yashagan. Islom dinining paydo bo'lishiga yahudiy va xristian dinlari ta'sir etgan.

Yakka xudolikka ishonish islom dinigacha ham mavjud edi. Uni dastlab Haniflar (haqiqat izlovlchilar, e'tiqod qiluvchi) targ'ib qilgan. **Muhammad** payg'ambar 570 yilda tug'ilgan. U Makkadagi Qurayish qabilasiga mansub bo'lган Hoshimiylar xonadonidandir. U 609-610 yilda Makkada yakka xudoga e'tiqod qilish borasida targ'ibot boshlagan. Qurayishlarga ummaviylar qabilasi qarshilik ko'rsatgan. Ziddiyatlar kelib chiqqan. Makkada ahvol keskinlashgan. Shundan so'ng Muhammad Madinadagi Avs va Xazraj qabilalari vakillari bilan muzokara olib borib,

ular yordamida Madinaga o'tgan. Natijada 622 yili yuz bergan ko'chish (arabcha «hijra») dan musulmonlarning hijriy yil hisobi boshlangan.

Muhammad Hoshimiylar mavqeini tiklash uchun ummaviylarga qarshi kurashgan. Madinada musulmonlik tez qabul qilingan. Musulmonlikni qabul qilish ba'zida tinchlik – ba'zida urush yo'li bilan amalga oshirilgan. Madina kuchli davlatga aylanib, Muhammad qo'lida birlashgan. Uning mavqeい Makkaga nisbatan jiddiy kuchaya borgan. Natijada Makka zadogonlari Muhammad bilan kelishish yo'lini topganlar. 630 yili Madina qo'shinlari Makkani qarshiliksiz qo'lga oladi. Keyinchalik Makka aholisi ham Muhammadning yordamchilariga aylangan. Muhammad 632 yil iyun oyida Madinada vafot etadi. Undan so'ng uning o'rindbosarlari - xalifalar davlatni boshqarganlar. Shu sababli arab xalifaligi, deb yuritiladi.

Muhammadning ilk safdoshlari (qaynotasi) **Abu Bakr** (632-634), keyin **Xalifa Umar** (634-644), undan so'ng **Xalifa Usmon** (644-656) va **Hazrati Ali** (656-661) davrlarida istilolar bo'ldi. Ayniqsa, Usmon va Ali davrida Kavkaz va O'rta Osiyoga kurash boshlangan. Arab istilochilari VII asrning 70 yillarida Eronni bosib olib, O'rta Osiyoga hujumni boshladilar. Arablar (Movarounnahr – ikki daryo o'rtasidagi erlar) avval bosqinchilik hujumlarini qildilar, keyinroq VIII asr boshlarida va VIII asr o'rtalarigacha O'rta Osiyonni to'la bosib olganlar. Movarounnahrda ularga qarshi Muqanna, Sumbod Mug', G'urak va boshqa sarkardalar qo'zg'olon ko'targanlar. Bosqinchilik natijasida: mahalliy madaniyat, falsafa, mahalliy dinlar, ma'naviy qadriyatlar cheklangan, inqirozga yuz tutgan.

Islom dinining asosiy manbasi ya'ni, **birinchisi Qur'ondir**: unda islam aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy normalar o'z ifodasini topgan. Islom an'anasaida Qur'on Olloh tomonidan Muhammadga 22 yil davomida farishta Jabroil orqali nozil qilingan (uqtirilgan). Vahiyalar Muhammad davrida tizimli yozib olinmagan, balki Abu Bakr davrida yozilgan. Buni Muhammadga kotiblik qilgan Zayd ibn Sobit amalga oshirgan. 632 yil oxirida Qur'onning matni tayyor bo'lgan. Manbalarda u «Suxuf» (sahifalar) deb yuritilgan. Ular o'rtasida tafovutlar ham bo'lgan. Xalifa Usmon Zayd ibn Sobitga Qur'onning matnlarini taqqoslashni va

yagona to'plam tuzishni buyurgan. Bu to'plam «mushad» degan nom olgan. Usmon boshqalarning «Suhuf»ini yo'qotishga buyruq bergan. Yangi to'plamning asl nusxasi (ayrim ma'lumotlarga qaraganda VII asrda) ko'chirtilib, Kufa, Basra, Damashq va boshqa shaharlarga yuborilgan.

Qur'onning tafovutlarni yo'q qilish uchun unga arab yozuvidagi xos belgilar qo'yib chiqilgan. «Mushaf»dan ko'chirilgan eng qadimiy 4 ta nusxasi hozirgacha saqlanib qolgan. Ulardan biri Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari diniy boshqarmasida saqlanadi. Qur'on 114 suradan iborat bo'lib, har sura oyatlarga bo'lingan. Suralar nomlangan. Masalan, 1-sura «Fotiha», 2-sura «Baqara» va h.k. Suralar 610-622 yillarda Makkada (90 sura), 622-632 yillarda Madinada (24 sura) nozil etilgan.

Qur'onning asosiy g'oyasi yakka xudolikdir. Ya'ni, Olloh to'g'risidagi ta'limotdir. Shu bilan bog'liq holda unda payg'ambarlar, oxirat, taqdir va boshqa aqidalar bayon qilingan. Islom dinining asosiy talabi: e'tiqod, namoz, ro'za, zakot, haj. Qur'onda musulmonlarning falsafiy va axloqiy, huquqiy qarashlari o'z aksini topgan. XII asrda Evropaning ba'zi xalqlari tillariga tarjima qilingan. XVIII asrda esa Evropaning ko'pgina tillariga, jumladan, rus tiliga 1878, 1894, 1907 yillarda tarjima qilingan. Islom dinining **ikkinci manbasi** Sunna (arab tilida odob, an'ana, xatti-harakat)dir. Sunna islamda musulmonlar uchun ibrat hisoblangan. Muhammadning so'zlari, qilmishlari, xatti-harakatlari hadislarda aks ettirilgan. Sunna islamda Qur'onidan keyingi - uni to'ldiruvchi manba. Sunna VII asr o'rtalarida yig'ilal boshlagan. Unda qarama-qarshiliklar, yaxshi va yomon qadriyatlar to'g'risida fikr yuritilgan. Bir, ikki asr davomida hadislar ko'payib ketgan. IX asrda tizimga solingan. Aniq, ishonchli hadislar hamyurtimiz Imom Ismoil Buxoriy tomonidan to'plangan.

Islom dinining **uchinchchi manbasi** – shariat bo'lib, u islam dinining huquqiy tizimidir. Unda sof huquqiy masalalardan tashqari axloqiy normalarga va amaliy diniy talablarga ham qonuniy tus berilgan.

Islamda jamiyatni boshqarish Qur'on asosida olib borilgan. Keyinchalik, feodalizm rivojlanishi bilan diniy faoliyatni qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug'ilgan. Islom ilohiyotchilari bir necha asr

mobaynida shariat qonunlarini yaratganlar. Unga asos qilib, Qur'on va Sunnalar olingan. Shariat qonunlari XI-XII asrlarda to'la shakllangan. Shariatda davlat huquqi normalari, majburiyat, jinoyat, jazo va oila-nikoh huquqlari, shuningdek, sud yuritish, vasiylik ko'rsatmalari berilgan. Shariat, xususiy mulkni xudo tomonidan belgilangan, doimiy va o'zgarmas, deb hisoblaydi. Kishi faoliyati ikki turga - harom va halolga ajratilgan. Shariat shakllanib tugallagan davrda 5 ta kategoriya vujudga kelgan: 1. Farzning bajarilishi qat'i va majburiy bo'lган; 2. Mansub (sunnat)- majburiy emas, lekin ma'qul, lozim deb hisoblangan; 3. Mubah –ixtiyoriy normalar; 4. Makruh – noma'qul normalar; 5. Harom - qat'i ravishda ta'qiqlangan harakatlar.

To'rtinchi manba: tafsir (arab-sharh, tushuntirish, izoh) islom an'anasa Qur'on, hadislar va boshqa diniy manbalarni talqin qilishdir. Qur'on tafsirlarida Qur'onning matni aynan sharhlab beriladi.

Beshinchi manba: kalom (arab,-so'z, nutq) islom ilohiyotining ilk shakli. Falsafiy ta'limot sifatida arab xalifaligida VIII asrda paydo bo'lган. IX asrga kelib, O'rta Osiyoga tarqalgan. Kalom tarafdarlari mutakallimlar deyiladi. Kalom asoschisi **al – Ash'ariy** (873-935)dir. Kalomda aytilishicha, Olloham insoniy xususiyatlarga ega, deb tushuntiriladi. Kalomchilar Qur'onga suyanib jannat va do'zaxni azaliy mavjud, deb biladi. Insonda erkinlik yo'q, barcha qilmishlari uchun insonlar Olloham oldida javob beradi.

Oltinchi manba: fiqh (arab-tushunish) musulmon huquqshunosligini ishlab chiquvchi soha. Huquqshunoslik fani sifatida ham qo'llaniladi. Shariat manbalarini ishlab chiqish, shariatni hayotga tadbiq qilish bilan shug'ullanadi. Fiqh bilan shug'ullangan olimlar (O'rta Osiyoda) **Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Lays Samarqandiy**lardir. Huquqda 4 mazhab (yo'nalish) bor: hanafiya, molikiya, shofi'iya va hanbaliyalar.

O'rta asrlarda O'rta Osiyodagi falsafa ana shu manbalarga asoslanib targ'ib qilingan. Olam to'g'risida islom dini ma'lumotlaridan kelib chiqib ta'rif berilgan.

Vatanimiz jahondagi yirik madaniy markazlaridan biri bo'lib kelganiga shubha yo'q. O'sha qadimgi davrlardayoq mamlakat ichkarisida

iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy, o'ziga xos turmush tarzi, xalqning xarakteri mukammalashgan. Sharq mamlakatlari – Hindiston, Xitoy bilan bo'lган iqtisodiy, siyosiy sohadagi munosabatlar mamlakatimiz ravnaqining orqada qolishiga yo'l qo'yagan. O'z navbatida mamlakatimiz hududida rivojlangan ilg'or urf-odatlar, Sharq mamlakatlari madaniyati, falsafasiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Insoniylik sifatlari keng tarqalgan. Ana shunday insoniy-falsafiy fazilatlaridan biri diniy bag'rikenglikdir.

Bag'rikenglik – dunyodagi turlicha boy madaniyatlar, urf-odatlarni ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Qisqacha aytadigan bo'lsak, **bag'rikenglik - turli-tuman jarayonlardagi birlikdir.** **Bag'rikenglik, ma'naviy sohadagina emas, balki, siyosiy, huquqiy, demokratik yo'naliishlarni ham qamrab oladi.** **Bag'rikenglik, tinchlikni ta'minlovchi, urushlarni, barcha kelishmovchiliklarni yo'q qiluvchi, haqiqiy tinchlik madaniyatiga etaklovchi jarayondir.**

Diniy bag'rikenglik xalqaro vaziyatni sog'lomlashtirishga, yangicha yondashishga yordam beradi. Din esa ijtimoiy ong sifatida inson faoliyatini qamrab oladi. Bag'rikenglik ijtimoiy ong mazmuniga tobora insoniy mohiyat kasb eta borishi, shaxsning haq-huquqlari barqarorligiga erishishi, makonda mehr-shafqat, odamiylik tamoyillarini takomillashuviga yordam beradi. Bag'rikenglik insonning o'z-o'zini asrashiga ko'maklashadi.

Bag'rikenglik keng ma'noda barcha xalqlarning yashash uchun kurashish huquqining tasdiqlanishi bilan ob'ektiv ravishda bog'liqdir. Dunyo hamjamiyati kuch va zo'rlik, yakka hokimlikni zaiflashtirish yo'llarini izlab keladi. Asrlar davomida insonlar bag'rikenglikning haqiqiy poydevorini topishga intilib keldilar. Bu sohada diniy manbalarga murojaat qildilar. Chunki odamlar o'rtasida barqarorlik jihatlariga ehtiyoj tug'iladi. Barqarorlik muvozanat sharoitidagina alohida shaxs, xalq erkin ma'naviy shakllanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Diniy bag'rikenglikni takomillashtirish mamlakatlar o'rtasida, mintaqalar va butun dunyo hamjamiyati miqyosida do'stona munosabatlarni qaror toptirishning muhim omilidir. Shu sababli ham O'rta Osiyoning o'rta asr mutafakkirlari aynan diniy bag'rikenglik

haqida ilmiy fikrlarni aytib ketganlar. Endilikda tarjima qilinib, xalqimizga tortiq etilayotgan adabiyot, ilmiy manbalardan o'qib xulosa qilamizki, bag'rikenglikning falsafiy jihatlari har bir shaxs, har bir xalqqa taalluqlidir. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Alisher Navoiyning «Xamsa», «Holati Sayyid Hasan Ardasher», «Mahbub ul-qulub», Boburning «Boburnoma», Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» va boshqa asarlarida muammoning echimiga oid ibratli fikrlar bor.

Diniy bilimlar, dunyoviy bilimlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi bag'rikenglikni taqozo etadi. Ayniqsa, buyuk muhaddislar hadislar toplashda bu jarayonlarga e'tiborni qaratganlar. Jumladan, **Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy** (810-870) hadislarida bag'rikenglik jihatlari ochib berilgan. Imom Buxoriy jami 600 ming hadis to'plab, shulardan 100 ming «sahih» va 200 ming «g'ayri sahih» hadislarni yod olgan. Hadis ilmi bobida nihoyatda iqtidorli bo'lgan. Minglab shogirdlar tarbiyalagan. Muslim ibn Hajjoj, Iso at-Termiziy, an-Nasoiy, Abu Zur'a, Yusuf al-Forobiy, Abu Bakr ibn Huzayma kabi mashhur muhaddislar shular jumlasidandir. Imom Buxoriyning «Al-Jom'i as-sahih» (Ishonarli to'plam) deb nomlangan to'rt jilddan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng mukammalidir. To'plamda hadislardan tashqari islom huquqshunosligi, marosimlari, axloq-odob, ta'lim-tarbiya hamda o'sha davr tarixi va etnografiyasiga doir ma'lumotlar ham bor. To'rt jildlikka 600 ming hadisdan faqat 7275 ta «sahih» hadislar kiritilgan. Bu to'plam juda ko'p marta chop etilgan. Unga sharhlar berilgan.

Imom Buxoriyning yana bir qancha asarlari bor. «Al-adab ul Mufrad», «Kitob asmo' is-sahoba», «Kitob af'ol il-ibod», «Kitob bad' il-maxluqot», «Kitob birr il-volidayn», «Ta'rix us-siqot va-z-zu'afو min ruvot il-hadis», «Ta'rixi Buxoro» va boshqalar.

Imom Buxoriyning ijodi qadriyatlarimizni tiklashda, kishilarda axloq-odob, halollik, rostgo'ylik, poklik singari umuminsoniy fazilatlarni singdirish va qaror toptirishda muhim ahamiyatga egadir. Muhammad

payg' ambar «Kimgaki Olloh-taolo yaxshilikni ravo ko'rg'aydir, uni din ilmidan bahramand qilgaydir, ilmga ilm olmoq yo'li birlan erishilg'aydir» deganlar. Mazkur fikrda diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham e'tiborga olingan.

Islom dinida buyuk insonlar o'z nomlarini buyuk ishlar bilan muhrlab ketganlar. Shular orasida Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit (taxallusi Imomi A'zam (699-767)) alohida o'rinni tutadi. U hanafiya mazhabining asoschisi va imomi, ilohiyotchi olimlardan biridir. Kelib chiqishlari qobullik e'tiborli oilalarga borib taqalsa-da, u kishining bobolari Marzubon xalifa Umar ibn al-Xattob (634-644) davrida islomni qabul qilib Kufa (Eron)ga ko'chib kelgan va u erda muqim bo'lib qolgan. Demak, Abu Hanifa shu erda o'ziga to'q shoyichi savdogar oilasida tug'ilgan. Otasi vafotidan so'ng unga tegishli do'kon Abu Hanifaga meros bo'lib qolgan. Xalifalikning bosh qozisi vazifasini bajarmaganligi uchun Xalifa Mansur (hukmronlik yillari 754-775) tomonidan qamalgan va zindonda kaltaklab o'ldirilgan. Bu kishi "Imom A'zam" ("Eng buyuk Imom") degan faxrli unvonga sazovor bo'lgan tarixiy shaxsdir. Shu sababli hanafiylik xalqimiz o'rtasida Imom A'zam mazhabi, deb ham yuritiladi. Bu inson Qur'oni Karimni to'la yod olgan. Sunniylikni tashkil etuvchi to'rt mazhab asoschilari o'rtasida faqat Abu Hanifagina payg' ambar Muhammad alayhissalom sahobalarining ayrimlari bilan suhbatda bo'lgan. Barcha islomiy ilmlarni chuqur o'rgangan. Natijada musulmon huquqshunosligiga asos solgan. "Fiqh bo'yicha eng katta kitob", "Tavhid asoslari", "Olimlar va o'rganuvchilar kitobi", "Risola kitobi", "Vasiyat haqidagi kitob" kabilar Abu Hanifa qalamiga mansub. Abu Hanifa asarlarining asliyati bizgacha etib kelmagan. Asarlarida Tavhid (yagona Ollohga ishonish), Ollohnинг sifatlari, kalomi-Qur'on, Ollohnинг quadrati, iroda erkinligi, gunoh ishlar va ularga belgilangan jazo, xayrli amallar va ularning ajri, iymon-e'tiqod va boshqa huquqiy muammolar batafsil yoritilgan. Abu Hanifaning ba'zi asarlarida dindagi birinchi firqachilarga qarshilik ko'rsatish sezilib turgan. Abu Hanifa ijodiga "Al-Musnad" taalluqli bo'lib, u hadislar to'plamidan iboratdir.

Abu Hanifa ijodining markaziy o'rinalaridan biri bu hokimiyat bilan diniy muassasa o'rtasidagi munosabatdir. Bu ta'limotda ta'kidlanishicha, har qanday jome' masjidini ochish uchun hukumat ruxsatini olish lozim. Bu esa mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bilan bog'liq. Jamiyatni boshqarish sohasida dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi kelishuvchilik davr talabidir. Shu sababli ham bu mazhabni keng ma'noda bag'rikenglik va taraqqiyotga tarafdar mazhab, deb e'tirof etadilar.

Abu Hanifa va uning izdoshlari qiyos (taqqoslash) usulidan (ya'ni ko'rileyotgan masalaga o'xshash oldin sodir bo'lgan holatlar bilan) foydalanib, istihson (yaxshisi yoki afzalini tanlash) tamoyilini ishlab chiqqanlar va kundalik hayotga tatbiq etganlar. Bu esa insonni, davlat va jamiyatning faoliyatini e'tirof etish bilan bog'liq edi. Bunday yondashish xalqlarning birlashishi uchun ularning urf-odatlarini hisobga olishni taqozo etardi. Shu sababli ham islam dinini tezda to'g'ri tushunish va unga bo'yinsunish ko'proq turkiy xalqlar o'rtasida keng tarqaldi, u e'zozlandi. Dindagi ushbu bag'rikenglik natijasida dunyoning ko'p mamlakatlarida islam e'tirof etildi. Hanafiylikning "moslashuvchanligi", ijtimoiy-iqtisodiy madaniy sohalarni ilmiy idrok etish, ko'pgina mamlakatlarda hukmron din sifatida e'tirof etilishni tezlashtirdi, unga qiziquvchilar safi orta bordi. Natijada bu ta'limotning tarafdarlari, asoschilar ko'paydi. Shular qatorida Abu Mansur Moturidiy, Abu Ishoq al-Hakim as-Samarqandiy, keyinroq etishib chiqqan Abul Mu'in an-Nasafiy, Nuriddin as-Sobuniy al-Buxoriy, Abu Lays as-Samarqandiy, Burhoniddin al-Marg'inoniy kabilarni olish mumkin.

Sunniylik ta'limotining "otasi" degan yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan Samarqandlik **Abu Mansur al-Moturidiy** (Islam qomusi bo'yicha) 870 yilda Samarqandning Moturidiy mavzesida tug'ilib, 944 yilda (ba'zi adabiyotlarda 941) vafot etgan. Qabri Samarqandning Chokardiza qabristonidadir. Bu joy hozir ziyoratgohga aylantirilgan.

Buyuk daho, mutafakkir Alisher Navoiy Abu Mansur Moturidiy as-Samarqandiyni dinning izzatli sulton, deb atagan. Bu inson bizga ko'plab

ilmiy meros qoldirganki, ulardan barcha musulmon xalqi bahramand bo'lib kelayotir. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

"Ta'vilati Ahli sunna" - Qur'on va sunnaning rasmiy ta'villari, ya'ni rasmiy islomiy talqini, sharhlari bitilgan kitob; Shariat asoslari va sofligi haqidagi kitob; "Kitob ul-Jadal" - diniy-ahloqiy bahs munozaralarda g'olib kelish haqidagi kitob; "Kitob ul-Usul" - diniy ta'limot uslubiyotiga oid asar; "Risolat ut-Tavhid" - Ollohnning yakkayu-yagonaligi, birligi, vahdoniyat dini, ya'ni ilm-ul aqoidning nazariy asoslari haqidagi va boshqa o'nlab asarlarni tilga olish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, Moturidiyning ilmiy faoliyati islom dinini ilmiy jihatdan himoya qilish bo'lган. Ayniqsa, diniy niqob ostida noto'g'ri yo'lga kiruvchilarni tanqid ostiga olgan. Allomaning fikricha, ma'lum diniy yo'nalihsarning haqiqiy yoki soxtaligini ko'rsatuvchi ishonchli dalillar mavjud. Ushbu dalillarni bilishda, aniqlashda insonlarga qaysi sohalar to'sqinlik qilishi mumkinligini ohib berish zarur. "Kitob at-Tavhid"da bu sohada shunday fikrni bildiradi: "Bu - ko'r-ko'rona taqlid bo'lib, juda keng tarqalgan illatdir, ya'ni bunda juda ko'pchilik biron-bir ma'naviy yoki diniy yo'lboshchiga, uning fikrlari mazmun-mohiyatini tushunmagan holda qo'shilishga kuchli moyillik bildiradi. Mana shu sabab natijasi o'laroq, har bir firqa va har bir yo'nalihs shu paytga qadar o'z tarafdarlariga ega bo'lib kelmoqda. Bu muxlislar qachondir qabul qilingan soxta ta'limotga sadoqatda qat'ilik namoyish etmoqdalar va yana o'zlarini haqiqatning yagona egalari hisoblamoqdalar." Ushbu fikrlar hozirgi zamon aqidaparastlar faoliyatiga, diniy fundamentalizm, diniy ekstremizm, terrorchilik harakatlari ishtirokchilari faoliyatiga ham taalluqlidir.

Moturidiy ijodining falsafiy jihat shundaki, unda o'xshashlik yoki taqlid bir kategoriya sifatida sharhlanadi. Jumladan, haqni nohaqdan ajratishning uchta usuli bor: 1) Jami jonzotlarga xos bo'lган sezgi a'zolari. 2) Insonga xos bo'lган aql orqali amalga oshiriladigan nazariy xulosalar 3) Ishontirishda qo'llaniladigan naql va axborotlar. Bu fikrlardan hozirgi kunda ham foydalanib ish yuritilsa, foydadan xoli bo'lmas edi. Moturidiy islomni himoya qilish bilan cheklanib qolmasdan, islomdagi botil oqim va firqalar

faoliyatini ayovsiz tanqid qildi. O'sha paytlarda paydo bo'lgan bir qancha: haruriylar, rofiziylar, qadariylar, jabariylar, jahmiylar, murji'iylar, hozijiyalar, muta'zimiylar, karromiylar, ismoiliylar va boshqa oqimlarni diniy yondashuvdagi zaifligini dalillar bilan tanqid qilgan. Uning fikricha, inson imtihon uchun yaratilgan. Shaxsiy intilishlari insonni ba'zida to'g'ri yo'ldan adashtiradi. Ularga inson o'zidagi ijobiy imkoniyatlardan kelib chiqib qarshi turmog'i lozim.

"Kitob at-Tavhid"da shunday fikrlarni o'rtaga tashlaydi: "din buyuklarga e'tiqod qilib, taqlid qilishga emas, dalillarga asoslanmog'i kerak", "hech kim gunoh sodir qilgani tufayli kofir deb e'lon qilinmaydi. Biz jami "qibla kishilarini mo'" min deb bilamiz, ularning qalbini esa Ollohg'a havola etamiz", "bid'atchilar bilan shunchaki do'stona munosabatda bo'lishning o'ziyoq xatodir", "sunnatning to'g'riliqini aniqlash uchun, bir-biriga zid naqllarga tayanish mumkin emas, balki mustaqil fikrlash kerak", "72 guruh mavjud, faqat 73-chi guruhgina najot topdiki, bu - jamoadir" ushbu fikr o'n asr oldin aytilgan bo'lsa-da, bugungi kun faoliyatini ham aks ettiradi.

Umumiy xulosa shundan iboratki, Abu Mansur Moturidiy ijodida, diniy soha bo'yicha, dinning asosi Qur'oni Karim va Hadisi shariflardir. Turli nazariyalarga, mazhablarga, boshqacha fikrlarga hech qanday o'rin yo'q. Chunki, mazhablarning xato talqinidan buzuq niyatli kishilar foydalanib islom dini obro'siga putur etkazadilar. Islomda o'zgartirishlar, islohotlar yaramaydi.

O'tmishda o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolardan yana biri bu al-Marg'inoniydir. Alloma Burhoniddin al-Marg'inoniyning to'liq ismi **Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farg'oni ar-Rishtoniy al-Marg'inoniy**dir. U kishi 1123 yilda tug'ilib 1197 yilda vafot etgan. O'z davrining ilmlarini mukammal o'rgangan. Ayniqsa, islom dinining asosiy manbalari Qur'oni Karim va hadislarni tahlil qilish natijasida Fiqh-islom huquqshunosligi sohasida obro' e'tibor qozongan. Qur'oni Karimni yod olgan. Hadislarni tahlil qilgan. Samarqand shahriga ko'chib borib, o'sha erda yashagan. 1149 yilda haj safariga borib islom dinining allomalari bilan muloqotda bo'lib,

ularning asarlarini mutolaa qilgan. O'zining "Kitobul-mashoix" ("Shayxlar haqidagi kitob") asarida 40 dan ortiq shayxlar va allomalarini tilga olgan. Al-Marg'inoniyning bizgacha etib kelgan asarlaridan "Bidoyat al-muntaxiy" ("Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lif"), "Kifoyat al-muntaxiy" ("Yakunlovchilar uchun tugal ta'lif"), "Nashr ul-mazhab" ("Mazhabning yoyilishi"), "Kitob ul-mazid" ("Ilmni ziyoda qiluvchi kitob"), "Manosiq ul-Haj" ("Haj marosimlari"), "Majma ul-Navozil" ("Navozil bo'lgan narsalar to'plami"), "Kitob ul-Faroiz" ("Farzlar kitobi") va boshqalardir. Ayniqsa, yaratilgan "al-Hidoya" asari islom dini olamida hanafiya mazhabining qo'llanmasiga aylandi. Ushbu kitobda islom dinidagi huquqiy masalalar keng ko'lamda yoritilgan. Bu kitob hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Chunki unda inson falsafasiga katta o'rinn berilgan. Jumladan, ushbu kitobda nikoh, taloq qilish, qullarni ozod qilish, topib olingan nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo'qolganlar, sherikchilik va vaqf mulki, tahorat, namoz, ro'za, zakot va haj kabi masalalarning sharhi berilgan. Kitobning birinchi, ikkinchi qismlarida yuqoridagilar yoritilsa, uchinchi, to'rtinchi qismlarida pul, savdo-sotiqlar, kafolat, qozilarning vazifalari, guvohlik, da'vo, sulh, meros, shartnoma tuzish, tashlandiq erlarni o'zlashtirish, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun to'lash, vasiyat kabi boshqa masalalar ham yoritiladi. "Hidoya" kitobi asrlar davomida musulmon mamlakatlarida huquqshunoslik bo'yicha muhim qo'llanma hisoblangan. O'rta Osiyoda esa 1917 yildan 1930 yillargacha shariat qozilari bekor qilinib, sovet sud tizimi joriy etilgan paytlargacha rioya qilindi. Ushbu kitob 1893 yilda rus tiliga N. P. Grodekov tomonidan (ingliz tilidan) tarjima qilingan edi. 1994 yilda "Hidoya" qayta nashr etildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng kitob muallifi Burhoniddin Marg'inoniyga hurmat va e'tibor kuchaytirildi. 2000 yilda uning 910 yillik tavallud sanasi nishonlandi.

Ijodiy g'oyalarning paydo bo'lishida Ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Yazid Bistoniy, Mansur al-Xalloj, Abu Bakr ibn Muso al-Vositiy, Abu Rayhon Beruniy, Abulqosim Firdavsiy, Abdulla Jafar Rudakiy, Yusuf Bolasog'uniy, Abu Bakr Narshaxiy, Abu Nasr Forobiyy, Abu Ali Ibn

Sino, Ahmad ibn Abdulloh, Ahmad ibn Abdulloh Mavraziy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariy kabi yuzlab allomalarning xizmati kattadir. Islom dini asosida paydo bo'lган tasavvuf ilmi ham diniy ijodning bir namunasidir.

Tasavvuf ilmi yoki sufiylik diniy oqimi VIII asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan. Dastlab sufiylar shaxsiy istakdan to'la voz kechish g'oyasini targ'ib qilganlar. Tasavvuf musulmon mamlakatlaridagi ijtimoiy taraqqiyotning xususiyatlari bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan. Unda neoplatonizm ta'limoti, iudaizm, xristianlik, zardushtiylik va ayniqsa buddizmning ta'siri bor. Tasavvuf tarafdorlari axloqiy jarayonlarni targ'ib qilib, xudoga yaqin bo'lismi asosiy maqsad qilib qo'yanlar. Shaxsiy manfaatdan voz kechishni talab qilganlar. Tasavvuf ham xilma-xil shakl va oqimlarga ega. Tasavvuf ijodiyotining asosiy maqsadi, ob'ekti inson va xudo.

Tasavvufda inson 4 ta bosqich orqali kamolatga erishadi. Birinchi **shariat** qonunlaridir. Shariat qonunlariga barcha musulmonlar bo'y sunishi kerak. Faqat shundan so'ng ikkinchi bosqich - **tariqatga** ko'tariladi. Bunda muridlar o'z pirlariga itoat qilishi, o'z "men"idan voz kechishi shart hisoblangan. Bu bosqichdan o'tganlar uchinchi bosqichga – **ma'rifatga** ko'tariladi. Bunda koinotning birligi xudoda mujassam bo'lismini, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligini aql bilan emas, balki qalb bilan anglash kerak, deyiladi. To'rtinchi bosqich **haqiqat**. Tasavvufda haqiqatga erishuv sufiylikni «shaxs sifatida tugatib» xudoga singib va natijada abadiylikka erishishi, deb qayd etilgan. Bunga tasavvufchilar maxsus ruhiy va jismoniy harakatlar (psixofizik), sig'inish va ibratlar orqali erishadi, ular haqiqiy boylik bu - moddiylik emas, balki ma'naviylikdir, deydilar. G'azzoliy tasavvufni islom dini bilan yaqinlashtirib, uni keyinchalik rasmiy ta'limot sifatida tan olishga yo'l ochgan. Movarounnahrda tasavvufchilik Yusuf Hamadoniy tariqati(XII asr)dan boshlangan. Undan tashqari, Abduxoliq G'ijduvoniy va Ahmad Yassaviy tariqati, XIII-XIV asrda Naqshbandiya tariqatlari yuzaga kelgan. Ular ta'sirida Najmuddin Kubro, Xoja Ahror Vali ta'limotlari ham paydo bo'lgan. Sobiq Ittifoq davrida bu ta'limotlarni

reaktsion ta'limot sifatida taqiqlaganlar. Bular insonlarni jamiyat hayotidan chetga tortadi, qizg'in faoliyatni so'ndiradi, deb tushuntirilgan.

Tasavvuf ta'limotida **Ahmad Yassaviy** (1041 yilda tug'ilgan. Ilmiy adabiyotlarda vafoti 1165-1167 yillar deb ko'rsatilgan) ta'limoti muhim ahamiyatga ega. Yassaviy buyuk shayx sifatida musulmonlar o'rtasida e'tibor qozongan. Rivoyatlarga ko'ra, Ahmad Yassaviy payg'ambardan ortiq umr ko'rishni gunoh deb bilib, 63 yoshida er to'лага – chillaxonaga kirgan. Umrining oxirini shu chillaxonada o'tkazgan. Mavlono Xusomiddin Sig'noqiyning risolasida Ahmad Yassaviy 130 yil umr ko'rgan, deb ma'lumot beriladi.

Ahmad Yassaviyning she'rlar to'plami «Devoni hikmat» deb nomlanadi. «Devoni hikmat»ning etakchi g'oyasi din va tasavvufdir. Ahmad Yassaviy islom dinining qonun-qoidalari va urf-odatlarining yig'indisi bo'lgan «shariat»ni, tasavvuf mohiyati bo'lgan «tariqat»ni, ishq-i-lohiy-«ma'rifat»ni, xudo va unga erishmoq-«haqiqat»ni targ'ib qilgan. «Devoni hikmat»da «Ey darvesh, bilgil va ogoh bo'lg'ilkim, avval kalimai shariat, ikkinchi kalimai tariqat, uchinchi kalimai ma'rifat, to'rtinchi kalimai haqiqatni bilmoq kerak. Sufiy bo'lib bu kalimalarni bilmasa sufiy emas» - deyiladi. Ahmad Yassaviyning ijodida diniy olamga g'arq bo'lish bilan birga tarkidunyochilik birlashib ketgan. Zolimlar qoralangan, kambag'allar faoliyati yaxshilik bilan bog'langan. Uning ijodida insonlarni yaxshilikka chorlash, boylikka berilmaslik, mansabni suiste'mol qilmaslik g'oyalari etakchi o'rinni egallaydi.

Tasavvuf falsafasi **Abduxoliq G'ijduvoniy** (1220 yilda vafot etgan) ijodida ham rivojlantirildi. Uning vasiyatnomasida jamoatga mulozim bo'lish unga xizmat qilish muqaddas vazifa ekanligi uqtiriladi. Ollohga yaqinlashishning yo'li shudir, deb ko'rsatadi u. Shu bilan birga insonlarni chillaxonada hadeb o'ltiravermaslikka, Ollohga toat-ibodatni haddan oshirib yuborilmaslikka chaqiradi. Mehnat qilishga chorlaydi. Bir so'z bilan aytganda, uning falsafasi Yassaviy ta'limotidan ilg'orroq edi.

Tasavvuf falsafasining yirik siymolaridan yana biri **Najmuddin Kubro**(1145-1221) dir. Tasavvufdagi Kubroviya tariqati Kubro tomonidan

yaratilgan. U yirik olim sifatida «Jamloning muattarlari va kamolotning egalari», «O’nta qonun va qoidalar» nomli asarlarning muallifidir. Najmiddin Kubro ijodida vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik g’oyalari mujassamlashgan. Shaxsiy faoliyati bilan mazkur sohalarda namuna ko’rsatgan.

Tasavvuf falsafasi XIV asrda **Bahouddin Naqshband** (1318-1389) tomonidan rivojlantirildi. Uning ijodi suluki naqshbandiya, deb ataladi. Naqshband taxallus bo’lib, aynan ma’nosи matoga gul-naqsh solishni bildiradi. Naqshband kishilar hayotida xilvatchilik, tarkidunyochilik bilan hayot kechirishni targ’ib qilmaydi, balki bu dunyoda shod va xurram yashash kerak, deya takidlaydi. Ammo bu holat kelajakni, xudoni esdan chiqarishga olib kelmasligi lozim. Uning ta’limotida «kishi zohirda odamlar bilan, botinda (ichdan) esa xudo bilan bo’lishi kerak» degan fikr yotadi. Uning ijodi insonlarni o’z qo’li bilan, mehnati bilan, mehnat orqali keladigan daromad bilan kun kechirish, tirikchilik qilish sohalarini yoritib beradi.

Islom dini singari tasavvuf ta’limotining asoschilari ham insonlarni yaxshilikka, hur va farovon hayot kechirishga, tinchlikning barqaror bo’lishiga undaydilar. Bu ta’limotlar Vatanimiz hududidagi insonlarni diniy aqidalar orqali insofli bo’lishga chaqirgan.

Shu sababli ham ilk o’rta asrlardagi Vatanimiz madaniyati Sharq va G’arb tsivilizatsiyasiga ulkan ijodiy hissa bo’lib qo’shilgan. Turkistonda o’sib-ulg’ayib ijod qilgan yuzlab, minglab olimlar, diniy ulamolar, shoirlar yaratgan asarlardan jahon xalqlari bahramand bo’lib kelmoqda. Ayniqsa, diniy ta’limotlarni rivojlantirishga o’z hissasini qo’shgan ulug’ shayxlar, avliyolar xizmatlari benihoyadir. Hozirgi vaqtida ham ulug’ allomalarimizning ijodiy faoliyatini hayotga tatbiq etish davom etmoqda. Jumladan, «Alloh qalbimizda, yuragimizda» deb nomlangan tamoyil O’rta asrlar diniy faoliyatining davomi desak, xato bo’lmaydi. Bu tamoyilda yurtdoshlarimizning urf-odatlari, ilohiyotga bo’lgan munosabatlari o’z aksini topgan.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Qadimgi yozma yodgorliklar, O'rxun-Enisey yodgorliklari, Kushonlar, Buddizm, Zardusht, Avesto, Renessans, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Ziji Ko'ragoniy, Islom, bag'rikenglik, Imom-A'zam, Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Yassaviy, Naqshband.

Mavzuga oid savollar:

1. O'rta Osiyoda falsafiy-diniy dunyoqarashning shakllanishini eslang.
2. Zarshdushtiylik. Avestoda ijod.
3. Sharq Renessansi davridagi ijod.
4. Islom dini va bag'rikenglikni tushuntiring.

V bob. Ijodiy jarayonni ifoda etish shakllari va metodlari

Metodologik bilim pog'onalar. Metodlarning sifat jihatdan xilma-xilligi va rivojlanishi

Ijodda bilishning ahamiyati beqiyosdir. Uning (bilishning) asosiy muammolariga: narsa va hodisalar, ularning manbalari, tabiat taraqqiyoti bosqichlari, uslub va metodologiyasi, haqiqat, insonlarning biluvchanlik faoliyati bilan amaliy faoliyati o'rtasidagi bog'lanish kabilar kiradi. Falsafa tarixida bilish muammosini hal etishda turli yo'nalishlar bahs yuritib keladilar. Yuqorida biz ularning guvohi bo'ldik. Bular: materializm, idealizm, agnostitsizm, ratsionalizm, irratsionalizm, sensualizm, monizm, eklektizm va boshqalardir. Masalan, Platon, Berkli, Kant, Gegel kabi faylasuflar narsalarning mohiyatini inson tomonidan bilish mumkin emas, deb agnostitsizm (a - mumkin emas, gnozis – bilish, demakdir) yo'nalishida bo'lganlar. Demokrit, Frensis Bekon, Djon Lokk va XVIII asrdagi frantsuz materialistlari esa bilishni borliqning inson ongida aks etishidir, deb ta'lim beradilar. Ya'ni, bilishda insonlarning **amaliy faoliyati** hal qiluvchi o'ringa ega, deb tushuntirdilar.

Bilish murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqich (pog'ona)larni bosib o'tadi. Birinchi bosqich bu insonlardagi **sezgi** faoliyatidir. Sezgi orqali inson narsa va hodisalarni mushohada qiladi. Sezgilar besh xildir: ko'rish, eshitish, hid bilish, teri orqali sezish, tam bilish. Sezish, narsa hodisalarni mushohada qilishga bog'liq. Ikkinci bosqich esa narsa va hodisalarni **tafakkur** qilish faoliyatidir. Tafakkur insonga berilgan oliy ne'matdir. Insonlar narsa va hodisalarni o'z tafakkuri orqali, ular aniq yoki mavhum bo'lishdan qat'i nazar o'z miyasida qayta ishlaydilar. Bunda inson fikrlash jarayonida turli tushunchalardan foydalanadilar. Inson miyasida tushunchalarning paydo bo'lishi u yoki bu bilimning paydo bo'lishidir. Bilimning paydo bo'lishi esa inson ijodi uchun asosdir. Bu bosqich sezish va mavhum fikrlash yordamida amalga oshadigan asosiy bosqich. Bilishning haqiqiyligi shu bosqichda ko'rindi. Demak, amaliyot eng muhim

bosqichdir. Bosqichlarning har biri ma'lum vazifani bajaradi. Mabodo shu bosqichlarning birortasi bo'lmaganda ijod qilish mumkin emas edi. Ijod jarayonida bosqichlarni bir-biridan farq qilish talab etiladi. Demak, **bilishning boshlanishi sezgidir.** Chunki u inson ongini tashqi olam bilan bog'lab turuvchi yagona vositadir. Insonlar sezgi orqali ob'ektiv olamdan birinchi taassurotni oladilar. Tashqi olam sezgilar orqali insonning o'ziga ham ta'sir etadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, sezgilarning o'zi ham olam to'g'risidagi bilimimizning boshlanishidir. Shunday ekan, bilish jarayonida sezgilar ham beqiyos ahamiyatga egadir. Sezgilar orqali inson tashqi olamdagи narsa va hodisalar haqidagi xususiyat va belgilarni, mazmun va mohiyatni, tafovutlarni biladilar.

Binobarin, ko'z bilan narsalarning, hodisalarning rangi, shakli, kattakichikligi ko'rildi. Teri sezgisi orqali narsalarning egiluvchanligi, qattiq-yumshoqligi, tekisligi yoki g'adir-budirligi haqida ma'lumot olinadi. Eshitish vositasi orqali tovushlarning xilma-xilligini, hid sezish orqali narsalardagi ba'zi holatlar bilinadi. Ko'rdikki, har bir sezgi organizing ham alohida xususiyati bor. Bu xususiyatlar idrok qilish uchun xizmat qiladi. Idrok sezishning murakkabroq shaklidir. Idrokda siymolar bir-biri bilan bog'lanib yagona siymo qiyofasiga kiradi. Sezgida alohidalik, idrokda esa mujassamlik taqozo etiladi. Xulosa qilganda, sezgi, idrok, tasavvurlar bilishning birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu o'rinda faylasuf Omonulla Fayzullaevning diniy ilm va bilimlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Jumladan: "Ilmbilimdan chuqur va yuqori. Tasavvuf ilmiy bilimni oddiy bilimdan ajratadi. Har bir narsa haqidagi egallangan axborot bilim bo'lishi mumkin, lekin Xudo haqidagi bilim ilmdir, ya'ni keng ko'lamda chuqur mulohazalar yuritish natijasida vujudga kelgan bilimdir. Olloohni chuqur tushunish, ya'ni avvalgi vaqtdagiga qaraganda ko'proq, yaqinroq bilish mumkin, lekin uni mutlaq, to'la-to'kis, butkul bilib bo'lmaydi. Hozirgi zamon tili bilan aytganda bilish asimptotik ravishda rivojlanib boradi. Nega? Chunki, avvalo, odam, biluvchi mutlaq etuk darajaga ko'tarilmaydi. Darhaqiqat, aql esa doirasi chegaralangan bilimda ongning ham ayrim jihatlari namoyon bo'lganini bildiradi?!"

Shu ma'noda tasavvuf quyidagi xulosa – o'xshatishga keladi: bilim – bu bir gilam, to'la to'qilgan gilam. Lekin, u gilam payg'ambar zamonidan keyin shunday taxlanganki, biz faqat uning xoshiyalaridagi ko'rini turadigan bilimlarni egallayapmiz, xolos.

Tasavvufcha, "Bilim - Olloh tomonidan qalblarga in'om qilingan jumlalardir. Bilim – shu jumlalarni bir-biridan ajratish qobiliyati. To'g'ri yo'l – buni qalb bilan sezish qobiliyati". Bilim – bilishning natijasi ekan, u mantiqqa bo'ysunadigan jumla yoki jumlalar tizimidir. Bilimni nobilim axborotdan ajratish, ya'ni adekvatlikni noadekvatlikdan ajratish jarayoni bilish vazifasiga kiradi. Shuning uchun ta'kidlanadi: bilimning til bilimi qismi bor. Shu bilan birga "til bilimi" dan, "qalb bilimi" ajratiladi. Qalb bilimi, avvalo, qalbning o'zini bilishdan boshlanadi. Qalbni bilish asosida "voris bilimi" yotadi.

"Voris bilimi" dunyo haqidagi tushunchalardir. Shunday qilib dinni tushunish – dastlabki qadam, shundan boshlanadi "to'g'ri yo'l".

Bilim haqida gapirilar ekan, sufiy oddiy odamdan farq qiladi. Har bir odam bilimdon bo'lishi shart emas. Oddiy sufiy bo'lishi uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmosg'i shart. Sufiylar qo'yilgan maqsadni – odamni mukammal o'rganish uchun Ollohniga ishonish lozimligini tushinganidan keyin bilishga o'tadilar, bilganlaridan keyin xatti-harakat qiladilar, undan keyin bilishni egallaydilar, bilishni egallaganlaridan keyin to'g'ri yo'lga chiqib oladilar. Undan keyin jamiyatda faol qatnashadilar.

Ana shundan keyin, odam o'z-o'zini bila boshlaydi. Demak, odam o'zini bilishi uchun Ollohnini bilishi kerak, Ollohnini bilishi uchun o'zini bilishi kerak. Bu jarayon cheksiz davom etadi.

Bilishning asosiy tayanchlari va pog'onalari. Tasavvufda bilishning ikki tayanchi bor: 1) Qur'on – g'oyaviy yo'l ko'rsatkich, 2) Shu ko'rsatkich yordamida odam bilimini oshirib borishligi, maorifi. Darhaqiqat, tasavvufda bilim, e'tiqod, nur tushunchalari bir-biriga aynan yaqin. F. Rauzental ta'kidlaydi: "Bilimni, aqlni nur bilan tenglashtirish qadim zamonlardan islomga o'tgan".

Bilishning pog'onalarini. A) odamning xatti-harakati ko'r-ko'rona emas, balki bilib olingan yo'l bo'yicha davom ettiriladi. Bilmashdan ish boshlamaslik kerak, deyilgan nazlga itoat qilmoq lozim, B) odam o'zini, do'st va dushmanini bilishi kerak, V) Olloohni bilishga harakat qilishda Ollohnning nima mumkin, nima mumkin emas, deganini esdan chiqarmaslik kerak, nazariy bilim amaliy bilim bilan birgalikdagina ma'rifatni tashkil qiladi.

Bilim hamma vaqt o'zining ma'lum holatiga ega. Bilimning o'zgarishi holatning o'zgarishidir. Uyqu – bilimsiz holat. Uyg'onganda bilim namoyon bo'ladi. Shuning uchun gunohkor o'zini poklaganidan keyingina bilimli, deyish mumkin. O'lik odam emas, tirik odam bilimli bo'ladi. Yoki bilish yordamida tirilish mumkin. Oddiy odamning ogoh holatiga qaraganda sufiyning tushi afzaldir.

Odamning bilimli bo'lish niyati bo'lsa, avvalo shu haqda niyati izchil bo'lmosg'i lozim. Niyat qalbdan bo'lishi kerak. Niyatni amalga oshirish uchun ruh ixtiyori bilan intilib harakat qilishni talab qiladi.

Bilimdonlik ichki dunyoning pokligidir. "Dindorning ichki holati tashqi xatti-harakatiga mos bo'lishi kerak". Nafs kamchiliklaridan xalos qilish niyatini faqat bilim, Ollohdan qo'rqishgina uddasidan chiqadi.

Odam xudoni bilish uchun o'z-o'zini bilishi kerak ekan, o'z-o'zini bilish o'zi haqida axborot yig'ishigina emas, balki ayni paytda emotsional o'zgarib borib nopol xususiyatlardan tozalanish, shu yo'sinda dunyosini boyitib oliv bilishga o'tiladi. O'z-o'zini, shuningdek tabiatni bilish – bu odamning o'ziga, qobiliyatiga, niyatiga, xatti-harakatiga va sharoitiga bog'liq. Bu – Olloohni bilishning, oliv bilish yo'lining bir qismidir. Ya'ni substratidir. Shu substratga tabiat bilimlaridan tashqari arifmetik bilimlar, huquq bilimlari, har xil ilmiy munozaralar kiradi.

Odam o'zini bilmasa yashay olmaydi. Bu oddiy turmush taqozosi. Agar bunga qo'shimcha ravishda, Olloohni bilsang, avvalo qalbing farog'atda bo'ladi. Bunday qalb seni yuksaklikka ko'taradi. Va aqling yanada ravon ishlaydi hamda shu tarzda davom etaversang, biliming va ongging

boshqalarga nur baxsh etadi. Borgan sari Ollohgaga yaqinlashib borasan, deb ta’lim beradi tasavvuf.

Aql. Gap aql haqida ketar ekan, tasavvufda aytildi:

- 1) aql – Olloh tomonidan berilgan to’g’ri yo’l ko’rsatkich;
- 2) aql ham pog’onalidir: zaiflik va kamchilik, baland-past bo’lishi mumkin, umumiy zaifligi – Ollohni to’la bila olmasligi;
- 3) aql-zakovat – yuksak ruhning javhari, substantsiyasi, xazinasi, tili;
- 4) aql – ruhning yuksak darajada namoyon bo’lishi;
- 5) aql – intellektual markaz, u ikki xil namoyon bo’ladi: a) quyi pog’onada tashqi tomonga qaratilgan, b) yuqori pog’onadagi ichki ko’rinish /”baspra”/. Bunday odamlar ko’p emas. Ular shariat nuri bilan sug’oriladi.

Tasavvuf o’z-o’zini bilishda aql, ruh, nur munosabatlarini shunday bayon etadi: ruhdan aql nuri chiqadi. Aql nurida barcha bilimlar shakllanadi. Nur a) pastga qarab nafsga tushadi, yaratilganni parchalaydi, osoyishtalikni buzadi, nojo’ya ish qiladi, b) yuqoriga qarab ko’tariladi, to’g’rulanadi, yurak ruhga madad beradi, Ollohgaga yaqinlashish yo’li imkoniyatini topadi, endi yaratuvchi nimani yaratgani bilinadi.

Sufiy hech vaqt o’zini o’rganishni tark etmaydi. Ruhni bilish bilan Ollohni bilish orasidagi aloqa doimiydir. O’zimni bildim deyish - Ollohni bildim, deyishdir. Kechani bilish bilan kunduzni bilish orasidagi aloqa qanday bo’lsa, u aloqa ham shundaydir”¹.

Ijodni ifoda etish usullari

Bilishda empirik va nazariy bosqichlar ham e’tirof etiladi. Empirik yoki tajribaviy uslub ham bilish uchun muhim ahamiyatga ega. Tajribaga ega bo’lib, narsa va hodisalar tahlil qilinganda olingan ma’lumotlar ishonarli bo’ladi. Bunda sezgilarning ta’siri kuchli bo’ladi. Sezgilar bergen ma’lumotlarni mantiqiy tahlil qilish bilan bilimga ega bo’linadi. Tajriba orqali olingan bilim hayotiydir. Bu bilimni inson fan, amaliy faoliyatda ko’proq tatbiq etadi va qo’llaydi. Bilimda o’tkazilgan tajribani o’ta mubolag’ alashtirib ham bo’lmaydi. Unga ham ehtiyyotkorlik bilan yondashish

¹ O.Fayzullaev. Falsafa va fanlar metodologiyasi. T., 2006 y. 26-28 betlar.

zarur. Bilishning boshqa usullari ahamiyatini pasaytirmagan holda ularning har biridan o’z o’rnida foydalanish zarur. Jumladan, bilishda biryoqlamalikdan uzoqlashgan holda nazariy tafakkurni ham e’tirof etish kerak. Ana shunda ijod o’zining to’laqonliliga erishadi.

Nazariya deganda, u yoki bu voqelikning u yoki bu sohasini inson tafakkurida umumlashgan holda ifodalanishiga tushuniladi. Nazariya falsafiy ma’noda keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda olganda u kishilarning amaliy faoliyatidan farqli o’laroq umuman, fan, bilim demakdir. Nazariya amaliy faoliyat asosida paydo bo’ladi. Nazariya tajribani umumlashtiribgina qolmasdan, narsa va hodisalarning yangi tomonlarini aloqa va bog’lanishlarini ochib beradi. Shu bilan bir qatorda tomonlarni, aloqa va bog’lanishlarni amaliyatda ijod qilishga ko’maklashadi. **Tor ma’noda esa, nazariya deb qat’i muayyan shaklga ega bo’lgan kundalik bilim tushuniladi.**

Ijodkor biron-bir narsa va hodisani bilishda uning tashqi tomonini tahlil qilishdan boshlaydi. Uning ma’lum xossa va xususiyatlarining tamoyillarini o’zida qayd qiladi. So’ngra ijod qiluvchi narsa va hodisaning (ob’ektning) mohiyatiga chuqurroq yondasha boshlaydi. Ob’ektga taalluqli qonunlarni ochib oladi, qonunlarning xossalarni izohlaydi. Ob’ektning ayrim tomonlari haqidagi bilimlarni bir butun, yaxlit tizim sifatida shakllantiriladi. Shu yo’l bilan hosil qilinadigan mukammal, hartomonlama chuqur bilim ichki mantiqiy tuzilishga ega bo’lgan nazariyadir. Barcha fan nazariyalardan iborat. Masalan: hozirgi zamon fizikasi kvantlar nazariyasi, nisbiylik nazariyasi, elementar zarralar nazariyasi va boshqa nazariyalardan tashkil topgan. Ta’kidlash lozimki, olam narsa va hodisalari haqidagi nazariyalarning o’zi ham nazariyaga taalluqli bo’lishi mumkin. Bunday holda bu jarayon metanazariya deb ataladi. Amaliy faoliyatda nazariyalarni bir-biridan farq qilishi muhim ahamiyatga ega.

Har qanday nazariya qanchalik haqiqat bo’lmisin, ob’ekt haqida to’la, uzilkesil, mutlaq tugallangan bilimni bera olmaydi. Taraqqiy etib borayotgan bilim yangi dalillarni, qoidalarni ochib beraveradi. Bu dalil va qoidalarning mohiyati, mazmuni eski nazariyaga mos kelmasdan uning doirasiga

sig'maydi. Natijada, nazariyani o'zgartirishni yoki yangi nazariya yaratishni talab etadi. **Bir nazariyani ikkinchi nazariyaga o'tishi bilish nazariyasining qonuniyatli hodisasidir.** Albatta, bu jarayonda eski nazariyaning ma'lum bir jihatlari yangi nazariyada saqlanib qolishini ham unutmaslik lozim. Izlanuvchi yoki ijodkor ularni inobatga olganda, faoliyati unumli bo'ladi.

Ilmiy ijodda tavsif etish (xarakterlash) muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, har bir narsa yoki hodisa o'zining tuzilish mazmun, ichki va tashqi faoliyati, bog'lanishi, o'zaro munosabatlariga ega. Ana shu tomonlarni tavsiflash uchun ham bilim kerak. Tadqiqotchi o'z ob'ekti haqida bilimga ega bo'lmasa, u izlanishi jarayonida boshi berk ko'chaga kirib qolishi mumkin. Demak, tadqiqotchi o'zining ob'ekti haqida ma'lum bir tasavvurga ega bo'lgandagina uni tavsiflay oladi. Tavsiflashda biryoqlamalikdan uzoqlashish zarur. **Narsa yoki hodisaga turli tomonidan yondashib, u haqida batafsil bilimga ega bo'lishini ta'minlash tavsif etishdir.** Masalan: biror kishining faoliyatini tavsiflash uchun, uni qaerda, qanday oilada tug'ilganligi, kasbi kori, bilim darajasi, oilaviy holati, tevarak atrofga bo'lgan munosabati, jamiyatga bo'lgan qarashlari, siyosiy munosabatlarda o'zini tutishi, qiziquvchanligi va boshqa tomonlarini mukammal bilish kerak. Ushbu xislatlarning hisobga olinishi natijasida o'sha kishiga nisbatan to'laroq tavsif beriladi. Demak, tavsiflashda dialektik yondashish yaxshi natijalarни beradi. Dialektik yondashishda narsa va hodisalarning holatiga yaqindan kirib boriladi. Bunday qilish tavsiflash jarayonida xatolardan saqlab qoladi.

Ilmiy ijodda tushuntirish uslubi ham zaruriy holatdir. Ob'ektni tushuntirish uchun shu ob'ektni ijodkor o'z tafakkurida qayta ishlagan bo'lishi kerak. Aniqrog'i mukammal bilimga ega bo'lishi lozim. Tushuntirish va tushunish inson faoliyatining ajralmas qismidir. Tushuntirish va tushunish bo'lмаганда edi, rivojlanish ham bo'lmas edi. **Tushuntirish deganda, narsa va hodisalarning mohiyatini ochib berish, ular to'g'risida tinglovchiga bilim berish tushuniladi. Tushunish esa, tushuntirish natijasida hissiy qabul qilingan bilimlar yig'indisidir.**

Tushuntirish va tushunish ilmiy ijodning muhim tomonlarini tashkil qiladi. Tushuntirishda ham turli bosqichlar mavjud:

1. Ob'ekt haqida boshlang'ich bilimga ega bo'lism;
2. Tushuntirish uchun zarur bo'lgan shart –sharoitlar zarurligi;
3. Ob'ektni asoslash uchun moddiy va ma'naviy dalil va boshqalar.

Tushuntirish va tushunish dialektik munosabatda bo'lib, ikkala holat mavjud bo'lmasa ijod to'g'risida so'z yuritish mumkin emas. Chunki bular ijodning ikki tomonidir. Biror ob'ektni tushuntirish bir yoki bir necha marta bo'lishi mumkin. Bu sub'ektning holatiga, zehniga, qabul qilish hissiyotiga ham bog'liq. Shaxs tushunmagan jarayonni tushunish uchun turli vositalardan foydalanishga harakat qiladi. Vositalar esa grafiklar, videofilmlar, tajribalar, modellar, ko'rgazmali quollar bo'lishi mumkin. Tushuntirish va tushunishda takrorlash muhim ahamiyatga ega. Takrorlash izlanuvchi shaxsning esda tutish qobiliyatini chiniqtiradi, olayotgan bilimini mustahkamlaydi. Demak, tushuntirish va tushunish ijodiy faoliyatning muhim tomonlaridir. Ayniqsa, bu jarayonlar iqtisodiy tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega. Sababi iqtisodiy ob'ektni tushunish ko'p omillarga bog'liq. Bu omillar insonning turli faoliyatlaridir. Iqtisodiyot sohasidan izlanish olib borayotgan ijodkor ob'ektni tadqiq qilishda uni jamoa, jamiyat uchun zarur yoki zarur emasligini tasdiqlaydigan yoki inkor etadigan dalillarga ega bo'lishi kerak. Bu dalillarni izlanuvchining o'zi yaxshi tushunmasa uni tushuntirish qiyin bo'ladi. Iqtisodiy tadqiqotchining bilim darjasini muammoni tushunishi bilan bog'liq. Tadqiqot natijasida erishilgan yangilik qonun va qarorlar qabul qilish uchun asosdir. Shu sababli ham iqtisodiy sohada tushuntirish va tushunish muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy ijodda induksiya va deduktsiya usullaridan ham foydalaniadi. **Induktsiya - juz'iylikdan umumiyligka qarab borish jarayonini o'zida mujassamlashtirgan tushuncha.** Induktsiya ijod sohasida ham amal qiladi. Unda ob'ekt haqida xulosa chiqariladi. Induktiv xulosa chiqarishda bilimning xususiy muhokamalaridan umumiyligini qoidalariga qarab harakat qilinadi. To'liq va noto'liq induksiya mavjud bo'lib, to'liq induksiyyada bir turkumdagagi ob'ektlar haqida umuman shu turkumdagagi ob'ektlarning

hammasini qamrab olish asosida xulosa hosil qilinadi. Noto'liq induktsiyada esa ob'ektlarning ba'zilarini qarab chiqishga asoslanib xulosalar chiqariladi, ya'ni bunda ob'ektning asosiy belgilari, aloqa va munosabatlari tahlil qilinib xulosalar olinadi. To'liq induktsiya amaliyotda kamroq qo'llanilsa, noto'liq induktsiya kengroq foydalaniladi. Ammo noto'liq induktsiyada to'la ma'lumot olib bo'lmaydi. Shu sababli ikkala jihatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ushbu usullarni fan tarixida ishlab chiqishda Arastu, F.Bekon, R.Dekart, Dj. S. Mill va boshqalarning o'rni katta bo'lgan.

Induktsiya usuli hamma fanlarda qo'llaniladi. Masalan: induktiv yo'l bilan rus olimi D.I.Mendeleev kimyoviy elementlarning davriy tizimi qonunini kashf etgan. Induktsiya deduktsiya bilan bog'langan. **Deduktsiya umumiylardan xulosa chiqarish ma'nosini beradi, ya'ni xulosalar umumiylardan juz'iylikka tomon boradi. Bu deduktsiyaning asosiy tamoyilidir.** Masalan: "hamma metallar elektr o'tkazuvchilardir" degan xulosalar umumiylardan xulosa bo'lsa, temir o'tkazuvchi, deyilganda u xususiydir. Deduktsiyada isbot yoki asoslardan natija chiqarish tushuniladi. Bunda xulosa mantiqiy qonunlarga suyangan holda chiqarilganligi sababli u ishonchli bo'ladi. **Aniqroq aytilganda deduktiv xulosa hukmlar yig'indisidan iboratdir.** Ushbu uslub bilimning ma'lum sohasida dalilli ashyoni to'plangandan so'ng mazkur materialni (ashyoni) chuqurroq o'rganish, uni tizimlashtirish, butun natijalarini jiddiy sur'atda xulosa qilib chiqarish va shu kabi vazifalarni bajarish maqsadida qo'llaniladi. Endilikda deduktiv uslub turli shakllarda, asosan aksiomatik, gipoteza-deduktiv usullar shaklida qo'llaniladi. Mavjud dalilli ashyodan deduktiv nazariyalar yaratiladi. Nazariya chiqarishda boshlang'ich qoidalar majmui tanlab olinadi va ulardan fan qonun-qoidalaridan foydalanish yo'li bilan qolgan butun bilim xulosa qilib chiqariladi. XX asrning boshlarigacha deduktsiya yordami bilan matematika va mantiq nazariyalari tuzilgan bo'lsa, hozirgi paytda fizika, biologiya, lingvistika, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, iqtisodiyot va boshqa fanlarning nazariyalari ham ishlab chiqilishi uchun qo'llanilishiga harakat qilinmoqda.

Xususiy xulosalardan umumiy xulosalarga o'tish abstraktsiyasiz bo'lmaydi. Umumiy qonunlardan foydalanish uchun esa abstraktsiyadan aniq bo'lgan holatga o'tish lozim. **Umumiy fikrdan, qonundan xususiy qonunlarni mantiqiy ravishda keltirib chiqarish, kashf etish, ijod qilish deduktsiyaning asosiy vazifasidir.** O'z vaqtida buyuk alloma al- Xorazmiy har xil xususiy hollardan induktsiya yo'li bilan o'zining "uch kvadratli" tenglamasini tuzgan. Induktsiya va deduktsiya o'zaro bog'lanish munosabatida bo'lganda ijod ravnaq topadi. Hozirgi paytda induktsiya va deduktsiya usullari fan va texnikada, iqtisodiyotda keng qo'llanilmoqda va turli nazariyalarni ishlab chiqishda qo'l kelmoqda.

Ilmiy tadqiqot olib borishda **analiz va sintez usullari ham qo'llaniladi.** Analiz va sintez ma'lum qismlar bilan bir butun orasidagi aloqa va munosabatlar, xususiyatlarni aniqlash yo'li bilan bilim beradigan jarayonlardir. Analizda butun tizim moddiy yoki fikran qismlarga ajratiladi. **Analiz butunni bilishning asosiy va zaruriy bosqichidir.** Analiz va sintezlash jarayoni insonlarning nazariy, amaliy faoliyatlaridan kelib chiqqan va takomillasha borgan. Insonlar o'z tafakkuri orqali turli sohalarni analiz va sintez qilib keyinchalik kundalik ehtiyojidan olingan natijalarni hayotga tatbiq etganlar. Avval butunni qismlarga ajratib, so'ng bu qismlarni bir-biriga qo'shib butunni yaratganlar. **Qismlar avval alohida – alohida bo'laklarga bo'linib o'r ganiladi va xulosalar chiqariladi.** Bu xulosalar butun uchun sintezdir. Ilmiy ijodda analizning o'zi yakka holda natija bermaydi. Shu sababli sintezga murojaat qilinadi. O'z navbatida sintez ham shunday tavsifga egadir. Murakkab tizimli ob'ekt o'z bo'laklari yig'indisidan iborat bo'limganda uni tafakkurda o'zaro aloqadorlikni to'laligicha qaytadan hosil qilish uchun sintezdan foydalaniлади. Demak, sintez va analiz uslublari biri ikkinchisini taqozo etadi. Aynan sintez yo'li bilan inson o'z tafakkuri orqali ko'plab aniqliklar va munosabatlarni aniqlaydi, yaxlitlikni keltirib chiqaradi. Sintez butunlikni ta'minlaydi. Analiz va sintez ijodning atigi bir-birini to'ldiruvchi, bir-biri ketidan boruvchi tor jarayoni emas. Analiz va sintez ijodning har bir bosqichida ob'ekt aloqadorligini ham ifodalaydi. Analiz sintezsiz

samarasizdir. Binobarin, analiz qilinganda ijodkor narsaning bo'laklariga to'la tushunib etadi. Shunday bo'lsa-da, sintezga murojaat qiladi. Sintez ob'ektning birikuvini qay holatda borishini tushunishga yordam beradi. Demak, analizsiz sintez, sintezsiz analiz bo'lishi mumkin emas. Aks holda ijod jarayoni ham to'liq bo'lmaydi. Analizning asosiy vazifasi murakkab tizimli butunni, unsurlarini, sifatini o'rganishdan iborat. Chunki butunning mohiyati bo'laklar orqali ohib beriladi. Narsalarni, ob'ektlarni tavsif qilish analizga bog'liq. Masalan: iqtisodiy sohalarni analiz qilish ishlab chiqarish jarayonining taraqqiy etishiga imkon yaratadi yoki aksincha, ishlab chiqarish usulini bilish uchun avvalo ishlab chiqarish kuchlarini, ishlab chiqarish munosabatlarini, taklif va talablarni yakka-yakka analiz qilish lozim. Bu holatlar tafakkur orqali amalga oshadi. Zero, tafakkur ijod jarayonining o'zagidir. Analiz va sintez qotib qolgan jarayonlar emas. Ular ta'sirida ham yangi fikrlar ijod namunalari kelib chiqadi. Masalan: fan taraqqiyotini analiz qilish natijasida yangi fanlar paydo bo'ladi va rivojlanadi. Ular esa falsafiy sintez qilinadi. Murakkab tizimlarni birdaniga bilib bo'lmaydi. Ularni tashkil qilgan birlashmalar alohida-alohida o'rganilib, so'ng butunligicha ham o'rganiladi.

Ilmiy ijod **qiyo slash** usulidan ham foydalanishni taqozo etadi. **Qiyoslash tadqiq qilinayotgan narsa va hodisalar o'rta sidagi o'xshashlik va tafovutlarni bilishga, ularning aloqa va munosabatlarini aniqlashga yordam beradigan bilish usulidir.** Qiyoslashning ikki turi mavjud:

1. Aloqador bo'lman ob'ektlarni qiyoslash;
2. Aloqador bo'lgan ob'ektlarni qiyoslash.

Ushbu usullar yordamida tadqiqotchi o'z tadqiqoti jarayonida yangi xulosa va mulohazalarni beradi. Yangi ilmga ega bo'ladi. Bu uslub analiz uslubi bilan aloqa va munosabatdadir. Ular biri ikkinchisini to'ldirishga yordam beradi.

Ilmiy ijodda abstraktsiyadan ham foydalaniladi. **Abstraktsiya deb, ko'p qirrali ob'ektlarning har birini yakka-yakka holda emas, balki ma'lum bir qismi haqida umumiy fikr yuritishga aytildi.** (Abstraktsiya - uzoqlashuv, mavhumlik). Abstraktsiyada manbaning ba'zi xususiyatlari va

bog'lanishlari fikran ajratiladi. Uning boshqa xususiyatlari va bog'lanish hamda munosabatlari nazardan soqit qilinadi. Buning ta'sirida paydo bo'lган tushuncha, tasavvur, abstraktsiyadir. Abstraktsiyada narsa aniq holda bilinmaydi, mavhum holda inson ko'z o'ngida gavdalantiriladi. Masalan: kundalik hayotda uchraydigan hodisalar, o'rikning pishishi, samolyot uchishi, quyoshning ko'rinishi aniqdir, lekin bular doimiy harakatni bildiradi. Aslida bu jarayonlar abstraktsiyadan dalolat beradi. Shuni unutmaslik kerakki, abstraktsiya aniq narsalar uchun umumiyligi bo'lган belgilarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Unda predmetdan uzoqlashib, chetlab o'tish namoyon bo'lsa-da, aslida ularning mohiyati mazmuniga kirib borishiga sharoit yaratiladi.

Abstraktsiya har xil qo'shimcha ta'sirlardan yiroqlashgan holda, ob'ektlarning asosiy muhim xususiyatlarini ajratib olib, sof holda qarab chiqish va shunga asosan ularning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Insonlarning amaliy faoliyati qanchalik murakkablashib borgani sari, ularning abstraktsiyalash qobiliyatları ham taraqqiy etib, takomillashib boradi. Amaliy ehtiyojlar oxir oqibatda turli fanlar bilan birga abstraktsiyalarni vujudga keltirib, ob'ektlarning ko'plab xususiyatlaridan qaysi birini ajratib ko'rsatishini aniqlab beradi. Binobarin, **jonli mushohadadan nazariy jihatlarga o'tish aniqlikdan abstraktsiyaga o'tish demakdir.** Ijod bu bilan oxiriga etmaydi, albatta. Aniqlikdan abstraktlikka o'tish ham zarur. Demak, abstraktsiya insonning, ijodkorning ongi tafakkuri bilan bog'langan. Insonsiz abstraktsiya, abstraktsiyasiz inson bo'lishi mumkin emas.

Takidlaganimizdek, abstraktlashtirish ob'ektlarni mukammal bilishda fikriy jihatdan ko'maklashadi. Masalan: iqtisodiy nazariya ham turli tushuncha va qonunlardan tashkil topadi. Bozor, pul, qiymat, tovar, ishlab chiqarish usuli, bozor munosabati, qo'shimcha qiymat, raqobat, daromad, ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari kabi tushunchalar abstraktsiyalash holatining mahsulidir. Abstraktlash jarayoni mantiq va matematikada ustuvor xarakterdadir.

Demak, abstraktlashtirish orqali ham bilimga ega bo'linadi. Bu jarayon, ya'ni **abstraktlashtirish ideallashtirishning bir turidir**, yoki aksincha. Bu sohalar bir-biri bilan chambarchas bog'langan. **Ideallashtirishda ob'ektning moddiylik jihatlarini inkor etib, xayoliy bir narsa yoki hodisani topishga qaratilgan jarayon tushuniladi.** Ideya so'zi lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilida "g'oya" bo'lsa, ideallashtirish deganda, umuman g'oyalashtirishni tushunmaslik kerak.

Ideallashtirish va abstraktlashtirish o'rtasida umumiylit hamda tafovut ham bor. Ikkala sohada ham maqsadni bajarishda sohadan uzoq turib ish yuritiladi. Ammo ularning sohadan uzoq turishlik xossasi bir xil emas.

Demak, narsa va hodisadan umuman uzoq turish, bu ideallashtirishning yuqori nuqtasidir. Abstraktlashtirishda birinchi, ikkinchi, uchinchi kabi darajalar bo'ladi. Abstraktsiya yordamida olingan mukammallik natijasi ideallashtirishdir. Binobarin, **ideallashtirish deb, tabiat va jamiyatdagi narsa yoki hodisani o'rganishda uning barcha xususiyatlarini o'rganib emas, balki faqat kerakli bir xususiyati orqali o'rganish mumkin ekanligini tushunmoqlikka aytildi.** Ideallashtirish o'rinsiz bo'lsa, turli xatoliklarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, tarix voqealarini ideallashtirish bunga misol bo'ladi. Tarixiy voqealarini qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha tushuntirish lozim. Aks holda noto'g'ri, yolg'on xulosalarga olib keladi va ijod hamda ijodkorni chalkashtiradi.

Ilmiy ijodda **analogiya** (o'xshashlik) uslubidan ham foydalilanadi. Analogiya bu - o'xshashlik, moslik ma'nolarini beradi. **Demak, analogiya narsa va hodisalar o'rtasida biron-bir jihatdan o'xshashlikni ko'rsatuvchi jarayondir.** Narsa va hodisalarni tadqiq qilishning ma'lum bir usuli bilimni kengaytirish vositasi hamdir. **Narsa va hodisalardagi ma'lum bir boshqa belgilar bilan o'xshashligini bilgach, biz ularning boshqa belgilar bilan ham o'xshashligi haqida xulosa chiqara olamiz.** **Bunday xulosa chiqarish o'xshashlik bo'yicha xulosa chiqarish, deyiladi.** Bu esa o'z navbatida bir narsa yoki hodisa haqida olingan bilimlarni boshqa narsa yoki hodisaga o'tkazishga imkon beradi. Ijod, bilimni bunday ko'chirish ko'pincha ehtimollikka asoslangan holda qisman to'g'ri bo'lib chiqadi.

Chunki narsa va hodisalar o'rtasida o'xshashlik to'liq emas. Mutlaq o'xshashlik yo'qdir. Hech bo'lmasganda har bir narsa yoki hodisa makon va vaqtda joy olib harakat qilishida farq bor.

Narsa va hodisalarni faqat tashqi qiyofalariga qarab o'xshashligini topish ijodning oxirgi nuqtasi bo'lmasligi kerak. Qachonki ichki o'xshashliklar ham inobatga olinsa, unda har bir ijodiy xulosa yaxshi natija beradi. Fanda ko'pincha ba'zi murakkab masalalarni boshqa oddiyroq masalalar yordami bilan echishga, ba'zi hodisalarda yuz beradigan jarayonlarni, mabodo ularni bevosita tadqiq qilish imkonini bo'lmasa, boshqa hodisalarda o'rganishga to'g'ri keladi. Ana shu holatda analogiyaga, o'xshashlikka murojaat qilishga to'g'ri keladi. Analogiyada, o'xshashlikda tekshirilayotgan narsa va hodisalarning mohiyati jihatidan umumiyligi asos qilib olinadi. Bunday yondashish narsa va hodisalarning asl mazmunini tushunishga yordam beradi. Aytish lozimki, ma'lum o'xshashliklarni bilish natijasida bilinmagan o'xshashlikni keltirib chiqarish, topish, ijodda yangilikdan iboratdir.

Ijodda analogiya, o'xshashlik uslubi **modellashtirish** uslubiga yaqin turadi. Ular o'rtasida o'zaro mustahkam aloqa bor.

Modellashtirish deganda, ijod ob'ektining har xil shakllarini moddiy va fikriy jihatdan yaratish usuli tushuniladi. Ilmiy ijodda ko'proq ushbu usuldan ham foydalaniladi. Modellashtirish usulida predmetning o'rniga boshqa, ya'ni o'sha predmetning modeli yaratiladi va o'rganiladi. Hozirgi vaqtda iqtisodiyotda bozor munosabatlariga o'tishning turli modellaridan foydalaniladi. Modellar yordamida butunlay yangicha model paydo bo'lishi mumkin. Bunga misol bozor munosabatlariga o'tishning "o'zbek modeli" paydo bo'lishidir. Aslida iqtisodiyotda Shvetsiya, Xitoy, Yaponiya, Amerika, Tayvan, Janubiy Koreya, Turkiya modellari mavjud.

Model so'zi namuna, timsol ma'nolarini anglatadi. **Model- elementlar tizimi bo'lib, bu tizim tadqiq etiluvchi narsaning (asl nusxasining) muayyan tomonlarini, aloqa va bog'lanishlarini qaytadan yaratilishidir.** Gipsdan, kartondan, plastmassadan, taxtadan va boshqa materiallardan yasaladigan, aynan insonlarning, muzeylarda, o'quv yurtlarida va boshqa

joylardagi maketlari modellarning namunalaridir. Ushbu modellar turli sohalarni o'rganish uchun keng foydalaniladi. Hozirgi zamon fani narsa va hodisalarning xususiyat va xossalari qaytadan yaratish uchun ko'proq belgi modellarga, ya'ni matematik yoki mantiq belgilarining maxsus tuzilmalariga e'tiborni qaratmoqda. Masalan: agar biron-bir iqtisodiy tashkilot-korxona, sanoat tarmog'i uchun xarakterli bo'lgan aloqalar, jarayonlarni ifodalaydigan tenglamalar tizimi tuzilsa, xuddi ana shu narsa ayni tuzilmaning belgi (matematik) modeli bo'ladi. Modellashtirish uchun muayyan o'xshashlik (analogiya) tadqiq qilinuvchi ob'ekt bilan uning modeli o'rtasidagi muvofiqlik asos qilib olinadi. Bu holat modeldan haqiqiy izlanayotgan ob'ektga o'tishga, unda model yordamida olingan natijalardan foydalanishga yordam beradi. Modelning asl nusxasi bilan yaratilgan nusxasi o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Bu tafovut izlanuvchi tomonidan aniqlanishi talab etiladi. Ushbu uslub tadqiqotchining mehnatini engillashtiradi. Ma'lumki, shunday narsa va hodisalar borki, ularning kattaligi, uzoqligi yoki kichik bo'lganligi sababli unga bevosita yondashib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan modellashtirish usuliga murojaat qilinadi. Modellashtirish ob'ekt haqida hissiy tasavvurni paydo qiladi. Bu ayniqsa, mavhum narsa yoki hodisani tadqiq qilishda yanada muhimdir. Masalan: N. Borning atom modeli atomning ko'pgina xususiyatlarini, jumladan beqarorligini yoki uzoqlasha olishini bilishga yordam beradi. Modellashtirish usuli narsa va hodisalarning tarixiy, ya'ni bilib olingan tomonlarini izohlabgina qolmaydi va faqat shuning uchungina yaratilmaydi. Modellashtirish narsa va hodisalarning ma'lum bo'lмаган tomonlarini anglashga, bilishga ham chorlaydi. Bilish imkonи bo'lмаган jarayonlarning ham xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Modellashtirishda hozirgi zamon texnikaviy yutuqlar qo'l kelmoqda. Ayniqsa, bunga elektron hisoblash, kompyuterlashtirish sohalari misol bo'la oldi.

Ilmiy ijodda **tizimli** yondashuv ham mavjuddir. **Tizimli (sistemali) yondashuv deganda, qismlardan tashkil topgan va muayyan tarzda bir-biri bilan bog'langan hamda bir butun yaxlitlikni tashkil etadigan jarayonlarning hammasi tushuniladi.** **Tizimlar:** oddiy, murakkab turlarga

bo'linadi. Masalan: oddiy tizimga misol qilib oshxonadagi idish-tovoqlar yig'indisini olish mumkin. Murakkab tizimga esa, o'simliklar, hayvonot olami tizimlarini olish mumkin. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish tizimi, ishlab chiqarish munosabatlari tizimlari murakkab xarakterdadir. Ilmiy ijodda narsa va hodisalarga tizimli yondashish talab etiladi. Tizimli yondashish natijasida olingan natijalar haqiqatdan uzoqlashmaydi. Shu sababli tizimli yondashuv oldida turli vazifalar turadi. Bular quyidagilar:

- ilmiy ijodda narsa va hodisalarni faqat yaxlitlikda emas, umumiylilikda murakkab tizim sifatida tahlil qilish;
- tizim va tizimlarning mohiyatini ilm jihatdan tutgan o'rnnini aniqlash;
- tizim va tizimlar haqida xolisona bilimga ega bo'lish;
- olib borilayotgan tadqiqot tizimi boshqa tadqiqotlar tizimidan farq qilishi va boshqalar.

XX asrda paydo bo'lgan fanlar barcha sohalarda tizimli yondashuvni talab etmoqda. Sababi tabiat va jamiyatdagi barcha narsa va hodisalar yakka holda emas, balki o'zaro bog'langan va aloqadadir.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Tajriba, nazariya, tavsif, tushunish, tushuntirish, induktsiya, deduktsiya, analiz, sintez, abstraktsiya, analogiya, modellashtirish, tizim.

Mavzuga oid savollar:

1. Metodologik bilim pog'onalarini nima?
2. Ijodni ifoda etish usullarini ayting.

VI bob. Bashorat va ilmiy bashorat ijodiy jarayon sifatida

Fanda bashorat tushunchasi. Bashorat va hozirgi zamon iqtisodiyoti

Bashorat – u yoki bu voqealarni oldindan aytish, mavjud bo’lgan, lekin hali tajribada qayd etilmagan voqealar yoki hodisalar haqidagi bilimdir. Bashorat ham inson faoliyati bilan bog’langan. Masalan, 1503 yilda tug’ilgan Mikael Nostradamusning bashorati 2240 yilni qamrab olgan bo’lib, 1557 yildan 3797 yilgacha davom etadi. **Nostradamus**ning bashorat kitobi «Tsentruya» deb atalgan. Yuz misradan iborat bu kitob she’riy uslubda yozilgan. Uning bashorati butun Evropani va hayotning barcha sohalarini qamrab olgan. **Nostradamus** bashoratining bir qismi hayotligida hamda keyingi yillarda amalga oshgan.

Masalan, 1582 yilda Grigoriy taqvimi joriy qilinganligi, 1597 yilda chaqmoqtoshdan miltiqning kashf etilishi, 1609 yilda Galiley ta’limotining paydo bo’lishi, 1536 yilda Kanadaning kashf etilishi, 1546 yilda Portugallarning Yaponiyaga etib borishi, 1618 yilda termometrning ixtiro qilinishi, 1642 yilda Avstraliiyaning kashf etilishi, 1769 yilda Angliyada bug’ mashinasining kashf etilishi, 1812 yilda Napoleonning Rossiyaga hujumi, 1841 yilda telegrafning ixtiro qilinishi, 1876 yilda telefonning vujudga kelishi, 1895 yilda rentgen qurilmasining yaratilishi kabilar. Bulardan tashqari, Nostradamus ko’plab boshqa voqealarni, halokatlar, kasalliklar, zilzila, ochliklar bo’lishini bashorat qilgan. Ta’kidlash lozimki, Nostradamus o’z vaqtida Bibliya va ko’plab donishmandlarning asarlarini chuqr o’rgangan. Uning bashorati shularning natijasi bo’lsa kerak. Demak, bashorat ham insonning bilimiga bog’liqdir. Nostradamus yulduzlar faoliyatini ham chuqr tahlil qilgan. Bu ilmiy bashoratdir. Chunki oldindan aytib berishni ob’ektiv qonunlari bashoratchining nazaridan chetda qolmagan. Oldindan aytib berish u yoki bu shaxsning iste’dodiga ham bog’liq.

Fan taraqqiyoti qanchalik ilgarilasa, oldindan aytish jarayoni shunchalik tezlashadi. Bashorat qilish deganda yana shunday jarayonlar tushuniladiki,

biron-bir hodisaning rivojlanish istiqbollari maxsus ilmiy ravishda o'rganilib xulosalar chiqariladi. Bashorat qilishga misol qilib oyning va quyoshning tutilishi, kunlik, oylik, yillik ob-havo o'zgarishlarini, jamoada bo'ladijan ba'zi hodisalarni olish mumkin.

Hozirgi zamonda iqtisodiy sohalarni bashorat qilishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiy bashoratda turli usullardan foydalaniladi. Iqtisodiy rivojlanishni o'rganishda bilishning maxsus uslublari zarur bo'ladi. Usullardan ekstropolyatsiya, tarixiy analogiya, tarixiylik-mantiqiylik, modellashtirish, induktsiya va deduktsiya kabilar iqtisodiy rivojlanishni belgilashda foydalaniladigan usullardir. Iqtisodiy nazariyalarni ishlab chiqishda futurologiya, ekologiya va boshqa fan usullaridan ham foydalaniladi. Iqtisodchi olimlardan J. Gelbreyt uzoq muddatli iqtisodiy bashorat asosida yangi industrial jamiyat nazariyasini ishlab chiqqan bo'lsa, D. Bell shunday yondashish natijasida postindustrial jamiyat nazariyasini, R. Aron esa, yagona industrial jamiyat nazariyasini, U. Rostou esa o'sish bosqichlari nazariyalarini yaratdilar.

Bashorat qilish uchun voqelikni mukammal bilish talab etiladi. Bashoratni paydo qiluvchi qonuniyatlar mavjud bo'lib, bu qonuniyatlarning o'rni to'g'ri belgilanganda bashorat natijali bo'ladi. Ma'lumki, hozirgi inson o'ta ziddiyatlarga boy davrni boshidan o'tkazmoqda. Shunga qaramasdan, XXI asr jamiyatlarida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni aniq va ravshan bashorat qilish talab etiladi. Bu joyda iqtisodiyot universitetida tayyorlangan «Ilmiy ijod metodologiyasi» qo'llanmasidan quyidagi mulohazalarni olish kifoyadir: “Ilmiy ijod va prognoz qilish metodologiyasidan iqtisod, demografiya, sotsiologiyada bozor iqtisodining rivojlanish tedentsiyalarini hamda hozirgi kun jarayonlari va bo'lajak jarayonlarni iqtisodiy o'rganishning muayyan metodlariga tatbiqan foydalaniladi. Masalan, D. Medouz iqtisodiy prognoz qilish yordamida insoniyatning global muammolarini analizdan o'tkazdi, xuddi shunday tadqiqotlarni J. Forrester ham o'tkazdi, amerikalik taniqli siyosat arbobi Z. Bjezinskiy ilmiy prognoz qilish asosida demokratiya, siyosat institutlari, erkin bozor iqtisodi, hozirgi

zamon axborot, kompyuter texnologiyalariga asoslangan hozirgi zamon va kelajak texnotron jamiyati nazariyasini yaratadi.

E. Tofflerning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning uchinchi to'lqiniga mansub yuksak darajada sanoatlashgan jamiyatni shakllantirish borasidagi tadqiqotlari, F.Fukuyamaning «tarix yakuni» va taraqqiyotning tarixdan keyingi bosqichiga butun insoniyatning o'tishi kontseptsiyasi asosiga qurilgan prognozlari, S. Xantingtonning G'arb (xristianlik) va Sharq (islom, buddizm, lamaizm va boshqalar) qadriyatlari bir-biriga to'la nomuvofiqligi negizida kelajakda ikki tsivilizatsiya – G'arb va Sharqning muqarrar to'qnashuvi sodir bo'lishi haqidagi prognozi katta ijodiy va prognostik qiziqish uyg'otadi.

Rim klubining yaqin tarixiy istiqbolda butun insoniyatning global rivojlanishi jarayonlarini prognoz qilish borasidagi faoliyatini alohida qayd etib o'tish kerak. Italiyalik iqtisodchi va tadbirkor A.Pechcheining tashabbusi bilan 1968 yilda tashkil etilgan Rim klubи olimlar, iqtisodchilar, biznesmenlar va siyosatchilarni birlashtirgan xalqaro nohukumat tashkilotdir. Rim klubining faoliyati hozirgi davrning global muammolarini muttasil kuzatib borish va prognoz qilish, ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ekologik, oziq-ovqat, xom ashyo, demografik va boshqa komponentlarining rivojlanish yo'llari va tendentsiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan. Rim klubи XX asrning oxiridayoq o'z ilmiy prognozlari asosida iqtisod, aholi va hokazolar o'sishining «eng yuqori chegarasi» haqida global xulosalar chiqardi va shu bilan bir vaqtda, bu iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy va demografik muammoning echimini topishga harakat qildi.

Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni ilmiy prognoz qilishning ulkan evristik va prognostik ahamiyatini qayd etgan holda, ilmiy prognoz qilishning real imkoniyatlaridan kelib chiqish kerakligini uqtirib o'tmoqchimiz, zero, har qanday, hatto juda aniq va ishonchli prognoz ham haqqoniy emas, balki ehtimol tutilgan bilimdir. Ehtimol darjasini juda baland bo'lgan taqdirda ham prognoz amalda ruyobga chiqishi yoki qog'ozda amalga oshirilmay qolib ketishi mumkin.

Masalan, prognoz qilishning turlaridan biri – ekstrapolyatsiya qilishning afzal jihatlari bilan bir qatorda quyidagi jiddiy kamchiliklarga ega: kelajak sari harakatlanishga qarab ekstrapolyatsiyaning aniqlik darajasi pasayib boradi. Binobarin, o'tmish va kelajak o'rtasida analogiya o'tkazishning prognostik qimmati juda kam, zero, kelajakning asosiy jihatlarini o'tmishni takrorlash bilan bog'lash mumkin emas. Buni yaxshi tushungan Gegel shunday deb yozgan edi: «Hukmdorlar, davlat arboblari va xalqlarga tarix tajribasidan ibrat olishni maslahat beradilar. Ammo tajriba va tarix xalqlar va hukumatlar tarixdan hech narsani o'rghanmaganliklarini ko'rsatadi. Har bir davrda shunday alohida shart-sharoitlar vujudga keladi, har bir davr shunday individual holatga ega bo'ladi, bu davrda faqat mana shu holatdan kelib chiqib qarorlar qabul qilish zarur va mumkindir».

Iqtisodiy ilmiy tadqiqot faoliyatida modellashtirish haqida ikki og'iz gapirib o'tmoqchimiz. Prognostik model – bu prognoz ob'ektining iqtisodiy modeli (yoki sxemasi) bo'lib, uni o'rghanish ob'ektning kelajakdagi (iqtisodiy) holatlari, shuningdek, bu holatlarga erishish yo'llari haqida axborot olish imkonini beradi.

Stsenariy yozish deganda mavjud vaziyatdan kelib chiqib kelajak holati qadam-baqadam kanday shakllanishi mumkinligini ko'rsatish maqsadida hodisalarining mantiqiy izchilligini aniqlash metodi tushuniladi. Bu ta'rifni amerikalik taniqli prognozchi G. Kan bergan. Mohiyat e'tibori bilan bu metod ekspert baholash metodiga yaqin, ammo bunda u iqtisodiy modellashtirishga xos bo'lgan tizimli yondashuvni o'zida mujassamlashtirgan.

Hozirgi zamon iqtisod fanida qaysi iqtisodiy vazifa birinchi navbatda hal etilishiga qarab ilmiy prognoz qilishning ikki turi: tadqiqotchilik prognozi (izlanish yo'sinida prognoz qilish) va normativ prognoz qilish tafovut etiladi. Tarixiy tendentsiyalarni analizdan o'tkazish asosida iqtisodiy rivojlanishning ob'ektiv mavjud tendentsiyalarini prognoz qilish tadqiqotchilik prognozi deb ataladi. Mazkur prognoz turi rivojlanishning inertsiyalilik belgisidan foydalanishga asoslanadi. Bunda zamonda mo'ljal olish «hozirgi zamondan keljakka» sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi. **Iqtisodiy prognoz** – bu

hozirgi zamondan prognoz sarhadiga tomon inertsiya bo'yicha harakatlanishda iqtisodiy rivojlanishni ko'rib chiqish natijasida olingan prognoz ob'ektining kelajakning ma'lum davridagi holati manzarasidir. Kelajakning ma'lum belgilangan davrida muayyan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa maqsadlarga erishish imkonini beradigan iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalarini prognoz qilish normativ prognoz qilish, deb ataladi. Bu holda zamonda mo'ljal olish «kelajakdan hozirgi zamonga» sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni prognoz qilish metodologiyasi tadqiq qilishning quyidagi asosiy bosqichlarini o'z ichiga oladi: prognoz qilishdan oldin mo'ljal olish (prognoz ob'ektini, predmetini, tadqiqot maqsadlari, vazifalari, ishchi gipotezalari, metodlari, tuzilishi va tashkilotini aniqlash); prognoz muddati (ma'lumotlar toplash, ob'ektning iqtisodiy rivojlanishiga ularning ta'sirini o'rghanish, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash); ob'ektning xususiyati va tuzilishini aks ettiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar va o'lchamlar tizimini o'z ichiga oluvchi boshlang'ich model; tadqiqtchilik prognozi (istiqbollar va muammolarni aniqlash uchun prognoz fonidagi omillarni e'tiborga olgan holda boshlang'ich modelni kelajakka proektsiya qilish); normativ prognoz, ya'ni boshlang'ich modelni kelajakka proektsiya qilish; prognostik modellarning haqqoniylig darajasini baholash va ularga aniqlik kiritish; ekspertlarni so'rovdan o'tkazish; prognostik modellar asosida qabul qilinadigan qarorlarni maqbullashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Iqtisod sohasida prognoz va ilmiy bashorat qilishning vazifasi o'r ganilayotgan ob'ektning iqtisodiy rivojlanishi sabablari, qonunlari va harakatlantiruvchi kuchlarini ochib berish, ular asosida kelajak haqida axborot olishdan iborat. Iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish natijalaridan ijtimoiy jarayonlarni maqbul boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Ilmiy bilish va ijod nafaqat kelajakni bashorat va prognoz qilish, balki uni ongli ravishda shakllantirish imkonini ham beradi. Fanning evristik ma'nosini «Bashorat qilish uchun bilish, bilish uchun bashorat qilish», deb ta'riflash mumkin. Ilmiy ijod tarixi ko'p jihatdan ilmiy bashorat tarixidir.

Uning kuchi va qamrovi fanning ijodiy, bilish salohiyatining etuklik darajasini ko'rsatadi.

O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov ishlab chiqqan «Bozorga o'tishning o'zbek modeli» demokratiya, bozor iqtisodiyotiga o'tish va fuqarolik jamiyati qurish sharoitlarida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini teran ijodiy-ilmiy bashorat qilishning yorqin namunasidir. Bu model iqtisod, sotsiologiya, politologiya, ijtimoiy prognoz sohasidagi jahonga mashhur mutaxassislarning olqishiga sazovor bo'ldi.

Mazkur model iqtisodiy rivojlanish sohasida iqtisodiy-xo'jalik faoliyatini har tomonlama analizdan o'tkazish va bu faoliyatning barcha omillarini e'tiborga olish vazifasini hal qiladi. Bunday analiz jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-texnikaviy omillarida sodir bo'lgan o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tushuntirish, bashorat qilish va boshqarish uchun zarurdir. «O'zbek modeli» ilmiy ishlab chiqilgan va hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan ijodiy bashorat namunasi sifatida bozor, fuqarolik jamiyati va har tomonlama rivojlangan demokratiya sari O'zbekistonning harakatini ijtimoiy boshqarishning ilmiy va metodologik negizini tashkil etadi.

«Mohiyatni tushunib etmasdan, yumuq ko'z va shoshma-shosharlik bilan maqsad sari erkin suzishga chiqish mumkin emasligini biz hammamiz yaxshi tushunishimiz kerak,- deb qayd etadi I.A.Karimov. – Buning uchun avvalambor aniq yo'nalishni belgilash, mustahkam kemani tanlash, ishonchli jamoani to'plash, uni og'ir sharoitlarda suzishga o'rgatish va faqat shundan keyin yo'lga chiqish kerak. Bu esa juda og'ir va murakkab vazifadir. Bularning barchasini e'tiborga olib, biz mustaqillikni qo'lga kiritgan paytimizdan boshlab iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanayapmiz».¹

Bashoratning turlari

Ilmiy ijod ko'p qirralidir. Shu sababli ijod jarayoni bashoratni ham qamrab oladi. Maqsad bashoratlardan unumli foydalanib, ularni hayotga

¹ Saifnazarov I., Nikitchenko G., Qosimov B. Ilmiy ijod metodologiyasi. T.: Yangi asr avlod. 2004y. 66-70 betlar.

tatbiq etish insonlar turmush tarzini yuksaltirishga yordam beradi. Kelajakni bashorat qilish bu - kelajakni oldindan tushunish, ko'ra bilish, uning tabiatini, xususiyatlarini aniqlash bilan chegaralanib qolmaydi. Bashoratning xususiyatlaridan yana biri bu - bashoratning qanday qilib vogelikka o'tish jarayonini ham oldindan aytishdir. Buning uchun bashoratda qo'llanilayotgan matematik hisob-kitoblar aniq va ravshan bo'lishi lozim. Hisob-kitoblar vositasi bilan hali ma'lum bo'lмаган narsa yoki hodisani bashorat qilish fan tarixidan ma'lum. Bu haqda O. Fayzullaev quyidagi dalillarni keltiradi: "Neptun planetasi ham mana shunday yo'l bilan kashf etilgan. Gap shundaki, 1846 yilgacha quyosh sistemasida faqat ettita planeta bor, oxirgisi Uran deb hisoblanar edi. Astronomlar Uran harakatini kuzatar ekanlar, bu osmoniy jism o'z orbitasidan sal-pal chetga chiqayotganini aniqladilar. Matematik Lever'e Uran harakati tenglamalarini sinchiklab tekshirib, noma'lum bir osmoniy jism uning harakatiga ta'sir ko'rsatayotganini aniqladi va bu noma'lum planetaning o'sha vaqtda osmonda ishg'ol etgan o'rnini, koordinatalarini oldindan aytib berdi. Astronom Galle osmonning Lever'e ko'rsatgan tomonida yashirinib yotgan Neptun planetasini o'zi yasagan teleskop yordamida kashf etdi. Ana oldindan ko'rishning matematik usuli! Bu usuldan hozir keng foydalanilmoqda.

D.I.Mendeleevning fikr yuritishi – ilmiy bashoratning ajoyib namunasi bo'la oladi. Mendeleev kimyoviy davriy qonunni kashf etganida (1869), hammasi bo'lib 63 ta element ma'lum edi. Tabiatda boshqa elementlar bormi? Bu savolga Mendeleev «ha, bor» deb javob bergan. Uning o'zi uchta elementning jadvaldagи o'rnini va xossalariini oldindan aytib berdi. Bu elementlar keyinchalik topildi: galliy (1875), skandiy (1879), germaniy (1886).

Mendeleev jadvalida ko'rsatilgan 92 elementdan to'rttasining o'rni ko'p vaqt bo'sh yotdi. Ularning mavjudligi oldindan bilingan edi, lekin qani ular? Ular tabiatda topilmagach, sun'iy usul bilan olishga to'g'ri keldi. Chunonchi, 1937 yili ularning birini olishga muvaffaq bo'lindi. Bu yangi element texnika yo'li bilan topilgani uchun, unga texnetsiy, degan nom berildi. Shu usul bilan qolgan uchtasi ham topildi. Ular: astat, prometiy va frantsiy. Shunday qilib,

92 elementning hammasi fanga ma'lum bo'ldi. Ularning 29 tasi mo'ljallash, tusmollash, bashorat asosida kashf etildi.

Kimyoviy elementlar yana bormi? Nazariy fizika 92 raqamdan keyingi elementlarni oldindan ko'rdi va bu savolga ijobiy javob berdi. Eksperimental fizika buni tasdiqladi. Kashf etilgan sun'iy kimyoviy element davriy sistemada 103 kataknini to'ldirib turibdi. 104-elementni G. N. Flyorov o'z laboratoriyasida 1964 yili kashf etdi. Olimlar 105-elementni ham topdilar. Ilm-fan yana boshqa kimyoviy elementlar borligini oldindan ko'rayapti"¹.

Bashoratning turlari: 1. Oddiy, 2. Induktiv, 3. Diniy, 4. Ilmiy bashoratlardir.

Oddiy bashorat bu kundalik hayotda uchrab turadigan, turmush tarzidan kelib chiqadigan bashoratdir. Oddiy bashoratlarda tafakkur orqali isbot talab qilmaydigan oddiy jarayonlar haqida fikr yuritiladi. Masalan, bahorning kelishi, kelajakda meva-chevalarning mo'l bo'l shidan dalolatdir. Demak, inson o'z tafakkuri orqali kelajakni o'z zamoni bilan bog'lab xulosa qiladi. Bu xulosa to'g'ri chiqadi. Bashorat turlari ehtiyojga bog'liq.

Induktiv bashorat ko'proq faraz qilish bilan bog'liqdir. Ammo faraz ham insonning aql-zakovati, idrok qilishi bilan bog'liq. Aql esa, inson ruhining yuksak darajada takomillashuvi va uning namoyon bo'l shidir. Aql inson miyasining mahsuli. Ana shu aql barchada bo'lsa-da, ammo bir-biridan farq qiladi. Ba'zilar aqlarini amaliyotda charxlasalar, boshqalar fan orqali rivojlantiradilar. Ayrimlar turmush tarzidan foydalananadilar. **Aql ham o'ektiv olam to'g'risidagi bilimdir.** Demak, intuitsiyada aql va farosat etakchi o'ringa ega.

Diniy bashorat esa insonlar va butun olam faoliyatiga bag'ishlangan. U kelajakni aytib berishga qaratilgandir. Diniy bashorat payg'ambarlar va Ollohol nomi bilan bog'langan. To'g'ri, payg'ambarlar Ollohdan kelgan vahiyalar orqali bashorat qilsalarda, ular ham bashoratlarni voqelik bilan bog'laganlar. Masalan, Imom Ismoil Buxoriyning hadisi shariflarida shunday voqealha qida fikr yuritiladi: «Anas Ibn Molik raziyallohu anhu rivoyat

¹ O. Fayzullaev., Falsafa va fanlar metodologiyasi. T., 2006 y. 50-bet.

qiladilar: «Makka ahli Rasulullohu alayhi va sallamdan (payg' ambar ekanliklarining isboti uchun) mo''jiza ko'rsatmoqliklarini talab qildi. Shunda ul zot oyni ikkiga bo'lib ko'rsatdilar, hatto odamlar Hiro' tog'ini oyning ikki bo'lagi orasida ko'rishdi (ya'ni, bir bo'lagi tog'ning u tomonida va ikkinchi bo'lagi tog'ning bu tomonida turdi) ». Ko'rib turibmizki, bu diniy bashorat talab asosida zaruriyatdan kelib chiqqan holda, amalga oshirilgan. Qiyomat kunlari haqidagi fikrlar ham diniy bashoratdir.

Ilmiy bashorat ijod shakli sifatida

Oldindan ko'rishda ob'ektiv zaruriy shart-sharoitlar kifoya qilmaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijodkor oldindan ob'ekt rivojini aytib berish qonuniyatlariga asoslangan nazariyani ham e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Shu sababli ham **ilmiy bashorat deganda, kelajakdagi hodisalar, narsalar rivojini, oqibatlarini, xususiyatlarini oldindan aytib berish imkoniyatini tushunish kerak.** Ayniqsa, ijod jarayonida ilmiy bashorat ilmiy dalillarga ichki va tashqi shart-sharoitlarga qat'i rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Aks holda ilmiy bashorat quruq gap bo'lib qolaveradi. Chunonchi, nazariya ham ob'ektiv reallikni to'g'ri aks ettirgan bo'lishi lozim. Shundagina ilmiy bashorat ijod shakli sifatida shakllanadi. Ijodda ilmiy bashorat ham bilishning o'ziga xos shaklidir. Sababi, unda ham turli manbalar, axborotlar haqida fikr yuritiladi. Ta'kidlash kerakki, ilmiy bashorat ijod jarayonida ehtimollikni inkor etmasdan balki unga yaqin turadi. Zero, bilish jarayoni hali rivojlanmagan holatni bilishga chorlaydi. Ilmiy bashorat tabiat, jamiyat to'g'risidagi ilmiy bilimni har tomonlama tahlil qilib, insonni bilim bilan boyitadi. Unutmaslik kerakki, ilmiy ijodda ilmiy bashorat ma'lumdan noma'lumni ham keltirib chiqaradi. Demak, unda, ilmiy ijod jarayonida ilmiy bashorat amalga oshiriladigan tadqiqotlarning xilmayxilligidan kelib chiqib ish tutish kerak. Binobarin, bashorat o'ta aniqlikni talab qilmasa-da, shu aniqlik atrofida fikr yuritadi va ilmiy ijodga o'z hissasini qo'shadi. Ilmiy bashorat evristik xarakterga ega. Shu sababli ham ilmiy bashoratni e'tirof etadilar. Olam cheksiz bo'lganidek, bashorat chegarasi ham cheksizdir.

Yana shunday bashoratlar borki, masalan, fazodagi sayyoralarning joylashuvi, holati, taassurotini o'rganib ham fikr bildirganlar. Xoja Ali Termiziy o'zining "Navro'znama" risolasida Navro'zni haftaning qaysi kuni kirsa, o'sha yili qanday voqealar sodir bo'lishini bayon qilgan bo'lsa, "Solnoma" asarida esa Navro'zning qaysi muchal yili kirsa, qanday hodisalar ro'y berishini bayon qilgan. Biz bu erda "Navro'znama"dan Xoja Ali Termiziyning bashoratlarini qanday yozilgan bo'lsa, shundayligicha keltiramiz:

"Agar **Navro'zi Olam yakshanba kuni** dohil bo'lsa (kirsa), Shams (Quyosh)ga taalluqli bo'lur. Ul sol (yil) ne'matlar ko'p bo'lib, to'qliq bo'lg'ay, fitna va yomonlik oz bo'lgay, g'o'zalarga yaxshi bo'lg'ay, tog'lardagi polizlar va ekinlar yaxshi bo'lg'ay va dehqonlarning ekinlari bitkay. Yilni avvalinda arzoni (arzonchilik) bo'lg'ay, oxirinda andak qimmatli (qimmatchilik) bo'lg'ay, ammo tez o'tgay. Xalq orasida muholafatchilik (qarama-qarshilik) bisyor bo'lg'ay. Xaloyiq orasida vabo bo'lg'ay. Va mashriq tarafidin andak fitna va xovfi xunrezi (qon to'kish) bo'lgay va og'irlik oxiri baxayr bo'lg'ay. Ekinlarni ertaroq ekmoq kerak. Vallohu a'lam bissavob.

Agar **Navro'zi Olam dushanba kuni** dohil bo'lsa, Qamar (Oy)ga taalluqli bo'lg'ay. Ul yil to'qliq bo'lg'ay, ne'matlar ko'p bo'lg'ay, yomg'ir ko'p yoqg'ay. Podshohlarga andak xavflik bo'lgay va ba'zi savdogarlar holi zaif bo'lg'ay. G'o'za ekin yaxshi bo'lgay. Kunjut, tariq qo'noq miyona (o'rtacha) bo'lg'ay, qor-yomg'ir yilning avvalinda bo'lgay. Tog'larda va Iroqda zilzila bo'lgay. Va ba'zi polizlarga ofat etgay. Va ba'ziga davlat bo'lur. Ammo bug'doy shirin bo'lur, tez o'tgay, savdogarlik basta (yomon) bo'lgay. Bu yil zaiflarning ahvoli xo'b bo'lg'ay. Ammo kattalarga bisyor mansabdorlik bo'lgaylor. Vallohu a'lam bissavob.

Agar **Navro'zi Olam seshanba kuni** dohil bo'lsa, Mirrihga (Marsga) taalluqli bo'lur. Ul yil farah (shodlik)lik bo'lgay va kundan-kun taomlar ko'p bo'lgay, chahorpolar (hayvonlar)ga ma'murchilik bo'lgay. Ammo odamlar orasida janjal ko'p bo'lgay. Mashriq tarafning podshohiga tashvish ko'p etkay. Ul yil ekinlarni erta eksa, yaxshi bo'lgay, kechiga ofat tekgay va

mevalar oz bo'lgay. Yil oxirida sel ko'p bo'lgay, ul yil yomg'ir kam bo'lgay. Bu yilda ham ne'mat ko'p bo'lgay va narxlar arzon bo'lgan va giyohlar bisyor bo'lgay. Ammo bu yilda uzum ko'p bo'lg'ay va zaiflarning ahvoni tang bo'lgay. Vallohu a'lam bissavob.

Agar **Navro'zi Olam chahorshanba (chorshanba) kuni** dohil bo'lsa, Atorud (Merkuriy)ga taalluqli bo'lgay. Ul yil qahatchilik bo'lgay, qon to'kmoq va fitna-fasod ko'p bo'lgay. Ammo tezlik birlan tartaraf bo'lgay. Ul yil polizlar ko'p yaxshi bo'lgay, ammo Xuroson tarafida arpa, bug'doy qimmat bo'lgay, mosh, loviya, tariq, qo'noqlar ko'p bo'lgay. Ul yil yilon, chiyon, qurtlar ko'p bo'lgay. O'lim zaiflarga va yosh bolalarga ko'p bo'lgay, ammo savdogarchilik ko'p yaxshi bo'lgay. Ammo haloyiqlar orasida ko'z og'rig'i ko'p bo'lgay. Vallohu a'lam bissavob.

Agar **Navro'zi Olam panjshanba kuni** dohil bo'lsa, Mushtariy (Yupiter)ga taalluqli bo'lgay. Ul yil ba'zi joylarda ne'matlar ko'p bo'lub va ba'zi joylarda oz bo'lgay. Yomg'irlar o'z vaqtida yoqg'ay, qor-yomg'ir ko'p bo'lgay. Podshohlar hollari yaxshi bo'lgay va hamma hunarpesha (hunarmand)lar kasblaridin xursand bo'lgaylar. Va daryolardagi kishtilar (kemalar)ga salomatlik bo'lgay, lekin haloyiqlar orasida yolg'on so'z ko'p bo'lgay, bemorlik ko'p bo'lgay, savdogarlik yaxshi bo'lgay. Ul yil sipoh (lashkar)larning ahvoli ho'b bo'lgay. Vallohu a'lam bissavob.

Agar **Navro'zi Olam juma kuni** dohil bo'lsa, Zuhraga taalluqli bo'lgay. Ul yil farah (shod)lik va farovonlik bo'lgay. Yomg'ir ko'p yoqgay, sovuq qattiq, qish uzun, yil oxirida andak qimmat (chilik) bo'lgay. G'alla saqlamoq kerak, bozurgonlik savdogarchilik ko'p yaxshi bo'lgay va kechki (ziroat)ga ofat etkay. Ul yilda narxlar arzon bo'lgay ne'mat, farox (ko'p) bo'lgay, ziroatlar xo'b bo'lgay. Kunjut miyona (o'rtacha) bo'lgay. Sipoh (lashkar)larning holi zabun (og'ir) bo'lgay. Vallohu a'lam bissavob.

Agar **Navro'zi Olam shanba kuni** dohil bo'lsa, Zuhal (Saturn)ga taalluqlidir. U yil ba'zi shaharlarda qahatchilik bo'lgay, yomg'ur ko'p yoqg'ay, xunrezlik (qon to'kishlik) ham ko'p bo'lgay. Janub soridin (tomondin) lashkar paydo bo'lur, urush va suqush va o'g'ri va qaroqchi ko'p bo'lgay, fitna va yolg'on fosh bo'lg'ay. Kuzgi ekinlar yaxshi bo'lgay va

mevalar kamroq bo'lgay, yil oxirida sovuq qattiq bo'lgay, qishi uzoq bo'lgay".¹

Ilmiy bashorat qilishda falsafiy xulosalar ham muhim ahamiyatga ega. Chunki falsafa fanining xususiyati ham ilmiy bashoratga yaqindir. Ammo falsafa fani real imkoniyatlarga asoslangan holda o'z muamolarini rivojlantiradi, muammolarni echishga ko'maklashadi. Shu bilan birga falsafa fani ilmiy ijodning-gina metodologiyasi bo'lib qolmay, ilmiy bashoratning ham metodologiyasidir. Bashoratchi ana shu metodologiyaga suyanib o'z fikrini bayon qilsa, tanlangan yo'l to'g'ri chiqadi. Bashorat natijasi unumli bo'ladi. Ijtimoiy hayotni bashorat qilishda o'tmish, hozirgi, kelajakdag'i jarayonlar hisobga olinadi. Yoki tabiatshunoslik bo'yicha ijod qiluvchi olim dastlabki aniq bilimlarga ega bo'lsa va unga amal qilsa, tajribalari mohiyatini to'la tushungan holda amalga oshirsa, ijod jarayonida tasodiflarni nazardan chetda qoldirmasa, u holda oldindan aytib berish jarayoni ishonarli bo'ladi. Murakkab ob'ektlarning xatti-harakatini oldindan aytib berish bitta yoki ikkita nazariyani emas, balki birqancha nazariyalarni ham qamrab olishi mumkin. Chunki bu nazariyalar jarayonning ayrim tomonlarini, omillarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi mumkin. Demak, ba'zi bashoratlarni o'rtaga qo'yishda bir fanning o'zi kamlik qilishi mumkin. Bunday holatda ilmiy bashorat qilish uchun bir necha fanlar qonuniyatlaridan foydalilanadi.

Insoniyat XXI asrga o'tar ekan, uning oldida yangi-yangi muammolar paydo bo'lmoqda. Bu muammolarni ilmiy tushuntirishda fanning harakati kamlik qiladi. Demak, taraqqiyotni ilmiy bashoratsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Izlanuvchi ilmiy bashorat jarayonida ilmiy ijod bilan shug'ullanar ekan, ijtimoiy taraqqiyotni qaysi yo'nalishda harakat qilishi, bu harakat qanday sur'atlar bilan boradi, qanday to'siqlar bo'lishi mumkinligi, to'siqlardan qanday o'tish zarurligi, inson faoliyatiga qanday yo'sinda ta'sir qilishi kabilarni tahlil qiladi. Pirovardida, taraqqiyotning istiqboli nimada ekanligini bilish uchun javob izlaydi.

¹ Xoja Ali Termiziy. "Navro'znama".

Iqtisodiy–ijtimoiy bashoratlar ma'lum bir davrni o'z ichiga oladi. U davr qisqa yoki uzun bo'lishi mumkin. Bu bashoratlarda sanoat, qishloq ho'jaligi, moddiy boyliklar, boshqaruv jarayonlari hisobga olinadi.

Uzoq davrni o'z ichiga oladigan bashoratlar ma'lum bir davlatlar, mamlakatlar faoliyatini qamrab oladi. Shundan kelib chiqqan holda, faoliyat ko'rsatadi. Bunday sohalarga ekologik jarayonlar, demografik xususiyatlar, oziq-ovqat muammolari misol bo'la oladi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Bashorat (ilmiy), postindustrial jamiyat, iqtisodiy bashorat, stsenariy yozish, prognoz qilish (ilmiy), Rim klubi, ekstropolyatsiya, bashorat turlari, ilmiy bashorat, induktiv bashorat.

Mavzuga oid savollar:

1. Ilmiy izlanishda prognozni bashorat qilish qanday rol o'ynaydi?
2. Fundamental ilmiy yoki texnikaviy kashfiyotlarga olib kelgan ilmiy bashoratlarga misollar keltiring?
3. Iqtisodiy tadqiqotlarda ilmiy ijod va bashorat metodologiyasi qanday rol o'ynaydi?
4. I. A. Karimov tomonidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning «O'zbek modeli» ishlab chiqilishi ilmiy bashoratning yorqin namunasi sifatidami?

VII bob. Ilmiy tadqiqot va ijod tizimida dalil (fakt)

Dalil falsafiy kategoriya sifatida. Dalil turlari.

Ilmiy ijodda dalillar o'ta muhimdir. **Dalil bu - fakt** ma'nosida ishlataladi. Biz bu mavzuni yoritar ekanmiz, fakt so'zini dalil deb qabul qildik. **Dalil bu - haqiqatni tasdiqlovchi, inkor etib bo'lmaydigan narsa va hodisalar haqidagi bilimlar majmuasi.** Dalilning asosan ikkita xususiyati bor:

1. Hayotiy bo'lgan real voqealar, xususiyatlar, munosabatlar, aloqadorliklar, o'zgarishlar, jarayonlarni o'zida ifoda etadi.
2. Haqiqatni isbotlovchi fikrlarning to'laqonligini, inkor etib bo'lmasligini, reallikka mosligini qaror toptiradi.

Tevalarak atrofdagi barcha narsa va hodisalarning mavjudligi, barqarorligi, hodisalarga munosabat kabi jarayonlar dalillarga suyangan holda tahlil qilinadi, mushohada qilinadi. (Aslida esa dalil bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin). Bu ob'ektga nisbatan shunday xarakterda bo'ladi. Sababi, shunday narsa va hodisalar borki, ular dalil va isbotni talab qilmaydi. Demak, ana shu narsa va hodisani tasvirlash uchun dalilga murojaat qilish shart emas. Ammo, ilmiy ijodda esa dalil zaruriy talabdir. Fanning ajralmas qismidir. Chunki fan yangi, haqiqiy bilimlarni berish uchun dalillarga suyanadi. Har bir ijod namunasi falsafaning kategoriysi bo'lmish – sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, mazmun va shakl, zaruriyat va tasodif, mohiyat va hodisa butun hamda qismlar orqali, ya'ni ularning metodologik xususiyatlaridan foydalanib, o'z xulosalarini chiqaradi. Bu xulosalar dalil tushunchasi orqali amalga oshirilganda ijodda mustahkam o'rinni oladi. Ijod natijasi haqiqatga aylanadi.

Dalil falsafiy kategoriyadir. Demak, u universal xarakterga ega bo'lib, barcha narsa va hodisalarga taalluqlidir. U haqiqatni to'ldiruvchidir. Ba'zi olimlar dalilni haqiqat sinonimidir, deb tushuntiradilar. Bizningcha, bunday qarash etarli emas. Bu kategoriyalar o'zaro yaqin bo'lsalarda, ular turlicha vazifalarni bajaradilar. Avvalo, haqiqat tushunchasi dalil tushunchasiga

nisbatan keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, u nisbiy yoki mutlaq xarakterga ega. Haqiqatning nisbiyligini qo'shimcha dalillar bilan to'ldirish mumkin va hokazo. Haqiqatlar dalillarning yig'indisidir.

Shunday ekan, **dalil bu voqelik haqidagi ob'ektiv holda olingan va isbotlangan, o'zgarmaydigan haqiqiy bilimdir.**

Dalilning turlari quyidagilar: 1. Haqiqiy dalil; 2. Yolg'on dalil; 3. To'liq dalil; 4. To'liq bo'limgan dalil; 5. Taxminiy dalil; 6. Isbotlanmaydigan dalil; 7. Isbotlangan dalil; 8. Ilmiy dalil va boshqalar. Dalil turlari voqelikdagi narsa va hodisalarning xarakteridan kelib chiqadi. Dalil alohida-alohida olingan narsa va hodisalarni o'zida aks ettiradi. Umumiy dalil bo'lishi mumkin emas. Dalil – konkret-aniqdir. Masalan, haqiqiy dalilda ob'ekt to'g'risida to'la tavsif mujassamdir. Bu tavsif haqiqatga zid kelmasdan, balki qonun va qonuniyatlar asosida vujudga kelgan. Yolg'on dalil esa buning aksi bo'lib, qonunlar va qonuniyatga mos emasdir. U faqat insonning tafakkurida aks etadi, xolos. Yolg'on dalillar shubhali bo'lib, ularni bir necha bor tekshirish, aniqlash talab etiladi. Yolg'on dalillar inson tomonidan nojo'ya ish va faoliyatlarda ko'proq foydalaniladi. Ammo, yolg'on dalillardan ham voz kechib bo'lmaydi. Undan foydali tomonlarini olib, hayotga tatbiq etish lozim. Masalan, shunday voqeа va narsalar bo'ladiki, u to'g'risida (vaziyatga qarab) yolg'on dalil aytishga to'g'ri keladi, ya'ni ikkala qarama-qarshi tomonlarni moslashtirish, kelishtirish uchun vaqtincha yolg'on dalildan foydalanish mumkin.

Bu degani, albatta yolg'on dalillar ilmiy ijodning asosi ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Yoki to'liq bo'limgan dalillar to'g'risida so'z yuritganda, izlanuvchi o'z fikrining ilmiyligini isbotlash uchun qo'shimcha dalillar topishga harakat qiladi. Qo'shimcha dalillar esa to'liq bo'limgan dalilni to'liq dalil bo'lgunicha ko'maklashadi. Qo'shimcha dalillar ilmiy ijodda katta ahamiyatga egadir.

Ilmiy ijodda shunday dalillar borki, ularni qayta isbotlashga to'g'ri keladi. Chunki davr o'tishi bilan har qanday dalil qayta isbotlanishini talab etadi. Bu holat ayniqsa, ilmiy kashfiyotlarda ko'proq ko'zga tashlanadi. Isbotlangan dalillar ammaliyotda to'g'ridan-to'g'ri foydalaniladi.

Ilmiy ijod ilmiy dalillar negizida ish yuritadi, faoliyat ko'rsatadi. Ilmiy ijodda dalillarga erishish og'ir va mashaqqatli mehnatni talab etadi. Vaqt va sabrlilikni istaydi. Dalillarni qo'lga kiritish bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Ikkala jarayon ham zaruriy holatdir. Bevosita dalillarni qo'lga kiritishda narsa va hodisaning o'z holati, taraqqiyoti, rivojlanishi kifoya qiladi. Bilvosita dalillarni qo'lga kiritish ma'lum shart-sharoitlar, qo'shimcha ashyolar, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollarni talab etadi. Izlanuvchi ijodkor bunga ruhiy va amaliy jihatdan tayyor turishi kerak. Demak, dalillarni qo'lga kiritish sub'ektiv va ob'ektiv shart-sharoitlarga bog'liqdir.

Dalil insonning bilim doirasini kengaytiradi. Bilim insonning ajralmas qismidir.

Moddiy olam oddiy bilim osti bo'lган cheksiz, rang-barang narsa va hodisalarning yig'indisidan iboratdek bo'lib ko'rindi. Ammo oddiy kuzatish asosida hodisalarning mohiyatini bilish mumkin emas. Agar bilish oddiy kuzatishdangina iborat bo'lsa, u vaqtda biz hodisalarning qonun va qonuniyatlarini aslo bila olmas edik. Shu sababli ham dalilning asosiy vazifasi moddiy olamni bilishda ishtirok etib, u to'g'risida inkor etib bo'lmaydigan fikrlar tasdig'ini berishdir. Olam va uning qonuniyatlarini bilish osonlikcha kechmaydi. U haqiqiy ilmiy dalilni, ijodni talab etadi. Olamni bilish g'oyat murakkab jarayondir.

Dalillar farazlarni tahlil qilish uchun ham asosdir. Chunki farazlar hali haqiqiy ilm emas. Farazlar ham bilishning ma'lum chegarasi bo'lsa-da, inson farazlarga asoslanib faoliyat ko'rsatmaydi. Farazlarning haqiqiyligini tekshirish, aniqlash dalillar yordamida amalga oshadi. Farazlarning hayotiyligini tasdiqlash yoki inkor qilish voqelikning xarakteriga qarab tajriba yoki kuzatish, modellashtirish, mantiqiy yondashishlar orqali amalga oshiriladi. Har bir tadqiqot, ma'lumki, farazlarni o'rta ga tashlash bilan boshlanadi. Bu farazlar tadqiqot negizini tashkil etsa-da, dalilga muhtoj. Ana shu dalil orqali tadqiqot natijasi ko'rindi. Ta'kidlash lozimki, nazariyalar ham dalillar yordamida o'rta ga qo'yiladi va o'z navbatida isbotlanadi. Nazariyalar dalilsiz, dalillar nazariyasiz bo'lishi mumkin emas. Aks holda nazariyalar inson miyasidagi mulohazalardan iborat bo'lib qolaveradi.

Dalilning ilmiy tadqiqotdagi o’rni va ahamiyati

Jamiyatdagi ba’zi muaamolarni ayrim ijtimoiy gumanitar fanlarda, dalillar orqali tasdiqlab bo’lmasa-da, ular mantiqiy dalillarga asoslanadi. Mantiqiy dalillar haqiqatga yaqin dalillardir. Masalan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mafkuramiz haqida fikr yuritganida quyidagi muhim jarayonlarni ta’kidlaydi: “... jamiyatimiz mafkurasi, odamlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning ma’no-mazmunini belgilab beradi.

Endigi eng dolzarb vazifamiz – bu jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal ochib berish, o’quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo’nda qilib tushuntirib berish va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo’shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat.

Buning uchun birinchi galda taraqqiyotimizning har bir yo’nalishi-jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus darsliklar, qo’llanmalar, ommabop adabiyotlar yaratilishi zarur”.

Bu vazifalar real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda qo’yilgan. Mazkur vazifa ko’proq gumanitar sohalarga taalluqlidir. Ularni amalga oshirish uchun mantiqiy dalillar asosida ish yuritib, darsliklar, qo’llanmalar, ommabop adabiyotlarning ta’sirchanligiga e’tiborni qaratish dolzarbdir. Tasdiqdan o’tkazib hayotga tatbiq etish mumkin bo’lmagan jamiyat taraqqiyotini faqat izchil tushuntirish, ularning haqiqat ekanligini targ’ib qilish yo’li bilan hayotiyligini ta’minlash mumkin. Tushuntirish natijasida har bir inson o’zi yashayotgan jamiyat yoki davlatning maqsadini teran anglaydi va uni amalga oshirishga harakat qiladi.

Ilmiy tadqiqotda dalil to’plash bir qancha usullar orqali amalga oshiriladi. Bu usullarga: kuzatish, tajriba o’tkazish, qiyoslash, analiz va sintez qilish, umumlashtirish, formallashtirish, bahs qilish va boshqalar kiradi. Ana shu usullar orqali dalillar to’planganda ob’ekt ob’ektiv holda tavsiflanadi. Ob’ektiv holda to’plangan dalil ilmiy ijodda yuqori baholanadi.

Ilmiy bilimda yoki ilmiy tadqiqotda dalilning quyidagi vazifalarini e'tiborga olish lozim:

1. Oldingi bilimlar asosida yangi bilimlarni hosil qilish;
2. Narsa va hodisalar taraqqiyotini to'g'ri aks ettirish;
3. Ob'ektlarning faoliyatini to'g'ri tavsiflash uchun asos shart ekanligini hisobga olish;
4. Ob'ektiv voqelikni to'g'ri tushuntirishdagi ishtirokini e'tirof etish va boshqalar.

Ilmiy ijodda yuqorida ta'kidlangan dalil turlari ishtirok etishi mumkin. Albatta, ularning barchasi haqida tadqiqotchi to'la tasavvurga ega bo'lishi, ularni bir-biridan ajratishi zarurdir. Aks holda dalillar samara bermasligi mumkin. Ilmiy dalillar qudratli kuchga ega. Ular oldindan aytib berishni ham qurollantiradi. Masalan: “ Qushlar va hashoratlar, ya'ni havodan og'ir ob'ektlar fazo muhitida uchishga qodirligi buyuk mexanik N.E.Jukovskiy tomonidan hozirgi zamon aerodinamikasining negizini tashkil etuvchi ko'tarma kuch nazariyasining yaratilishiga olib keldi. Barcha eng yangi aviatsiya va kosmonavtika vositalari – raketalar, samolyotlar, vertolyotlar, dirijabllarni loyihalash Jukovskiy kashf etgan aerodinamika asosida amalga oshirildi.” (misol “Ilmiy ijod metodologiyasi”. 73-74 bet).

Dalillar ilmiy tadqiqotning turli metodlarini ongli ravishda hamda ijodiy qo'llanilishi natijasida olinadi. Ijodiy faoliyat murakkabligi sababli, bu murakkablik dalillar olishda ham namoyon bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, dalillar mavhum bo'la olmaydi. Har qanday dalil aniqdir. Bu aniqlik dalillar natijasidir. Fanlarda dalillar o'z holicha ko'zga tashlanavermaydi. Ob'ektiv real narsa va hodisalarni o'nlab, yuzlab chig'iriqdan o'tkazish natijasida paydo bo'ladi.

Dalillarni nisbiy hamda mutlaq dalillarga bo'lish yo'li bilan farqlash kerak. Ular bir xil emas. Masalan, O'zbekistonning mustaqil bo'lganligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti uchun mutlaq dalildir. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishi, yangi jamiyatning paydo bo'lishi nisbiydir. Chunki yangi jamiyatning paydo bo'lishi jarayonida bozor munosabatlariga o'tishning mazmun mohiyati davr talabidan kelib chiqib, yangi dalillar bilan

to'ldirilishi mumkin. Bu jarayonlar ma'lum fanlardagi hozirgacha ma'lum bo'lgan dalillarni to'ldiraveradi va tarmoqlarini kengaytiradi.

Dalillar to'plashda uslublarni to'g'ri tanlay bilish katta ahamiyatga ega bo'lib, to'g'ri uslub tanlanganda xatolardan xoli bo'lishi mumkin. Aniqrog'i, ilmiy tadqiqotning ravnaqi, kelajagi uslub tanlashda mujassamlashgan. Ilmiy tadqiqotga dalillar hayot baxsh etadi. Natijada fan taraqqiyoti ham jadallahadi. Uning tizimida yangi sohalar paydo bo'ladi.

Dalillar to'plash fan nuqtai nazarida cheksizdir. Sababi, bilishning o'zi ham cheksizdir. Bu cheksizlik olamdag'i narsa va hodisalarning bitmas-tuganmasligiga olib boradi. Ana shu tariqa dalillar to'plash inson faoliyatidan doimiy o'rinni olgan.

Ilmiy tadqiqot olib borayotgan izlanuvchi o'z ijodida dalil aytmasligini sezgan holat ijobiy holatdir. Ushbu etishmaslik olimning ilmiy salohiyatini, dunyoqarashini oshirishga majbur qiladi. Bundan har qanday fan ham, izlanuvchining o'zi ham foyda ko'radi, xolos. Dalillarni izlash jarayonida yangi dalillarga duch kelinadi. Bu esa o'z navbatida yanada yangi dalillarni ochishga imkon yaratadi. Shunday ekan, tadqiqotda dalillar uzlucksizlikni taqozo etadi. Ushbu qonuniyatlar ta'sirida yangi kashfiyotlar paydo bo'ladi. Bu esa ijodiy izlanuvchi tafakkurining yorqin faoliyatini keltirib chiqaradi. Yangi dalillarni o'z doirasida o'rganish ta'sirida, ya'ni ularni tahlil qilish, o'xshashligini bilish, aloqa va munosabatlarga e'tiborni qaratish, foyda va zararini baholash yo'li bilan hayotga tatbiq etish jarayoni hal etiladi. Ilmiy tadqiqotda ilmiy dalillarni to'plashdan maqsad undan kundalik hayotda izchil foydalanishdir. Hayot, turmush tarzi uchun foydali bo'limgan dalillar to'plashdan uzoq bo'lish har bir tadqiqotchining muhim vazifasidir.

Ilmiy tadqiqotda dalillar ijodiy izlanuvchining ilmiy olamini yaratadi. Dalillar ijodkorga havo va suvdek zarurdir. Tadqiqotchi yaratayotgan yangilik, kashfiyot mantiqiy dalillar, farazlar, nazariyalar, mantiqiy xulosalar jarayonida paydo bo'ladi. Natijada eski dalillar inkor etilib yangilari paydo bo'ladi.

Demak, ilmiy tadqiqotda ilmiy dalillar nisbiy va mutlaq haqiqatni qaror toptirishda asosiy quroldir. Ilmiy tadqiqotda dalil to'plash izlanuvchidan

mahorat va mehnatni, izlanuvchanlikni va sezgirlikni, tadbirkorlik va hushyorlikni, mutlaqo soflikni, ob'ektiv xulosa chiqarishni talab etadi. Tadqiqotchi esdan chiqarmasligi lozimki, izlanish natijasida olgan yangiliklar, tavsiyalar, xulosalar faqat o'ziniki bo'lib qolmaydi, balki ular jamiyat mulkiga aylanadi. Ushbu jarayonlarni o'z faoliyatida mujassamlashtirgan shaxslar fan tarixida oz emas. Ular o'z dalillarining haqligini isbotlash yo'lida o'z jonlarini fido etganlar. Bularga misol inkivizatsiya davridagi olimlar (Galiley, Kopernik, Jordano Bruno) faoliyatidir. Shunday ekan, dalillar ilmiy ijodning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Bu jarayonsiz izlanuvchi faoliyat ko'rsata olmaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda dalillarni tasdiqlash ham o'z-o'zidan bo'lmaydi. Sababi, tadqiqotchining erishgan dalillari ba'zi boshqa izlanuvchilarni shubhaga tushirishi mumkin. Bu shubha izlanuvchini sarosimaga olib keladi. Shu sababli tadqiqotchi o'zi erishgan dalilni oxirgi nuqta deb bilmasligi kerak. Oldindagi qarama-qarshiliklarga ruhan tayyor turishi, matonatli bo'lish talab etiladi. Dalillar turli jarayonlardan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng, natijasi ko'rindi. U o'zini amaliyotda tasdiqlasa, bu dalilning kelajagi porloqdir.

Dalil sub'ekt va ob'ektning faolligi natijasi sifatida

Ilmiy ijod jarayoni sub'ekt(ega) va ob'ekt(narsa) faoliyatiga bog'liq. Sub'ekt va ob'ekt dalilning ikki qanotidir.

Sub'ekt va ob'ekt ham falsafiy kategoriyalardir. Sub'ekt – bu ob'ektiv olamdag'i narsa va hodisalarining mohiyatini bilish va ularni nisbatan o'zgartirishga ta'sir etadigan faoliyat egasidir. Ob'ekt – bu sub'ektning izlanish manbai bo'lib, sub'ektga bilim beradigan voqelikdir.

Sub'ekt deganda, ko'proq shaxs, inson faoliyati tushuniladi. Shu bilan birga ilmiy izlanishda ishtirok etadigan zamonaviy texnik vositalarni ham, insonning o'zini ham sub'ekt qatoriga kiritish mumkin. Asosiy sub'ekt boshqa jonli mavjudotdan o'zining amaliy faoliyati bilan farq qiladi.

U voqelikni bilibgina qolmaydi, balki uni nisbatan o'zgartiradi. Tabiat va jamiyat bilan o'zaro muloqotda bo'ladi. Ushbu jarayonda sub'ekt faol,

ob'ekt esa passivdir. Xuddi shu faollik insonni sub'ektga aylantiradi va sub'ekt tabiiy hamda sun'iy vositalar yordamida tabiat, jamiyat hodisalariga, narsa hamda jarayonlarga, ya'ni o'z faoliyatining ob'ektiga ta'sirini o'tkazadi. Bu esa ilmiy dalil to'plashning muhim jihatlaridir. Sub'ekt faoliyati haqida I. Kant, I. G. Fixte, G. Gegellar to'xtalib, uning faolligini ko'p marotaba ta'kidlaganlar. Ob'ekt faoliyatini o'zgartirish sub'ektga bog'liqligini isbotlashga harakat qilganlar. Ob'ektni tadqiq qilish sub'ektning ongiga, tafakkuriga joizdir, deb tushuntirganlar. Ongning faolligi ob'ektga nisbatan birlamchidir. Sub'ekt tadqiqot jarayonida dalillar asosida ish yuritib ob'ektga nisbatan amaliy, hissiy, moddiy jihatdan ta'sir ko'rsatadi, uni o'zgartiradi.

Har bir ob'ektda dalillar alohida-alohida bo'lishi mumkin. Ob'ekt o'z faoliyatida jiddiy e'tibor berishni talab etadi. Bunda sub'ekt ob'ektga nisbatan aniq yondashadi. Ya'ni, tabiat va jamiyat hodisalarini inson(sub'ekt) o'z hayotiga yaroqli shaklda o'zlashtirib olish uchun turli vositalardan, qo'l va oyoq, ong va ko'z, qulqoq va hid bilish organlari, harakat hamda boshqa jarayonlardan foydalanadi, ularni ishga soladi. Shu sababli sub'ekt ob'ektga nisbatan tubdan farq qiladi. Demak, sub'ektning faoliyati tadqiqot dalillariga nisbatan ham ta'sirchandir. Sub'ektning faoliyati ob'ektga nisbatan payqab olgan qonuniyatlarga ham bog'liqdir.

Sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'siri dalilning zaruriy tomonlaridir. Ta'kidlash lozimki, sub'ekt ob'ektning o'rni, aloqalari, munosabatlari, qonuniyatlari haqida tegishli bilimga ega bo'lmasa dalil to'play olmaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, yakkalangan ayirim shaxs olamni bilish va o'zgartirishga qaratilgan faoliyatning sub'ekti bo'la olmaydi. Shaxs jamiyat yaratgan mehnat quollaridan, tildan, jamg'arilgan bilimlardan, manbalardan foydalanganligi uchun sub'ekt bo'lib qoladi. Binobarin, doimo ma'lum bir ishlab chiqarish usuliga, ma'naviy - madaniy taraqqiyotning ma'lum sub'ekti sifatida maydonga chiqishi mumkin. Unutmaslik kerakki, dalillar egasi bo'lgan sub'ekt va ob'ekt qarama-qarshi tomonlarni tashkil etadi. Qarama-qarshi tomonlar dalilning ichki va tashqi tomonidir,

dialektikasidir. Dalillar o'z faoliyati paydo bo'lishi bilan ham qarama-qarshi fikrlar majmuasidan iboratdir.

Qarama-qarshi tomonlar hal etilsa, sub'ekt tomonidan dalillarga erishiladi. Sub'ektning ijodiy harakatining natijasi dalillarning paydo bo'lishidir. Sub'ekt va ob'ekt hodisa va narsalar umumiylar harakatining, tomonlarining bir qismidir. Narsalar sub'ektsiz, jonsiz tabiatlidir. Tabiat va jamiyatni o'zgartirish sub'ekt dalillariga bog'liqdir. Ma'lumki, jamiyat o'z qonunlariga muvofiq rivojlanadi. Unga: ongga, irodaga ega bo'lgan, o'z oldiga dalillar to'playdigan insonlar kiradi. Ba'zi ob'ektlarda esa iroda ham, ong ham, maqsad ham yo'q. Demak, sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasida ziddiyatlar dalillar asosida hal etiladi, bartaraf qilinadi. Natijada ob'ektlar ilmiy izlanish, ijod jarayonida sub'ekt faoliyatining dalil to'plash qurollariga aylanadilar. Shu asosda sub'ekt faoliyatiga kirib boradi. Demak, sub'ekt va ob'ekt ilmiy izlanish, dalil to'plash jarayonida diplomatik munosabatni tashkil etadilar.

Sub'ektning (insonning) yordamchilarisiz hozirgi zamonni tasavvur qilish qiyin. Insonning yordamchilarini esa sun'iy jihozlar, komp'yuterlar, hisoblash mashinalari, turli moslamalar, asbob uskunalar tashkil etadi. Ikkinchidan, inson faoliyatining mahsullari ob'ektlar sifatida ular bilan inson o'zaro ta'sirga kirishishi yordamida muhim dalillarni paydo qiladi. Oxir oqibat esa sub'ekt ob'ektni dalillar asosida o'zgartirib, o'zlashtirib oladi, o'z maqsadlariga muvofiqlashtiradi. Shu bilan birga sub'ektning o'zi ham bilim bilan boyiydi, nisbatan dunyoqarashini o'zgartiradi. Yangi maqsadlarni topadi va uni bajarish uchun yangi dalillar izlaydi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

dalil, haqiqat, sub'ekt, ob'ekt, dalil turlari, faraz, ilmiy dalil, dalil to'plash va ilmiy ijod, sub'ekt-ob'ekt faolligi, to'liq dalil, yolg'on dalil, dalil vazifalari.

Mavzuga oid savollar:

1. Ilmiy tadqiqot va ijod tizimida dalil nimalarni ifodalaydi?
2. Dalilda sub'ekt va ob'ekt qanday vazifani bajaradi?
3. Dalil falsafiy kategoriya sifatida nimalarni izohlaydi?

VIII bob. Tajriba ijod jarayonidagi dalillash usuli sifatida. Iqtisodiyotda tajriba

Tajriba - bilish usuli. Tajribaning bilish va ijoddagi o'rni

Eksperiment so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, uning tarjimasi sinov, tajriba, isbot degan ma'nolarni anglatadi. Shu sababli, biz ba'zi adabiyotlardagi chalkashliklarni e'tiborga olib, eksperiment so'zini aynan tarjimasi «tajriba» so'zidan foydalanamiz. Sababi ko'pgina mualliflar «tajriba» bilan «eksperiment» so'zi mohiyatini alohida-alohida tushuntirishga **harakat** qilib, so'zning tarjimasini buzib talqin qiladilar. Bu esa tushunchaning mazmun va mohiyatini aniqroq tasavvur qilishni qiyinlashtiradi.

Tajriba bu – narsa va hodisalarning mohiyatini ochish sharoitida qaytadan hosil qilish va kuzatishga imkon beradigan jarayondir.

Tajribada narsa va hodisalarning xilma-xil sharoitlarda tadqiq qilish, uni ayni bir holatda va boshqa turli holatlarda istagancha takrorlash, ayrim bo'laklarga bo'lish mumkin. Ba'zi ilmiy ijodda aynan bu jarayon amalga oshirilmasa, natija olish murakkab kechadi. Demak, tajribaning xususiyati ham murakkab. U ko'p mehnat, vaqt, shijoat, tafakkur jarayonlarini talab etadi. Ammo, tajriba insonning ob'ektiga moddiy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish quroli bo'lgani uchun ilmiy ijodda natija olishni tezlashtirishi, olingan natijalarning haqiqiyligiga kafolat bo'la olishi mumkin. Shu sababli ham aytish mumkinki, ilmiy ijodda qo'llaniladigan boshqa usullardan farq qiladigan eng muhim usullardan biri bu - tajribadir. Tajriba ham inson faoliyati natijasida kelib chiqqan. Ushbu uslub ko'proq tabiat hodisalarini kuzatish natijasida rivojlanadi. Tajriba qadim zamonlardan boshlab ma'lum bo'lsa-da, asosan yangi davrga kelib usul sifatida shakllandi. Uning paydo bo'lishida U. Gilbert, F. Bekonlarni xizmati kattadir. Bu olimlar tajribaning yo'nalishlarini aniqlab bergen. Umuman, tajriba haqida, uning mohiyatini tushuntirish uchun turli falsafiy oqimlar paydo bo'lgan. Empirizm, ratsionalizm, irratsionalizm shular jumlasidandir.

Empirizm oqimi vakillarining fikricha, faqat tajribaga asoslangan, sezgilar bergen bilimgina ob'ektiv olam narsa va hodisalari haqida to'g'ri ta'savvur

beradi. Ratsionalistlarning fikricha, haqiqiy bilish va ijodning yagona manbai - inson aqli, nazariy tafakkuridir. Bularning takidlashicha, haqiqatni bilishda sezgi ma'lumotlariga aslo asoslanmaslik kerak. Sezgilar voqelikdagi narsa va hodisalarning mazmun va mohiyatini buzib ko'rsatadi. Voqelik haqida yolg'on tasavvurlarni paydo qiladi. Ko'rinish turibdiki, bu ikkala oqim bilish jarayonidagi mazkur muhim talablarni alohida-alohida bo'rttirib talqin qiladi. Aslida esa izlanishda, bilish jarayonidagi ular bahs yuritishayotgan ikkala yo'nalishni ham unutmaslik lozim. Tajriba jarayonida ikkala jarayon ham muhimdir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Yuqorida ta'kidlanganidek, empirizm deb ataluvchi oqim, ijod jarayonining mohiyatini tajriba doirasi bilan cheklab qo'yadilar va sezgilar faoliyatini mubolag' alashtiradilar-da aql-farosatni kamsitadilar. Ratsionalistlar esa aksincha, tafakkur rolini bo'rttirib, sezgilarning ijod jarayonidagi ahamiyatini kamaytiradilar. Holbuki, ijodda tajriba, kuzatish faol ishtirok etishini nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Kashfiyotlar tajriba va amaliy faoliyat asosida yuzaga keladi, chunki kashfiyotlar tajriba orqali tekshiriladi, aniqlanadi, haqiqatga aylantiriladi. Ilmiy ijoddagi natija aniq tajribalar asosida shakllanadi. Demak, ilmiy ijodda ob'ektiv narsa va hodisalarning yangi xossa hamda xususiyatlarini aniqlash tajriba asosida amalga oshadi. Shu sababli ham ilmiy ijodda tajribaning tutgan o'rni beqiyosdir. Tajriba esa kuzatishlar bilan mustahkam aloqadadir. Ularni bir-birisiz tasavvur qilish mumkin emas. Tajriba kuzatishlar orqali amalga oshiriladi. Tajribaning muhim unsuri bo'lган kuzatish haqida faylasuf Omonulla Fayzullaev o'zining «Falsafa va fanlar metodologiyasi» asarida quyidagi mulohazalarni bildiradi:

“Al-Farg'oniy ham olamdagи voqealarni o'rganishni kuzatishdan boshlagan: 1) Nil daryosida oqayotgan suvning hajmi, tezligi va balandligini kuzatib Nil o'lchagich asbobini ixtiro qilgan. Bu ilmiy natija Misr davlati va xalqiga ancha iqtisodiy yordam berdi. Qishloq xo'jaligi ahli al-Farg'oniyning o'zi tuzgan yil kalendarida bu o'lchagich ko'rsatmalariga amal qilib, ko'p ishlar rejalashtirildi. Davlat soliq tizimini joriy etish ancha osonlashdi. Dehqonlar soliqni kamroq to'laydigan bo'ldi; 2) Quyosh va Er harakatlari

munosabatlarini kuzatish natijasida Er shari sirtidagi geografik kenglama va uzunlama koordinatalariga qarab, ularni kuzatib, yoz, kuz, qish, bahor fasllari va Quyosh ko'rinishlari qonuniyatini aniqlagan.

Abu Nasr Forobiy Er yuzidagi davlatlar xususiyatlarini o'rganib, kuzatib, adolatli davlat yaratish masalasini ko'targan, Ptolemy tizimida kuzatishdan shakllangan nazariyaga o'tishda yangi fikrlar aytgan, geometrik algebraga asos solgan. Forobiyning fikricha, kuzatish asbob-uskunalar orqali amalga oshiriladi. Asbob esa, tabiiy va sun'iy bo'lishi mumkin. Tabiiylari ko'z, qulq, sezgi organlari, sun'iylari - odam yasaydigan asboblar, jumladan musiqa asboblari.

Beruniyning «Osor al-Boqiya», «Hindiston tarixi» asarlari ilmiy kuzatishlar va ularni mushohada qilish natijasida paydo bo'lgan. U toshlar holatlarini kuzatib mineralogiya fanini, Er sirtining past-balandligini kuzatib geodeziya fanini yaratdi. Beruniyning fikricha, bevosita ob'ektiv kuzatish natijasi haqidagi axborotlarda sub'ektiv fikr aytilishi mumkin.

Ibn Sino fikricha, sezgi narsani to'la bilolmaydi, faqat tafakkur to'la bilishi mumkin. Tafakkur narsaning o'zi qanday bo'lsa, o'shanday bilib olishi kerak, undan ortig'i kerak emas. Ko'z ko'rganda narsaning rangidan tashqari uzunligi, bo'yli, eni, shakli, shuningdek, harakatdami yoki jim turibdimi, buni ham bilib oladi. Ba'zi sezgi organlari qattik, yumshoq, hid, tovushlarni payqaydi. Sezish o'zgaruvchanlikni, tafakkur o'zgarmas bog'lanishlarni belgilab beradi. Sezish aktsidentsiyalarini, tafakkur substantsiyani bilishda xizmat qiladi. Nimaniki bilmoxchi bo'lsak, bilingani yordamida amalga oshadi, deydi Ibn Sino.

Ibn Sino ta'kidlaydiki, odam sezgi organlari o'zlarini kuzata olmaydilar, Masalan, ko'z o'zini kuzatmaydi (bu, albatta oyna ixtiro etilguncha). U boshqa narsalarni ko'rish vositasidir.

Kasalni davolash kuzatishdan boshlanadi, deydi Ibn Sino. Diagnostika shunga bog'liq. Kasallarning mijozlarini surishtirib, shu asosida davolashga o'tish Sharq tibbiyotining asosiy tamoyillardan bo'lgan. Shu asosida Ibn Sino xirurgiya, terapiya, nerv tizimi, ichki kasalliklar tibbiyotning boshqa sohalaridagi kashfiyotlarni ro'yobga chiqarishga tuyassar bo'ldi.

Nihoyat, Ibn Sino kasallik va uni tuzatish sohasidagi ilmiy fikrlarini qonun darajasiga ko'tardi. Darhaqiqat, uning 10 jildlik kitobining nomi ham «Meditina qonuniyati» deb ataladi.

Ulug'bek jahonda teleskopgacha bo'lgan astronomiyaning buyuk olimi, ko'p nazariy kashfiyotlar qilgan. Gap shundaki, ularning hammasi ilmiy kuzatishdan, ilmiy eksperimentdan boshlangan. Kuzatish deganda, oddiy ko'z bilan yoki mikroskop va texnika bilan tabiiy yoki jamoa jarayonlarini ko'rib borish tushunilishi mumkin. Lekin, laboratoriya yoki observatoriya sharoitidagi kuzatish – bu eksperimentdir.

Ulug'bek Quyosh, planetalar, yulduzlarni o'zi qurdirgan Samarqand astronomiya observatoriyasidagi o'sha zamon ilmiy asboblari yordamida olib bordi. Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin al-Koshiy, Ali Qushchi va boshqa taniqli astronomlar hamda shogirdlar bu ishlarni tadrijiy ravishda bajardilar.

Ulug'bek ilmiy ijodining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ilmiy ishlarini voqealarni kuzatishdangina emas, balki oldin o'tgan olimlarning kuzatish natijalarini o'rganib ularni tanqid qilishdan boshladi. Bor kuzatuv xulosalarini to'qqa va puchga ajrata oldi. Uning yana bir xususiyati shuki, osmon jismlarini kuzatish uchun observatoriya qurish zarurligini payqab, uning konstruktsiyasini fikran eksperiment yordamida aniqladi, osmon meridiani va quyosh ekliptikasi o'rinalarini aniqladi, koordinata sistemasi barcha elementlarini fikran va amalda o'rnatdi. Observatoriya ishga tushdi.

Kuzatish ob'ektlari – Quyosh, Oy, planetalar va yulduzlar, sub'ektlari Ulug'bek va boshqa kuzatuvchilar, kuzatish vositasi – sekstant. Ularning hammasi birgalikda kuzatish tizimini tashkil qildilar.

Ulug'bek kuzatishlari tabiiy hodisalarni odam tomonidan yaratilgan jahonda dastlabki mukammal sun'iy inshootlar orqali fandagi in'ikosidir.

Kuzatishdan boshlab nazariy mavqegacha etmagan usulni goho empirik usul ham deb yuritildi. Uning ma'nosi shuki, nazariy jihatdan bayon etilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni eksperiment yordamida qonunlashtirish. Tajriba yo'li bilan aniqlanadigan voqealar. Ko'p faktorli hodisalarning

me'yori bo'lgan optimal parametrlar bo'yicha bog'lanishlarni tajribaviy tadqiq qilish.

Empirik usul quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: a) bevosita, yuzaki ifodalash. Tarixiy voqealarni, hodisalarini, esdaliklarni dastlabki mantiqiy bayon etish. Botanika, arxeologiya moddiy faktlarini dastlabki o'rganish; b) grafik usul - sodda va oson. Parametrlar orasidagi munosabatlarni yaqqol ko'rsatadi; v) ekstra - intrapolyatsiya usuli eksperiment yordamida hosil bo'lgan sonlar va raqamlarni qayta ishlaydi. Analitik va kelgusidagi voqealarni oldindan bilishda ishlatiladi. Ko'pincha eksperiment qilish imkoniyati yo'q hollarda ham ishlatiladi”¹.

Ijod jarayonidagi barcha yangiliklar tajriba va kuzatishga bog'liq. U ijodiy faoliyatni mantiqan ifoda etadi. Uning haqiqiy-ligini ta'minlaydi.

Tajribaning turlari

Tajriba o'tkazish ijodkordan katta mas'uliyat va mehnatni talab qiladi. Uni o'tkazish uchun maxsus tayyorgarliklar ko'rildi va taxminan quyidagilar zarur:

1. Tajriba o'tkazuvchining o'zi yoki maxsus tadqiqotchilar guruhi.
2. Tajriba o'tkazadigan maxsus qurilmaga ega bo'lgan joy (labaratoriya).
3. Tajriba o'tkazish uchun olingan ob'ekt, narsa yoki hodisalar.
4. Tajriba o'tkazuvchi yoki o'tkazuvchilarga yordam beradigan texnik vositalar (Bular tajriba xususiyatiga qarab tanlanadi): mikroskop, teleskop, kompyuter, elektron hisoblagichlar va boshqalar.
5. Tajriba o'tkaziladigan vaqtini belgilash. Tajriba o'tkazish davomida tasodifiy hodisalarning oldini olish choralarini ko'rish va boshqalar.

Tajriba o'tkazishda tadqiqotchi markaziy shaxs “bosh qahramon” hisoblanadi. Sababi u tajriba uchun javobgardir. Tajriba davomida tadqiqotchi barcha ma'lumotlarni bo'yniga oladi. Kerak bo'lganda o'z jonini ham ayamaydilar. Masalan, fanlar tarixidan ma'lumki, buyuk olimlar Mariya Kyuri, Per Kyurilar radioaktivlik sohasini o'rganishda o'ta xavfli tajribalarni

¹ O.Fayzullaev. Falsafa va fanlar metodologiyasi. T., 2006 y. 41-43 betlar.

o'tkazganlar. Falokatni bilsalar ham o'z hayotlarini xavf ostida qoldirsalarda, tajribani o'tkazganlar yoki rus olimi iqtisodchi, faylasuf, siyosat arbobi, tabiatshunos A.A. Bogdanov (Dunyoda birinchi qon qo'yish inistitutini tashkil qilgan) qon quyishni o'zida tajriba qilib o'tkazish paytida vafot etgan. Bu kabi holatlar fan tarixida ko'plab uchraydiki, bu tadqiqotchilarning beg'araz faoliyatlaridan darak beradi.

Tajriba u yoki bu narsa va hodisa ustida faqat bir marta o'tkazilib qolinmaydi. Tajriba ko'p martalab o'tkaziladi. U shundagina haqiqatga aylanadi. Tadqiqotchining faoliyatini o'zi haqiqatni topishga qaratilgan bo'ladi. Tajriba bunga yordamlashadi. Shu jihatdan bo'lsa kerak, ko'pgina olimlar tajriba usulini boshqa usullardan ustun qo'yadilar. Masalan: Karl Popper (1902-1994) ta'limotida tajribani («Ilmiy kashfiyat mantiqi» asarida) boshqa usullardan (jumladan induktiv usul) ustun qo'yadi. Uning fikricha, farazlarni hammasini tekshirishdan, tajribadan o'tkazish lozim. Tajribadan o'tkazilmagan tadqiqotlar insonlarni turli tomonlarga chalg'itaveradi.

Tajriba o'tkazish ob'ektiv xususiyatiga qarab tajriba turlarini tanlashni taqozo etadi. Olinadigan natijalarning kelajagi ham tanlangan tajriba usuliga bog'liq. Shu sababli tajriba turlari ham tadqiqotda katta ahamiyat kasb etadi.

Tajribaning turlari sifatida quyidagilar hisobga olinadi:

1. Tabiiy tajriba;
2. Fikriy tajriba;
3. Real tajriba;
4. Ideal tajriba;
5. Paralel tajriba;
6. Modelli tajriba va boshqalar.

Ma'lumki, rus olimlaridan I. M. Sechenov, I. P. Pavlov larning bosh miya faoliyatları haqida olib borgan tajribalari tabiiy tajribalardir. Ular insonning bosh miyasi orqali organizimda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini, aynan oshqozon tuzilishidagi o'zgarishlarni tabiiy tajriba asosida tushuntirib beradilar. Ikkala olim ham hayvonlarda olib borgan tajribalari orqali reflekslar jarayonini ilmiy asoslaganlar.

Ilmiy tadqiqotda shunday jarayonlar borki, ularni o'tkazish uchun juda ko'p mablag', xarajatlar misli ko'rilmagan harakatlar talab qilinadi. Demak, bunday sharoitda ob'ekt bilan bevosita munosabatda bo'lishning imkoniyati yo'q. Shu sababli tajriba o'tkazishda real yoki nazariy jihatdan ishlangan model ustida tajriba o'tkaziladi. Asosiy ob'ekt model bilan almashtiriladi.

Fikriy tajriba usuli maxsus xarakterga ega bo'lган tajribadir. Ushbu tajriba ko'proq matematika, biologiya, ximiya, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarda ko'p foydalaniladi. Fikriy tajriba shart-sharoitlarni tadqiq etishning maxsus umum ilmiy usulidir. Fikriy tajribada barcha holatlar inson tafakkurida qayta-qayta ishlanadi. Umumiyl holatlar tahlil etiladi. Narsa yoki hodisaning ob'ektivligi haqida xulosalar mantiqan miyada ishlanadi. Bunda aql-farosat muhim ahamiyatga egadir. Boshqa tajribalardagi maqsadlar singari fikriy tajribada ham maqsad tajriba o'tkazilayotgan ob'ekt haqida to'liq ma'lumot olish, uning yangi xossalariini ochish, kashf etishdir.

Ta'kidlash kerakki, bunday tajriba o'tkazishda tadqiqotchingin talanti, tasavvuri, ilmiy farazlari muhim rol o'ynaydi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fanlar jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Ayniqsa, kosmik fanlarning rivojlanishi bunga misol bo'la oladi. Kosmik fanlarda tajriba o'tkazish davr talabidir. Kosmik stantsiyada va er sharoitlarida bir xil voqelik ustida bir vaqtni o'zida olib borilayotgan tajribalar o'tkazilishi **parallel tajribalarga** misol bo'la oladi. Ya'ni, erdag'i holatlarni sun'iy ravishda kosmik fazodagi holatlar bilan solishtirish jarayonida yangi xulosalar olinadi, kashfiyotlar qilinadi. Jumladan, kosmik fazoda turli xil hayvonlarning yashash qobiliyatini o'rganish tajriba bo'lsa, ularni yashashi haqida erda ham tajribalar o'tkaziladi. Ularda bo'ladigan o'zgarishlarning mosligi yoki mos kelmasligi haqida ma'lum bir fikrga kelinadi. Bu parallel o'tkazilgan tajribalar natijasidir. "Ilmiy ijod metodologiyasi" mualliflari iqtisodiy tadqiqotlarda fikriy tajribani asoslash uchun quyidagi fikrlarni o'rta ga tashlaydilar: «Pul miqdoriy nazariyasi iqtisodiy tadqiqotlarda o'tkaziladigan fikriy eksperimentga misol bo'la oladi. Fikriy eksperiment o'tkazib, mazkur jamiyatda ma'lum davrda M o'rtacha

pul miqdori muomalada bo'lishining har xil ijtimoiy-iqtisodiy shartlarini modellashtirib va o'zaro taqqoslab, u quyidagi bog'liqliklarni keltirib chiqaradi:

$$MV=PQ$$

Bu erda: M - pulning o'rtacha miqdori; V-aholining daromadlari aylanmasida pulning muomalada bo'lishi tezligi; R- tovar va xizmatlar narxlarining indeksi; Q- yalpi yoki sof milliy mahsulot jismoniy hajmining ko'rsatkichi. Bu fikriy eksperiment iqtisodda ob'ektning (bu erda ob'ekt - butun jamiyat) M, V, P, Q iqtisodiy o'lchamlari o'rtasidagi muntazam, takrorlanuvchi, qonuniy (aynan-chiziqli) bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi» (89-90 bet).

Ideal tajriba mantiq qonuniyatlariga asoslanib, har xil sharoitlar tashkil qilish yo'li bilan o'rganilayotgan hodisani tushunishdir. U turli murakkab holatlarda hodisani bir-biridan ajratish va shu hodisani «sof ko'rinishda» o'rganish imkonini beradi. Natijada o'ziga xos yangi bilim olinadi va qonuniyatlar aniqlanadi.

Tajribaning iqtisodiy bilish va ijoddagi o'rni

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, hozirgi zamon fanlarining ko'pchiligi tajriba usulidan foydalanib, o'z mavzularini ilmiy kashfiyotlar bilan boyitmoqdalar.

Bundan iqtisodiy sohadagi fanlar istisno emas. Iqtisodiy fanlar ham ilmiy tajribadan foydalanib uning elementlariga e'tiborni qaratadilar. Bu elementlar: ob'ektning rivojiga halaqit beradigan omillardan xalos bo'lish, kerakli hodisani turli sun'iy yoki zaruriy vositalar yordamida vazifani amalga oshirmoq kabilar. Ilmiy tajribada pribor – asbob-uskunalarining o'rni oshib bormoqda. Ular orqali statistik ma'lumotlar qisqa muddatlarda qayta ishlanib ilmiy muloqotga olib kirilmoqda. Ayni paytda, iqtisodiy nazariyalar ko'p hollarda statistikaga ham suyangan holda ishlab chiqiladi.

Iqtisodiy tajriba o'tkazish ham boshqa fanlardagi singari, tarixiy jarayonlarni hisobga olgan holda olib boriladi. Olib boriladigan tajribalar tasodifiy emas, balki zaruratdan kelib chiqqandir. Iqtisoddagi ilmiy tajriba o'zidan oldingi o'tkazilgan tajribalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi. Bu

erda vorisiylik holati mavjuddir. Vorisiylik bo'lmasa edi, insoniyat hozirgi yutuqlarga erishmagan bo'lar edi. Jamiyat taraqqiyoti hozirgi holatda bo'lmas edi. Jamiyat murakkab xususiyatlarni o'zida mujaccamlashtirgan «biologik» jarayondir. Biologik jarayondagi faoliyat turli vazifalarni bajargani uchun organizmlik xususiyatini yo'qotmaydi. Jamiyat ham shu kabitdir. Jamiyatni ushlab turadigan, uni rivojlantiradigan «organ» bu iqtisoddir. Iqtisod so'zini muloqotga olib kirgan olim Arastu bo'lib, Arastu davridan boshlab u to'g'risida bosh qotirib keladilar. Iqtisodning so'zmaso'z tarjimasi, ro'zg'or yuritish sa'nati ma'nosini anglatadi. **Iqtisod tom ma'noda insonlarning tovar ishlab chiqarish, ayirkoshlash va taqsimlash borasidagi xo'jalik faoliyatini o'r ganuvchi sohadir.**

Nemis sotsiolog olimlaridan **Georg Zimmel** (1858-1918) «Ijtimoiy tabaqlanish to'g'risida» hamda «Pul falsafasi» asarlarini yozib qoldirgan. «Pul falsafasi» asarida jamiyat taraqqiyotida pulning o'rnini ko'rsatib berar ekan, zamonaviy hayotda fikriy tajribaning o'rnini mukammalashtirib tushuntiradi. U ushbu holatni «maqsad-vosita» so'zlari orqali ifodalaydi. Ijtimoiy munosabatlarda pul xarajati mohiyatini oolib beradi. Demak, pul iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchidir.

Iqtisodiy tajribalar asosida **Jon Meynard Keyns** XX asr boshlaridagi iqtisodiy krizislarni tahlildan o'tkazib «Bandlik foiz va pul umumiylari nazariyasi» nomli asarida iqtisodiy hayotga davlatning faol aralashuvi orqali iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun bozor iqtisodiyotini safarbar etish yo'llarini taklif etgan. Uning fikricha, davlat iste'mol va investitsiyalarni – hatto sun'iy yo'l bilan bo'lsa ham rag'batlantirishi kerak. Odamlar mahsulotlarni sotib olishi va pullarini sarflashlari lozim, shunda talab ishlab chiqarishning o'sishiga, bu esa o'z navbatida ishsizlikning kamayishiga olib keladi. Bu g'oyalalar iqtisodiy tajriba bo'ldi. Bu tajribani Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti F.D. Ruzvelt XX asrning 30-40 - yillarida ro'yobga chiqarib, Amerikani inqirozdan olib chiqdi.

Hozirgi zamon iqtisodchi olimlaridan biri **Fridrik Fon Xayek** boshqacharoq g'oyalarni o'rtaga tashladi. Uning g'oyasi bo'yicha davlat iqtisodni nazorat qilishdan mutlaqo bosh tortishi, bozor munosabatlarining

ishiga aralashmasligi kerak. Bozor munosabatlarida mustaqil qarorlar qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. Huquqiy javobgarlikni tadbirkor yoki biznesmenga berish kerak. Iqtisodiy tajribaning mohiyati shundadir. Mazkur iqtisodiy tajriba asosida tadbirkorning tahlili, uning his-tuyg'usi, irodasi, bilim va malaka ko'nikmalari, yutuqlarga erishish ishonchi yotadi. Binobarin, bozor munosabatlarida tadbirkor o'z ishini o'z manfaatidan kelib chiqib yuritadi. Albatta, u zarar ko'rishni istamaydi. Aks holda, bankrotga uchraydi. Shu sababli, u kerakli ma'lumotlarga e'tiborni qaratadi, o'z bilimi, malakasini, qobiliyatini ishga soladi. Raqobatda g'olib chiqishni, ravnaq topishni ko'zlaydi. Bu esa boshqa tadbirkorlar faoliyati uchun amaliy tajriba maydonidir.

Iqtisodiy tajribada mahsulotlarning qiymatini hisoblashda pragmatik (harakat) yondashuv yaxshi natija beradi. Qiymat - bu qarama- qarshiliklar birligidan tashkil topadi. Sotuvchi bilan oluvchi o'rtasida hamisha tafovut bor. Shu sababli ham mahsulot qiymati tajriba mohiyatiga bog'liq.

Iqtisodiy tajribalardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi o'zining tajriba tamoyillariga ega bo'ldi. Bu tajribaning ijobiy natijalar berayotganligi bizga ma'lum. Bu tajriba ijodkori I.A.Karimovdir. I.A.Karimov, Oliy majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida quyidagi iqtisodiy tajribaga taalluqli bo'lgan mulohazalarni o'rtaga tashladi: «O'tgan davrda hayotning muhim tomonlarini erkinlashtirishning qonunchilik negizini mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari sohasida zarur kafolatlarni muvofiq ravishda ta'minlash, davlat tizimini demokratlashtirish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, shaxsiy mulkni va tadbirkorlarning manfaatlarini, o'rta va kichik biznesni himoya qilish bo'yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirildi» («Xalq so'zi», 2002 yil, 30 avgust). O'zbekistonda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga asta-sekin, bosqichma-bosqich, tadrijiy yo'l bilan o'tkazish bo'yicha iqtisodiy tajriba inson ehtiyojini qondirishga qaratilgan tajribadir. Jamiyatda yashovchi kishilarning turmush tarzini ko'tarishga yo'naltirilgan sinovdir. Iqtisodiy tajribalar va iqtisodiy islohotlar maxsus tizimi, maxsus unsurlardan tashkil topadi. Bular quyidagilardir:

1. Fermer xo'jaliklarini tashkil etish va ularning faoliyatini hisobga olish; 2. Ishlab chiqarish korxonalarini xususiy lashtirish; 3. Og'ir va engil sanoat talab va takliflarini inobatga olish, ularning istiqbollarini hisobga olish; 4. Islohotlar natijalarini hisob-kitob qilib borish va xulosalar chiqarish; 5. Iqtisodiyotni ko'tarish uchun izchil harakat qilayotgan korxonalarning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan banklar faoliyatini hisobga olish; 6. Iqtisodiyotni rivojlantirishga muhim hissa qo'shadigan sarmoyalarni (chet-el) jalb etish va qo'shma korxonalar tashkil etishdagi faoliyatlarni unutmaslik; 7. Aktsiyadorlik jarayonlariga e'tiborni qaratish; 8. O'z mamlakati aholisi talab va ehtiyojlarini unutmagan holda dunyo bozoriga chiqish sohalari kabilar.

Bularni biz iqtisodiy tajribalarning unsurlari desakda, ularning har biri o'z o'rnidida tajriba uchun qimmatli bo'lgan mustaqil sohalardir.

Bu sohalarning barchasi har bir iqtisodiyot sohasida izlanayotganlardan ma'lum bilimni talab etadi. Iqtisodiyot sohasidagi bilim o'ta muhim bo'lib, insonning turmush tarzi, ijtimoiy faoliyati bilan bog'langan. Bilish insonlarning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyatlarini qamrab oladi. Bilish jarayonida amaliyot birinchi o'ringa chiqadi. Natijada amaliyot ta'sirida iqtisodiy sohalarda yangiliklar miqdori oshib boradi. Iqtisodiy sohalarni inson ongida to'g'ri aks etishi ziddiyatlarning oldini olishga yordam beradi. Iqtisodiy nazariya bilan amaliyotning birligini tushunish ham tadqiqotchining bilimga bog'liq. Bilimlar tajribada, amaliyot asosida tekshirilgan taqdirdagina ob'ektiv haqiqatga aylanadi. Tadqiqotchi iqtisodiyotni o'z bilimi va ma'lum sohada tajriba o'tkazish bilan baholaydi, uning rivojini ifodalaydigan takliflarni beradi. O'z tajribasi bilan iqtisodiy sohalarni faqat bilibgina qolmasdan, ularni o'zgartirish choralarini ham belgilaydi. Iqtisodiy sohalarda bilimning yuzaga kelishi va rivojlanishining barcha jarayonlari insonlarning aniq tarixiy-ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyatları asosida amalga oshadi. Iqtisodiy bilimlar insonlar faoliyatining ajralmas qismidir. Insonlarda iqtisodiy tushunchalarning paydo bo'lishi iqtisodiy bilishga, tajribaga bog'liq. Iqtisodiy bilim va nazariyalar boshqa sohalarda bo'lgani kabi insonlarning amaliy faoliyatida tajribalar yordamida

tasdiqlanganda turmush tarzidan o'rin oladi. Iqtisodiy bilimlar taraqqiyotining sababi - insonlar faoliyatidir. Insonlar iqtisodiy amaliyotdan kelib chiqib, o'z bilimlarini boyitadilar. Natijada bilimlar takomillashadi, yangi tushunchalar paydo bo'ladi, nazariyalar yaratiladi, kashfiyotlar bo'ladi. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochiladi.

Iqtisodiy tajriba tadqiqotchidan yuksak mas'uliyatni bo'yning olishni talab etadi. Chunki uning faoliyati jamiyatda yashovchi insonlar turmush tarzini aks ettirish bilan bog'liq. Shu sababli, iqtisodiy tajriba o'tkazuvchidan halollik va vijdonlilik, xolislik talab qilinadi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Tajriba, iqtisodiyot, jamiyat, bilim, aqliy faoliyat, iqtisodiy tajriba turlari, mas'uliyat, ishlab chiqarish usuli, iqtisodiy tajriba, empirik va ratsionallik, amaliyat.

Mavzuga doir savollar:

1. Tajribada bilish usuli. Tajribani bilish va ijoddagi o'rni nimada?
2. Tajribaning turlarini tushuntiring.
3. Tajribaning iqtisodiy bilish va ijoddagi o'rni qanday bo'ladi?

IX bob. Farazning (gipoteza) fan va ijoddagi xususiyatlari. Farazning nazariyalar tuzishdagi o'rni Faraz tushunchasining mohiyati

Farazda hisobga olingan taxminlarni tasdiqlash juda katta mehnatni talab etadi. Farazda har tomonlamalik mavjud. Demak, har tomonning o'zi ko'plab izlanishlarga majbur qiladi.

Faraz – bilish uchun ob'ekt va sub'ektning holati, rivojlanishi, voqelikdagi o'rni haqida u yoki bu fikrning taxmin qilinishidir.

Faraz bilish jarayonida turlicha xususiyatlarini namoyish qiladi. Chunki, biror-bir narsa yoki hodisa haqida har xil fikrlarni bildirish mumkin. Sababi, uning barcha holatlarini bir paytning o'zida zamonda ham, makonda ham qamrab olish qiyin. Uning bo'laklari haqida alohida-alohida fikr yuritish talab qilinadi. Binobarin, faraz ana shu alohida-alohidalikdan kelib chiqib turli holatlar haqida paydo bo'ladi. Narsa yoki hodisalarning xususiyatiga qarab bir necha farazlar paydo bo'ladi.

Faraz qilinishi umumiy bilim va dalillarga, narsa va hodisalarning rivojlanish qonuniyatlariga zid kelmasligi lozim. Farazlar oddiy yoki murakkab jarayonlarni qamrab olishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, ko'proq ob'ektiga nisbatan yaqinroq, uning ichki va tashqi xususiyatlaridan uzoqlashmasligi talab etiladi. Ushbu xususiyatlar hisobga olinganda narsa va hodisani tadqiq etishda farazning o'rni ahamiyatli bo'ladi. Shu jarayonda farazning hayotiyligi uchun zarur bo'lgan holatlarni hisobga olish kerak. Jumladan, faraz ma'lum ob'ektga mos tushadigan mazmun va mohiyatga ega bo'lgan holda fikr qilinishi; tadqiq qilinayotgan narsa yoki hodisaning ma'lum bir qismiga nisbatan farazlanishi; ilmiy, umuman bilish jarayoniga zid kelmasligi (haqiqatga); tekshirish yoki tafakkurlash jarayonida murakkab holatlardan xoli bo'lishi; faraz qiluvchi ilmiy ijoddan xabardorligi, bashorat qilish, o'z fikrlarini asoslash qobiliyatiga ega bo'lishi kabilar.

Faraz taraqqiyotida ushbu ko'rsatilgan xislatlar hisobga olinganda ijodiy faoliyat samarali bo'ladi. O'z navbatida, mazkur ko'rsatilgan jarayonlarni hisobga olmaslik ilmiy ijod jarayonida chalkashlikka olib keladi. Tadqiqot uchun zararli bo'lishi mumkin. Aniq faraz qilish uchun ob'ektivlik va

sub'ektivlikning birlashishi yanada muvaffaqiyat keltiradi. Ular tavsifi mos tushgan holatda natija ko'ngildagidek chiqishi mumkin. Barcha jarayonlarda bo'lgani singari farazda ham oddiylikdan murakkablikka, bilmaslikdan bilishlikka qarab borish, pastdan yuqoriga chiqish talab etiladi. Bu faraz uchun ham umumiylar qoidadir.

Farazda asosiy xususiyat shundan iboratki, unda noma'lumdan ma'lumga, ehtimol tutilgan bilimdan haqiqiy bilimga, nisbiylikdan mutlaqlikka borish yo'li hisobga olinadi. Ilmiy jarayonda faraz, ba'zida, tasavvurga sig'maydigan holatlarni hisobga olib amalga oshirilmasa fan ham taraqqiy qilmaydi. Yangilik yaratilmaydi. Turg'unlik yuz beradi. Farazda taxminiylik, ehtimollik, tasodifiylik, intuitsiya xususiyatlari mujassamlashsa, u yaxshi natija beradi. Tadqiq qilinayotgan narsa va hodisa haqida faqat bitta yoki ikkita faraz kifoya qilmaydi. Qachonki, shu narsa yoki hodisa haqida bir nechta faraz bo'lsa, o'zaro ziddiyatli fikrlar mavjud bo'lsa, qaramaqarshiliklar paydo bo'lsa, o'shanda haqiqiy ijodiy muhit paydo bo'ladi. Ilmiy

bilish uchun sharoit yaratiladi. Bilimlar chegarasi kengayadi. O'zaro zid bo'lgan ilmiy farazlarni ijodiy tahlildan o'tkazish, o'xshashligini aniqlash, haqiqiyligini tekshirish aynan shu tadqiq ob'ektiga nisbatan muhim metodologik xulosani chiqarishga yordam beradi. O'z navbatida metodologik xulosa inson bilimini ob'ektiv ekanligini tasdiqlashga yordam beradi. Hodisalar, narsalar rivojlanishi haqida ob'ektiv bilim olishga ko'maklashadi. Ma'lumki, olim yoki tadqiqotchining maqsadi farazning haqiqiyligini tekshirib berishdir. Tadqiqotchi buning uchun ma'lum malakaga, dalillarga, fikrlash xislatlariga ega bo'lishi talab etiladi. Bu xislatlarga ega bo'lgandagina taqqoslash, g'oyalarni tushunib ilgari surish osonroq kechadi. Natijada yangi ijodiy imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Farazlar to'xtab qolmaydi. Eskisi o'rniga yangisi paydo bo'ladi. Shu tariqa fanning rivojlanishi uchun ham imkoniyat yaratiladi.

Farazlar ilmiy bilishda turlicha xususiyatlarni bajarar ekan, ular bir-biridan farq qiladi. Farazlar ham falsafiy xususiyatga ega bo'lganligi uchun, har bir fanda xususiylik, umumiylar, eng umumiylar xislatlarini namoyon

qiladi. Demak, fanda: a) **xususiy farazlar**, b) **umumiylar farazlar**, v) **falsafiy farazlar** bo'lishi mumkin.

Farazlar qilish namoyon bo'ladigan narsa va hodisalardagi o'zining hajmi va tizimi, holatiga qarab ham farqlanadi. Ko'zga ko'rinxaydigan faraz ob'ektlari, yirik ob'ektlar farazlari, o'ta yirik faraz ob'ektlari, metagallaktika haqidagi farazlar va boshqalar. Bu ob'ektlar haqida tadqiqotchi faraz qilishi uchun, avvalo, u ma'lum tasavvurga, bilimga ega bo'lishi talab etiladi. Masalan, daladagi dehqondan metagallaktika haqida farazni talab qilish yoki bog'cha bolasidan atom zarrasi haqida faraz qilishni talab qilish o'rinsizdir. Xalqimizda «chumchuq so'ysa ham, qassob so'yin» degan hikmat bejiz aytilmagan. Aks holda, aytilgan faraz mevasiz daraxtdir.

Farazlarni faqat qanday makonda tutgan o'rniga qarab emas, balki vaqt nuqtai nazaridan ham yondashib o'rtaga tashlash mumkin.

Ya'ni, tarixiy hodisalarni **o'tmishtga bog'lab faraz qilish; ma'lumotlarga ega bo'limgan holatlarda zamonaviy jarayonlarni hisobga olgan holda farazlar qilish; kelajak narsa va hodisalari haqida farazlar qilish va boshqalar.**

Farazning ilmiy bilish va ilmiy ijoddagi turlicha xususiyatlari yana shunda ko'rinxadiki, narsa va hodisalarning tuzilishi, amaliyotda o'zini namoyon qilishi, qaysi tizimga mos kelishi jihatlarini ham qamrab oladi. Jumladan, **narsa va hodisaning tuzilishi haqida; narsa va hodisalarning maqsad va vazifalari haqida; narsa va hodisalarning bo'lak va xususiyatlari haqida; narsa va hodisalarning umumiylar bog'lanish va aloqadorliklari, munosabatlari haqidagi farazlar.**

Shu bilan bir qatorda, narsa va hodisalarning mazmun va mohiyatini ochish maqsadida ham farazlar qilinadi: **tavsifiylar farazlar, tushuntiruvchi va tushuntiriluvchi farazlar, tizimli farazlar.** Narsa va hodisalarni bayon etish usuliga qarab ham, farazlar qilinadi: **mazmun va mohiyatiga qarab; rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmagan, umuman rasmiylashtirilmagan; modelli farazlar; farazning yana bir xususiyati bu ilmiy ijodning o'rniga qarab ham farqlanadi: badiiylikni rivojlantiradigan farazlar, texnikaviy sohalarni aks ettiradigan farazlar,**

ijtimoiy taraqqiyot farazlari va boshqalar. Demak, farazni evristik yoki turlicha xususiyatlarini hisobga olish insonning, ayniqsa, fanning ilmiylik darajasini oshiradi, olingan bilimlarni mustahkamlaydi.

Farazlar nazariyalar tuzishda deduktiv va induktiv xususiyatlari bilan ko'maklashadi. Inson olamdag'i sir-asrорlarni o'rganar ekan, u bu jarayonda osonroq va qisqa yo'l bilan borishni afzal ko'radi. Shu sababli faraz orqali bilim ham hodisa yoki narsaga shunday yondashishni ma'qul ko'radi. Natijada bir xil ahamiyatga ega bo'lgan farazlardan aniqroq, soddaroq, murakkab bo'limgan, kam xarajat qiladigan, zabit etishni yaqinroq qiladigan farazni tanlab oladi. **Faraz asoslanganidan va uning hayotiyligi isbotlangandan so'ng nazariyaga aylanadi.** Taddiqotchi o'zi tanlab olgan farazga befarq bo'lmaydi, albatta. Uni har tomonlama o'rganadi, sinovdan o'tkazadi, takomillashtiradi, kelajakda mehnati natijasiz ketmasligiga harakat qiladi. Shu sababli farazning dialektik jihatlariga e'tiborni qaratadi. Mantiqiy, ichki, tashqi holatlarini tahlil qiladi. Qarama-qarshi va o'zaro tafovutlarini aniqplaydi. Farazda mantiqiy ziddiyatlar bo'lsa, bu faraz natijasiz bo'lib, u rivojlanish qonuniyatlariga ega emas.

Nazariya tuzishda gipotetik-deduktiv usul

Bu usul ham ijodiy jarayonda qo'llaniladi. Tanlangan narsa yoki hodisani, aniqrog'i muammoni ilmiy dalillar va ular asosida erishilgan natija yordamida, ilmiy farazni shakllantirish uchun ijodkor, mantiqdagi abduktiv (lotincha abducere - o'tkazish) deb nomlangan tafakkur yuritish tizimiga binoan harakat qiladi.

"Abduktiya ilmiy bilishni kuzatilayotgan faktlardan ularni tavsiflovchi va tushuntiruvchi gipoteza (farazlar)lar orqali yangi bilimni kashf etishga o'tkazadi.

Boshqa bir mushohada yuritish sxemasi - deduktsiya (lotincha deductio-chiqrish) esa umumiy tuzilmalardan xususiy tuzilmalarga, gipotezadan faktga olib boradi. Hozirgi zamon epistemologlari K.Popper va K.Gempelning fikricha, deduktsiya eksperimental faktlar bilan

taqqoslanadigan ilmiy qarashlarga olib keladi. Eksperimental faktlar gipotetik bilimni falsifikatsiya qilish, uni inkor etishga qodir”¹.

Farazni o’rtaga qo’yish, tajribaviy dalillarni tushuntirish imkonini beradi. Farazdan alohida xulosalar keltirib chiqariladi. Bu xulosalar esa tajriba natijalariga solishtiriladi. Ilmiy bilishning ushbu uslubi gipotetik-deduktiv usul deb ataladi. Gipotetik-deduktiv mushohada yuritish bilishning bosh bo’g’inini tashkil etadi. K.Popperning fikricha, gipotetik bilim deduktsiya normalari bilan tartibga solinadi. Deduktsiya ilmiy yondashishga olib keladi va bu dalillar tajriba dalillariga solishtiriladi. Tajriba esa farazni va unga asoslangan gipotetik bilimni soxtalashtirishga, undan foydalanishning asosli ekanligini inkor etish yoki aksincha bo’lishini tasdiqlashga qodir. Bilish jarayoni (epistemologiya)da gipotetik-deduktiv usul farazga, qonunlar, tamoyillar, nazariyalarni aniqlashga olib boruvchi tushuntiruvchi takliflarni asoslash uchun xizmat ham qiladi. Gipotetik-deduktiv uslub dalillash usuli sifatida ta’lim nazariyasi, evristika, dialektika, fikriy, eksperimental analiz, bo’lg’usi harakatlarni bashorat qilish va shu kabilarda keng qo’llaniladi. Bilish jarayonining bunday holatlarida (ilmiy ijodda) tadqiqotchilar boshlang’ich farazlardan iloji boricha ko’proq deduktiv xulosalar chiqarishga **harakat** qiladilar va o’zlarining keyingi harakatlarida shunga qarab tuzatish kiritadilar. Gipotetik-deduktiv usul tabiatshunoslikda ko’pgina nazariyalarning tuzilishini o’rganish uchun, ayniqsa samaralidir. Galiley, Nyutonlar klassik mexanikasining deyarli barcha metodologik asoslari gipotetik-deduktiv mushohadalar asosida qurilgan.

Farazning iqtisodiy tadqiqotlarda qo’llanilishi

Faraz ilmiy bilishning barcha sohalarida qo’llaniladi. Bundan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy fanlar ham istisno emas. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodchilar faraz muammosini o’zining bilim sohasidagi faoliyatining ajralmas qismi, deb bilishi kerak. Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishni tushuntiruvchi ingliz iqtisodchisi J.Keyns o’zining

¹ Saifnazarov I. Ilmiy ijod metodologiyasi.T.: Yangi asr avlod. 2004., 102 bet.

«Bandlik, foiz va pul umumiylar nazariyasi» asarida shunday deydi: «chinakam iqtisodchi, o’z ishining bilimdoni har xil qobiliyatlarga, ma’lum darajada matematik, tarixchi, davlat arbobi, faylasuf bo’lishi kerak. Umumiylar tushunchalarda xususiy narsalar haqida mushohada yuritib, mavhum va muayyanga o’z e’tiborini bir xil darajada qarata olishi lozim. U kelajak uchun hozirgi zamonni o’tmish nuqtai nazaridan o’rganishi kerak». Iqtisodiy tadqiqotlarda ham boshqa fanlarda qo’llanilganligi singari, tarixiylik va mantiqiylik jihatdan foydalanilib yondashilsa, bu tadqiqotlarning ilmiylici oshadi. Ushbu tushunchalar falsafiy tushunchalar bo’lib, barcha narsa va hodisalarni izohlashda qo’llaniladi. Taraqqiyotning real jarayonlarini tafakkur orqali aks ettirishda yordam beradi. **Tarixiylik - voqelik taraqqiyotining xolisona jarayonining o’zidir, ro’y bergan haqiqiy o’tmishdir.** Masalan, quyosh tizimining rivojlanishi, arning geologik tarixi, til, tafakkurning o’tmishdagi faoliyatları va boshqalar. Aniqroq aytadigan bo’lsak, yuzaga kelgan, yuz bergan o’tmish jarayonlaridir. Ana shu yuz bergan narsa va hodisalar asosida yangi farazlar paydo bo’ladi. Zero, o’sha yuz bergan narsa va hodisalar taraqqiyotda doimiy bo’lganligi uchun ular haqida bilimlar olish davom etadi. U qotib qolgan jarayon emas, yangi bilimlar hosil qilish manbaidir.

Mantiqiylik - bu tarixiy jarayonni (tarixiylikni) nazariy jihatdan ilmiy asoslash va aks ettirishdir. Ammo bu aks ettirish jarayoni barcha tafsilotlarni qamrab ololmaydi. Shuning uchun ham mantiqiylikda faraz ishlataladi. Narsa va hodisani oldingi rivojlanish qonuniyatları asosida miyada tahlil qilish natijasida keyingi holatlarni ochib berish mantiqiylikning vazifasidir. Demak, iqtisodiyot sohasi yangi ochilgan qo’riq emas. Hozirgacha ham iqtisodiyotdagi qonuniyatlar haqida fikrlar yuritilgan. Endilikda yangi zamon talablariga mos iqtisodiyot jarayoni qonuniyatları asosida u yoki bu sohani farazlash kerak. Faraz esa mantiqqa suyanishi lozim.

Mantiqiylik (iqtisodiyotda oladigan bo’lsak) iqtisodiyotni rivojlanish holatidagi tomonlarning o’zaro aloqadorligi va o’zaro ta’sirini tahlil qilish orqali tarixiy iqtisodiyotni fikran qayta hosil qilishdir. Bu iqtisodiy

sohalarning hozirgi holati bilan solishtirishga va ma'lum bir echimga kelish uchun asos bo'ladi.

Tarixiylik va mantiqiylik o'zaro dialektik munosabatda bo'lganda voqelikni to'g'ri aks ettirish sodir bo'ladi. Falsafa tarixida bu aloqadorlikni G.Gegel ko'proq tushuntirib bergen. Uning fikricha, mantiqiylik birlamchi bo'lsa-da, u tarixiylikning natijasiga ham aylanadi. Demak, tarixiylik va mantiqiylik birgalikda kelib bir-birini to'ldiradi. Mantiqiylik tushunchalarning o'zaro aloqadorligi tufayli bir xil iqtisodiy tushunchalardan ikkinchi xil iqtisodiy tushunchalarning kelib chiqishi ro'y beradi. Bu esa iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilib xulosalar chiqarishga yordam beradi. Bir tushunchadan ikkinchi tushunchaga o'tish taraqqiyot jarayonini ham ifodalaydi. Oddiylikdan murakkablikka qarab rivojlanib boruvchi mavhum tafakkur jarayoni haqiqiy tarixiy jarayonga to'g'ri yoki mos tushishi lozim. Aks holda inson bilimi boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Shu bilan bir qatorda tarixiylik bilan mantiqiylik o'rtasida ziddiyatlar ham paydo bo'lishini unutmasligimiz lozim. Chunki, mantiqiy soha tarixiylikka nisbatan bir oz mustaqildir. Tarixiylik abadiy bo'lsa, mantiqiylik o'zgaruvchandir. Mantiqiylik ishni boshlanishidan, ya'ni natijadan boshlab (iqtisodiy sohaning o'tmishini) yuqori bosqichini ham qamrab oladi. Mantiqiylik real tarixiy jarayonni tahlil qilib, uning kelajagini asoslashga yordam beradi. Mantiqiylik tarixiylikni aks ettirar ekan, u real tarixning tasodif va notekis yo'llarini nazardan soqit qiladi va shu bilan tarixiylikning to'g'riliгини, tuzatilgan aksini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Yuqorida biz mantiqiylik ishning, sohaning natijasidan boshlanadi, dedik. Zero, tarixning o'zi natijadir. Bundan mantiqiylik reallikdan uzoqlashadi yoki uni buzib ko'rsatadi, degan xulosa chiqmasligi kerak. Aksincha, voqeliqni rivojlangan holatini tahlil qilish aynan uning haqiqiy boshlanishini, uning taraqqiyotiga asosiy jihatlarni, ya'ni tarixiy jihat bilan qaror topishning haqiqiy izchilligini aniqlashga yordam beradi. Demak, iqtisodiyotda ham tarixiy jarayon tahlil qilinib, nazariy jihatdan olingan bilim asosida, mantiqiy xulosalar chiqariladi. Iqtisodiy tarix qanday bo'lgan bo'lsa, mantiqiy fikrlar ham shunga mos tushishi kerak. Shu sababli ilmiy tadqiqotda mantiqiylik bilan birga tarixiylik

qo'llaniladi. Bu tadqiqotning xarakteri va xususiyatiga bog'liq. Ammo, tarixiy usulga nisbatan mantiqiylilikning ustun tomonlari bor. Mantiqiylilikda rivojlangan narsa va hodisaning o'ziga xos aloqa va holatlarini aniqlaganda, uning o'zidan kelib chiqib, alohida xususiyatga ega ekanligini aniqroq belgilab beradi. Shu bilan bir qatorda mazkur narsa yoki hodisaning tarixini tushunish uchun yo'l ko'rsatadi. Demak, mantiqiylik tarixiylikni tushunish vositasidir.

Hozirgi zamonda ana shu tarixiylik va mantiqiylikka asoslanib yaratilgan bir qancha iqtisodiy sohalarni misol qilib keltirish mumkin. Bu misollar «Ilmiy ijod metodologiyasi» qo'llanmasining mualliflari tomonidan quyidagicha izohlanadi. Misollarni to'liq holda keltiramiz: «Menejer, firma, korporatsiya yoki korxona ishini boshqarish tashkilotchisi ularni rivojlantirish biznes-rejasini ishlab chiqar ekan, u, mohiyat e'tibori bilan, mazkur korxonaning iqtisodiy ravnaq topishi tendentsiyalari haqida ozmi-ko'pmi asoslangan iqtisodiy gipotezani ilgari suradi».

F. fon Xayek o'zining «Katallaktika»ni rivojlantirish haqidagi teran va o'ziga xos gipotezasiga bozor iqtisodiga xos bo'lgan jo'shchin, immanent hodisa - raqobatni asos qilib oldi.

Iqtisodiy raqobat - bu xo'jalik yuritishning yaxshi sharoitlari, mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilishning eng foydali shartlari, maksimal daromad olish uchun tadbirkorlarning raqobati, kurashi demakdir. F. fon Xayekning gipotezasi raqobatga jamiyatning asosiy iqtisodiy kuchi deb qaraydi, chunki raqobatga tayangan jamiyat o'z maqsadlariga boshqalarga qaraganda muvaffaqiyatliroq erishadi. Demokratik jamiyatda raqobat bu jadal o'zgaruvchi yashash sharoitlariga jamiyatda muttasil, uzluksiz o'zini o'zi moslashtirish, demakdir. Bozor yoki katallaktika tadbirkorlar ijodiy faoliyatini jadallashtiradi, raqobat esa bozor iqtisodining rivojlanishini butun jamiyat uchun zarur tomonga yo'naltiradi. Raqobat sharoitlarida biznesmen, menejer har qanday kutilmagan hodisalarga tayyor turishi kerak, zotan, muammolar va qiyinchiliklarni tan olish o'ziga, o'z kuchiga ishonch, ulardan o'zini olib qochish — zaiflik va qo'rkoqlik alomatidir. Bozor raqobat mexanizmi orqali tovar va xizmatlar harakatini tartibga soladi, resurslar, g'oyalar va texnologiyalardan

foydalanishni maqbullashtiradi. Binobarin, bozor iqtisodida raqobat fandagi tadqiqot va kashfiyotga o'xshaydi - u bozor resurslarini jamiyat uchun muhim maqsadlarga yo'naltiradi.

F. fon Xayek bozor raqobati negiziga qurilgan iqtisodiy Katallaktika haqidagi gipotezani hozirgi zamon liberalizmi yo'nalishida rivojlantirdi. Hozirgi zamon liberalizmi g'oyalarining kontseptual o'zagini to'rt asosiy element tashkil etadi:

- qonun oldida barchaning tengligi g'oyasi;
- ratsionallik g'oyasi (fon Xayek o'z gipotezasini ilgari surishda mana shu g'oyaga tayangan);
- bag'rikenglik (tolerantlik) g'oyasi;
- tarixiylik g'oyasi, ya'ni muammolarni kelajakda (kommunizm) yoki o'tmishda (traditsionalizm) emas, shu bugun, hozir hal qilishga intilish.

Xozirgi zamon liberalizmining klassik namoyandasini R. Dvorkin yuqorida sanab o'tilgan liberal g'oyalar majmui, shu jumladan bozor iqtisodi (yoki «katallaktika»)ni «liberal dasturlar o'zagining tub printsipi» hisoblanuvchi tenglik kontseptsiyasi (yoki gipotezasi)ning hosilasi, deb e'tirof etadi.

F. fon Xayekning mashhur ustoz Lyudvig fon Mizes iqtisodiy liberalizmning bosh nazariyotchisidir. U iqtisodiy liberalizm nazariyasi-da ilgari surgan teran gipotezaga asosan, kishilik jamiyatida ijtimoiy borliqning iqtisod sohasidagi absolyut asoslari quyidagilardir:

- mehnatning bo'linishi;
- shaxsiy mulkdorlik;
- erkin ayirboshlash.

L. fon Mizesning fikricha, liberalizmgina birdan-bir aqlga muvofiq iqtisodiy siyosatdir. Bozor xo'jalik yuritishning eng samarali tizimi sifatida iqtisodiy o'sish uchun eng qulay sharoitlar yaratadi.

Klassik iqtisod nazariyasi foydalilikning eng katta darajasini ko'rib chiqishda tovar qiymatini aniqlash uchun insonning buyumga munosabatini, har xil ne'matlarning foydaliligiga shaxs tomonidan berilgan sub'ektiv bahoni tanladi. Iqtisod nazariyasida bunday yondashuv **marjinalistik** metod, deb ataladi. U

iqtisod nazariyasiga oid zamonaviy darsliklarda «Robinzon va iqtisod» deb atalgan ajoyib gipoteza asosiga qurilgan.

Bu qiziqarli gipotezaga asosan, biron-bir ne'mat birligining qimmati mazkur birlik yordamida qondiriluvchi ehtiyojning muhimlik darajasi bilan aniqlanadi. Masalan, Robinzon **sof gipotetik** nuqtai nazardan - chuchuk suv manbai bo'lgan odam yashamaydigan orolga tushib qoldi, deb faraz qilaylik. Ichish va ovqat pishirish uchun Robinzonga har kuni 3 1 suv kerak bo'lsin. Yuvinish, idish-tovoq, kir-chir yuvish, tomorqani sug'orish uchun unga tag'in 12 1 suv kerak. Binobarin, Robinzon har kuni 15 1 suv iste'mol qiladi. Manba har kuni 100 1 suv chiqaradi deb faraz qilsak, 85 1 suv ortib qoladi. Xo'sh, Robinzon uchun 1 1 suvning qimmati qanchaga teng? Ko'rsatilgan shartlarda u nolga yaqin, chunki 1 1 suv ishlatilganidan so'ng, tag'in 99 1 suv qoladi, bu esa unga kerak bo'lgan miqdordan ancha ko'pdir. Endi suvning qurishi natijasida manba har kuni atigi 15 1 suv bera boshladi, deb faraz qilaylik. Robinzon bu holda ham o'z ehtiyojlarini to'la qondiradi, ammo endi 1 1 suvning yo'qolishi ham ma'lum muammolar tug'dirishi mumkin. Manba qurib borgani sari Robinzon uchun har bir litr suvning qimmati ortib boradi.

Birinchi birlik (bizning misolda- bir litr suv) cheksiz baland qimmatga ega. Tabiiyki, manbadagi bor suv ham yaxlit bir butun narsa sifatida xuddi shunday baland qimmatga ega. Keyingi bir necha birliklarning qimmati ham juda baland, ammo keyin suvning yangi-yangi litrlarining qimmati kamayib boradi. Shu bilan birga, ichilgan suv qolgan suvdan sira farq qilmasligi ham oydek ravshan. Shuning uchun ham Robinzonning chanqovini bostiradigan bir litr suvni alohida turkumga ajratish va uni behad cheksiz qimmatga ega, deb e'tirof etish mumkin emas. Ne'matlarning bir xil birliklari har xil qimmatga ega bo'lishi mumkin emas, zero, har qaysi birlikni boshqa birlik bilan osongina almashtirish mumkin.

Mamlakatning yaqin istiqbolga (kelgusi yilga yoki yaqin bir necha yilga) mo'ljallangan byudjeti ham iqtisodiy gipotezaga qiziqarli misol bo'la oladi: u yoki bu demokratik mamlakatning hukumati byudjet loyihasini parlamentga qonun sifatida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etar ekan, u, mohiyat e'tibori bilan, ehtimol tutilgan iqtisodiy rivojlanish haqidagi gipotezani ilgari suradi. Bunday loyihada keltirilgan raqamlar, hisob-kitoblar,

grafiklar, foizlar, sxemalar gipotetik, ehtimoliy, taxminiy xususiyatga egadir. Loyiha bir necha marta qayta ishlanib, maromiga etkazilganidan so'ng parlament byudjetni tasdiqlaydi. Ammo, davlat qonuniga aylanganidan keyin ham byudjet haqiqatnamo gipoteza bo'lib qoladi. Zotan, biron-bir, hatto eng mufassal loyihada ham barcha omillarni e'tiborga olish mumkin emas, shuning uchun ham bu gipoteza iqtisoddagi real ahvolga qay darajada yaqin kelganini faqat hayotning o'zi, iqtisodiy-xo'jalik faoliyati amaliyoti ko'rsatib berishi mumkin. Bunday gipotezalarning evristik qimmati oydek ravshan ko'rinish turadi.

Har qanday inson o'zining kundalik hayotida, bozorga muttasil bog'liqlik sharoitlarida mahalliy iqtisodiy gipotezalarini ilgari suradi: oila byudjetini qay yo'l bilan oqilona va samarali sarflasa bo'ladi, o'z shaxsiy jamg'armalarini nimaga joylashtirgan ma'qul — aktsiyalargami, ko'chmas mulkkami yoki biror qimmatbaho buyumgami va h.k. Bunday ko'p sonli gipotezalar negizida hayotiy tajriba va sog'lom fikr, Maykl Polani "shaxs bilimi", deb atagan bilim yotadi. Shaxsning yuqorida zikr etilgan gipotezalarida o'z farovonligini oshirishga bo'lgan umid, aqlga muvofiq tavakkal elementi ko'rindi, mazkur gipotetik bilimni ro'yobga chiqarish esa shaxsning qobiliyati, mehnatsevarligi, tirishqoqligi, ijodiy salohiyatiga bog'liqdir.

Iqtisod fanida olim gipotezalarni ko'rib chiqishdan iqtisodiy nazariya tuzishga o'tar ekan, u ma'lum kontseptual sxemadan o'rganilayotgan ob'ektlarning tabiatи haqidagi gipoteza va farazlar majmui hamda mavjud nazariy xulosalardan foydalanadi. Gipotezadan nazariyaga o'tishda kontseptual sxemadan to'g'ri foydalanish tadqiqotchilarning ijodiy qobiliyati namoyon bo'lishi uchun real imkoniyat yaratadi"¹.

¹ O'sha kitobda. 105-108 betlar

Tayanch tushuncha va iboralar:

Faraz, abduktsiya, faraz va iqtisodiyot, gipotetik-deduktiv metod, tarixiylik, mantiqiyliq, odiy raqobat, sof gipotetik usul.

Mavzuga oid savollar:

1. Faraz tushunchasining mohiyati nimada?
2. Nazariya tuzishda gipotetik-deduktiv usulni tushuntiring?
3. Tarixiylik va mantiqiylik nima?
4. Farazning iqtisodiy tadqiqotda qo'llanishini aytib bering.

X bob. Nazariya ijodiy izlanish jarayoni va natijasi sifatida

Nazariya tushunchasi. Nazariya va ilmiy ijod

Nazariya so'zi grek tilidan olingan bo'lib, kuzatish, qarab chiqish va tadqiqot ma'nolarini anglatadi. Aslida uning keng ma'nosida quyidagi mulohaza yotadi. **Nazariya bu – narsa va hodisalar to'g'risidagi qarashlarning inson tafakkurida umumlashgan holda aks etishidir.** U fan, bilim ma'nolarida ham ishlatiladi. Nazariya insonlarning amaliy faoliyati asosida paydo bo'ladi. Faqat amaliy faoliyatida paydo bo'lmasdan, balki tajriba yoki amaliyotdan oldinroq ketib, voqelikni alohida, yangi tomonlarini aloqa hamda bog'lanishlarini ham ochib beradi. Bu xususiyati bilan amaliy faoliyatni sermahsul bo'lishiga yordam beradi. Bu uning keng ma'noda ishlatilishi bo'lsa, tor ma'noda esa ma'lum bir chegaralangan va shaklga ega bo'lgan bilim tushuniladi. Ijodkor narsa va hodisalarni bilganida uning tashqi tomonini tasvirlashdan ish boshlaydi, uning maxsus, ayrim tomonlari xossalari qayd qiladi. Undan so'ng, shu narsa va hodisalarni ichki holatlarini o'rghanishga kirishadi. Natijada uning rivojlanish qonuniyatlarini ochadi va narsa holda voqealarning xossalari izohlay boshlaydi. Ularning ayrim tomonlari haqidagi bilimlarning bir butun, yaxlit tizim qilib bog'lashga o'tishni maqsad qiladi. Ana shunda narsa va hodisa haqida hosil qilinadigan har tomonlama chuqr bilim – xuddi muayyan ichki mantiqiy tuzilishiga ega bo'lgan nazariyaning o'zidir.

Har qanday fan nazariyalarining o'zi ham nazariya ob'ekti bo'lishi mumkin. Mazkur holatda nazariya haqidagi nazariya meta nazariya, deb ataladi. Tuzilishi yoki holatiga qarab nazariyalar induktiv yoki deduktiv bo'lishi mumkin.

Deduktiv nazariyalar ayni nazariyada isbotlab bo'lmaydigan aksiomlarning ba'zi sonlariga asoslanib tuziladi.

Induktiv nazariyalar esa shunday dalillar yig'indisiga asoslanib tuziladiki, bu dalillar ularni bir qadar izohlaydigan, odatda faraz xarakteriga ega bo'lgan qoidaga olib borib taqaladi. Binobarin, har qanday nazariya u qanchalik jiddiy va ob'ektiv bo'lmasin, narsa va hodisalar haqida mutlaq,

tugallangan uzil-kesil bilimni bera olmaydi. Taraqqiy etib borayotgan bilim jarayoni yangi dalillarni, qonun-qoidalarni kashf etib boraveradi. U uzliksizdir. Bu yangiliklar esa yaxlit bir nazariyaga sig'maydi. Natijada nazariya ham o'zgarib boraveradi. Yangisi paydo bo'ladi. Nazariyalarning bir pog'onadan ikkinchi pog'onaga o'tishi qonuniy jarayondir. Zero, ob'ektiv olamda qotib qolgan narsa va hodisaning o'zi yo'q. Nazariyalarda ham vorislik tamoyili amal qiladi, ya'ni eski nazariya asosida yangisi paydo bo'lib, vaqt o'tishi, narsa va hodisaning o'zgarishi natijasida yana yangisi uchun asos bo'lib qolaveradi. Masalan, N'yuton mexanikasi hozirgi zamon fizika nazariyasining asosi edi. Demak, nazariya barcha fanlarda, jumladan, iqtisodiy fanlarda ham asosiy negizni tashkil qiladi.

Ilmiy ijod jarayonida nazariy daraja muhim ahamiyatga ega. Chunki, nazariy daraja orqali voqelikni qay holatda, qay vaziyatda turganligi baholanadi. Chunki nazariy darajada avvalo, tadqiqotchi o'z tafakkuri orqali olingan amaliy bilimlar asosida o'sha ob'ekti haqida ma'lum bir farazlar, taxminlarni ilgari suradi. Nazariy daraja izlanishning boshlanish nuqtasidir. Nazariy bilish yangi farazlarni keltirib chiqarishga yordam beradi. Farazlarni tasdiqlash yoki inkor etish jarayonida yangi ilmiy nazariya paydo bo'ladi. Bu esa ilmiy ijodning yuqori nuqtasi hisoblanadi. "Ilmiy nazariya tuzish – bu teran va sermazmun ilmiy abstraktsiyalarni aniqlash va ularni o'rganish bilan bog'liq murakkab dialektik jihatdan ziddiyatli jarayon, ilmiy bilishning nazariy darajasida abstraktsiyalashtirish jarayoni"¹dir. Abstraktsiyalarga misol qilib, matematikada "moddiy nuqta", mexanikada "mutlaqo tekis yuza" fizikada "ideal gaz", "mutlaqo qora jism", iqtisodiyotda: "tovar", "ayirboshlash", "iste'mol qiymati", "bozor" kabilarni olish mumkin.

Nazariya haqida yuqorida keltirilgan ta'rifni kengaytirib endi shunday izohni berish mumkin. **Nazariya bu – voqelikning ma'lum bir qismini izohlash, mazmuni, taraqqiy etishini ifoda etuvchi mantiqiy bilimlar yig'indisidir.** Nazariya fanni bir bosqichdan ikkinchi bosqichga ko'taradi, uni sermazmun qiladi va boyitadi. Ilmiy ijod ilmiy bilishni nazariy darajaga ko'taradi, muvofiqlashtiradi, ommalashtiradi. Nazariya insonning kundalik

¹ O'sha kitobda, 111-bet.

hayotida turli sohalarda namoyon bo'la borsa, ilmiy nazariya ilmiy ijod jarayoni asosida yuzaga keladi. Demak, nazariya ilmiy nazariyadan qisman farq qiladi. Chunki ilmiy nazariya ko'pgina tadqiqotlar ta'sirida izlanish va amaliy faoliyatni ham qamrab oladi. Ilmiy nazariya ko'p qirrali faoliyat natijasida paydo bo'ladi. Ilmiy nazariya ham ob'ektiv voqelikni o'zida mujassamlashtiradi. Unda tarixiylik va mantiqiylik, dalil va g'oyalar, tushunchalar, ta'rif va farazlar, qonun hamda turli tomonlar aks etadi. Ilmiy nazariya ana shu jarayonlarni o'zaro aloqadorligi va munosabatlarini ham ifodalaydi. Ana shu xususiyatlar ta'sirida paydo bo'lgan nazariyalar ilmiy nazariyalardir. Ilmiy bilishda ilmiy nazariyalarni ma'lum tiplarga bo'lish mumkin:

- a) iqtisodiy fanlarning ilmiy nazariyalari;
- b) biologiya fanlari ilmiy nazariyalari;
- c) matematika fanlari ilmiy nazariyalari;
- d) falsafa fanlari nazariyalari va boshqalar.

Ilmiy nazariya ilmiy izlanishlarning natijasidir. U ilmiy izlanishlarni tartibga soladi. Ilmiy nazariyada voqelikni aynan holati va kelajagi haqida fikrlar bildiriladi. Bunga misol qilib, Shmidning planetlarning paydo bo'lishi, I. P. Pavlovning oliy nerv sistemasi faoliyati haqidagi, A. Eynshteynning nisbiylik, Ch. Darvinnning evolyutsion, N. Borning kvant nazariyalarini olish mumkin. Ilmiy ijodning nazariy darajasi mohiyatiga ko'ra tafakkur, aql-zakovat, mushohada bilan yanada chuqurroq kirib borishni talab etadi. Natijada ob'ektiv voqelik haqida mujassamlashgan, ixcham falsafiy nuqtai nazari paydo qilinadi. Ilmiy nazariyada ilmiy ijoddagi xulosalar aniqroq aks etadi. Ularni inkor etish yoki qabul qilish murakkab kechadi. Shunday bo'lsa-da ilmiy nazariya haqiqatga eltuvchi vositadir. Ilmiy nazariyada tartibsizlikdan tartiblilikka o'tish aks etadi. Unda barcha aloqadorliklar, munosabatlar, bog'lanishlar aniqlanib xulosalar chiqariladi. Qonuniyatlar aniqlanadi va yangi qonunlar ochiladi.

Nazariyaning asosiy vazifalari

Nazariya ta'limoti ham qadimiydir. Nazariya haqida hali eramizgacha bo'lgan davrdayoq turli-tuman fikrlar paydo bo'lgan edi. Jumladan, antik dunyo faylasuflaridan Evklid o'zining "Nachalo" (Boshlanish) asaridayoq nazariyaning keng ma'nodagi mazmunini ochib bergan edi. Ya'ni, nazariyaning inson faoliyatini tahlil qilishdagi metodologik ahamiyati haqida fikr bildirgan edi. Nazariyani tor ma'noda tushunishni esa XVIII asrda A.Fergyuson va I.Kantlar o'rtaga qo'ydi. Ammo so'ngroq XIX asrda, voqelik haqida mantiqiy tahlil kuchayib ketishi bilan nazariyaning bilish jarayonidagi o'rnini tushuntirish yanada jiddiy tus ola boshladi. Chunki bu davrga kelib bilish nazariyasiga ehtiyoj orta bordi va unda nazariya o'rnining beqiyosligi aks eta boshladi. Jumladan, Max, Djems, Pirson, Ostvald, Puankare, Dyugem, Gusserl kabi faylasuflar nazariyaning ilmiy mohiyati uning vazifalari haqida o'z qarashlarini ifoda etdilar. Nazariyaning mohiyati va uning vazifalari haqida ko'proq neopozitivistlar ta'limoti asosiy o'rinni egallaydi.

Nazariya ilmiy tadqiqotchi tomonidan asoslangandan so'ng, haqiqiy kuchga kiradi va ob'ektning holatini o'zgartiradi. Nazariyaning vazifalaridan yana biri shundaki, u tajribani ham muloqotga olib kiradi. O'z navbatida nazariya o'zining ob'ektiv yoki xolisligini tajribada tasdiqlaydi. Nazariya ilmiy ijodning maqsadini aniqlashga yordam beradi. Chunki nazariy jarayon, narsa va hodisalarning izlanish ob'ektlari va tuzilishini tushunish va tushuntirishga xizmat qiladi. Umuman, nazariya turli maqsad va vazifalarni bajarar ekan, u quyidagi unsurlardan tashkil topadi: **nazariyaning boshlanish ob'ekti, ob'ektni ifodalovchi tushunchalar, nazariyani isbotlovchi uslublar, taxminiy va haqiqiy natija va boshqalar**. Fan rivojini nazariyalar miqdori va sifati belgilaydi. Ushbu jarayonda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Maxsus ilmiy izlanish ob'ektini tanlaydi. U ob'ekt ma'lum hajm, miqdor va mazmunga ega bo'ladi;
2. Ilmiy ob'ekt haqidagi qarashlarni jamlab o'zining mohiyatini ochadi;

3. Aniq bo'lgan ilmiy bilimlarni asoslash bilan birga ularni aniqlashtirib, kengaytiradi, mazmun-mohiyatini, amaliyotda tutgan o'rnini ko'rsatadi;
4. Ob'ekt haqidagi yangi farazlarni keltirib chiqaradi;
5. Ilmiy tadqiqot natijasida olingan yangiliklarning haqiqiyligini asoslaydi;
6. Ilmiy ijodda amaliyot va nazariyaning hamkorligini isbotlaydi;
7. Ilmiy natijalarni amaliyotga olib chiqish kerakligi yoki kerak emasligi haqida ma'lumot beradi.

Nazariy bilimda ob'ektning tuzilishiga jiddiy e'tibor beriladi. Olinadigan natija ana shu ob'ektning tuzilishini to'g'ri aks ettirishga ham bog'liqdir. Ilmiy ijodning bu bosqichida barcha to'plangan dalillar qayta sinovdan o'tkaziladi. Talablarga javob berilishi o'rganiladi. Dalillar aniqlashtiriladi. Barcha fikr va mulohazalar tahlil qilinadi. Ob'ekt haqidagi umumiyl tasavvurlar birlashtirilib, bir butun holatga keltiriladi. Birlamchi asos paydo bo'ladi. Ushbu jarayonlar bosqichlaridan o'tgan ilmiy nazariya ilmiy ijodni davom ettirishga yo'llanma oladi.

Ilmiy ijodda ilmiy nazariyaning mukammalligini aniqlash, uni tushunish va tushuntirishga ham bog'liq. Mazkur holat ilmiy ijod sohibidan o'ta mas'uliyat va mahoratni talab etadi. Nazariyaning kelajagi ana shu holatga ham bog'liqdir. Tushunish va tushuntirish jarayoni nazariyani kengaytirish va chuqurlashtirish, yanada aniqligini ta'minlashga yordam beradi. Nazariya ilmiy ijodni mujassam holga keltiradi. Fikrlarni muvofiqlashtiradi. Shu bilan birga oldin ma'lum bo'limgan ilmiy xulosani chiqarishga ko'maklashadi. Nazariyaning vazifalaridan yana biri shuki, u nisbiy va mutlaq haqiqatlar bilan aloqadadir. Nazariya tajriba natijasida voqelikdagi nisbiy yoki mutlaq haqiqatlarning ham mazmun – mohiyatini ochishga yordam beradi. Ularning ob'ektivligini inkor etadi yoki hayotiyligi haqida xulosa beradi. Ma'lumki, haqiqatlar nisbiy bo'lgani singari nazariyalar ham nisbiy bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida nazariya mutlaqlikka o'tishi mumkin. Nisbiy nazariyalar to'ldirila boriladi. Tanlangan sohalarga qarab u mutlaq nazariyalarga aylanishi mumkin.

Ilmiy nazariyaning ilmiy ijodda etakchilik xususiyati bor. Bu etakchilik vazifasi yangi sohalarni bashorat qilish jarayonida ko'rindi. Chunki nazariya asosida jiddiy, turli bosqichlardan o'tgan ilmiy bashorat yaratiladi. Masalan, tabiatdagi oldin inson aqli bovar qilmagan turli voqealardan avval nazariya orqali bashorat qilinib, so'ng tajribadan o'tkazilib xulosalar olingan. A. Eynshteynning umumiy nisbiylik nazariyasi fanda buyuk o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Jumladan, neytron, yulduzlar, pulsarlar, kvazarlar, katta massalarning gravitatsion siqilishi, koinotning kengayishi, kosmologik model va hozirgi zamon gravitatsiyaning umumiy nisbiylik nazariyasi kabilardir. Ayniqsa, 1903 yilda Berlinda nashr etilgan "Fizika yilnomasi" jurnalida "Harakatlantiruvchi jismlar elektrodinamikasiga doir" degan maqola bosilib chiqqandan so'ng, jismlar tabiatini haqida inson bilimlarini tubdan o'zgartirib nisbiylik nazariyasining keng qirrali ekanligi haqida tasavvurlar rivojlanib ketdi. Shundan so'ng, umumiy va xususiy nisbiylik nazariyasi samarali rivojlandi. Tajribalar olib borilib tasdiqdan o'tkazildi. D. K. Maksvellning elektrodinamikasi elektromagnit to'lqinlarining mavjudligini bashorat qildi. So'ng G.Gerts ularni tajribada tasdiqladi. D.I.Mendeleev bir qator noma'lum kimyoviy unsurlarning mavjudligini bashorat qildi. Bu bashoratni hozirgi vaqtida kimyo fani tasdiqlamoqda. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu misollar ma'lum bo'lмаган narsa va hodisalarini bashorat qilish ilmiy nazariyalarning muhim vazifalari ekanligidan dalolatdir.

Nazariya va iqtisodiyot

Moddiy noz-ne'matlar ishlab chiqarish inson hayotining asosini tashkil etadi. Bu jarayon o'ta murakkab, ziddiyatli jarayonlarni qamrab oladi. Insonning asosiy faoliyati o'zini-o'zi (turli jihatdan) ta'minlashdir. Demak, bu jarayon ilmiy ijod qilishni taqozo etadi. Ehtiyoj cheksizdir. Iqtisodiyot ana shu ehtiyoj bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiy rivojlanish nafaqat amaliyotni balki nazariy jihatlarni ham talab etadi. Iqtisodiyot ishlab chiqarishning tarkibiy qismidir. Ishlab chiqarish jarayonida turli xil nozne'matlar - oziq-ovqat, kiyim kechak, hayotda yashash uchun kerak bo'lган turli vositalar paydo bo'ladi, rivojlanadi, taraqqiy etadi. Bu rivojlanish va

taraqqiyot esa turli nazariyalarni paydo qiladi. Zero, nazariyalar ishlab chiqarishni bir bosqichdan ikkinchi bosqichga ko'taradi. Ishlab chiqarish quyidagi sohalarni o'z ichiga oladi: maqsadga muvofiq faoliyatni, ya'ni mehnat jarayonini, bu birinchidan, ikkinchidan, mehnat vositalariga ta'sir ko'rsatadigan tabiiy ashylarni, ishlangan va ishlanmagan ashylarni ham, uchinchidan, turli mehnat vositalarining o'zlarini.

Demak, ko'rib turibmizki, ishlab chiqarishda ko'p sohalar ishtirok etadi. Bu ishtirokchilarning o'zi insondan tafakkur qilishni talab etadi. Bu ishtirokchilarni harakatga keltirish o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Ularni amalga oshirish uchun ilmiy izlanish va ijod qilish talab etiladi. Izlanish va ijod qilish turli nazariyalarga murojaat qilishga majbur etadi. Nazariyalar faqat ishlab chiqarish haqidagina bo'lmaydi, balki inson tafakkurining o'zini ham qamrab oladi, uning ijtimoiy faoliyatiga ta'sir qiladi. Bu esa nafaqat iqtisodiyotga, balki insonning din, san'at, siyosiy, huquq, madaniyat, qadriyatlar sohasini ham nazardan chetda qoldirmasligini taqozo etadi.

Iqtisodiyot insonlarning amaliy faoliyati bilan bog'langan. Ma'lumki, hayotning o'zi ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, samaradorlik, tadbirkorlik, biznesmenlik, hunarmandchilik kabi sohalardan iborat bo'lib, bu sohalar insonlar faoliyati uchun vositalardir. Nazariya voqelikni anglab olish uchun quroldir. Lekin, nazariyaning o'zi amaliy faoliyatni keltirib chiqaradi. Amaliy faoliyat esa inson turmush tarzining davomiyligini ta'minlaydi. Amaliy faoliyat orqali xo'jalik yuritiladi. Bu insonlardan doimiy harakat qilishni talab etadi. Harakat insonni amaliy bilimga farazlar qilishga, qiyinchiliklarni engishga etaklaydi.

Iqtisodiyot nazariyası - bu iqtisodiyot qonun qoidalarini va rivojlanish tamoyillarini o'r ganuvchi fandir. Aslida iqtisodiy bilim beruvchi fanlar turlitumandir. Iqtisodiy fanlar qatoriga 20 dan ortiq fanlar kiradi. Ularni shartli ravishda 3 guruhga bo'ladilar: umumiqtisodiy, xususiy, funksional iqtisodiy fanlar. Iqtisodiy nazariya degani umumiqtisodiy fanlar guruhiba mansubdir.

Iqtisodiyot nazariyasini qisqa qilib tushuntirish, unga ta'rif berish o'ta mushkul. Uni ba'zi bir olimlar tovar ayriboshlash, pullik bitimlar bilan hamda iqtisodiy faoliyat turlari bilan bog'liq fan desalar, yana birovlar,

iqtisodiyot nazariyasi har xil tovarlarni ishlab chiqarish maqsadida kishilar tomonidan noyob va cheklangan unumli resurslardan foydalanish to'g'risidagi fan, deydilar. Boshqa bir ta'rifda: iqtisodiyot nazariyasi kishilarning kundalik ishbilarmonlik faoliyati, tirikchilik uchun mablag' topishi va undan foydalanishi to'g'risidagi fan¹, deydilar.

Ta'riflardan ko'rinish turibdiki, iqtisodiyot nazariyasining izlanish ob'ektlari ham xilma-xildir. Shu sababli ushbu fandagi nazariyalar ham turli tuman jarayonlarni o'zida aks ettiradi. Demak, iqtisodiyot har bir inson, oila, jamoa, jamiyat faoliyatiga taalluqli bo'lganligi uchun ham ushbu fan doirasida turli nazariyalar, xilma-xil qarashlar, turfa xil bashoratlar paydo bo'ladi, rivojlanadi. Iqtisodiyot sohasi, shulardan xulosa qiladigan bo'lsak, ijod uchun bir ummondir. Uning chegarasi keng va beqiyosdir. Binobarin, nazariya iqtisodiyotni shunday uzluksizlikda, tadrijiylikda olib o'rganadi.

Nazariya iqtisodiyotda g'ayriiqtisodiy omillar ta'sirini hisobga olib o'rganadi. Chunki iqtisodiyot aholining siyosiy, ijtimoiy, milliy jihatlarini ham qamrab oladi. Nazariya iqtisodiy va tabiiy sohalarning o'zaro munosabatlarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Shular bilan birga nazariya iqtisodiyotning tabiatga ta'sirini hisobga oladi. Ma'lumki, iqtisodiyot biror joyda to'xtab qolmaydi, u rivojlanishdadir. Demak, nazariyada bu jarayon ham o'z aksini topadi. Iqtisodiy hodisalarning kelib chiqishi, undagi o'zgarishlarning sabablari o'rganiladi. Iqtisodiy nazariyada zamon talablari, texnologik o'zgarishlar ham e'tirof etiladi. Garchand texnologiya iqtisodiy nazariyaning ob'ekti bo'lmasa-da, u iqtisodiyotning moddiy asosiga ta'sir qiladi. Shuning uchun ham nazariya bu holatni nazardan chetda qoldirmaydi. Masalan, nazariyada «Katta tsikllar - katta to'lqinlar» degan tushunchalar borki, bular texnologiyadagi katta burilishning iqtisodiyotga ta'sirini nazarda tutadi. Mutlaqo yangi texnologiya paydo bo'lishi bilan iqtisodiyot rivojida yangi davr – katta tsikl boshlanadi, bu odatda 50-60 yil davom etadi. Mana shularni nazariya tahlil etadi (O'lmasov A. Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Sharq", 2006 y. 17 b.).

¹ O'lmasov A, Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Sharq", 2006, 12-13 betlar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariyada tasodifiy yoki juz'iy emas, balki doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy hodisalarni tahlil qilib, bilish uchun abstraktsiyalash (mavhumlik) usuli qo'llaniladi. Aynan mazkur usul nazariya uchun asosiydir. Ushbu usul yordamida iqtisodiy hodisalar, ularga ta'sir etuvchi birinchi va ikkinchi darajali omillar o'rganilib, ularga nazariy baho beriladi. Abstraktsiyalashda taxminiy usul ham qo'llaniladi. Masalan, narxning talabga ta'sirini bilish uchun talabga ta'sir etuvchi boshqa omillar o'zgarmay turadi, deb taxmin qilinadi. Ayni holatda narx va talabning o'zgarishi qanday bo'lishi aniqlanadi.

Abstraktsiyani aniqlash mantiqiy usulga bog'liq. Mantiqiy yondashish ta'sirida iqtisodiy muammolarning o'zaro aloqadorligi, bog'lanishi, munosabatlari, paydo bo'lishi, natija va sabablari aniqlanadi. Boshqacha aytganda, abstraktsiyalash bu iqtisodiyotning nazariy maketini paydo qilishdir. Ammo u, ilmiy yoki noilmiy bo'lishi mumkin. U voqelikni to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettirishi bilan farq qiladi. Aslida model yoki maket iqtisodiy voqelikning nazariy ifodasidir (o'zbek modeli). Iqtisodiy nazariyada oddiy yoki murakkab iqtisodiy model yoki maketlar qo'llanishi mumkin. Oddiy modelda firma va oilalar ishtirok etsa, murakkab modelda ko'pchilik sub'ektlar qatnashadi va juda ko'p hisob-kitoblar nazarda tutiladi.

Iqtisodiy nazariyada ijobiyligi va normativ holatlar tanlangan ob'ektni tahlil etish uchun qo'llaniladi. Ijobiy holatda obe'ktini nazariy jihatini tushuntirilsa, normativ holatda (usulda) ob'ektning qanday bo'lishi, nimalar zarur bo'lishi haqida fikr yuritiladi. Demak, iqtisodiyotda nazariyalar oddiylikdan, murakkablikka qarab boradi. A. O'lmasov, A. Vahobovlarning ko'rsatishicha, nazariyada iqtisodiyotning qonun-qoidalari 3 xil darajada o'rganiladi:

a) mikrodarajada, b) makrodarajada, v) megodaraja (global) da.

Ular bir-biri bilan aloqador.

Nazariya uchun iqtisodiyotni ilmiy tahlil qilishda miqdoriy tahlil ham qo'llaniladi. Miqdoriy sohalar nazariy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Nazariyada sifatli tahlil ham qo'llaniladi. Sifatli tahlil nazariy xulosalar chiqarishga va qonun-qoidalarni ilmiy ta'riflashga yordam beradi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Model, nazariya, iqtisodiyot nazariyasi, abstraktsiya, amaliyat, ilmiy nazariya va deduktsiyalash, iqtisod, ilmiy ijodda nazariya, normativ holat, induktiv nazariya.

Mavzuga oid savollar:

1. Nazariya tushunchasini izohlang.
2. Nazariya va iqtisodning aloqasini tushuntiring.
3. Nazariyaning vazifalarini aytинг.

XI bob. Hozirgi zamon axborot tizimlarining globallashishi va ilmiy ijod

Insoniyatning globallashuv jarayoni. Globalizatsiya jarayoni

XX asr o'zining yirik kashfiyotlari bilan odingi asrlardan tubdan farq qiladi. Chunki aynan XX asrda fan va texnika inqilobi ro'y berdi. Boz ustiga ikki marta jahon urushi bo'ldi.

XX asr biologiya, fizika, astronomiya, matematika fanlarining misli ko'rilmagan yutuqlarini keltirib chiqardi. Jumladan, shu asrda oqsil moddalarining (kislotalar) sintez qilinishi va shu asosda biologiya fanlari tarmoqlarining rivojlanishi; fizika fani orqali bo'linmas zarrachalarning kashf etilishi, ularning xususiyatlarini o'rganilishi va yangi zarrachalarni kashf etilishi, kosmik fazoni tadqiq qilishning yangi bosqichga ko'tarilishi, kibernetika, kompyuterlar haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi kabi sohalar fikrimizning dalilidir. XX asrda faqat tabiiy fanlar rivojlanib-gina qolmay, balki ijtimoiy-gumanitar sohalar ham beqiyos darajada rivojlandi. Bu rivojlanish dunyo hodisalarini qayta tahlil qilishga majbur qildi va majbur qilmoqda. Yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolar umuminsoniy muammolarga aylanmoqda. Hozirgi davrda loqayd bo'lмаган har bir inson ana shu umumbashariy muammolar haqida fikr bildirmasligi mumkin emas. Zero, keljakda ekologik, texnikaviy jarayonlar, oziq-ovqat mahsulotlari, energetik jarayonlar qiyoysi qanday bo'ladi, fan va texnikadan yana nimalarni kutish mumkin. Inson xromosomasi tahlil qilinishi inson faoliyatini qanday o'zgarishlarga olib keladi, kabi savollar davrimizning savollaridir, ayni paytda umumbashariy yoki global muammolardir.

XX asrda yashab ijod qilgan akademik A.Saxarov keljak haqida jon kuydirib gapirgan edi. Uning fikricha, keyingi ellik yillardan so'nggi hayot ko'pgina ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Insoniyatni yirik falokatlar kutadi, xavf-xatarlar ro'y beradi, mashaqqatlar paydo bo'ladi. Lekin, bunday holatlarning oldini olish insonning -insoniyatning aql idrokiga bog'liq. Insonning aql zakovati kelib chiqadigan falokatlarning oldini olishga qaratilishi lozim. Fan va texnika taraqqiyoti faqat hayratlanish uchun emas,

balki uning oqibatlari haqida ham qayg'urishni talab etadi. (Voprosi filosofii, 1988 yil 1-son).

BMT ning ma'lumotlariga qaraganda (qanchalik talofatlar bo'lmasin) dunyo aholisi tez sur'atlar bilan ko'paymoqda. Hozir er yuzida 6 milliard aholi istiqomat qiladi. 2025 yilga borib aholi soni 8 milliardga etadi, degan taxminlar bor. Hozirgi paytda er yuzining aholisi bir kunda 275 ming kishiga ko'paymoqda. Bir yilda esa 60 millionga o'sayotir. Aholining o'sishi tabiiy bo'lsa-da er yuzidagi tabiiy boyliklar neft, toshko'mir, torf, toza suv, unumdar tuproq va boshqa foydali qazilmalar keskin kamayib borayotir. Birgina ichimlik suvini oladigan bo'lsak, bu suv er yuzidagi suvning hajmini atigi 2 foizini tashkil etadi. O'sib borayotgan aholi uchun, albatta bu etarli deb bo'lmaydi. Demak, globallashuv jarayoni ushbu muammolarni keltirib chiqarayotganligini hech kim inkor etaolmaydi. **Globallashuv bu – umuminsoniy va umumjahon moddiy va ma'naviy rivojini va tamoyillarini tor doiradan chiqib keng miqyosda qamrab olinishidir.**

Dunyo aholisining to'xtovsiz ko'payib borayotganligi hozirgi davrning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Quyidagi jadvalda (1970-2000 yillar oralig'i) aholining o'sish sur'ati (%) da) keltirilmoqda.

Region	%
Osiyo	76,1
Afrika	140,4
Evropa	16,1
Shimoliy Amerika	30,2
Lotin Amerika	89,3

Aholining o'sishi o'z navbatida umumbashariy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xo'sh, bu umumbashariy muammolar qaysilar? Umumbashariy muammolar qatoriga rus olimlaridan Yu. N. Gladkovning fikricha quyidagilar kiradi:

1. Dunyoni saqlash muammosi

2. Energetika muammosi
3. Xom-ashyo muammosi
4. Dunyo okeani muammosi
5. Madaniyat inqilobi
6. Sog'liqni saqlash
7. Avariya va falokatlar
8. Terrorizm
9. Byurokratiya
10. Demokratiya tanqisligi
11. Urbanizatsiya
12. Xalqaro aloqalar
13. Demografiya muammosi
14. Savdo-sotiq muammosi
15. Qoloqlik muammosi
16. Ekologiya muammosi.

Muammolar ichida urush va tinchlik sohasi ayniqsa dolzarbdir. Eramizdan avvalgi 3500 yildan hozirgacha 14530 ta har xil urushlar bo'lgan. Insoniyat tarixi davomida insoniyat 292 yilgina urushsiz yashagan. Quyidagi jadvalda urushda halok bo'lganlar soni keltirilgan (mln kishi).

XVII asr	3,3
XVIII asr	5,5
XIX asr	16
XX asr	70

Er yuzida qurollanish poygasi uchun milliardlab dollar sarflanmoqda. Har yili dunyoda harbiy maqsadga qariyb bir trillion dollar sarf etilar ekan. Agar planetamizda harbiy qurollar ishlab chiqarish bir haftaga to'xtatilsa, insoniyat uchun bu tadbir haftasiga 15 milliard dollardan ziyod foyda keltirar ekan.

Quyidagi jadvalda 1987 yildan 1991 yilgacha bo'lgan oraliqda jahondagi yirik davlatlarning qurol-yarog' bilan savdo-sotig'i milliard dollarda keltirilgan.

Davlat nomi	Yillar				
	1987	1988	1989	1990	1991
AQSh	13,7	11,9	11,9	11,2	11,2
SSSR	17,7	15,1	14,9	9,6	3,9
GFR	0,8	1,3	0,8	1,2	2,0
Xitoy	2,9	1,9	0,9	1,0	1,1
Buyuk Britaniya	2,2	1,7	2,7	1,6	1,0
Frantsiya	3,2	2,4	2,9	2,0	0,8
Dunyo bo'yicha	45,8	39,3	38,2	29,0	22,1

Insoniyat atrof-muhitga ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ekologik muammolar yuzaga keldi. Atmosferaga yiliga 1 km^3 zaharli moddalar va ularning changlari tushar ekan. Ushbu dalillarni keltirishdan maqsad hozirgi kundagi bu ma'lumotlarni to'plash texnologiyalarga ham bog'liqdir. O'z navbatida axborotlar globallashuvi kelib chiqadi. Axborotlar globallashuvi bir tomonidan ijobiy natijalarga olib kelishi, ikkinchi tomonidan salbiy natijalarni berishi mumkin. Ya'ni, inson miyasi va uning nerv (asab) faoliyati qanchalik ko'p axborotlarni qabul qilaversa, uning shunchalik zaiflashishi sodir bo'lishi mumkin. Sababi axborotlarning tez ko'payishi natijasida asab sistemasi uncha tez moslasha olmaydi. Shu sababli axborot tizimini rejali qabul qilish inson organizmiga ta'sir etmaydigan darajada bo'lishini ta'minlash ham ijod faoliyatiga bog'liq. Axborot tizimining ijobiy tomoni shundaki, u er yuzidagi xalqlar va millatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalarni tezlashtiradi, yaqinlashtiradi. Bunday holat esa har bir mamlakatning umumiyl rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu mamlakatning taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi. Ishlab chiqarish kuchlarini o'zgartirishga olib keladi. Bu esa umumiy

tsivilizatsiyaning o'zgarishiga olib keladi. Fan va texnika taraqqiyoti ijtimoiy hayot o'zgarishining asosiy omilidir. Demak, axborot texnologiyalari orqali tabiat, texnikaviy jarayonlar, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy faoliyatlar qaytadan tahlil qilinadi. Bularning barchasi ijod jarayonini o'ta dolzarbligidan darak beradi. Chunki ijodiy jarayon, paydo bo'layotgan axborot tizimlarining asosi ham hisoblanadi.

Axborot jamiyatining paydo bo'lishida hozirgi zamon elektron-kompyuter va biotexnologik rivojlanish bilan bog'liqdir. Aniqrog'i, kompyuterlar, elektronika, umumiy texnologiyaning rivojlanishi axborot yoki informatsion jamiyatni keltirib chiqaradi. Bu jamiyat o'z navbatida insonning faoliyati uning umumiy dunyoqarashining o'zgarishiga olib kelayotir. Dunyoqarashning o'zgarishi zamon talablariga yangicha javob berish bilan ham bog'liq. Inson intellekti bir joyda to'xtab qolmaydi. U ham, fan ham, ijod rivojlanishi bilan o'zgarib boradi. Bu o'rinda, ta'kidlash lozimki, fanning haqiqiy axborot markazi ekanligi seziladi. Shu sababli fan o'zining aniq va haqiqatga mos axborotlariga ega bo'lishi kerak. Inson axborotlar o'rtasida chalkashib qolmasligi kerak. Axborotlar orqali haqiqatni bilishi, unga erishishi lozim. Axborot ta'sirida ijod uchun zarur bo'lган dalillarga ega bo'lishi zarur.

Axborot tushunchasi

Axborot to'g'risidagi birinchi ma'mumot XX asrning yigirmanchi yillaridan boshlanadi. Ko'proq 1948 yildan boshlab, bu tushunchaga jiddiy e'tibor qaratildi. Sababi, K.E.Shenon, R.A.Fisher va N.Vinnerlar axborotning statistik-miqdoriy jihatlarini (bir-biridan habarsiz holda) aniqladilar. Bu o'rinda K.E.Shenonning "Aloqaning matematik nazariyasi" asari katta rol o'ynaydi. Ayni shu davrlarda N.Vinnerning ham "Hayvon va mashina", "Kibernetika yoki boshqarish" nomli asarlari e'lon qilingan edi. Bu asarlarda asosan, axborotning nazariyalari haqida fikrlar yuritildi. Natijada "Axborot" g'oyasi tez rivojlandi. Axborot tushunchasi "kibernetika" tushunchasidan kengroq tushunila boshlandi. Aslida esa axborot kibernetikaning bir qismi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Ma'lumki, axborot har bir fanda, hodisada, jarayonda bor. Kibernetika esa aloqalarda, boshqarish sistemasida faoldir. Axborot tushunchasi keng sohalarni qamrab oladi. U fan, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri talablarini o'rganish uchun, ijod, ilmiy ijod uchun katta ahamiyatga ega.

"Axborot" tushunchasi boshqa tushunchalardan ajralib qolgan tushuncha emas. U "bilish", "bilim", "mujassamlik", "borliq", "aloqa", "in'ikos" "o'xshashlik", "sabab", "taraqqiyot", "sistema", "struktura" tushunchalari bilan aloqada, bog'lanishdadir.

"Axborot" tushunchasi keng qirrali bo'lganligi uchun uning xususiyatlaridan kelib chiqib, falsafiy kategoriya sifatida ham tahlil qila boshladilar. Ammo bu masala munozaraligicha qolib ketmoqda. Ayni paytda falsafa – axborot tushunchasi uchun ham metodologiya vazifasini bajaradi. Axborot tushunchasi ham boshqa tushunchalar kabi o'zining kelib chiqishi, rivojlanish tarixiga ega. Insoniyat paydo bo'lgandan boshlab atrofidagi narsa va hodisalarga munosabat bildirish uchun, avvalo ma'lumotga ega bo'lishni istaydilar. Demak, axborot tevarak-atrofdagi turli xil manbalardan to'plangan omillar bo'lib, bu bilimlarning qayta izhor qilish hamdir.

Axborot ilmiy ijod uchun metodologik ahamiyatga ega. Uni to'g'ri tahlil qilish ilmiy ijodning rivojlanishiga asos bo'ladi. Shu bilan birga axborot

tushunchasi ilmiy ijodda nazariy jihatlarni ham asoslashga yordam beradi. Uning turli-tuman qirralari ijodda qo'llaniladi. Axborot olinmasa va u o'z navbatida tarqatilmasa ijod natijasi bo'lmaydi. Axborot tushunchasini ham turlicha izohlovchi oqimlar mavjud. Bular qatoriga pozitivistlar, ekzistentsialistlar, metafiziklar, pragmatiklar qarashlarini olish mumkin. Chunki bu tushuncha yuqorida ta'kidlaganimizdek, kibernetika, ong, genetika, informatika, demokratiya, siyosat, madaniyat, globallashuv jarayonlarini ham o'zida qamrab oladi. Ya'ni, uning bajaradigan funktsiyasi yildan yilga inson faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Olimlarning tobora diqqat e'tiborini jalb etmoqda. Jumladan, I.A Akchurin, A.N.Kolmogorov, U.R. Eshbi kabilar axborot tushunchasining miqdoriy jihatlariga e'tiborini qaratgan bo'lsalar, Amosov. N.M., Bajenov L.B., Jukov N.I., Ivanov S.G., Polushkin V.A. kabi olimlar mazkur tushunchani sifatiy jihatlariga e'tiborni qaratdilar. Olimlardan I.S.Narskiy esa axborot tushunchasining kontseptsiyasini ishlab chiqdi. Demak, axborot jarayonlariga kundan kunga, yildan-yilga qiziqish kuchayib bormoqda. Undan faqat oddiy xabar uzatish yoki olish uchun emas, balki turli fanlar doirasini kengaytiruvchi va ilmiy ijod uchun beqiyos shart-sharoitlar, omillar yaratuvchi murakkab substantsiya sifatida foydalanish zaruriyati tug'ilmoqda. Endilikda biror soha yo'qliki axborot tizimi haqida so'z yuritilmasa. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, kutubxona tarmog'ini tashkil qilishni takomillashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini saqlab qolishga yo'naltirilgan. Printsipial yangi axborot tarmoqlarini tashkil etish, shuningdek, aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta'minlash, zarur shart-sharoitlar yaratish uchun bir qancha vazifalarni amalga oshirilishi belgilab berilgan. Jumladan: Madaniyat va sport ishlari vazirligi kutubxonalarni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, OO'MTV ning O'rta Maxsus kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirligi ixtiyoriga o'tkazish yo'li bilan Oliy va o'rta

maxsus ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari huzurida axborot resurs markazlarini tuzish ko'zda tutilgan. Ularning vazifalari etib quyidagilar ko'rsatilgan.

Ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda, muntazam ta'lim olishi va mustaqil ravishda ta'lim olishiga ko'maklashish;

Milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko'lamma targ'ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo'lishini ta'minlash, ma'naviy boy va uyg'un kamol topgan shaxsning ijodiy o'sishi uchun imkoniyat yaratib berish;

Yangi axborot texnologiyalari (ma'lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko'rsatish;

Madaniy, ta'lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish;

Axborot-kutubxona markazlari zimmasiga esa aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, uning ilmiy, ta'lim, axborot va madaniyat sohasidagi qiziqishlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tezkorlik bilan qondirish;

Kitobxonlarga an'anaviy kutubxona xizmati ko'rsatishdan o'z axborot resurslarini yaratish va jahon ilmiy-ta'lim axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini berish, axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari tanlov asosida malakali kadrlar bilan to'ldirilishini;

Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari yuksak samara bilan faoliyat ko'rsatishini hamda aholining barcha qatlamlari ulardan bemalol foydalana olishlarini ta'minlash;

Yig'ma elektron katalog yordamida axborot resurslarini birlashtiruvchi elektron kutubxonalar va ma'lumot bazalarini yaratish;

Joylarda axborotlashtirish va kutubxonachilik ishi sohasidagi axborot-resurs markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tashkiliy-metodik jihatdan ta'minlash vazifasi yuklangan.

Shu bilan birga axborot-kutubxona markazlarini belgilangan tartibda “ZiyoNet” axborot tarmog’iga bosqichma-bosqich ulash va ularning resurslariga aholi keng qatlamlarining kirishini ta’minlash;

Elektron kutubxonalar tizimini rivojlantirish, kutubxona axborot resurslarini tizimlashtirish vazifasi belgilangan.

2006-2007 o’quv yilidan boshlab, Toshkent Davlat madaniyat instituti va Toshkent axborot texnologiyalari universitetida “axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavriat kadrlari hamda magistratura tegishli mutaxassisliklari bo’yicha kadrlar tayyorlash nazarda tutilganligi ma’lumot uchun aytilgan (“Xalq so’zi” gazetasi, 2006 y 20-iyun).

Bozor munosabatlariga o’tish sharoitida axborot tizimi qimmatli mahsulot va asosiy tovardir. Axborot bilimlarni izlash, yaratish, mukammallashtirish va uni saqlash, axborotlarni ko’paytirish va tarqatish manbai ekanligini ushbu ko’rsatilgan qarordan ham bilsak bo’ladi.

Axborot turlari

Axborotni to'plash uchun uning manbalari ko'p bo'lgani singari uning turlari ham mavjud va anchadir. Axborot ma'lumotlar va xabarlar to'plami bo'lib, unda yangiliklar hamda eski holatlar mavjud bo'ladi. Axborotda ham vorislik tamoyili mavjuddir. Mutlaqo yangi axborotning bo'lishi mushkuldir. Demak, yangi axborotlar eski axborotlar asosida paydo bo'ladi. Axborotlar ishonchli bo'lishi zarur. Munozarasiz axborotlar ijod jarayonini boshi berk ko'chaga olib kiradi. Ortiqcha xarajat va vaqtning bekorga ketishiga olib keladi. Axborot turli sohalarni qamrab olgani uchun turli sohada ham axborotni olish va tarqatish o'ta mas'uliyatlilikni talab etadi. Siyosiy, huquqiy, madaniy, texnikaviy, ijtimoiy sohalar ham bundan istisno emas.

Ayniqsa, boshqaruv tizimida ham axborot o'ta ishonarli bo'lishi lozim. Boshqaruvchi organ boshqariluvchi ob'ektning holati hamda boshqariluvchi obe'kt bog'liq bo'lgan tashqi muhit holati haqida axborotlar olib turadi. Bu axborot boshqaruvchi organ tomonidan qabul qilinadi va shu axborot asosida u boshqaruvchi axborotni ishlab chiqadi. Shundan so'ng axborot boshqariluvchi ob'ektga ta'sir o'tkazadigan boshqaruvchi tizimning ijroiya organiga yuboriladi va bajarilishi nazaratga olinadi. Shundan keyin boshqaruv tizimida axborotni uzatish, olish, qayta ishlash va berish jarayoni amalga oshiriladi. Boshqarishda foydalaniladigan va bajarilishi uchun uzatiladigan axborotlarga quyidagi talablar qo'yiladi: ishonchlilik, tushunarilik, tezkorlik, to'liqlik, tejamlilik va boshqalar.

Axborotlar o'zining tizimiga turlicha bo'lishi mumkin. Axborotlarning oddiy va murakkab tizimlari oddiy axborot tizimi bu telefon yoki biror boshqa manba orqali olinsa, murakkab axborot manba yoki asosning holati bilan bog'liqdir. Sababi manba holati ham murakkab bo'lib undagi axborotni biror so'z yoki biror manba bilan ham aytib bo'lmaydi. Demak, axborot ham ko'p xususiyat va tavsifdan iboratdir. Unda ijodning turli qirralaridan, texnik vositalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Axborot tizimlarini to'g'ri tushunish ham ijodda yutuqlar garovidir. Axborot turlari axborot tizimlarining xususiyatlariga ham bog'liq. Axborot tizimlari oddiy yoki murakkab bo'lishi bilan birga quyidagi xususiyatlarga ham ega. 1.

Ma'lumotlarni olish va qayta ishlash jarayoni. 2. Axborotni qayta ishlash markazi faoliyati. 3. Axborotni qayta ishlash va hisoblash xizmati. 4. Mexanizatsiyalashgan yoki avtomatlashtirilgan axborotni tashkil etish tizimlari. Bu tizimlarning hayotiyligini ta'minlash avvalo inson faoliyatiga bog'liq. Axborot tizimida inson markaziy figuradir. Shu sababli axborot uchun ishlaydigan shaxsga barcha imkoniyatlar yaratilishi eng muhim shartlardandir. Ta'kidlash lozimki, ko'rsatilgan tizimlar ba'zi qulayliklarni keltirib chiqaradi. Jumladan, tizimning holati va uning ishonarligiga javob beruvchi mas'ul kishi javobgarligini oshiradi; ob'ektning umumiyligi faoliyatini anglab etishiga ko'maklashadi; axborotning tarkibiy qismlarini to'la tushunishga yordam beradi; natijalar olishni tezlashtiradi; axborotlarning qanday qismidan, qaerda, qachon foydalanish kabilarga yordam beradi. Demak, axborot tizimi insonlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ijod uchun keng yo'l ochib beradi. Bu o'rinda axborot turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, axborot sohasidagi mutaxassislardan biri Marian Mazur **quyidagi axborot turlariga** diqqatni jalgan etadi: 1. Notrival axborot; 2. Trival axborot; 3. Ayniy axborot; 4. Teng ahamiyatli axborot; 5. Teskari axborot; 6. Natijali axborot; 7. Operatsion axborot; 8. Teskari operatsion axborot; 9. Asosiy axborot; 10. Teskari asosiy axborot; 11. Assotsiatsion axborot. (M.Mazur. Kachestvennaya teoriya informatsii. M., 1974 s 71-82). Ammo iqtisodchi olimlarimiz M. Sharifxo'jaev va Yo. Abdullaevlar boshqaruv jarayonidagi axborotlarni o'zgacha holda turlarini ko'rsatib beradilar va ular keltirgan axborot turlari biroz tushunarli hamdir:

Axborot turlari;

t/r	Turkumlari belgilari	Guruuhlar
1	Mazmuniga qarab	<ul style="list-style-type: none"> - iqtisodiy - huquqiy - sotsial - texnikaviy - tashkiliy
2	Kelish manbai va foydalanish joyiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> - ichki axborot - tashqi axborot
3	Kimga mo'ljallanganligiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> - korxona uchun - bo'lim uchun - tsex uchun - uchastka uchun
4	Barqarorlik xarakteriga qarab	<ul style="list-style-type: none"> - oddiy axborot - shartli doimiy axborot - o'zgarib turuvchi axborot
5	Foydalanish uchun tayyorligiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> - dastlabki axborot - oraliq axborot - yakuniy axborot
6	Davriyiligiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> - smenali axborot - sutkali axborot - kvartallik axborot
7	Boshqaruv jarayonidagi vazifasiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> - direktiv axborot - hisobot ko'rinishidagi axborot - hisobga olish bo'yicha axborot - nazorat qilish bo'yicha axborot

8	Voqealarning kelib chiqishini aks ettirish vaqtiga qarab	- tarixiy axborot - joriy axborot - perspektiv axborot
9	Mo'ljallanganligiga qarab	- bir maqsadli axborot - ko'p maqsadli axborot. Ya'ni ko'p muammolarni echishga mo'ljallangan axborot
10	Mustahkamlash va saqlash imkoniyatiga qarab	- og'zaki axborot - yozma axborot - ovozli axborot - tasvirli axborot
11	Muhimligiga qarab	- o'ta muhim axborot - muhim bo'lмаган axborot
12	To'liqligiga qarab	- to'liq, kompleks axborot - to'liq bo'lмаган axborot
13	Xarakteriga qarab	- individual axborot - universal axborot
14	Ishonarliligiga ko'ra	- ishonchli axborot - ehtimolli axborot

Axborot turlarining keng qirrali ekanligini ushbu guruhanishdan ham ko'rayapmizki, buni yanada uzaytirish mumkin. Chunki bu ko'rinish

boshqaruv sohasini qamrab olgan. Aslida bunday axborot turlarini inson faoliyatidagi boshqa jarayonlarida ham aks etishini e'tirof etish kerak. Axborot tizimi ilmiy ijodning faqat boshqaruv sohasidagina emas, balki inson faoliyatini badiiy, tasviriy, umuman yashash uchun zarur bo'lgan barcha tomonlarini ham qamrab oladi. Demak, barcha sohalarda axborot turlari bo'lib, ular o'zlarining ma'lum bir xususiyatlariga ega.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Globalizatsiya, demografiya, umumbashariy muammo, urbanizatsiya, energetika muammlesi, terrorizm, ekologiya, axborot, kibernetika, axborot kutubxona, axborot turlari.

Mavzuga oid savollar:

1. Globallashuv nima?
2. Umumbashariy muammolarni tushuntiring.
3. Axborot turlari mohiyatini ayting.

XII bob. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi

Hozirgi zamон ilmiy tadqiqotlarida ijodiy faoliyat ahamiyatining kuchayishi

Ma'lumki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot insonlar faoliyati, ularning turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan. Respublika hukumatining mazkur sohalarda qator tadbirlarni amalga oshirishida ijodkor xodimlar talab qilinadi.

Ilmiy ijod metodologiyasi kursi magistrantlarni faqat ilmiy jarayonlarni tushunish uslublarini bilish, ijod qilishga undabgina qolmaydi. Balki tashabbuskor, ilg'or fikrlaydigan shaxslar faoliyatini ham shakllantiradi. Ularga mazkur sohalarning qirralarini va muammolarini tushuntiradi. Demak, iqtisodiy sohalarda ijodkor, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislar etishtirishga o'z hisssasini qo'shadi. Ming afsuslar bo'lsinkim, iqtisodiy jarayonlarni ham to'g'ri tushunmaydigan, uning rivojlanishi natijasida qanday yutuqlarga erishish mumkinligini sezmaydigan rahbarlar yo'q emas. Binobarin, ular iqtisodiy sohalardagi ilmiylikni ham tushunmaydilar. Ular iqtisodiyotda ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi haqida o'ylab ham ko'rmaydilar.

“Bugungi kunning eng muhim vazifasi,- deb ta'kidlagan edi, I.A.Karimov, - Hayotimizning barcha sohalarida, ayniqsa, boshqaruvda respublika miqyosida, viloyat, shahar, tuman, qishloq va mahallalarni boshqarishda, tarmoq bo'g'inlarini idora etishda yangicha fikrlaydigan, qiyin damlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan, hayot bilan hamqadam yurishga qodir, imoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirishdan iboratdir”. Ha, ushbu xislatlarga ega bo'lish uchun ish jarayonida qanday uslublardan foydalanish kerak, degan savol ko'ndalang bo'lib turadi. Demak, hozirgi davr iqtisodiyoti, metodologiyasiz ilmiy bo'la olmaydi. Metodologiya nima ekanligini oldingi bo'limlarda aytib o'tgan bo'lsak-da, aynan iqtisodiy sohada u qanday namoyon bo'ladi va u nimalarni talab qiladi, endi shular ustida oz bo'lsa-da, to'xtalamiz.

O'tmishdagi buyuk allomalar o'zlarining ijodlarida u yoki bu manbaga, tarixiy jarayonlarga va xalq merosiga suyangan holda yangiliklarni kashf etganlar. Aniqrog'i hayotdagi, turmush tarzidagi qarashlar, uslublar, tafakkur tizimlaridan foydalangan holda ob'ektni tasvirlaganlar va xulosalar chiqarganlar. Shu sababli ham ularning xulosalarini, kashfiyotlarini inkor etib bo'lmaydi. Demak, iqtisodiy soha ham bundan istisno emas.

Iqtisodiy sohalar bilan shug'ullanadigan har bir tadqiqotchi ham o'tmishdagi iqtisodiy qarashlar, kuzatishlar, uslublar, tafakkur hosilalariga suyangan holda ish olib borsalar, yaratgan ta'limotlari hayotdan abadiy o'rinni oladi. Zero, ana shunday yondashishning o'zi metodologiyadir. Metodologiya turli chig'iriplardan o'tib, qiyinchiliklarga bardosh beradigan uslublar yig'indisi sifatida tan olingen ta'limotdir. Chunki, u o'zining fanda tutgan o'rni bilan farqlanib turadi. Ilmiy ijodga qanday yondashish kerakligining yo'lini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, metodologiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kalitini beradi. Metodologiyaga asoslanib, O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini yangi bosqichga ko'tarish mumkin. Bu holat fan rivojlanishini qamrab oladi.

Fan rivojlanishi metodologiyaga bog'liq. Binobarin, respublikadagi muhim yo'naliш – iqtisodiy soha fan taraqqiyotisiz rivojlanmaydi. Fanning ham rivojlanishi insonlar, ijodkorlar faoliyatiga bog'liq. "Fanning zamon talablari darajasida taraqqiy topishi uchun mening nazarimda, quyidagi muhim omillar zarur. G'oya, moddiy asos, tegishli sharoit, fikr, tafakkur erkinligi.

Ilmg'a, ijodga, kashf etishga intilish – bu oliyanob intilishdir. Hozirgi sharoitda ishbilarmonlar, savdogar va tadbirkorlar topish – tutish jihatidan ilm-fan va madaniyat sohasi kishilaridan o'tib ketgani sir emas. Mayli, bozor iqtisodiyoti busiz bo'lmaydi. Savdo-sotiq, biznes kerak. Lekin fan, ijod ularning soyasida qolishiga biz yo'l qo'ya olmaymiz. Chunki, mamlakatning iqtisodiy qudratini, uning ertangi kunini, boringki, taqdirini ham provard natijada aql-zakovat, ma'naviyat hal qiladi. Zero, ilmg'a intilish yo'qolsa, fan taraqqiy etmaydi, ilm-fan rivojlanmasa – jamiyatning kelajagini tasavvur etib bo'lmaydi. Bu haqiqatni barcha teran his qilmog'i darkor (I. A. Karimov.

Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. –T.: O'zbekiston, 1996. 88-bet). Ushbu fikrlardan ko'riniib turibdiki, fan, ijod izlanish iqtisodiy sohalar chambarchas bog'lanib ketgan. Bu bog'lanishlarning o'zagini topish va shu asosda magistrantdan kelajakda ham izlanishini davom ettirishini talab etiladi. Bu ancha murakkab jarayon. Ayniqsa, iqtisodiyotning moliya, bank, kredit, audit sohalarini boshqarish yildan yilga murakkablashib bormoqda. Ana shuning uchun ham izlanuvchi metodologik jihatlar bilan shug'ullanishi zarur. Iqtisodiyotda metodologiya muayyan maqsadga erishmoq uchun qanday vositalar qo'llanilishi haqida izlanuvchiga ma'lumotlar beradi. Metodologiya mazkur maqsadga erishishning "baho"sinи ham belgilashda yordam beradi, xabar qiladi. Biroq bu keng qamrovli bo'lib, izlanuvchi uning o'ziga tegishli tomonlarinigina olishi zarur. Aks holda "xabar"larga "ko'milib" qolib o'z yo'lini topa olmay qolish mumkin. Haqiqiy izlanish mavjud narsa va hodisalar haqida olib boriladi, taxminiy narsa va hodisalar rad etiladi. Ilmiy izlanishda inson uchun zarur va ahamiyatli bo'lgan haqiqat izlanadi: izlanayotgan dalil to'g'ri va umumahamiyatga egaki, iqtisodiy fanlar sohasidagi uslubiy jihat ilmiy dalil, o'z maqsadiga erishish uchun barcha insonlar tomonidan ham to'g'ri deb topilishi kerak.

Kimdir iqtisodiy fanlar uchun metodologiyaning ahamiyati yo'q desa, u yirik xatoga yo'l qo'yadi. Bilamizki, iqtisodiyotda ham son-sanoqsiz muammolar bor. Ular ba'zida biri ikkinchisini taqozo etadi, inkor qiladi, ziddiyatlarga duch keladi, chekinishlarga to'g'ri keladi. Bu muammolarni echish metodologiyaga bog'liq.

Davlatning fan va iqtisodiyot sohasidagi siyosati

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng o'ziga xos va mos rivojlanish yo'lini tanladi. Sobiq ittifoq davridagi boshqarish talabga javob bermay qoldi. O'zbekistonni jahonga namoyon qilish, axborot va iqtisodiy jihatdan chetlashtirish hollariga barham berish, jahon hamjamiyatining boshqa mamlakatlari qatorida teng bo'lib olish sari intilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu sohada ma'lum yutuqlarga erishildi. Turmush tarzimiz hayotimizni jamiyatimizning asosiy tamoyillarini

va davlatimizning siyosiy, ijtimoiy, huquqiy iqtisodiy tuzilmalarini hal qiluvchi, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, erkin demokratik kelajagimizni aniq belgilab bergan asosiy qonun – Konstituttsiyamizni qabul qildik. Iqtisodiy yo’nalishlarni belgilashda respublikamizning o’ziga xos turmush tarzi, shart-sharoitlari va xususiyatlari, xalq an’analari va urf – odatlari har tomonlama hisobga olindi. O’zbekiston tanlab olgan yo’l respublika va uning xalqi manfaatlariga nihoyatda mos keladigan ijtimoiy jihatdan yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir. Iqtisodiy islohotlar siyosiy manfaatlarga bo’ysundirilgan mamlakatlarda iqtisodiyot batamom barbod bo’lishini hayot tasdiqlagan. Shunday bo’lsa xalqning ahvoli og’irlashadi. Ziddiyatlar kuchayadi. “Biz iqtisodni har xil siyosiy mafkuradan ustun qo’yib, shu sohada bo’lgan muammolarni hal qila borib, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaymiz. Butun jamiyatimizni yangilash asosini va inson uchun munosib shart-sharoitlar yaratyapmiz.

Iqtisodiy islohotlarni o’tkazishga yangicha yondashuvlarni hayotning o’zi taqozo etyapti. Iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqurroq ifoda etish, ularning hayotiy zarurligini aniq ravshan anglab etish lozim. Respublikada har bir rahbar, har bir xodim ilg’or fikrlovchi har bir odam islohotlar g’oyasi bilan yashashi lozim”¹.

Demak, iqtisodiy islohotlarni asosiy tamoyil va g’oyalarini tushunish va tushuntirish fan rivojiga uni amaliy faoliyatga fandagidek, tatbiq etilishiga bog’liq.

Iqtisodiy islohotlarni, vazifalarni amalga oshirishda mamlakat uchun quyidagi sohalar uzluksiz ustuvor yo’nalishlar qilib belgilangan:

- ta’lim va madaniyatni rivojlantirish va isloh qilish;
- aqliy va ma’naviy salohiyatini mustahkamlash;
- aholini ijtimoiy himoya qilish.

Bularni, umuman, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o’tish, birinchi galda kadrlar imkoniyatiga, ularning kasb jihatdan tayyorlanganligiga bog’liq. Ta’lim beradigan fanlar darajasini

¹ I.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2.-T.: O’zbekiston, 1996. 4-bet

yuqori pog'onaga ko'tarish davr talabidir. Bilimdonlik, yuqori madaniylik, yutuqlar garovidir. Fan kashfiyotlari havo va suvdek zarurdir. Shu sababli ham aytilishi lozimki, davlat bundan buyon ham iqtisodiyotda, eng asosiy ustuvor tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Chunki mamlakatimiz kelajagi ana shu tadqiqotlarga bog'liq. Demak, ilmiy ijod qilish, izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar faoliyatining moddiy bazasini rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish, aloqalarni mustahkamlash zarur. Buning uchun iqtisodiyotning amaliy ehtiyojlariga yaqinroq bo'lismay, samarali natijalarni beradigan ixcham, izlanuvchan ijodiy jamoalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy sohadagi fan va ilmiy tadqiqotlarning doimiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlardan biri bu ta'lim sohasini chuqur isloq qilishdir. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunining ishlab chiqilishi ayni muddao bo'ldi. Qonunning 3-moddasida "Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi" deb aytilishi bilan birga, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari ham ko'rsatib berilgan.

Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik tavsifda ekanligi; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; umumiyligini o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi: akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriligi; ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo'lismayni va iste'dodni rag'batlantirish; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish va boshqalar. Bu ko'rsatilgan tamoyillar ta'lim tizimidagi islohotlardan bo'lib, sobiq ittifoq ta'lim tizimidan tubdan farq qiladi.

Bu tamoyillar respublikada iqtisodiy sohalarni rivojlantirishga bevosita ta'siri bo'lmasa-da, lekin iqtisodiy sohada kadrlar tayyorlashning asosi uchun zamin yaratadi. Ushbu tamoyillar asosida Oliy o'quv yurtlarini tubdan qayta qurish boshlandi. Yaqin yillargacha iqtisodiyotda ishlaydigan xodimlar faqat Toshkent va Samarqandda tayyorlansa, hozirgi paytda barcha

viloyatlarda iqtisodiy fan va ta'lim markazlari tashkil etilgan. Zero, zamon talabiga mos mutaxassis tayyorlash zarur ekan, asosan, birinchi o'rinda o'quv yurtlarini shakli, qiyofasi va tarkibi, moddiy bazasi ham zamonaviy bo'lishi talab etiladi. Ta'kidlash lozimki, 1997 yilgacha 300 dan ortiq yangi turdag'i ta'lim muassasalari ochilgan edi. Oliy o'quv yurtlari qoshida 46 ta litsey tashkil etilgandi. 800 dan ortiq o'quvchilar chet ellarda ta'lim olib qaytgan edilar. Ko'pgina o'qituvchilar xorijiy mamlakatlarda malakalarini oshirib keldilar. Hozirgi kunda ana shu olib borilgan tadbirlar natijasida iqtisodiy sohada minglab xodimlar unumli mehnat qilmoqdalar.

Usullar, metodologiya va iqtisodiyot

Usullar, metodologiya va iqtisodiyot haqida so'z yuritganda shu narsani unutmaslik kerakki, metodologiya barcha fanlar uchun eng umumiyl uslubdir. Demak, iqtisodiyotda ham xususiy uslublar mavjud. Nafaqat iqtisodiy sohada, balki barcha fanlarning o'ziga xos uslublari bor. Umuman, tadqiqot olib borish uchun son-sanoqsiz uslublar bor, desak xato bo'lmaydi. So'z, ana shu son-sanoqsiz uslublardan iqtisodiy sohalar uchun qaysilarini tanlab olish kerakligi haqida bormog'i lozim. Faylasuf Omonulla Fayzullaev ta'kidlaganidek, olam (biz uchun) bitta bo'lsa ham uni o'r ganadigan yagona usul yo'q.

Chunki olam, koinot, tirik, notirik tabiat xilma-xil bo'lganligi uchun ham uni bir yoki bir necha usullar bilan o'r ganish kifoya qilmaydi. Olamni tadqiq qilish uchun turli tomondan yondashgan holda tahlil qilish kerak. Buning uchun turli uslublar borligiga murojaat qilamiz. Bu o'rinda magistrantlarga usullarning xilma-xilligini ko'rsatish maqsadida O.Fayzullaevning usullar haqida xulosalarini to'liq keltiramiz:

Umumiy usullar:

Empirik. Nazariy. Induktsiya-deduksiya. Analiz-sintez. Tarixiy-mantiqiy. Qiyoslash. Analogiya. Tipologiya. Sistema. Klas-sifikatsiya. Formallashtirish. Ideallashtirish. Konkret-lashtirish. Umumlashtirish. Abstraktlashtirish. Aksioma-lashtirish. Teoremalashtirish. Lemmalashtirish. Printsiplash-tirish. Gipoteza. Modellashtirish. Kutubxona va internetdan foydalanish. Maktab va repititorlik. Fikran eksperiment. Miqdoriy eksperiment. Reduktsiya. Ekstra interpolyatsiya. Kompleks-sistemalash. Bashorat. Tanqid-maqtash. Yordam. Pedagogik Evristika. Algoritmlash va hokazo. Bu usullar hamma fanlarga daxldor bo'lidan, ularni falsafiy usullar, deb ham aytish mumkin.

O'rtacha umumiy usullar:

Matematik. Iqtisodiy. Statistik-ehtimoliyot. Korrelyatsiya. Programmlash. Kriminalistik. Balans. Instruktsiya. Grafik. Golografiya.

Leksikografik. Topografik. Kartografik. O'yin nazariyasi. Graflar nazariyasi. Garmoniya. Genealogiya va boshqa usullar.

Maxsus usullar:

Fizikaviy usullar: Optik. Akustik. Spektral. Radiatsion. Fure-spektroskopiya. Rentgen. Radiolokatsiya. Elektrofizik. Issiqlik-fizik. Lazer va boshqalar.

Kimyoviy usullar: biokimyoviy. Rentgenfaza analizi. Kataliz. Geterogen. Tseolit va hokazo.

Biologik usullar: Litologik-Gistologik. Evolyutsion. Genetik. Immunologik. Geobotanik. Introduktsiya-akklimitatsiv va hokazo.

Hozirgi kunda jahon miqiyosida yaratilgan ilmiy tadqiqot va bilish usullarini sanab o'tish - maqsadimizning o'zi emas. Ularning borligini eslatish yosh olimlarimizga yordam berishdir. Darhaqiqat, ilmiy tadqiqot usullarini hisoblab chiqish, ularning effektlarini aniqlash - juda qiyin masala.

Misollar

Tarixda va hozirgi kunda jahon miqiyosida yaratilgan ilmiy tadqiqot va bilish usullarini sanab o'tish foydali. Lekin, ulardan amalda qanday foydalanilyapti va biz ham kelgusida qanday foydalanishimiz mumkin, - bu bizning maqsadimiz. Shu vazifa bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy-tekshirish institutlarida ishlatalayotgan usullar bilan tanishib chiqdik.

Yuqorida keltirib o'tilgan usullar tasnifini qaytarmaslik uchun, usullarni 4 ta toifaga bo'ldik: 1) strukturalarni tadqiq qilish usullari, 2) xarakteristikalarini aniqlash usullari, 3) sifatni oshirish usullari, 4) modellash usullari.

Strukturalarni tadqiq qilish usullari:

Analitik usul bilan sonlar nazariyasi, funktsiyalar nazariyasi, hisoblash matematikasi masalalari echildi. Fredgolm singulyar integral tenglamalari sistemasi echimi topildi. Kaltsiy sulfat-fosfatning moddiy tarkibi aniqlandi. Korrelyatsion analiz yordamida sug'oriladigan erlar modeli yaratildi. Paxtani sotishda ishlatiladigan yangicha hisob-kitob usuli. Reaktsiyalarning oxirgi holatini analiz qilish usuli yaratildi. Atsetoliz usuli bilan g'o'za tabiat o'r ganildi. Biodegradatsiya usuli ishlab chiqarildi. Vizualizatsiya usuli buniyodga keldi. Texnoprogrammlash desorbsiya usuli zanglamaydigan metallardan gazni siqib chiqarishda ishlatildi. Oqsillar bilan membranalar o'zaro ta'siri flyuorestsent zondlar usuli bilan tekshirildi. Molekulalarni ionizatsiya qilishning uchta usuli o'y lab chiqildi. Pozitron davrini o'lchash usuli yaratildi. Inkrustatsiya usulidan foydalanildi. Chigit oqsillari peptid usuli bilan o'r ganildi. Yadroviy chuqur profillashtirish usuli kuchli izotop effekti aniqlandi. Ekinlarni foydali joylashtirishning yangi usuli ishga tushirildi. Paxtachilikda katalitik parchalash usuli qo'llanildi. Biologik tizimlarni tadqiq qilishda radioanalitik usul yaratildi. Oltin va kumush tarkibida qo'shimcha moddalarni aniqlashda radioaktivatsion usul qo'llanilmoqda. Alkilaminni sintez qilish usuli kashf etildi. Kimyoviy rafinlash usuli ishlab chiqildi. Qurt-qumirsqalar feromontlarini sintez qilish usuli buniyod etildi. Elektron nurlanish o'zaro ta'sirini optik va elektron spektros-kopiyasi usuli bilan o'r ganildi. Spektrografik va xromatografik usullari yordamida defoliantlar tekshirildi. Fotometrik usul ancha ish berdi. Lazer rezonans flyuorestentsiya usuli bilan izotoplarning radiusi aniqlandi. Paxtachilikda embriogeniz masalalari elektron-mikroskop usuli bilan tadqiq qilindi.

Xarakteristikalarini aniqlash usullari:

Pozitronlar annigilyatsiyasi usuli bilan paxta tolasi makro mustahkamlik xususiyati birinchi marta o'rganildi. Kichik daryolar ekosistemasini qanday tiklash va foydalanish usuli ishga tushdi. Chinordan to'kilgan barglardan tokoferol olish usuli yaratildi. Geterogen kislota gidrolizi usuli bilan bir qancha mahsulot olindi. Gidrodinamik usul yordamida molekulyar xarakteristikalar aniqlandi. Blotti usuli qo'llanildi. Geotermik usul bilan zilzilani oldindai aytib berish sohasida yangi natijaga erishildi. Suvsiz sistemada glikoprotendlarni deglikozilirlash usuli kashf qilindi. Alyumosilikatlar ionlari tekshirish usuli ishtatildi. Regional zilzila fraktalligini aniqlash usulidan foydalanildi. Relyativistik bilishda bilimlarni yig'ish usuli yaratildi. Radioaktiv qoldiqlarni tozalashning optimal usulidan foylanildi. O'simliklarda immunitetni aniqlash usuli. Fiziologik faollik gradientining morfologik namoyon bo'lismeni aniqlovchi usul ishlatildi. Bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishga bir qancha usullar yaratildi. Qiyyosiy usul bilan bir qancha davlatlar huquqiy strukturalari, tillarining tipologik tadqiqotlari o'rganildi. Elektrigidrozarba usuli yordamida g'o'zaning xususiyatlari o'rganilmoqda.

Sifatni oshirish usullari

Gullar merosistemasini faollashtirish usuli bilan unimi o'nlab marta oshirildi. Nashani dalada yo'qotadigan biopreparat usuli ishlab chiqildi. Nikellash elektrolitlari optimal tarkibini aniqlashda sirtqi taranglatish usuli yaratildi. Ko'p fazali muhit gidromexanikasi qonuniyatidan foydalanib tuproq osti sug'orish usuli yaratildi. Gidroprivozli manipullah organining mustahkamligini oshirish usuli. Orol havzasi suvini tozalashning nazorat usullari ishlab chiqildi. Natriy volframati eritmalarini tozalash usuli.

Kingisep fosforini ishlash usuli. Tuproq sifatini oshirish yangi usullari. Chigitning sifatini oshirish usullari. Tseolit usuli tajribadan o'tkazildi. Chigitning kasallikdan qutqarish usullari. Qandlavlagini qayta ishslash kompleks usuli. Televidenie effektligini oshirish usuli yaratildi. Yuqori voltli

elektroforez usuli mukammallashtirildi. Yangi spirtsiz ichimliklar ishlab chiqarish usullari joriy etildi. Ko'kalamlashtirish va gulshunoslikda ilg'or usullar yaratildi. Yadro reaktsiyalari usuli bilan bir qancha materiallar xususiyatlari bunyodga keldi. Chigitni elektrik tok va kompozitsiya bilan qayta ishslash usuli yaratildi.

Modellashtirish usuli

1) *Matematik modellashtirish.* Metallogenetic analiz uchun ikki model tavsiya etildi: ob'ektlarning fazoviy tarqatishi modeli va ob'ektlar orasida geometrik munosabatlar modeli. Suv havzasida suvning yuqori qatlamida tasodifiy jarayonlar nazariyasidan foydalanib matematik model yaratildi. Paxta teruvchi mashina harakatining matematik modeli bunyod etildi. Ilk ontogenezning modeli. Fazoviy komponovka konstruktsiyalari matematik modeli. Boshqaruv hujatlari maketi optimallashtirish matematik model. Differential tenglamalar sistemasini echishning modeli. Filtrlash modeli. Gidrokimyoviy jarayonlarni matematik modeli. Har xil sistemalar dinamikasining matematika modeli. Statistik modellarning turg'unligi tatqiq etildi. Paxta terish apparatida tola va chigitning zararlanishining ehtimollik modeli. Stoxastik differentialsal tenglamalarga asoslangan tasodifiy tebranishlarning miqdoriy modeli. Hisoblash matematikasi va texnikasining zamonaviy modellari, informatika texnologiyasining oxirgi modellari ustida ish olib borilmoqda.

2) *Fizik modellash.* Tog' jinslarining transportlash jarayonini modellash. Makromolekula deformatsiyasi va destruktсиysi mexanizmlarining modeli. Nuklon zarbasida kvark-glyuon modeli. Ekvivalent elektr o'tkazishni aniqlash. Seysmik ta'sirda o'zaro ta'sir modeli. Suyuqlikda generatsiya qilish modeli. Ko'p darajali tarqatilgan ekspert sistemalarini avtomatashtirish modeli yaratildi. Yozib olish, modeifikatsiya va ko'chirib yozish modeli. Hisoblash kompleksida idora qilish situatsiyalarini modellash. Chuqr fokusli zilzila geodinamik modeli. G'o'zaning ilk rivojlanish modeli. Murakkab strukturali tuproqda

namlik, issiqlik va tuzlarning o'tish modeli. Salbiy geotropizm effektini ifodalovchi model.

3) *Struktura - funktsional modellar*. Dispatcherlik boshqaruvida axborotlarni ishslash modeli transportda ko'p ishlatilmoqda. Informatsion texnologiyalari asosida ilmiy-texnikaviy rivojlanish modellari yaratildi. Agrosanoat ishlab chiqarishda oldindan bilish modeli. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda talablarning o'zgarib turishini hisobga oladigan kontseptual model ishlamoqda. Byudjetga kirimni operativ oldindan aytish adaptiv modeli. Paxta terish mashinalari uzellari va agregatlarini boshqarish modeli. Kardiologiyada ekspert modeli. Algoritmlar xarakteristikalarini tadqiq qilishning dialog modeli. Energoob'ektlar strukturasini aniqlovchi model. "Dvigatel-nasos-truboprovod" sistemasining umumlashtirilgan dinamik modeli kashf etildi. Strukturalarni analiz qiluvchi tashqi model. Elektro texnika asboblarining ish qobiliyatini topuvchi mantiqiy model yaratildi. Oldindan aniqlash vositasi bo'lgan makroekonomik model ishlatilmoqda. Iqtisodiy siyosatni modellashtirish modeli yaratilmoqda¹.

Ishonchimiz komilki, magistrantlar keltirilgan usullarga qiyoslash natijasida o'zlarining tadqiqotlari jarayonida yangi usullarga duch keladilar va o'zlar ham yangi usullarni kashf qiladilar.

Metodologiya ana shu usullarni boshqaradi, ularga ta'sir etadi, boyitadi, o'z navbatida o'zi ham mazmunini boyitadi. Metodologiyani yanada yaxshiroq tushunish uchun quyidagi fikr va mulohazalarga diqqatni jalb etamiz.

Ma'lumki, metodologiya bu – dialektikadir. Narsa va hodisalarni nisbiy bilish shu metodologiyaga bog'liq. Metodologiya eng umumiyligi, unversal usuldir. U o'zining eng umumiyligini quyidagicha namoyon qiladi. Masalan, bug'doy o'simligini olaylik. Bug'doy o'zining mazmuni, sifati, shakli, voqeligi, tuzilishi, miqdori, ziddiyatlariga ega. Mazmun, sifat, shakl, voqelik, tuzilish, miqdor, ziddiyat va boshqalar esa falsafiy kategoriyalardir. Ushbu falsafiy kategoriya yoki tushunchalar orqali bug'doyning turli xususiyatlarini o'rGANISHGA kompleks yondashiladi.

¹ O.Fayzullaev. Falsafa va fanlar metodologiyasi. –T.: 2006, 58-62 betlar.

Shunday yondashilganda bug'doy haqida to'la ma'lumot olish mumkin bo'ladi. Xo'sh, bu iqtisodiyotda qanday amalga oshadi, degan savol tug'iladi. Demak, iqtisodiyotda ham metodologiya – ya'ni dialektikadan shunday maromda foydalilanadi. Masalan, tovarning tannarxini aniqlash uchun uning miqdorini, sifatini, shaklini, mazmunini, tuzilishini, zaruriyligini, mohiyatini va hokazolarni o'r ganilib xulosa chiqariladi. Bu holatlar xususiy usullar yordamida amalga oshiriladi. Xulosa shundan iboratki, metodologiya iqtisodiy sohalarga har tomonlama yondashib o'r ganishni taqozo etadi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Nazariya, kashfiyat, bilish, milliy va umuminsoniy qadriyat, ijod va ijodkor, iqtisodiyotda islohotlar, umumiyl usullar, maxsus usullar, o'rtacha umumiyl usullar, sifatni oshirish usullari.

Mavzuga oid savollar:

1. Davlatning iqtisodiy sohadagi siyosatini tushuntiring.
2. Ilmiy ijod bilan iqtisodiyotning aloqadorligini izohlang.
3. Modellashtirishni tushuntiring.
4. Qanday usullarni bilasiz?

Z. Davronovning voqelik haqidagi fikrlaridan namunalar

Erni qanchalik depsinib bossang ham, faqat u minnat qilmaydi, xolos, boshqalarni bilmadim...

Nog'orani chertmasang ovozi chiqmaydi...

Haqiqiy olimlar asalaridek mehnat qiladilar, chunki ular ham asalari kabi qiynalib dalil to'playdilar va boshqalarni bahramand qiladilar.

Haqiqiy olim munozaradan qochmaydi, mabodo munozarada engilsada, jahli ham chiqmasdan o'z fikrida sobit qoladi.

Biz yashayotgan olam go'yoki ochiq bir ummon, u aslida esa to'ntarilgan qozondir. Bu qozondan chiqib, xolisona yashashning o'zi gumon.

Qor oppoq bo'lsa-da, u sovuqdir.

Butun olam sir-asrorlarini qalbingga joylasang-da, undan bahramand bo'lmasang ne foyda.

Olamda shunday bir lazzat borki, u barcha lazzatlardan ulug'roqdir. Bu ilm orqali erishgan hurmatingdir. Chunki u jismingdan uzilgan ruhiyatining bir bo'lagi bo'lib, abadiy shod qiladi.

Atirgul o'z nafosati va taratayotgan xushbuy hidi bilan insonni qanchalik xushnud etmasin, u baribir xazonga aylanadi va oyoq osti bo'ladi.

Hayvonlarda aql yo'q deydilar, ammo ular ba'zi odamlardan ma'lum sohalarda aqlli roqdir.

Osmondag'i yulduzlarni oddiy ko'z bilan sanab oxiriga eta olmaganingdek, inson qalbini ham tushunib oxiriga eta olmaysan.

Hayotning ikir-chikirlari-yu, falokatlaru-xursandchiliklarini qanchalik ko'p bilganing sari, o'z umringning egovi bo'lib boraverasan. Bu achchiq haqiqat.

Oshqozoningga mabodo igna tushib qolsa, og'zimdan chiqaraman deb ovora bo'lma, u og'zingdan qaytib erga tushmaydi. Xato qildingmi, uni to'laligicha o'z holiga qaytara olmaysan.

Daftarni rangi oq, unga turli rangda yozish mumkin, hayot ham shunday, unda o'g'ri ham, to'g'ri ham yashaydi.

Pul va boyligim bor deb depsinma, bu narsalar sening oh degan so'zing, balki nolang bilan yo'qqa chiqadi, binobarin, boyliging kimgadir nasib qiladi.

Bu hayotdan boy ham, kambag'al ham o'tadi, bular o'rtasidagi qaramaqarshilikning oldini olish uchun butun faoliyatimni va umrimni sarflagan bo'lardim. Afsuski bu kamlik qiladi.

Inson hamma vaqt o'zini-o'zi izlashi, tadqiq qilishi lozim.

Vo ajab! Daraxtlar gullaydi, o'zidan shoxlar chiqaradi, meva beradi, demak insonlar ham xuddi daraxtlarning o'zlaridir.

Yaxshilikning narvonlari shunchalik ko'pki, ovora bo'lma, hammasini bosib oxiriga eta olmaysan.

Hayot - bu cheksiz ummondir.

Engil toshni olib otsang uzoqqa ketadi, lekin nishonga tegmasligi mumkin, og'ir tosh uzoqqa bormasa-da, markazga tegadi.

Menga qadrsiz ming so'mni keragi yo'q, qadri bo'lsa bir so'm ham etadi.

Hayotda shunday ota-onalarni ko'rdimki, ularga Olloh bergen farzandlar hayf, shunday farzandlar borki, ularga ota-ona hayf.

Bilim xazinasiga ega bo'lsang-u uni ko'paytirib va sarflab turmaslik, bu falokatdir.

Insonlar borki hayvonlarga, hayvonlar borki insonlarga o'xshaydilar.

Aqlilik o'chmasidan, aqlsizlikni o'chirish lozim.

Tabiat va jamiyat hodisalari o'zlarining yashirinishlarini istaydilar shekilli va yashirinib yotadilar ham. Aks holda bilishning hojati yo'q edi.

Ey, inson, hayotiy faoliyatingda sendan pinhona holda norozilar bor. Ular bo'ldi, bo'lajak, ammo sen o'zingni ularning o'rniga qo'yib ko'rishni unutma. Nega, sen ham norozisan?

Inson Olloh tomonidan jismonan butkul yaratilgan. Qani endi uning yuksak ma'naviyati ham butkul bo'lganda edi.

Daraxt erdan unib chiqqan ekan, uning shox-shabbalari turli yo'naliishlarni tanlamay o'sadilar. Inson va hayot ham shu kabitdir.

Insonlar o'rtasida, ba'zi insonlar haqida «tagi past», «tagi toza» degan so'z birikmalari bor. Bunday holda insonlarni tabaqalarga bo'lish, menimcha noto'g'ri. Sababi, barcha ham, hatto payg'ambarlar ham Ollohnинг

bandasidir. Olloh uchun hamma bir insonki, u tabaqalanib ... Zero, insonlarni «tagi past», «tagi toza» bo’lishi ularning ma’naviy shakllanishiga bog’liqdir.

Hayotda bir-biriga o’xhash narsa va hodisalar o’ta bisyor. Masalan, dur va do’lni olib qarasangiz ikkalasi juda o’xhash. Shunday bo’lsa-da, ularning biri bezak bo’lib asrlar davomida o’z holicha qoladi, ikkinchisi esa erib oyoq ostida bir zumda yo’q bo’lib ketadi. Voajab!!! Bu arzimagan o’xhashlik insonlarda ham mavjud, kimdir shoh yoki olim bo’lib tarix sahnasida uzoq saqlanadi, kimdir izsiz yo’qolib ketadi.

Inson qanchalik ulg’aygan sari, uning do’stlari shunchalik kamaya boradi.

Insonlar o’z uyidagi gilamlarini qanchalik tozalamasinlar, u gilamligicha qolaveradi.

Yaproqlar erga tushib oyoq osti bo’ladilar. Bunday bo’lganidan ko’ra daraxt shoxida qovjirab qolganlari ma’qul.

Vaqti kelganda suv ham jon og’rig’ini sezadi. Jizillab ovoz chiqaradi... Butun mavjudot ham.

Nodonlar ham hayot maktabidir.

Nodonlar o’zlarini donolardan past tutgan emaslar.

Oltin qanday holda, qaerda qorilib yotishidan qat’i nazar, uni insonlar baribir ajrata oladilar.

Sichqon o’z nafsi orqasida qopqonga tushadi va halok bo’ladi.

Salohiyati past inson salohiyatli insondan o’rganish o’rniga uning kamchilagini axtara boshlaydi.

Pul va oltin borki, insonlar o’rtasida tinchlik barqaror bo’lmaydi.

Ozuqa va ovqat deb oshqozoningga hamma narsani kirgizaverma. U dahshatga olib boradi.

Chiroq yoki quyosh yoritadi deb undan o’ta ko’p ham bahramand bo’laverma, ularga yaqinlashgan sari kuydirishini unutma.

Ba’zi odamlarning tubanligidan “folchi”, “astrolog”, “ekstrasens” va turli hil firibgarlar paydo bo’lgan.

Qarg’a qora bo’lsa-da, oppoq qordan darak beradi.

Buyuklik va ulug’likka intilish hammada bo’lgan tug’ma hususiyat.

Yorug’ va lazzatli kunlaring me’yoridan oshib ketganda, qorong’u damlar kutib turganini ham unutma.

O’simliklar kislorod chiqaradi, bu to’g’ri, lekin ulardan zahar ham chiqishi muqarrar.

Inson o’z hayotidagi ikki lahzadan norozidir: biri go’daklik yoki o’smirlik bo’lsa, ikkinchisi qariyalikdir.

Kunduz kun qanchalik uzoq bo’lsa-da, baribir qorong’ulik va zulmatga olib boradi.

Inson yalang’och tug’ilgani uchun bo’lsa kerak, nuqlu yalang’ochlikka intiladi.

Tuproq shunday bir ashyoki, u o'ldiradi ham, yutadi ham, yo'q ham qiladi. Ammo u lazzat makonidir ham.

Mol-mulk, boylikdan va mavqedan qoniqmaganda o'ksinish yaxshilar ishi emas, chunki bular yaxshilik manbai emas.

Ig'vo va manfaatlar tayoqning ikki tomonidir. Zero, ularning ikkisi ham umrning egovidir.

Qiyinchilik chekib inson qanchalik hur bo'lsa ham, qalbida ro'y bergan va o'rinni olgan qiyinchilik iztiroblari yo'qolmaydi.

Badjahillik va mehr-muhabbat qarama-qarshi tomonlardir. Bu holatlar har bir insonda mujassamdir. Ularsiz hayotni tasavvur qilish qiyin.

Barcha sohada ro'y beradigan mag'rurlik vaqtinchalikdir.

Aqling bilan olamni zabit etsang ham, o'z turmushingni zabit eta olmaysan.

Oila va jamoada yashash ham farz, ham qarz. Ammo inson tanholikni qo'msagan payt ko'proqdir.

Hayotda mo'tabar kishilarni o'zimiz paydo qilamiz-u, lekin ularni tosh otib majaqlashga tayyormiz.

Hayot chigalliklari to'g'risida ko'plab fikrlar mavjud. Aslida inson ruhiyati hayotdan ko'proq chigaldir. Binobarin, chigalliklarni insonning o'zi yaratadi.

Farzandlar aksariyat holda o'z ota-onalarini eskilik va qoloqliklarda ayblaydilar, lekin ayni paytda o'zlari ham shu holga tushushlarini unutib ish qiladilar.

Faqat kitoblar orqali xulosa chiqarib olim bo'lganlar yuzaki olimlardir. Hayot chig'iriqlarini tushunib etmagan, ularga bardosh bermagan olimning xulosasi o'tkinchidir. Bu jarayonlarning ikkalasini tushungan holda olim bo'lgan inson barhayot bo'lishga haqlidir.

Safarga chiqar bo'lsang, yo'ldoshing xulq-atvorini o'yla ...

Rahbaring bilan sayohatda bo'lsang haqiqat izlama....

Daraxt bitta, mevasi mingta.

Qalampir achchiq bo'lgani sababli, uzoq vaqt davomida buzilmaydi, chunki kushandasini kamdir.

Ba'zi sohadagi g'amginliging umringga umr qo'shadi.

Qalbing dil daftarini ochishga imkon yaratadi. Lekin ana shu daftarning o'zi qalbingni iztirobda qoldiradi.

Hatto, mushuk ham o'z axlatini ko'mib ketadi.

Quyosh tevaragida sayyoralar tinmay harakat qilgani singari lagarbardorlar o'z rahbari tevaragida aylanadi va harakat qiladi.

Ba'zi farzandlarning faoliyatini ko'rib, farzand nomi senga hayf deb baqirging keladi.

Mehnat yuksak ma'naviyat sandig'idir.

Ba'zi qushlar o'z tuxumini bosmasdan boshqa qushlar tuxumini bosib yotadilar. Oqibatsiz farzandlar ham shundaydirlar.

Begonalar uchun kuyunib xastalik orttirma, o'z jigarlarining tufayli orttirgan xastaliging etarli bo'ladi. Chunki ba'zi yaqinlaring xastalik makonidir.

Kimki hikmatli va qayg'uli so'zlar qoldirgan ekan, o'zi o'z mulohazalarining qahramonidir...

G'amgin va iztirobli damlaringda dardingga darmon bo'lмаган farzanddan yaxshilik yoki olijjanoblik kutma.

Insonlar! Farzandlaringizga shubha bilan qaranglar!

Quyosh oftobi bilan barchani bahramand qiladi. Ota ham oilada shundaydir. Lekin ming nadomatlar bo'lsinkim, ba'zi padarkush farzandlar otani bamisol quyoshligini baholamaydilar va baholamay hayotdan ko'z yumadilar. (Abdulatif, Avrangzeb, Abdulmo'min ...)

Qalampirning o'zi ham, urug'i ham achchiq, balki inson ham shundaydir! Shubhali jarayon!

Zulmatda yorug'lik bo'lmaydi, yorug'likni zulmatda hosil qiladilar, xolos.

Shafqatsizdan shafqat kutmang, chunki shafqatsizlik uning qonida mavjud, shafqatli odam shafqatsiz bo'la olmaydi. Yirtqichlar baribir yirtqichligini qiladi.

Kutilmagan hayotiy zarba, hamma dahshatlardan yomondir.

Qalbingni torlari uzildimi, u mis yoki temir emaski, eritib cho'zib ulab qo'ysang. Tiklashga urinma, kuchlaring behuda ketadi.

Ba'zi farzandlarga qanchalik ko'p mehr-u muhabbatining bag'ishlayversang, kelajakda esa, undan faqat zahar zardobini ichasan, xolos.

Taajub: tirik bo'lsang turtib so'karlar, yakson qilarlar. O'lganingdan so'ng osmon sari ko'tarlarlar.

O'tmishdagi allomalarining fikri va nasihatlarini o'qib, uqishga harakat qildim. Xulosa shu bo'ldiki, biror shaxs bu fikr va nasihatlarga to'liq rioya qilganini mutlaqo ko'rmadim, eshitmadim, sezmadim. Hamma o'zicha alloma...

Quyosh va Er o'rtasida jism bo'lmasa, soya paydo bo'lmaydi.

Daraxt qarisa ichidan mo'rt bo'lar ekan, odam qarisa belidan.

Terak qanchalik baland bo'lib o'smasin, uning mevasini inson iste'mol qilmaydi. Demak, gap faqat jismonan o'sishda emas.

Hayotda shunday damlar bo'ladiki, hatto o'z kipriklaring faoliyatidan ham nafratlanib ketasan.

Hayotda: oldin yurishni o'rganib keyin yugurishni istash kerak.

Vaqti kelganda bosh qo'yadigan paryostiq ham toshdek boshga botadi.

Daraxt niholdan o'sib chiqadi, lekin nihollikda daraxtning shox-shabbalari qancha va qanday bo'lishi noma'lumdir. Farzandlar faoliyati ham shu kabitdir.

Inson soyasi nurgagina ta'zim qiladi, xolos. U soyaning orqa yoki oldinga ketishi shu nurga bog'liqdir.

Hayotdan rozi bo'lgan va ezilib o'tmagan insonning o'zi yo'q.

Hatto daraxtlar ham hayotda chekinadilar – sovuq kelsa g'unchalari ochilmaydi.

Nur tushmagan zulmat joyda hatto giyoh ham unmaydi.

Asal bo'lmasa shakar ham kifoya.

Faoliyatingda birinchi marta yoqib qolgan narsa yoki kishi keyinchalik nafrat uyg'otishi ehtimoldan xoli emas.

Hayot lazzatdan ko'ra, la'natdan iboratdir. Bu achchiq haqiqat. Lekin bu narsani ko'pchilik ochiq e'tirof etishdan qochadi.

Ehtiyyotkorlik yoki shubhaga tushishlik bu qo'rkoqlig emas. Ikkalasi ham baxt keltirishi mumkin.

Hayotning qirralarini tahlil qila bilganlar unga loqaydroq bo'la boshlaydilar. Sababi, bu qirralarning ba'zilarini echish yoki o'zgartirish oldida ularning o'zlari ojiz bo'lib qoladilar.

Hayotdagи noxushliklar insonda johillikni uyg'otadi. Johillik esa insonni go'zallik va nafosatdan uzoqlashtiradi.

Daraxtdagi barglar qanchalik ko'm-ko'k bo'lmasin, u vaqt kelganida sarg'ayib qovjirab qoladi.

Inson eng yuqori hisoblangan balandlik – cho'qqida uzoq tura olmaydi, u yiqiladi yoki orqaga qaytishga majbur bo'ladi.

Itni fil bilan tenglashtirib bo'lмаганидек, filni ham itga tenglashtirib bo'lмайди. Hammasining o'z о'rni bor.